



ONATILI

Akademik litsey II bosqich
o'quvchilari uchun

*Til xalq, millat ruhining betakror va
hech bir zamon xira tortmas ko'zgidir.*

N. Mahmudov



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**N. S. Sulaymonova, T. X. Xoljurayev, O. S. Usmanova,
S. Y. Gazibekova, M. Yu. Karimova, S. R. Botirova,
F. X. Namozova**

ONA TILI

**litseylarning ona tili fani chuqurlashtirib o‘qitiladigan ta’lim
yo‘nalishi II bosqich o‘quvchilari uchun darslik**

Toshkent – 2023

Mas'ul muharrir:

G'. Hamroyev - pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori.

Taqrizchilar:

1. Murodova N. K. – filologiya fanlari doktori, NDPI “O‘zbek tilshunosligi” kafedrası professori.

2. Sulaymonov M. – NamDU “O‘zbek adabiyotshunosligi” kafedrası mudiri, filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

3. Sultanova S.- TATU Urganch filialai akademik litseyi ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi, “O‘zbekiston Respublikasi xalq o‘qituvchisi” sohibasi.

4. Mansurova Z.- NDPI akademik litseyi ona tili va adabiyot fani Bosh o‘qituvchisi.

ONA TILI

N.S.Sulaymonova, T.X. Xoljurayev, O.S. Usmanova, S.Y. Gazibekova,
M.Yu. Karimova, S.R. Botirova, F.X. Namozova

Annotatsiya

Mazkur ona tili fani uchun mo'ljallangan darslik o'zbek (o'z ona tili) tilida so'zlashuvchi guruhlar uchun tuzilgan bo'lib, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tavsiya qilgan namunaviy dastur va namunaviy o'quv reja asosida tuzilgan. Darslik o'quv yili davomida rejaga binoan olib boriladigan mavzularni o'z ichiga qamrab olgan. Unda barcha fanlarga aloqador ilmiy va didaktik matnlar orqali o'quvchining nutqiy kompetensiyalarni rivojlantiradigan mashq va topshiriqlardan foydalanish ko'zda tutilgan. So'z boyligini oshirish va mantiqiy savodxonlikka alohida urg'u berilgan. Mumtoz va zamonaviy adabiyot, jahon adabiyoti durdonalari hamda bugungi kundagi dolzarb mavzular bilan bevosita bog'liq matnlar o'rin olgan.

Аннотация

Данный учебник родного языка предназначен для групп с узбекским языком обучения и составлен в соответствии со стандартной программой и стандартным учебным планом, рекомендованным Министерством высшего и среднего специального образования. Учебник охватывает темы, которые будут изучаться в течение учебного года. Он включает в себя упражнения и задания, которые развивают речевые навыки учащихся с помощью научных и дидактических текстов, относящихся ко всем дисциплинам. Особое внимание уделяется развитию словарного запаса и логической грамотности. Есть тексты, имеющие прямое отношение к классической и современной литературе, шедеврам мировой литературы и актуальным вопросам современности.

Annotation

The textbook for the native language is designed for groups speaking Uzbek (native language) on the basis of the standard program and the standard curriculum recommended by the Ministry of Higher and Secondary Special Education. The textbook covers topics that will be covered throughout the school year. It involves the use of exercises and assignments that develop students' speaking skills through scientific and didactic texts related to all disciplines. Emphasis is placed on vocabulary development and logical literacy. There are texts directly related to classical and modern literature, masterpieces of world literature, as well as current issues

1-2-§. Sintaksis. So‘zlarning grammatik bog‘lanishi. Teng va tobe bog‘lanish

Nutqim to‘g‘ri bo‘lsin desang, grammatikani o‘rgan!



1-mashq. Matnni o‘qing. Gaplarning grammatik va mazmuniy bog‘lanishiga diqqat qiling. Haqiqatni siz qanday ta’riflaysiz?

Haqiqat havoga o‘xshaydi. Rangini ko‘rmaysiz. Ovozini eshitmaysiz. Hidini bilmaysiz... Ammo bir lahza havosiz qolsangiz, bo‘g‘ilib ketasiz. Kitob ham shunday. Yolg‘onga duch kelgan kitobxon bo‘g‘ilib ketadi.

(O‘. Hoshimov)


Nazariy ma’lumot. Sintaksis yunoncha «*syntaxis*» so‘zidan olingan bo‘lib, yopishtirish, bog‘lash, demakdir. Demak, so‘zlarning va gaplarning (qo‘shma gap doirasida) o‘zaro bog‘lanish qonun-qoidalarini, ularning xillarini o‘rganuvchi tilshunoslik bo‘limi sintaksis sanaladi. Bu bo‘lim gapda so‘zlarning bog‘lanishini – so‘z qo‘shilmasi, so‘z birikmalarini, gap va uning tuzilishi hamda mazmuniy turlarini o‘rganadi.¹

Biz o‘z fikrimizni o‘zgalarga yetkazish uchun gaplardan foydalanamiz.

Gap odatda bir so‘zdan yoki bir necha so‘zlarning o‘zaro grammatik va mazmuniy bog‘lanishidan tashkil topishi mumkin. Masalan: 1. *Tanishdim.* 2. *Mahshar tongi asta-sekin oqarib kelar.* (A. Oripov)

Bir so‘zning boshqa so‘zga ma’lum grammatik vositalar: grammatik qo‘shimchalar, yordamchi so‘zlar yordamida bog‘lanishi grammatik bog‘lanish hisoblanadi.

¹ A. Nurmonov, A. Sobirov, Sh. Yusupova. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. T. “ILM-ZIYO”. 2013. -bet.



Bir xil gap boʻlagi vazifasida kelib, koʻpincha bir xil soʻzga javob boʻluvchi boʻlaklarning oʻzaro teng bogʻlovchilar

yoki sanash ohangi yordamida bogʻlanishi teng bogʻlanishdir. M: *bahor*

va yoz; *oʻquvchi hamda oʻqituvchilar; chiroyli, lekin yoqimsiz.*

Bir boʻlakning boshqa boʻlakka kelishik, shaxs-son, zamon qoʻshimchalari, koʻmak-chilar, soʻz tartibi va ohang yordamida bogʻlanishiga tobe bogʻlanish deyiladi.

M: *diyosatli inson; men talabaman; havoning tafti; telefon orqali tanishmoq.*



2-mashq. Matnni oʻqing. Mazmuniga eʼtibor bering va gap tarkibidagi soʻzlarning bogʻlanish turlarini aniqlab izohlang.

Hunarning afzalligi va qadri haqida

Ey farzand, ogoh boʻlkim, hunarsiz kishi hamma vaqt foydasiz boʻlur va hech kimga foydasi tegmaydi. Xuddi tanasi bor-u, soyasi yoʻq tikanli mugʻilonga oʻxshaydi, oʻziga ham, oʻzgaga ham foydasi tegmaydi... Agar kishi oliy nasab, asl boʻlsa-yu, hunari boʻlmasa, xaloyiqning izzat va hurmatidan mahrum boʻladi. Agar har kimda nasab gavhari hamda hunar bezagi boʻlmasa, undan battarroq boʻladi. Agar tabiatning har qancha asl boʻlsa, unga magʻrur boʻlmagil, chunki tan goʻzalligi hunar bezagi bilan ziynatlanmasa, hech narsaga arzimaydi. Masalan, debdurlarkim, ulugʻlik aql va bilim bilandir, nasl-nasab bilan emas. Ota-onang qoʻygan otlariga magʻrur boʻlmagil, bu ot faqat tashqi koʻrinishdan boshqa narsa emas...

Agar kishi nasl-nasabli boʻlsa-yu, hunar ziynati boʻlmasa, u kishi hech kimning suhbatiga munosib boʻlmaydi. Bu ikki gavharga ega boʻlgan kishini

topsang, etagidan ushla, qo‘ldan chiqarma, bunday kishi hammaning hojatini chiqaradi.

(«Qobusnoma»dan)

Nazariy ma’lumot: Tobe bog‘lanish natijasida ikki xil birlik – so‘z birikmasi va gap hosil bo‘ladi. Kelishik, egalik qo‘shimchalari, ko‘makchi va tobelik ohangi yordamida bog‘lansa, so‘z birikmasi hosil bo‘ladi. Masalan: *qiziqarli suhbat, hikoyani tinglamoq, ishtiyoq bilan bajarmoq, yutuqlari haqida gapirmoq.*

Shaxs-son qo‘shimchalari yordamida bog‘lansa, gap hosil bo‘ladi. Masalan: **1. Men kelyapman. 2. Sen bajarasan.**



Topshiriq

1-topshiriq. Quyidagi bog‘lanishlarni teng va tobe bog‘lanishga ajratib yozing.

Oy-yu quyosh, salqin havo, oliy maqsad, yurtga muhabbat, mashaqqat bilan rohat, vijdon haqida fikr, yulduzga intilmoq, baxt va omad, asarning mazmuni, qonun to‘g‘risida suhbatlashmoq, hayotni sevish, burch va vazifalar, kitob ham daftar, kompyuter bilan ishlamoq, fikr hamda mulohazalar, vatan posbonlari, oy-u quyosh.

Teng bog‘lanish	Tobe bog‘lanish



Topshiriq

2-topshiriq. Teng va tobe bog‘lanishlar orasidagi farqini tushuntirib bering. Ularni qanday vositalar yordamida bog‘langanligiga ko‘ra jadvalga joylashtiring.

Bog‘lovchi	Ko‘makchi	Qo‘shimcha	Ohang



2-mashq. Abdulla Oripovning «Jannatga yo‘l» asaridan olingan parchani ifodali o‘qing. Undagi fikrlarga munosabat bildiring, teng va tobe bog‘lanishlarni daftaringizga yozing.

Yigit:

Inson zoti, sening nedan kaming bor edi?
Senga tangri bergandi-ki tafakkur, imon.
Zamin, havo – bari senda barqaror edi,
Nechun dildan insof hissin aylading gumdon?
Axir sen it emasing-ku, belanib loyga
Bir-biringni g‘ajisang to suyak talashib.
Samimiyat qayda edi, tafakkur qayda.
Lug‘atingda gar bu so‘zlar yotdi qalashib,
Hasad, ig‘vo qaydan kirdi sho‘rlik kallangga,
Qaydan seni chulg‘ab oldi xudbinlik, kufr.
Nechog‘lik sen shirin eding go‘dak pallangda
Va nechog‘lik balchiq ichra kechirding umr.
Mayli, ko‘kda kamaysa ham birorta yulduz,
Yerda bitta yaxshi odam ko‘paysa derdim.
Inson uchun asli kurash ekan-ku joiz
Ha, do‘zaxi ekanman men o‘zimdan ko‘rdim.



«O‘zbek tilining izohli lug‘ati» kitobidan olingan quyidagi so‘zlarning ma‘nolarini bilib oling. O‘z nutqingizda ulardan to‘g‘ri foydalanishga harakat qiling.

Tarovatli. Yoqimli tarovatga ega. *Tongning tarovatli shamoli bir nafasdagina go‘daklik yillarini qaytarar emish. (S.Ahmad)*

So‘lg‘inlik. So‘liqlik, siniqqanlik, xorg‘inlik, ruhi tushganlik, xafalik. *Ko‘zlarida so‘lg‘inlik, lablarida kinoyali tabassum.* (S.Anorbekov)²




Tayland qonunlariga ko‘ra pul va tangalarni oyoq bilan bosish mumkin emas. Bunday ishni qilgan shaxslarga jarima solinadi. Bu qonun o‘ziga xos ma’noga ega.

Savol: nima uchun bunday qonun chiqarilgan?



3-mashq. Uyga vazifa. Aziz o‘quvchi, Siz Tohir Malikning «Alvido... bolalik» asarini o‘qiganmisiz? Ushbu matn asosida teng va tobe bog‘lanishlarga uchtadan misol yozing.



«Alvido, bolalik» asari Tohir Malik ijodida alohida o‘rin tutadi. Asardagi asosiy mavzu hech kimning jinoyatchi bo‘lib tug‘ilmasligi, bolani atrof-muhit, jamiyatdagi turli illatlar jinoyatchiga aylantirishi bo‘lib,. bu haqda adibning o‘zi shunday deydi: «Men o‘smirlar va yoshlarning jinoyat ko‘chasiga kirib qolayotganligiga befarq qarab turolmayman. Bolalar axloq tuzatish koloniyalariga har borganimda yuragim eziladi. Ozod, erkin yashab, o‘qib, hunar o‘rganadigan bolalar bu yerga qanday tushib qoldilar?! Nahot jinoyat olami ularga jozibali ko‘rinsa?! Men jinoyat olamini «Shaytanat», ya’ni shaytonlar yetovidagi zulmkorlar mamlakati deb atab, «Ehtiyot bo‘ling, jigarlarim, bu ko‘chaga yaqin yo‘lamang. Boshi berk bu ko‘chaning adog‘ida faqatgina azobli, xorli o‘lim topasiz», demoq niyatida yozdim. Yozganlarimni ogohlantirish deb qabul qilishlarini istardim», deydi.

² O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 5 jildli. A.Madvaliyev tahriri ostida. –T.: “O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi”. 2005-2008. Izohli lug‘at II tom. 1. 685-b 2-615


3-6-§. Tobe bog‘lanishning tuzilishi. Tobe bo‘lakning hokim bo‘lakka kelishik yoki ko‘makchilar yordamida bog‘lanishi



1-mashq. Berilgan so‘zlarni bir-biriga bog‘lab, gap hosil qiling. Bog‘lanishlarni qanday vositalar yordamida amalga oshirganingizni ayting.

O‘zbekiston, kelajak, yoshlar, qo‘l. Yurt, biz uchun, imkoniyatlar, eshik, ochmoq. Bu, unumli, foydalanmoq.

Nazariy ma‘lumot. Odatda tobe bog‘lanish *so‘z birikmasi* va *gapni* hosil qiladi. (Quyidagi tobe bog‘lanishlarda so‘z birikmasi nazarda tutilgan).



Tobe bog‘lanishda doim ikki qism mavjud: **tobe** va **hokim** so‘z. O‘zbek tilida avval tobe, keyin hokim so‘z joylashadi. (Bu holat ba‘zan she‘riyatda, oddiy so‘zlashuv nutqida o‘zgarishi mumkin).

Tobe bo‘lak hokim bo‘lakka bir yoki bir nechta kelishik

qo‘shimchalari yordamida bog‘lanishi mumkin³.

Agar hokim bo‘lak egalik qo‘shimchasidagi ot bilan ifodalangan bo‘lsa, tobe bo‘lak faqat qaratqich kelishigidagi ot bilan ifodalanadi⁴: *ma‘rifatning ziyosi, nayning navosi*.

Agar hokim bo‘lak belgi bildiruvchi so‘zlar bilan ifodalanib, qiyoslashga asos vazifasini bajarsa, qiyoslanuvchi so‘z chiqish kelishigi orqali bog‘lanadi⁵:

3,104 A.Nurmonov, A.Sobirov, Sh Yusupova. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. T “ILM-ZIYO”. 2013. 459-bet

Oydan go‘zal, asal*dan* shirin.

Hokim bo‘lak fe‘l bilan ifodalansa, shu fe‘lning ma‘no talabiga ko‘ra, tobe bo‘lak bir necha kelishik qo‘shimchalari orqali bog‘lanadi⁶:

Men nechun sevaman *O‘zbekistonni, Tuprog‘in ko‘zimga* aylab to‘tiyo. (A. Oripov)

Tobe bo‘lak hokim bo‘lakka ko‘makchilar yordamida bog‘lanishi mumkin.

Ba‘zan kelishik va ko‘makchi birgalikda qo‘llaniladi. Bunday vaqtda kelishik tobe so‘z oxiriga yoki ko‘makchi oxiriga qo‘shilishi mumkin⁷: qishloqqa tomon yurdi; qishloq tomonga yurdi

Tobe bo‘lak hokim bo‘lakka ko‘makchilar yordamida bog‘langanda, ko‘p hollarda kelishik bilan birgalikda yoki kelishik bilan almashinib qo‘llanilishi mumkin. Natijada kelishik qo‘shimchalari va ko‘makchilar sinonimiyasi vujudga keladi: radiodan eshitdi, radio *orqali* eshitdi.

Kelishik qo‘shimchalari bilan ko‘makchilar o‘zaro sinonimik munosabatda bo‘lsa ham, ular o‘rtasida ma‘lum ma‘no farqlanishi mavjud. Kelishik qo‘shimchasi yordamida bog‘langanda hokim bo‘lak ifodalagan harakatning chiqish yoki yo‘nalish nuqtasi aniq, ko‘makchi yordamida bog‘langanda esa noaniq bo‘ladi; litseyga ketdi, litsey *tomon* ketdi.



2-mashq. Cho‘lponning «Kecha va kunduz» romanidan olingan parchani o‘qing. Unda so‘zlarning kelishik va ko‘makchilar bilan bog‘langan o‘rinlarini topib, daftaringizga yozing.

Har yil bir keladigan bahor sevinchi yana ko‘ngillarni qitiqlay boshladi. Yana tabiatning dildiragan tanlariga iliq qon yugurdi... Tollarning ko‘m-ko‘k sochpopuklari qizlarning mayda o‘rilgan kokillariday selkillab tushmoqqa boshladi. Muz tagida loyqalanib oqqan suvlarning g‘amli yuzlari kuldi, o‘zlari horg‘in-horg‘in oqsoqlasalarda, bo‘shalgan qul singari erkinlik nash‘asini kemira-kemira ilgari

^{5,6,7} A.Nurmonov, A.Sobirov, Sh Yusupova. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. T “ILM-ZIYO”. 2013. 459-bet

bosadilar. Simyog'ochlarning uchlarida yakka-yakka qushlar ko'rina boshladi... Muloyim qo'llarda ivib, suvga aylangandan keyin go'zal ko'zlarning supasida yonboshlashni muncha yaxshi ko'rar ekan bu ko'kat! Erkaklarning gullik do'ppisiga tegmay, yalang ayollar bilan, ularning sochlari, gajaklari va ro'mol popuklari bilan hazillashib o'ynagan salqin shabada... ko'klam nash'asi bilan sho'xlik qiladi.

Hayot nega bu qadar go'zal va shirin bo'ladi bahorda?



3-mashq. Berilgan gap juftliklarida qanday shakily o'zgarishlar sodir bo'lganini aniqlab, tushuntiring.

1. Bundan ko'ra o'qiganing yaxshi emasmi? Bundan o'qiganing yaxshi edi.
2. To'kkali bir qoshiq qoning yo'qmi? To'kishga (to'kish uchun) bir qoshiq qoning yo'qmi?
3. Ulardan biri katta yoki kichikligidan qat'i nazar boshqalaridan ajralib turadi. Ularning biri katta yoki kichikligidan qat'i nazar boshqalaridan ko'ra ajralib turadi.
4. Osmonda qanotlarini keng yoyib burgut parvoz qilmoqda. Osmon uzra qanotlarini keng yoyib burgut parvoz qilmoqda.
5. Botirning ahvoliga achindi. Botirning ahvoli uchun achindi.
6. Ashulalarida Vatanni madh etdi. Ashulalari orqali Vatanni madh etdi. (Gazetadan)



4-mashq. Nuqtalar o'rniga ko'makchilarni qo'yib gaplarni ko'chiring. Qaysi gap tarkibidagi ko'makchilarni kelishiklar bilan almashtirish mumkin yoki mumkin emasligi haqida fikr yuriting.

1. Majlisdan ... bormoq.
2. Bugundan ... tayyorlanmoq.
3. Ekskursiya ... gapirmoq.
4. Telefon ... tanishmoq.
5. Xatlarini pochta ... jo'natmoq.
6. Hikoyani zavq ... o'qimoq.
7. Eshikni hasa ... ochmoq.
8. Kelajak ... intilmoq.
9. Kompyuterda ... ishlamoq.
10. Yoz ... tayyorlanmoq.



«O‘zbek tilining imlo lug‘ati» kitobidan olingan quyidagi so‘zlarning yozilishini bilib oling. O‘z nutqingizda ulardan to‘g‘ri foydalanishga harakat qiling.

Xarxasha, alfoz, daromad, alhazar, hushyorlik, yakkahokimlik⁸.



Bir yigit bor ekan. U kambag‘al bo‘lib, uning farzandi yo‘q ekan. Bu ham yetmagandek otasining ko‘zlari ojiz ekan. Kunlarning birida unga farishta uchrabdi va bittagina tilagingni amalga oshiraman debdi. Yigit bitta tilak bilan uchala orzusiga ham yetibdi. Savol: U qanday tilak aytgan?



4-mashq. Uyga vazifa. Mavzuga oid savollarga javob bering.

1. Tobe bog‘lanish nima? Misollar orqali izohlang.
2. Tobe va hokim so‘zlarning vazifasini bilasizmi?
3. Tobe va hokim so‘z qanday vositalar bilan bog‘lanadi? Har biriga misollar keltiring.
4. Avval hokim, keyin tobe so‘zning joylashuviga misollar keltiring.
5. Kelishik va ko‘makchilar sinonimiyasini qo‘llay olasizmi?
6. So‘z birikmasi yuzasidan tes savollari tuzing va guruhdagilar bilan almashib ishleng.

7-10-§. Tobe bog‘lanishda qaratqich kelishigi va egalik qo‘shimchalarining qo‘llanishi. Nutqda qaratqich va tushum kelishiklaridan o‘rinli foydalanish



1-mashq. Berilgan gaplarni o‘qing. Xatolarni tuzating.

Onaning yaratmasin ekan. Har dam farzandini hayotini o‘ylab behalovat. Bolasini baxti uchun o‘zining orzularidan ham kecha oladi. O‘ziga ravo ko‘rmaganlarining jigarbandi uchun ataydi.

⁸ O‘zbek tilining imlo lug‘ati. –T.: “O‘qituvchi”. 2013.240b. 447-;456-b

Nazariy ma'lumot. Tobe bo‘lak hokim bo‘lakka qaratqich kelishigi va egalik qo‘shimchasi yordamida bog‘langanda ikki tomonlama bog‘lanish ro‘y beradi. Tobe bo‘lak qaratqich kelishigi qo‘shimchasini, hokim bo‘lak esa egalik qo‘shimchasini oladi. Bunday bog‘lanishda tobe qism **qaratqich**, hokim qism **qaralmish** deb ham nomlanadi⁹.

Ko‘pincha qaratqich kelishigi yoki egalik qo‘shimchasi, ba‘zan esa har ikkisi ifodalalmaydi. Uni quyidagi sxema orqali ifodalash mumkin:

Qaratqich	Qaralmish
<i>do‘stimning</i> +	<i>maslahati</i> +
<i>maktab</i> -	<i>bog‘i</i> +
<i>bizning</i> +	<i>vatan</i> -
<i>daftar</i> -	<i>varaq</i> -

Qaratqich kelishigi doimo tushib qolavermaydi. U quyidagi hollarda, albatta, qo‘llaniladi:

a) qaratqich bilan qaralmish o‘rtasida boshqa so‘z kelsa. Masalan: ***Derazaning qora oynasi sindi.***

b) qaratqich atoqli otlar bilan ifodalansa. Masalan: ***Nasimning daftarida qoidalar tartib bilan yozilgan.***

c) qaratqich olmoshlar bilan ifodalanganda. Masalan: ***Uning fikri hammaga yoqdi***¹⁰.

d) qaratqich sifatdosh bilan ifodalanganda. Masalan: ***Davrada o‘tirganlarning fikri bir-bir eshitildi.***

Qaratqich va tushum kelishigi qo‘shimchalari bir-biriga shakl jihatdan juda yaqin. Shuning uchun og‘zaki so‘zlashuvda qaratqich kelishigi o‘rnida ham ko‘pincha tushum kelishigi qo‘shimchasi qo‘llaniladi. Masalan: ***olmaning sharbati*** o‘rniga ***olmani sharbati*** deyiladi. Natijada, yozuvda ham ko‘pchilik og‘zaki so‘zlashuv

⁹A.Nurmonov, A.Sobirov, Sh Yusupova. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. T “ILM-ZIYO”.2013.463-bet.

^{10,11,12} A.Nurmonov, A.Sobirov, Sh Yusupova. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. T “ILM-ZIYO”.2013.463-bet.

ta'sirida shunday yozib qo'yadi. Bunday xatodan qutilish uchun hokim so'zning ifodalanishiga e'tibor berish kerak¹¹.

Eslatma. Agar hokim bo'lak sof fe'l bilan ifodalansa va bu fe'l kimni? nimani? qayerni? so'roqlariga javob bo'luvchi so'zni talab qilsa, tobe bo'lak tushum kelishigida qo'llanadi, hokim bo'lak egalik qo'shimchasini olgan ot, ba'zan harakat nomi va sifatosh bilan ifodalansa, tobe bo'lak qaratqich kelishigida qo'llaniladi¹².




Topshiriq

1-topshiriq. Suratga mos mavzu tanlang. Zamonamiz qahramonlari, ular ko'rsatgan fidoyiliklar haqida matn yarating. So'zlarning bog'lanishiga diqqat qiling. Qaratqich va tushum kelishigi bilan bog'langan birlikmalarni ajratib, ular haqida o'z tushunchalaringizni o'rtoqlashing.



Topshiriq

2-topshiriq. Matni o'qing. Orol muammolari haqida fikrlaringizni bayon qiling. Testlarni bajaring.



Tarixiy manbalarda Orol dengizi bundan 35 ming yil avval paydo bo'lganligi haqida ma'lumotlar bor. Orol jahondagi eng katta suv havzalaridan biri bo'lgan. U Kaspiy dengizi, Shimoliy Amerikadagi Yuqori ko'l va Afrikadagi Viktoriya ko'lidan keyingi to'rtinchi o'rinda turgan. Bugun esa ana shu ulkan suv havzasi deyarli ko'lmakka aylanib borayotir.

Orol fojiasi tufayli mintaqada yomg'ir deyarli yog'may qo'ydi. Yaylovlar yo'qoldi. Orolga yaqin chuchuk suvli kichik ko'llar esa quridi. To'qaylarda chopgan yovvoyi ohular qirilib ketishdi. Qurigan dengiz tubidan yil davomida 75 million tonnagacha chang ko'tarilishi kuzatilgan. Bu chang Tyan-shan va Pomir tog'lari cho'qqilarigacha yetib borib, ulardagi muzliklarni erishini tezlashtirib yuborayotgani aytilmoqda. Suvlar va hatto havo ham sho'rlanishi natijasida aholi orasida turli kasalliklar tarqalib, ularning davolash qiyinlashmoqda.

Hozirgi kunda Orol tubida saksovulzorlar barpo etishga kirishildi. Saksovullar tuproqdagi chang-tuzlarni shamolning uchirishini to'xtatadi. Orolni saqlab qolish o'z qo'limizda¹³.

1. Ushbu matnda qaratqich kelishigi qo'shimchasi o'rnida tushum kelishigi qo'shimchasi necha o'rinda noto'g'ri qo'llangan?

A)1 B) 2 C) 3 D) 4

2. Bu chang Tyan-shan va Pomir tog'lari cho'qqilarigacha yetib borib, ulardagi muzliklar erishiga hech qanday ta'siri yo'qligi aytilmoqda.

A) bu fikr o'rinli B) noto'g'ri ma'lumot

3. Matnda necha o'rinda tushum kelishigi o'rnida qaratqich kelishigi noto'g'ri qo'llangan? A)1 B) 2 C) 3 D) 4

4. Orol dengizi muammosi qanday muammo deb o'ylaysiz?

A) hududiy B) mintaqaviy C) siyosiy D) dunyoviy



«O'zbek tili omonimlarining izohli lug'ati» kitobidan olingan quyidagi shakldosh so'zlarning ma'nolarini o'qib o'rganing. O'z nutqingizda ulardan to'g'ri foydalaning

Salla I. Ot. Musulmonlarda boshga o'rab yuriladigan oq yoki sarg'ish tusli uzun yupqa mato. *Sallali, sallagul.*

Salla II. Ot. O'rama. (ovqat). *Bu gal salla qilmadim, qushtilining o'zini pishirib qo'ya qoldim*¹⁴.

¹³ www.ziynet.uz.

¹⁴ Rahmatullayev Sh. O'zbek tili omonimlarining izohli lug'ati. –T.: "O'qituvchi". 1984. 216 b. 109-b



Uning qora, yashil, sariq, qizil turlari mavjud. U deyarli har bir xonadonda bor. O‘zbekistonda uning qora va yashil turlarini ko‘p iste‘mol qilishadi. Savol: u nima?



Uyga vazifa. 2-mashq. Gapnlarni o‘qing. Nuqtalar o‘rniga mos qo‘shimchalarni qo‘ying.

1. Netkay erdi o‘z otasi... o‘zi tosh otgan padarbezorilar... qo‘llari shol bo‘lsa?!
2. Koshkiydi, ozod qush... aylansam-u qoshingiz... uchib borsam, diydangiz yarasi..., dilingiz jarohati... malham bo‘lolsam!
3. Koshkiydi, hayotbaxsh shamol... boshingiz ustidagi qora bulutlar... quvolsam!
4. Qismat bu isnod-u uyat... ayni biz... boshimiz... solgan erkankim, shul zamon... tug‘ilganim... pushaymonda..., musibatli damlar... qulayotgan saltanat tojdori... – Sizga, Qiblagoh, qanot bo‘l olmaganim... ozurda va armondaman!
5. Dushmanlar Xorazm... bormoqdalar, chunki tuprog‘i ofatlar... bardoshli, el-ulusi sabr-qanoatli, jo‘mard, tili... Olloh kalomi, dili... imon-e‘tiqod quvvati bisyordir. (E. Samandar)


11- 14-§. Tobe bo‘lakning hokim bo‘lakka bog‘lanish yo‘llari



Topshiriq

1-topshiriq. Romanni o‘qiganmisiz? U sizda qanday taassurot qoldirgan?

Fikringizni o‘rtoqlashing.



YULDUZLI TUNLAR

Bobur mingan yoldor saman ot egasining **iztiroblarini** sezganday yugan suvlig‘ini **asabiy** chaynaydi, **jilovni** tortib, oldinga uchmoqchi bo‘ladi. Qosimbekning to‘riq qashqasi saman bilan yonma-yon yo‘rg‘alab boradi. Yo‘l Sirdaryoning **baland** qirg‘og‘idan kunchiqish tomonga qarab ketadi. Bobur tezroq Andijonga borib, ota yurtini Ahmad Tanbal istilosidan

xalos qilishga oshiqadi. Qosimbek uni Xo‘jandda to‘xtab kuch yig‘ishga, vaziyat yetilishini kutishga undaydi.

– Amirzodam, Samarqanddan **bemavrid** yo‘lga chiqqan ekanmiz. Andijon choparini kutsak bo‘larkan. Endi shoshilmaylik.

– Ustozim Xo‘ja Abdullani osib o‘ldirgan Tanbal onam bilan **egachimni** sog‘ qo‘y-gaymi? **Ularni** kim qutqargay?

– Parvardigor o‘zi qutqaribdir. Hazrat onangiz bilan egachingiz Andijondan Qo‘qonga kelibdirlar.

– Kim aytdi?

– Tohir ularni **Qo‘qondan** berida yo‘lda ko‘ribdir. Bir kecha Konibodomda tunab, keyin Xo‘jandga borurmiz deyishibdir.

(P.Qodirov)



Topshiriq 2-topshiriq. Matnni o‘qigan bo‘lsangiz, ajratib ko‘rsatilgan so‘zlardan so‘z birikmalari hosil qiling. Ularni bog‘lovchi vositalarni aniqlang.

Nazariy ma‘lumot. So‘z birikmasi tarkibidagi tobe va hokim so‘z qanday vositalar yordamida tobelanishiga ko‘ra o‘zaro uch xil usulda bog‘lanadi:



Tobe va hokim so‘zning ko‘makchilar va tushum, jo‘nalish, o‘rin-payt, chiqish kelishigi qo‘shimchalari bilan bog‘lanishi **boshqaruv** deyiladi.

Boshqaruv ikki xil bo‘ladi:

1) ko‘makchili boshqaruv;

2) kelishikli boshqaruv.

Masalan: *baxt haqida suhbat, tinchlik uchun kurash, maktab sari bormoq* (ko‘makchili boshqaruv); *maktabga bormoq, ishdan qaytmoq, kitob o‘qish* (kelishikli boshqaruv).

Ba'zan kelishik qo'shimchasi belgisiz bo'lishi, ya'ni qo'shimchasi qo'llanmasligi va qisqargan shaklda bo'lishi mumkin: *paxta terish, yer chopish*¹⁵.

So'z birikmasi tarkibidagi tobe va hokim so'zning qaratqich kelishigi va egalik qo'shimchasi yordamida bog'lanishi **moslashuv** deyiladi.

Bunda qaratqich kelishigi qo'shimchasi tobe so'z, egalik qo'shimchasi hokim so'z tarkibida bo'ladi¹⁶.

Masalan: *bizning ko'chamiz, yigitning g'ururi, kitobning muqovasi*.

So'z birikmasi tarkibidagi tobe va hokim so'zning hech qanday qo'shimchasiz, ohang va ma'nosiga ko'ra bog'lanishi **bitishuv** deyiladi¹⁷. Masalan, *toza havo, ta'sirli hikoya, olg'a bormoq*.

Eslatma: *Yoppasiga haydamoq, zimdan kuzatmoq, qatorasiga termoq, yurakdan kuylamoq* kabi birikmalar tarkibidagi kelishik qo'shimchalari bugungi kunda yahlitlanib ketgan, shuning uchun ular bitishuvli birikmalar deyiladi.



1-mashq. To'rtlikni ifodali o'qing. Gaplardan so'z birikmalarini daftaringizga yozing. Bog'lanish usullarini aniqlang.

Toshlarga urilib toshlanib aytdim,
G'addor dunyolardan g'ashlanib aytdim,
Goh kulib, goh ko'zim yoshlanib aytdim:
O'zingdan o'zga do'st topmadim, Ona!

(Ra'no Fayzullayeva)

Savollar:

1. So'z birikmasida tobe va hokim bo'lak o'zaro qaysi vositalar yordamida bog'lanadi?
2. Tobe bo'lak tarkibida qaysi vositalar qo'llanadi? Misollar bilan izohlang.

^{15,116,117} A.Nurmonov, A.Sobirov, Sh.Yusupova. Hozirgi o'zbek adabiy tili. T "ILM-ZIYO". 2013. 410-bet.



1-topshiriq. Jadvaldagi misollarga qarab , uni to'ldiring.

?	?
Ochilgan gul	Gul ochilgan.
Ikki qavatli bino

Nazariy ma'lumot: So'zlarning tildagi muayyan qonun-qoidalar asosida o'zaro birikuvidan *so'z birikmalari* va *gap* hosil bo'ladi. *So'z birikmalari* va *gaplar* o'z qurilishi hamda ifoda mazmuniga ko'ra farqlanadi. So'z birikmasi tobelik ohangi bilan aytiladi va **tushuncha** ifodalaydi. Gap esa tugallangan ohang bilan aytiladi va **fikr**ni bildiradi.

Masalan: qiziqarli voqea – so'z birikmasi; Voqea qiziqarli – gap.



2-topshiriq. Chap va o'ng tomondagi birliklarning o'xshash va farqli tomonlari haqidagi xulosalaringizni ayting.



2 - mashq. Quyida berilgan matnni o'qib, o'zingizga tegishli xulosa chiqaring va tobe so'zning hokim so'zga birikishning barcha usullariga oid so'z birikmalarini aniqlang. Ularni daftaringizga ko'chiring.

Yashil yalpiz



Yalpiz dardlarga yaxshi malham ekanligi haqida tabobat ilmining bobokaloni Abu Ali ibn Sino shunday yozgan:
«Bir kungacha uni yeb, ketidan suzma zardobi ichib turilsa, qon tomirlarining kengayishiga foyda qiladi. Yalpiz, xususan, yovvoyisi ishtaha kamligida, me'da zaifligida va hiqichoqda

foйда qiladi, chunki u safro tozalash, shimdirish va latiflashtirish ta'sirini ko'rsatadi. Ko'ngil aynishini bosadi...»

Yalpiz qaynatmasi peshobni haydaydi, ichak og'riqlariga, me'da, ko'krak og'riq, yotal va shu kabi xastaliklarni davolashda yaxshi naf keltiradi. Shuningdek, chanqov bosuvchi, balg'am ko'chiruvchi xususiyatlari bor. Gazanda chiqqanga ham yaxshi omildir. Uning quritilgan barglari tutatilsa, zararkunanda hasharotlar yo'qoladi.

Ona-yer qa'ridan unib chiqqan yalpizning yosh barglaridan tayyorlangan chuchvara yoki somsalarni tanovul qilinganda, kishi a'zoi-tanida yot moddalarga ta'sir etish xosiyati bor. Yalpiz bargidan tayyorlanadigan damlama tinchlantiruvchi, yurak faoliyatini yaxshilovchi shifobaxsh malham sifatida ham qo'llaniladi. Dorishunoslik sanoati uning bargini alohida maxsus qutilarda, yalpiz moyi, tabletkasini, spirtdagi eritmasini ishlab chiqaradi. Uni dorixonalarda shifokorlar tavsiyasi bilan xarid qilish mumkin. Yalpiz dorivor sifatida og'izni chayqashda, dorilar ta'mi-mazasini yaxshilashda, tish poroshoklari, tish pastalari va qandolatchilikda yalpizli shirinliklar tayyorlashda ishlatiladi.

(«Bolalar ensiklopediyasi»)

O'zingiz bilgan shifobaxsh o'simliklar nomini va xususiyatlarini aytib bering.



Topshiriq

3-topshiriq. Guruhni uchga bo'lib, har bir guruh belgilangan vaqt ichida tobe so'zi ko'chma ma'noda, hokim so'zi o'z ma'noda kelgan so'z birikmalariga o'ntadan misol yozing.

Namuna: *iliq minosabat...*



3-mashq. Berilgan paronim so'zlar yordamida so'z birikmalari tuzib, ma'nosini farqlang. Adabiy – abadiy, dadil – dalil, sanat – san'at, sodiq – sobiq, tarjima – tajriba, yoriq – yorug', teri – tire, ijodiy – ijobiy.

Namuma: *sanoat mahsulotlar, san'at asarlari...*



«O‘zbek tili antonimlarining izohli lug‘ati» kitobidan olingan quyidagi so‘zlarning ma‘nolarini o‘qib o‘rganing. So‘z boyligingizni oshirishda ulardan unumli foydalaning.

Uydirma. Afsona. Amalda haqiqatda yo‘q, miyada to‘qilgan(narsa). *Bularning hammasi uydirma gap.*

Haqiqat. Miyada to‘qilmagan, balki chindan ham amalda bor. *Mendan haqiqat holni anglab, juda shoshib qoldi, hatto hushi boshidan uchdi. (A.Qodiriy)¹⁸*



Dengizda kemalar bir-biriga ko‘ringanda qo‘l silkitib salomlashganday bo‘lishar ekan. Ba‘zi kemalarda matroslar arqon ko‘rsatishar ekan. Savol: arqon ko‘rsatish bilan nima demoqchi bo‘lishadi?



Uyga vazifa. 4-mashq. So‘z birikmalari belgili va belgisiz kelishik qo‘shimchalari bilan bog‘lanishiga misollar yozing. Bu holat qaysi bog‘lanish usullarida sodir bo‘lishini ayting.

Namuna: *kitob o‘qish – kitobni o‘qish (boshqaruv)*

15-16-§. Otlı va fe‘lli so‘z birikmalari, ularning ifodalanishi



Topshiriq

1-topshiriq. So‘z birikmalaridagi hokim so‘zning turkumini aniqlang.

Oilalarning hammasi, osmonda ko‘p, dengizga tushish, zavqlanib gapirish, tez yugurish, ibratli tashabbus, o‘quvchilarning barchasi, ayyor tulki, katta tanaffus, kutubxonaga kirish, qizg‘in suhbat, olmadan ham shirin, yangi ko‘ylak, haydalgan yer, daftar varag‘i, ukasi uchun olmoq, qatordan uchinchi, shahar ko‘chalari, ko‘klamda unmoq, g‘ishtli imorat, guldand nozik, oltin yaproq, qalam bilan

¹⁸ Rahmatullayev Sh. , Mamatov N. , Shukurov R. O‘zbek tili antonimlarining izohli lug‘ati.

–T.: “O‘qituvchi”.1980. 232 b. 181-b

yozgach, so‘qmoq orqali yurmoq, ovqatga yetolmaydigan, vazifani bajarib, topshiriqni bajarguncha, o‘z farzandlari, yurt qayg‘usi, nigoyatda nozik, yozgani o‘tirmoq, olg‘a siljimoq.



Topshiriq 2-topshiriq. Maktabda olgan bilimingizga tayanib, yoqoridagi so‘z birikmalarini otli va fe‘lli birikmalarga ajrating.



Topshiriq 3-topshiriq. Yuqoridagi rasm asosida «Tabiatni asraylik» mavzusida matn yarating. Tarkibidagi so‘z birikmalarini otli birikma, fe‘lli birikmalarga ajratib bering.

Nazariy ma‘lumot. So‘z birikmalari hokim so‘zning ifodalanishiga ko‘ra ikki turli bo‘ladi:

- 1) otli birikma;
- 2) fe‘lli birikma.

Hokim so‘z ot, sifat, son, olmosh, ravishva taqlid so‘z bilan ifodalansa, otli birikma hisoblanadi¹⁹. Masalan, **erta bahor, qiziqarli kitob, hammadan yaxshi, yugurishda birinchi, bolalarning barchasi** kabi.

Hokim so‘z fe‘l va uning vazifadosh shakllari: sof fe‘l, sifatdosh, ravishdosh, harakat nomi bilan ifodalansa, fe‘lli birikma hisoblanadi²⁰.

^{19,20} Nosirjon Uluqov. Tilshunoslik nazariyasi. “Barkamol fayz media” nashriyoti T.2016.144-bet.

Masalan, **kitob o‘qitmoq, rasm chizish, ohista yurib, bozorda yura-yura,alamdan yig‘lay-yig‘lay, maktabda o‘qiyotgan, kuz oftobida toblangan kabi .**



Topshiriq 4-topshiriq. Hokim so‘zlari jadvalda ko‘rsatilgan so‘z turkumlari bilan ifodalangan so‘z birkmalarini yozing.


tobe +ot	tobe+fe`l
tobe+sifat	tobe+ravishdosh
tobe+son	tobe+sifatdosh
tobe+olmosh	tobe+harakat nomi
tobe+ravish	



Topshiriq 5-topshiriq. Hokim so‘zlarning turkumiga qarab ustunlarni nomlang. Agar so‘z turkumlarini davom ettirish mumkin bo‘lsa, davom ettiring.



Topshiriq 6-topshiriq. Savollarga javob bering va topshiriqni bajaring.



1. Sizning ham shaxsiy kutubxonangiz bormi? Unda qanday kitoblar bor?
2. Yurtimizda amalga oshirilayotgan «100 kitob» loyihasidan xabardormisiz?
3. Qanday mavzudagi kitoblarni o‘qishni xush ko‘rasiz?
4. O‘zingiz yaxshi ko‘rib o‘qigan kitoblaringizdan sizga yoqqan jumalarni

topib, tarkibidagi so‘zlarning qanday bog‘langanini aniqlang.



Topshiriq 7-topshiriq. «Mening kitob javonim» yoki «Qadrdon do‘st» mavzusida matn yarating. Matndagi so‘z birkmalarining bog‘langan usulini belgilang.



«O‘zbek tilining imlo lug‘ati» kitobidan olingan quyidagi so‘zlarning yozilishini bilib oling. O‘z nutqingizda ulardan to‘g‘ri foydalanishga harakat qiling.

Ta’rif-tavsif , alhol, sohalararo , alahsiramoq, alaxsimoq , alahlamoq.



Dunyoda o‘qitiladigan fanlar ko‘p. Har bir fan o‘z ma’nosiga ega. Qaysi fan «Donolikni sevaman» ma’nosini bildiradi?



Uyga vazifa. Berilgan misollar orasidan so‘z birikmalarini tanlab yozing. Qolgan birliklar nega so‘z birikmasi bo‘lolmasligi haqida xulosangizni ayting.

Mamlakatimiz haqida, ota-onaga hurmat, do‘stga sadoqat, kirib keldi, Markaziy Osiyo, yozib ko‘rdi, olib tashladi, mening orzum, Samarqandga sayohat, qadrli do‘st, xatolari tog‘risida, sotib oldi, bilib oldi, daftarga yozdi, yer haydadi, e‘lon qildi, masala tuzdi, ish ustida, xalqning urf-odatları, O‘rta Osiyoda yashamoq, qaror qilmoq, hovli shinam, o‘tloq ko‘m-ko‘k.

17- 20-§. So‘z birikmasining qo‘shma so‘z va gapdan farqi



1-mashq. Qo‘shma so‘zlarni va so‘z birikmalarini bir-biridan farqlang. Ular ishtirokida gaplar tuzishni mashq qiling.

Yuqori tor, bir metr, oq qush, bir zum, qushqo‘nmas, til oldi, bir soat, har qaraganda, oqqush, qush qo‘nmas, har kuni, bir nafas, til undoshlari, yuqori ko‘tarilmoq, suv ilon, suvilon.

Nazariy ma'lumot. Soʻz birikmasida ham, qoʻshma soʻzda ham qismlar bir xildagi soʻz turkumlariga oid boʻlishi, har ikkalasi ham bir xil grammatik shaklga ega boʻlishi mumkin. Masalan, oq qush – oqqush (har ikkisida ham sifat+ot), suv ilon – suvilon (har ikkisida ham ot+ot). Bu ularning shakliy oʻxshashligidir. Lekin soʻz

Soʻz birikmasi
<ul style="list-style-type: none"> • toʻrt burchak • iskab topar • boʻri kallasi • suv oʻti • kunga boqar

Qoʻshma soʻz
<ul style="list-style-type: none"> • toʻrtburchak • iskabtopar • boʻrikalla • suvoʻt • kungaboqar

birikmasidagi qismlar maʼno mustaqilligini saqlagan boʻladi²¹.

Qoʻshma soʻz tarkibidagi qismlarning maʼnosi esa

saqlanmagan boʻlib, qoʻshma soʻzning umumiy maʼnosi orqali anglashiladi.

Soʻz birikmasidagi qismlar orasida grammatik aloqa sezilib turadi, qoʻshma soʻz qismlari orasidagi grammatik aloqa esa yoʻqolgan boʻladi. Soʻz birikmasini tashkil qilgan qismlarning har biriga alohida-alohida soʻroq berish mumkin: kitobni (nimani?) oʻqimoq, uydin (qayerdan?) chiqmoq kabi. Qoʻshma soʻzlarga esa yaxlit bir savol berish mumkin: kungaboqar (nima?), kamquvvat (qanday?).

Soʻz birikmasining qismlari oʻz mustaqil soʻz urgʻusini saqlagan boʻladi (uyning eshigi, xatni oʻqidim, tez yugurdi), qoʻshma soʻz esa umumiy bir urgʻuga ega boʻladi (bilaguzuk, Yangiqoʻrgʻon).

Qoʻshma soʻzlarning koʻpchiligi tarixan soʻz birikmalari asosida yuzaga kelgan²²: mingboshi, soʻzboshi, olmaqoqi



2-mashq. Oʻzingiz qoʻshma soʻzlar va soʻz birikmalarini qoʻllab gap tuzishni mashq qiling.

^{21,123} M. Qodirov, H. Neʼmatov, M. Abduraimova, R. Sayfullayeva. 8-sinf ona tili. Choʻlpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. Toshkent – 2014. 34-35-bet

Namuna: Antarktida okeanida ulkan **muzyorar** kemalar harakatlanadi. – U har yurganida **muz yorar**, muz parchalari har yoqqa sachrar; sovuqda qo‘li, bilaklari qip-qizarib ketgandi.



3-mashq. Berilgan so‘z birikmalari va gaplarni qiyoslang, so‘z birikmasi va gap orasidagi farqlarni aniqlang. Kesim ulardan qay biriga xos?

1. Askarlar muzlagan daryo ustidasirpana-sirpana yura boshladilar. Hozir qish. Daryo muzlagan. 2. G‘afur G‘ulomning «Mening o‘g‘rigina bolam» hikoyasini o‘qidi. Radiodan G‘afur G‘ulomning «Mening o‘g‘rigina bolam» hikoyasi o‘qib eshittirildi. 3. Qo‘lidagi bor puliga bitta echki sotib olibdi. Bor bisoti bitta echki.

Nazariy ma’lumot. So‘z birikmasi ham, gap ham so‘zlarning grammatik aloqaga kirishuvidan yuzaga keladi. So‘z birikmasi biror narsa, belgi, harakat yoki holatni aniqlashtirgan holda anglatadi. Gap esa ma’lum bir fikrni, tasdiq yoki inkor hukmini ifodalab keladi. Gapning markazi kesimdir. U kesimlik qo‘shimchalari bilan shakllangan bo‘ladi²³.

Eslatma: So‘z birkmalari qo‘shma so‘z va gapdan farqlangani kabi ibora va tasviriy ifodalardan ham farqlanadi. Tahlil jarayonida ibora va tasviriy ifodalar ajralmas bir butunlik sifatida qaraladi: oqsoqol (qo‘shma so‘z), yulduzni benarvon uradigan (ibora), kumush tola (tasviriy ifoda), kumush qoshiq (so‘z birikma).



4-mashq. Jadvaldagi bo‘sh o‘rinlar bilan ishleng. Ularni gapga yoki aksincha so‘z birkmasiga aylantiring.

So‘z birikmasi.	Gap.
1. Toza havo	1.

²³ M. Qodirov, H. Ne‘matov, M. Abduraimova, R. Sayfullayeva. 8-sinf ona tili. Cho‘lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. Toshkent – 2014. 43-bet

2.	2. Gul chiroyli edi.
3. Qiziqarli mashgʻulot	3.
4.	4. Yangi qurilgan binolar koʻrkam.
5. Mazali somsa	5.
6.	6. Alpomish mard va botir.
7. Maroqli ertaklar	7.



5-mashq. Quyida berilgan hikmatlardan tobe va hokim soʻzni aniqlang. Ularning bogʻlanish yoʻllarini tushuntiring. Hikmatlar asosida munozara oʻtkazing. Oʻzingiz ham shunday hikmatlardan toping.

Agar bir daraxt kessangiz, oʻrniga yangi novdalar koʻkarib chiqadi, ammo mehr-u muhabbat niholi jazo arrasi bilan arralansa, aslo koʻkarmaydi.

Ishning oqibatini, nima boʻlishini bilish – oqillikdan, ammo keladigan falokatga chora izlamay qaygʻu chekib oʻtirish – nodonlikdan darak beradi.



Topshiriq

1-topshiriq. Rasmda nima tasvirlangan? Tasvirlar asosida matn yarating, soʻzlarning bogʻlanishini tushuntiring.



«Oʻzbek tili sinonimlarining izohli lugʻati» kitobidan olingan quyidagi maʼnodosh soʻzlarning oʻrganing. Sinonimlar nutqda takroriylikning oldini olganligi uchun ulardan unumli foydalanishga harakat qiling.

MARD, TANTI, HIMMATLI, ER. Odamiylik xarakteri kuchli. **Tanti** soʻzi oʻz aytganidan qaytmaslik. *Juda mard yigit.*

KUCHSIZLANMOQ, ZAIFLASHMOQ. Kuchlidan kamroq daraja. *Zaif bola*²⁴



AQSH davlatining Xitoy Respublikasiga sotadigan mahsulotlari orasida u 3- o‘rinda turar ekan. Bu AQShga bir yilda 1 milliard 300 million dollar foyda keltirar ekan. Savol: qanday mahsulot (uni mahsulot deyish ham mushkul) haqida gap ketyapti?



5-mashq. Uygʻa vazifa. Berilgan juftliklardan so‘z birikmalari hosil qiling. Ularni qo‘llab gaplar tuzing.

1) bajarilgan, topshiriq; 2) bajarmoq, vazifa; 3) she‘r, yodlamoq; 4) qishloq, ketmoq.

Testni bajaring.

1. Ushbu gapda nechta so‘z birikmasi qatnashgan?

Tilimiz boy, chiroyli, unda ifoda etib bo‘lmaydigan fikrni topish qiyin.

A) 5 ta B) 4 ta C) 3 ta D) 6 ta

2. Qaysi javobdagi birikmalarda so‘zlar o‘rnining almashtirilishi ma’noga ta’sir etadi?

A) uzum olish, bu qalam

B) keng uy, abadiy hayot

C) tonggi shabada, g‘ir-g‘ir shamol

D) abadiy hayot, vergul qo‘yish.

3. Sifatli va ravishli so‘z birikmalari qaysi javobda to‘g‘ri berilgan?

A) Sekin gapirdi, o‘zidan yaxshi B) kichik odam, qishki kiyim

C) shamoldan tez, undan chiroyli

D) men o‘zim, sen o‘zing

4. *Sening har bir ishing boshqalarga ibrat bo‘lishini unutma.* Ushbu gapda so‘z birikmalarining tobe qismi qaysi so‘z turkum(lar)i bilan ifodalangan?

A) ot, fe‘l

B) ot, sifat

C) ot, ravish, ot

D) olmosh, sifat, fe‘l

5. So‘z birikmalari tarkibidagi so‘zlarni bir-biriga bog‘lashda qaysi vositalar qatnashadi?

1) kelishik qo‘shimchalari; 2) egalik qo‘shimchalari; 3) ko‘makchilar.

A) 1,2

B) 1,3

C) 1,2,3

D) 2,3

²⁴ Hojiyev A. O‘zbek tili sinonimlarining qisqacha lug‘ati. –T.: “O‘qituvchi”.1963. 264 b.135-;149-b

21-22-§. MATNDAN SO‘Z BIRIKMALARINI AJRATISH VA TAHLIL QILISH. MATNLI TESTLAR BILAN ISHLASH



1-topshiriq. She’rni ifodali o‘qing, ko‘nglingizdan kechgan hislarni o‘rtoqlashing.

QISHLOQ SOG‘INCHI

Bir hasrat dardida o‘rtansa ko‘ngil,

Bir sog‘inch sirini so‘rasa sabo.

Yurakda og‘riqlar qatma-qat, mo‘l-mo‘l,

Shu og‘riq dardida ingrasa xayol.

Tosh uyning ichida yuragim toshloq,

Umrin o‘tayotir yonib, besamar.

Tez-tez borolmayman bag‘ringga, qishloq,

Ko‘zimda aks etmas – ko‘kingda qamar.

Yugurgim keladi ko‘chalarimga,

Garchi qondirolmam shaharlik didin.

Lekin sog‘inaman kechalaringda,

Yomg‘ir yoqqandagi tuprog‘ing hidin.

Hatto aylasam ham ko‘klarda parvoz,

Senga farzandligim aytaman, qishloq.

O‘zga chamanlarda topsam-da e‘zoz,

Baribir bag‘ringga qaytaman, qishloq. (Ra’no Fayzullayeva)



2-topshiriq. She’rdagi ajratib ko‘rsatilgan o‘rinlarni so‘z birikmasining tahlil tartibi asosida tasnif qiling.

1. Berilgan gapdagi soʻz birikmalarini aniqlab yozib chiqish.
2. Har bir soʻz birikmasini alohida-alohida tahlil qilish:
 - a) hokim soʻz va tobe soʻzni aniqlash;
 - b) hokim soʻz va tobe soʻzni bogʻlovchi grammatik vositani koʻrsatish;
 - d) hokim soʻz bilan tobe soʻzning birikish turini koʻrsatish;
 - e) hokim soʻz qaysi soʻz turkumi bilan ifodalanganishiga koʻra soʻz birikma turini aniqlash (otli soʻz birikmasi, feʼlli soʻz birikmasi);
 - f) tobe soʻzning gapdagi vazifasiga koʻra turini izohlash.



1-mashq. Berilgan gaplarni soʻz birikmalariga ajrating, jadvaldagi talablarga binoan tahlil qiling.

1. Kitob – yolgʻizlikda doʻst. Oʻqish bilan odam oʻzligini anglaydi. (J.Dyuamel)
2. Kitoblar jonsiz, ammo sodiq doʻstlardir. (N. Gyugo)
3. Oʻzimdagi barcha yaxshi xislatlar uchun kitobdan minnatdorman.(M.Gorkiy)
4. Yaxshi kitob hayotning beqiyos ganj-xazinalaridan biridir.(S.Smayls)

Soʻz birikmasi	Bogʻlovchi vosita	Bogʻlanish usuli	Hokim soʻzning ifodalanishiga koʻra turi	Tobe soʻzning sintaktik vazifasigakoʻra turi
Oʻzligini anglaydi	-ni	Boshqaruv usuli	Feʼlli birikma	Toʻldiruvchili birikma



3- topshiriq. Matnli testlar ustida ishlang. Mavzu yuzasidan bilimingizni mustahkamlang.

I. Bir kuni Amir Temur tez muddatda dunyo qoyil qoladigan madrasa qurib bitirishni niyat qilibdi. Mohir meʼmorni chaqirib, oʻsha kuniyoq ish boshlatmoqchi boʻlibdi. Meʼmor bunday binoni shoshilinch qurib boʻlmasligini qancha aytsa ham, Amir Temur koʻnmabdi. Noiloj qolgan meʼmor madrasaning joyini tayyorlab, poydevorini qoʻydirib, bir kechada gʻoyib boʻlib qolibdi. Yer-u koʻkni qidirib

topisholmabdi. Oradan ikki yil o'tgach haligi usta yana paydo bo'libdi-da, darg'azab Amirga:

– Siz istagan muddatda bu binoni qurib bitkazishim mumkin edi, ammo ming go'zal bo'lgani bilan uning umri uzoqqa bormasdi. O'ylanmay qilingan ishning oxiri voy. Siz aytgan binoni qurish uchun o'ylashga fursat kerak edi. Men ikki yil ko'rinmay ketgan davrimda shu haqda o'yladim. Qancha-qancha yurtlardagi qasri oliylarni ko'rib keldim. Ham boqiy, ham go'zal bo'lishi rejalarini tuzdim. Men bir bino yaratmoqchimanki, uning tepasida faqat osmon bo'ladi. **Osmon xalaqit bermasa, uni yana ham balandroq ko'tarishim mumkin bo'lardi,– deb javob qilgan ekan.**

1. Ushbu matnda ajratib ko'rsatilgan birlik haqida berilgan to'g'ri fikrni toping.

- A) so'z birikmalari soni to'rtta
- B) hokim bo'lak vazifasida faqat ot turkumi ishtirok etgan
- C) so'z birikmalari soni uchtani tashkil etadi.
- D) olmosh, son, ravish so'z turkumi tobe bo'lak vazifasida kelgan.

2. Matn bilan bog'liq to'g'ri hukmni toping.

- A) taqlid so'z egani aniqlab kelgan.
- B) moslashuvli tobe bog'lanishda hokim bo'lak undov so'z bilan ifodalangan.
- C) vazifadosh bog'lovchi so'z qo'shilmasini hosil qilmagan.
- D) faqat fe'l so'z turkumi tobe bo'lak vazifasida kelgan.

3. Ajratib ko'rsatilgan birlikda so'z birikmasining qanday turlari mavjud.

- A) faqat holli
- B) aniqlovchili, holli
- C) faqat to'ldiruvchili
- D) to'ldiruvchili, holli

4. Ushbu gapda daraja - miqdor ravishi qanday birikma hosil qilgan?

- A) bitishuvli
- B) boqaruvli
- C) moslashuvli
- D) boshqaruvli va bitishuvli

II. Miqyosi nafs deb qiladurgan amallarimizni, ishlarimizni shariat, insoniyat qonuniga muvofiq o'lub, o'lmaydig'ini vijdonimiz ila o'lchab ko'rmakni aytilur. Nafs o'lchovi haqiqiy bir o'lchovdurki, insonning o'z nafsiga loyiq ko'rmagan muomalani

boshqalar haqida ijro etmoqg'a qo'ymas, fikr egalari, insof sohiblari har vaqt nafs o'lchovidan tashqari harakat qilmas. Agarda bir sabab ila shariat hukmidan, insoniyat qonunidan chet ketsa, bu qabohatini nafs o'lchovi ila bilub, ikkinchi martaba qilmasga qasd va niyat qilub, shariat nizomidan, insoniyat chizig'idan chiqmaslikg'a sa'y va g'ayrat qilur. Alhosil, nafs o'lchovi ta'rifdan tashqari insonlar uchun eng foydali, har kimcha maqbul buyuk bir fazilatdur. Buyuk Iskandar: «Dunyoda eng haqiqiy, to'g'ri o'lchov nafs o'lchovidurki, bu mezonda zarra nuqson yo'qdur», – demish. Ibn Sino hakim: «Insonning **fazl-u kamolining** o'lchovi nafsning o'lchovi ila o'lchanur», – demish.

1. Ushbu matnda so'z qo'shilmasini hosil qilgan birlikni toping.

A) nuqson yo'qdur B) qasd va niyat qilib C) eng haqiqiy D) o'lchovi ila

2. Ushbu matnda ajratib ko'rastilgan so'z qanday bog'lanishni hosil qilgan?

A) moslashuvli B) boshqaruvli C) teng D) bitishuvli

3. Ushbu matnda vazifadosh biriktiruv bog'lovchisi qaysi gap bo'laklarini bog'lab kelgan?

A) hol B) ega va to'ldiruvchi C) aniqlovchi D) kesim

4. Ushbu matnda *bilan* ko'makchisining ko'rinishi necha o'rinda tobe bo'lak vazifasini bajargan?

A) 1 B) 2 C) 3 D) 4



2-mashq. Berilgan matnning mazmuniga e'tibor bering. Tobe so'zning hokim so'zga birikish usullarini topib daftaringizga ko'chiring.



Ko'k piyozning xosiyati

Ko'k piyoz ishtaha ochuvchi ko'kat sifatida iste'mol qilinadi. U inson organizmi uchun nihoyatda zarur oqsil moddasi, C vitamin, uglevod va karotin moddalarga boy.

Ekilgan no'sh piyozning bargi 40 santimetr bo'lganda, uni yig'ib olish kerak. Ko'k piyozning bargini qiymaga va somsaga solish foydali. Urug'idan chiqqan piyoz barra bo'lganda xomligicha ovqat bilan iste'mol qilinadi.

Piyozning shifobaxshligi shundaki, u mikroblarni qiradi, singa (lavsha) kasalligining oldini oladi, piyoz to'g'raganda chiqqan fitonsidlar gpipp mikroblarini o'ldiradi, sochni baquvvat o'stiradi.

Ko'k piyozni salqin xonada saqlash kerak. Harorat nol darajada bir hafta mobaynida rangi mazasini o'zgartirmaydi. Piyozning yashil rangi ozgargan bo'lsa, undan foydalanilmagani ma'qul. Yoz kunlari ikki-uch kundan ortia saqlangan ko'k piyoz o'z xususiyatini yo'qotadi. Ko'k piyozni taom bilan kuniga 3-4 dona iste'mol qilish foydali.

(«Toshkent oqshomi» gazetasidan)



«O'zbek tilining izohli lug'ati» kitobidan olingan quyidagi so'zlarning ma'nolarini bilib oling. O'z nutqingizda ulardan to'g'ri foydalanishga harakat qiling

Yovg'on. Yog'siz, go'shtsiz tayyorlanadigan suyuq ovqat. *Minnatli palovdan minnatsiz yovg'on yaxshi. (maqol)*

Dushvor. Qiyin, mushkul, og'ir. *Dushvor ish.*²⁵



Yer yuzida shunday tarjimon borki, u xohlagan tilda gapiring, u gapingizni tarjima qilib tilingizda javob qaytara oladi. Mantiqiy o'ylab ko'ring, qanday tarjimon so'ralmoqda?



3 -mashq. Uyga vazifa. Gaplarni so'z birkmalariga ajrating va ularni daftaringizga yozishni mashq qiling.

²⁵ O'zbek tilining izohli lug'ati. 5 jildli. A.Madvaliyev tahriri ostida. –T.: “O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi”. 2005-2008. Izohli lug'at II tom. 1981-y. 1.253-b 2-241-b

1. Odobni sershox kasbga oʻxshatish mumkin. Har bir yoshning, har bir kasbning oʻz odobi bor. 2. Mehnat – barcha xastaliklardan xalos etuvchi shifobaxsh malham. (N.Ostrovskiy) 3. Inson axloqini goʻzal va chiroyli qiladigan narsalardan biri yaxshilar bilan hamsuhbat boʻlishdir. («Imon»dan). 4. Bilimsiz kishilarning koʻngli xurofotga moyil boʻladi (Beruniy). 5. Hilm – axloqli odamning qimmatbaho libosi (A.Navoiy). 6. Oʻz yurtiga tegishli boʻlmagan odam insoniyatga ham tegishli emas (Belinskiy).

23-26-§. Gap boʻlamlari. Kesimning ifodalanishi va uning turlari



Topshiriq

1-topshiriq. Gaplarni oʻqing. Siz ham ilm haqida hadis, hikmat va maqollar ayting.

Hamma ezguliklar bilim tufaylidir. Bilim tufayli goʻyo koʻkka yoʻl topiladi. Soʻz boʻz yerga yashil koʻkdan tushdi. Soʻzi tufayli inson oʻzini ulugʻ qildi.

(Yusuf Xos Hojib)



Topshiriq

2-topshiriq. Gaplarni daftaringizga yozing, gap boʻlamlarining ostiga chizing.

1. Vadid Mahmud doʻstlari bilan birga Behbudiyning soʻnggi izlarini boshqa shaharlardan ham qidirgandi. 2. U Choʻlpon taʼsirida ozmi-koʻpmi barmoqda (barmoq vaznida) qalam tebratgan. 3. Isteʼdodli shoir Botu suronli davr zayli bilan 34 yil umr koʻrdi. 4. Botu haqida oʻylaganimda, uni yaqindan bilgan kishilardan biri Laziz Azizzodaning satrlari yodimga tushdi (N.Karimov). 5. Insonning axloq-odobini belgilaydigan omillardan biri uning soʻzi va nutqidir (A.Navoiy). 6. Mustaqillik tufayli millatning gʻururi, obroʻ-eʼtibori oʻsdi. 7. Ilm oʻrganmoq – eʼtiqodni mustahkamlash uchundir, ammo boylik ortirmoq uchun emas.

Nazariy ma'lumot. Gapda biror so'roqqa javob bo'lgan va o'zaro tobe bog'langan so'z yoki so'z birikmasi *gap bo'lagi* deb ataladi. Gap bo'laklarini belgilashda asosiy xususiyat ular orasidagi sintaktik aloqadir. So'zlarga so'roq berish, ularning qaysi turkumga mansubligi, gap ichida joylashish tartibi, qanday qo'shimchalar olishi tom ma'noda gap bo'laklarining turlarini belgilashda asos bo'la olmaydi. Gap bo'laklarining turi odatda bir-biriga nisbatan aniqlanadi: ega kesimga nisbatan, aniqlovchi aniqlanmishga nisbatan, hol hollanmishga nisbatan, to'ldiruvchi to'ldirilmishga nisbatan aniqlanadi. Nisbat beriluvchi bo'lak bo'lmas ekan, u yoki bu gap bo'lagi haqida gapirish mumkin emas.

Gap bo'laklarining gap tarkibidagi mavqei bir xil emas. Ba'zi gap bo'laklari gap qurilishida markaziy o'rinni egallaydi, bunday bo'laklarsiz fikr anglashilmaydi. Ayrim bo'laklar esa gap qurilishida asosiy rol o'ynamaydi, ularning ishtirokisiz ham bosh bo'laklar orqali fikr anglashilaveradi. Shunga ko'ra gap bo'laklari ikki turga ajratiladi:

- 1) *bosh bo'laklar*;
- 2) *ikkinchi darajali bo'laklar*.

Bosh bo'laklar gapning grammatik asosini tashkil qiladi. Fikr, asosan, gapning grammatik asosi orqali ifodalanadi.

Ikkinchi darajali bo'laklar gapning grammatik asosini tashkil qilmasdan, uni hajm jihatdan kengaytiradi yoki so'z birikmasini shakllantirish uchun xizmat qiladi.

Ikkinchi darajali bo'laklar bosh bo'laklar bilan yoki o'zaro tobe aloqada bo'lib, ularni izohlash, aniqlash, to'ldirish uchun xizmat qiladi.

Bosh bo'laklar **ega** va **kesimdan** iborat. Ikkinchi darajali bo'laklar **aniqlovchi**, **to'ldiruvchi** va **holdir**.

Nazariy ma'lumot. Gap tarkibidagi o'zaro tobe bog'lanishda bo'lgan so'zlardan bittasi tobe bo'lak, ikkinchisi hokim bo'lak vazifasini bajaradi. Tobe

bo‘lak hokim bo‘lakka bog‘lanib, hokim bo‘lak talab etgan sintaktik vazifada keladi. Ana shu vazifa gap bo‘lagi nomi bilan yuritiladi²⁶.

Gap tarkibida tobe bog‘lanib, ma‘lum so‘roqqa javob bo‘luvchi so‘z yoki so‘zlar birikmasiga gap bo‘lagi deyiladi²⁷.

Gap bo‘lagi tobe bog‘lanish doirasida, tobe qism vazifasida kelgan bo‘laklar hisoblanadi. Uning qaysi bo‘lak vazifasida kelayotganligi hokim bo‘lakka nisbatan aniqlanadi²⁸.

Gapda kesimgina boshqa bo‘laklarga nisbatlanmagan holda aniqlanadi, chunki uning kesim ekanligini kesimlik shakllari ko‘rsatib turadi.²⁹.

Kesimlik (shaxs-son, zamon, tasdiq-inkor, modal) ma‘nosini ifoda etgan bo‘lak gapning markaziy bo‘lagi – kesim deyiladi.



Kesimning turlari:

Kesimlik ma‘nolari kesimlik shakllari orqali ifodalanadi. Har bir kesimlik ma‘nosi alohida-alohida ifodalanishi mumkin. Masalan: *kel-yap-man*. **-yap** – zamon, **-man** – shaxs-son, hozirgi zamon. Bitta kesimlik shakli bir necha kesimlik ma‘nolarini ham anglatishi, ba‘zan kesimlik shakli umuman qo‘llanmasligi ham mumkin. Ammo mazmunda barchasi anglashilib turadi³⁰. Masalan: *yozgin*. **-gin** – kelasi zamon, II shaxs birlik, buyruq mayli. *Sen* – talaba (II shaxs, birlik).

^{26,128,129,130} A.Nurmonov, A.Sobirov, Sh Yusupova. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. T “ILM-ZIYO”. 2013. 467-bet, 168-bet.

³⁰ A.Nurmonov, A.Sobirov, Sh Yusupova. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. T “ILM-ZIYO”. 2013. 470-bet.



1-mashq. Gap tarkibidagi kesimlarni toping, jadvalda ko‘rsatilgan shakllar orqali tahlil qiling.

1. Yaxshidan bog‘ qolar, yomondan dog‘. (Maqol) 2. Dam o‘tmay u kaftlari bilan yassi peshonasini, baroq qoshlari aralash yuz-ko‘zlarini artardi. (O‘.U.) 3. Ajab, uyga qachon, kim bilan qaytdi? (T.M.) 4. Sizlarga sihat-salomatlik, ishlaringizga omad, xonadonlaringizga fayz-u baraka tilayman. (I.Karimov.) 5. Seningcha bu olmosning bahosi qancha? (V.Sh.) 6. Biz ishimizni bilib qilamiz. (T.M.) 7. Menda sen aytgan kitoblarning hech biri yo‘q edi.

t/r	Kesim	Tasdiq/inkor	Mayl	Zamon	Shaxs-son
1.					
2.					
3.					
4.					
5.					
6.					



2-mashq. Berilgan gaplardan kesimlarni toping. Qaysi so‘z turkumi bilan ifodalanganligi va tuzilishiga ko‘ra turlarga ajratishni mashq qiling.

1. Derazamning ro‘parasida bir tup daraxt yaproqlari oltin tusda sarg‘ayibdi. (X.D.) 2. Nihoyat, Azizbek ham yonidagi sodiq kishilar bilan qochib, o‘rdaga qamalishga majbur bo‘ldi. (A.Q.) 3. Xatiga qaraganda vafodor qizga o‘xshaydi. (I.Rahim) 4. U faqat bir narsaga idrok etdi – otasining hukmi mutloq to‘g‘ri! (T.M.) 5. Yakka chinor qishlog‘i yangi kelgan kishiga ko‘rimsizroq, betartibroq ko‘rinadi. (O‘.U.) 6. Binoyi kiyingan, xushsurat bu yigit kirib kelganida tabib boshining tosh yuragi yumshagan edi. (T.M.)



3-mashq. Matn bilan tanishing va xulosa chiqaring. Gap tarkibidagi kesimni aniqlab ifodalanishiga ko'ra turini aniqlang.

Limoning xosiyati



Erta nahorda bir yaproq limonni choyga solib ichsangiz, kayfiyatingiz yengillashib, ishtahangiz ochiladi. Buning sababi, limon inson qon tomiriga juda tez ta'sir ko'rsatadi. Qon tomir kengayib normal ishlashi, kayfiyatning ko'tarilishiga sabab bo'ladi. Limonda B₁, B₂, PP vitaminlar, qand moddasi, kaliy, kalsiy, magniy, fosfor va temir tuzlari mavjud. Shuningdek, organik kislatalar va C vitaminiga juda boy. Bosh og'riganda, shamollaganda, yurak qisilganda limonli choy ichih nihoyatda foydali. Limon po'stidan jem tayyorlash mumkin. Murabbolarga limon kislotasi, albatta, qo'shiladi.

Ko'pincha kuz va qish oylarida odam ko'p shamollaydi. Haroratning keskin o'zgarib turishi natijasida ko'pchilik tumov ham bo'ladi. Bunday paytda har kuni erta nahorda yupqa qilib yaproqlangan va ustiga shakar sepilgan limon choyga solib ichilsa, shamollashning oldi olinadi.

Limon erta bilan issiq choy yoki kofe bilan, kechki payt ovqatdan keyin iste'mol qilingani ma'qul.

(O.Karimova)



3-topshiriq. Yuqoridagi matn tarkibidagi kesimlarni tuzilishiga ko'ra turlarga ajrating.

Masalan: Ta'sir ko'rsatadi – murakkab fe'l kesim; ma'qul – sodda ot kesim.



«O‘zbek tilining imlo lug‘ati» kitobidan olingan quyidagi so‘zlarning yozilishini bilib oling. O‘z nutqingizda ulardan to‘g‘ri foydalanishga harakat qiling.

Xulq-atvor, boloxona, afv, yagana³¹, asqatmoq , xokandoz



O‘zbekiston, Urugvay, BAA, AQSH, Ukraina, Uganda. Bu davlatlarning ingliz tilini ishlatgan holda bog‘liqligini aniqlang.



3-mashq. Uyga vazifa. Gaplarning kesimini aniqlang. Maktabda olgan bilimingizga tayanib, bog‘lamali ot kesimlarni topishni mashq qiling.

1. Jamila sarvqomat, bejirim ayol edi. (Ch.A.)
2. Ammo shahzoda hech kimga parvo qilmas, o‘z aqliga, o‘z kuchiga mahliyo edi, ko‘p vaqtni otasining taxtida o‘tkazardi. (O‘.U.)
3. Musibatning birdan bir davosi mehnatdir.
4. Demak, qizlarda, ayol kishida, birinchi navbatda, aql-u farosat, idrok-u nazokat bo‘lishi kerak.
5. Ko‘kpiyoz darmonsizlik bilan kechadigan kasalliklarga davo hisoblanadi (Gazetadan).

27-28-§. EGA VA UNING IFODALANISHI.



Topshiriq

1-topshiriq. Matnni o‘qing, quyidagi savollarga javob bering.

Internet



Internetning kashf etilishi insoniyat hayotida katta o‘zgarishlarga sabab bo‘ldi. Dunyo aholisining soni hozir yetti milliarddan oshgan bo‘lsa, shundan uch milliarddan ziyodi internet tarmog‘iga ulangan. 2014-yilgi statistikaga ko‘ra, O‘zbekistonda ham

³¹ O‘zbek tilining imlo lug‘ati. –T.: “O‘qituvchi”. 2013.240b.454-455-b

aholining 40 foizdan ortig'i internetdan foydalanadi (bugungi kunda, albatta, bu raqamlar bir necha barorbarga oshgan) va bu raqam yildan yilga o'sib bormoqda. Shunday ekan, internetning foyda va salbiy tomonlari haqida batafsilroq ma'lumot olishga ehtiyoj bor. Ayniqsa, o'zbek tilida bu mavzuda manbalar juda kam. Shu bois «Sahar» maktabi orqali sizlarga internetdan xavfsiz foydalanish mavzusida amaliy mashg'ulot o'tishni niyat qildik.

Internet nima uchun kerak va uning qanday foydalari bor?

Ko'pchilik internetdan yangiliklar o'qish, musiqa tinglash, ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish kabi, asosan, ko'ngilochar maqsadlarda foydalanadi. Ammo internet insonlarga taqdim etadigan qulaylik va foydalar faqat bulardan iborat emas...³²

(«Sahar» maktabi)

Savollar:

1. Internet nima uchun kerak va uning qanday foydalari bor?
2. Internetdan qanday foydalanish kerakligini bilasizmi?
3. Internetdan foydalanishingizga ota-onangiz qanday fikr bildiradi?



Topshiriq

2-topshiriq. «...Ammo internet insonlarga taqdim etadigan qulaylik va foydalar faqat bulardan iborat emas...» Shu jumlaning daftaringizga yozing va o'zingiz internetdan qanday maqsadlarda foydalanishingiz haqida matnni davom ettiring.



Topshiriq

3-topshiriq. Yuqorida berilgan matndagi gaplarning egalarini aniqlang.

Nazariy ma'lumot. Ega kesim ifodalagan belgi, harakat-holatlarning egasi sifatida kesimdan keyingi bo'lak sanaladi. Kesimning kesimlik shakllari orqali anglashilgan bo'lak hisoblanib, kim? nima? qayer? so'roqlariga javob bo'ladi³³.

Ega, odatda, yakka so'z: ot, olmosh, harakat nomi, otlashgan so'z (sifat, son, olmosh, sifatdosh, ravish, taqlid so'z, undov so'z, modal so'z) bilan ifodalanadi.

³² <https://www.texnoman.uz/post/internetdan-xavfsiz-foydalanish-yollari.html>

^{33,135} A.Nurmonov, A.Sobirov, Sh.Yusupova. Hozirgi o'zbek adabiy tili. T "ILM-ZIYO". 2013. 476-bet

Eganing ot bilan ifodalanishi. Bosh kelishikdagi atoqli yoki turdosh ot ko‘pincha ega vazifasini bajaradi: Sirdaryo hammasini yig‘ib olib, rosa kuchga to‘ladi-da. (P.Q.).

Chor-atrof yaproqlarning mungli shivir-shiviriga to‘ldi. (O‘.H.).

Eganing olmosh bilan ifodalanishi. Ega bosh kelishik shaklidagi ot o‘rnida qo‘llanuvchi olmoshlar bilan ifodalanadi: Ular kulimsirab askiyaga quloq solishdi (P.Q.) Kimdir unga darrov bir kosa ovqat keltirib berdi. (O‘.Usmonov). O‘zingiz juda aqlli, uzoqni ko‘radigan odamsiz. (S.Soliyev).

Eganing harakat nomi bilan ifodalanishi. Ega harakat nomi bilan ifodalana oladi: ... ariqdan oqqan suvning shildirashi eshitila boshladi... (P.Q.). Boshliq bo‘lish oson, boshlamoq qiyin. (Maqol).

Eganing otlashgan sifat bilan ifodalanishi. Sifatlar otlashib, gapda ega bo‘lib kelishi mumkin: Botir topsa, barcha yer, baxil topsa, bosib yer. (Maqol). Yaxshi yaxshining qadriga yetar. (Maqol).

Eganing otlashgan son bilan ifodalanishi. Sonlar ham otlashib, ega vazifasida keladi: Ikkovi ham bir-biriga juda o‘xshash... (P.Q.). Tarbiya axloq va oqillikka tayanmog‘i lozim. Birinchisi yaxshi fazilatni o‘stirsa, ikkinchisi ba‘zilarning illatidan himoya qiladi. («Oz-oz o‘rganib dono bo‘lur»).

Eganing olmosh bilan ifodalanishi. Ega vazifasida sifat, son o‘rnida qo‘llanuvchi otlashgan olmosh bilan ham ifodalanadi: Bu, ehtimol, ona suti bilan kirgan g‘ayrushuuriy bir tuyg‘udir. (P.Q.). Odamlar uchun xuddi mana shunisi kerak edi. (CH.Aytmatov).

Eganing otlashgan sifatdosh bilan ifodalanishi. Bosh kelishikdagi otlashgan sifatdosh ega vazifasini bajaradi: Ishlagan xor bo‘lmas (Maqol). Oimirlagan qir oshar (Maqol). Birlashgan daryo bo‘lar, tarqalgan irmoq bo‘lar (Maqol).

Eganing otlashgan ravish bilan ifodalanishi. Ravish otlashganda, gapda ega bo‘lib kelishi mumkin: Ko‘p so‘zning ozi yaxshi, oz so‘zning o‘zi yaxshi (Maqol). O‘qishning erta-kechi bo‘lmas (Maqol).

Eganing otlashgan taqlid soʻz bilan ifodalanishi. Taqlid soʻzlar otlashib ega vazifasini bajaradi: *Otning dukura-dukuri relslarning tutashgan joyiga urilayotgan gʻildirak tovushi bilan uygʻunlashib ketardi. (Ch.Aytmatov). Bu shovqinlarni karnayning vat-vati bosib ketadi. (S.A.)*

Eganing otlashgan undov soʻz bilan ifodalanishi. Ega vazifasida otlashgan undov soʻz kelishi mumkin: *Yer kurrasida qadim-qadim zamonlardan yangragan musiqiy «qur-ey!» bunday keyin ham tinmaydi. (S.Nurov).*

Eganing modal soʻz bilan ifodalanishi. Modal soʻz ega vazifasini bajarishi mumkin: *Bor soʻylaydi, yoʻq oʻylaydi. (Maqol).*

Ega baʼzan **frazeologik ibora bilan** ham ifodalanishi mumkin: *Birovning koʻnglini koʻtarish qiyin, koʻnglini choʻktirish esa oson.*

Bundan tashqari, ega soʻz birikmasi yoki gapga teng predikativ birlik bilan ifodalanadi.

Eganing soʻz birikmasi bilan ifodalanishi. Ega vazifasida soʻz birikmasi kela oladi: *Haqiqat va toʻgʻrilikni sevadigan odam doim vijdoni farmoniga itoat qiladi. («Oz-oz oʻrganib dono boʻlur»).*

Eganing gapga teng predikativ birlik bilan ifodalanishi. Ega-kesim munosabati aks etgan predikativ birlik ega vazifasida kela oladi: *Bilagi zoʻr birni yiqitadi, bilimi zoʻr – mingni (Maqol).*



1-mashq. Gaplarni oʻqing. Egani topib, qaysi soʻz turkumi bilan ifodalanayotganini aniqlang.

1. Turnalar argʻimchogʻi gʻira-shira osmon ortiga – bulutlar bagʻriga singiydi. (X. Eshonqulov) 2. Hamma ham doʻstlarini, yaqin kishilarini eʼzozlaydi, ularning koʻp boʻlishini istaydi. 3. Navoiy, Bobur, Mashrab singari jahonga mashhur shoirlar ruhi hamisha bizni insoniy kamolot sari chorlab turadi. 4. Hunarli oʻlmas, hunarsiz kun koʻrmas. 5. Ikkovimiz dala aylandik, yangi qurgan nihollarimiz koʻzimizni

quvnatdi. 6. Bilgan bilganin ishlar, bilmagan barmog‘in tishlar. 7. Ko‘plari bu qarorni qo‘llab-quvvatlashdi. 8. Uzoqdan to‘plarning gumbur-gumburi eshitilardi. 9. Onaning ohi olamni tutdi. 10. Takrorlash bilimni mustahkamlashdir.



2-mashq. Matnni o‘qib, o‘zingizga xulosa chiqaring. Har bir gap tarkibidagi egani aniqlang va daftaringizga yozing.

Ota-onaga hurmat



Отанинг дуоси самога етар,
Онанинг ноласи Худога етар,
Ким қилса иккисин пойини тавоф,
Фақат, ўша фарзанд муродга етар!

Bolalar! Ota-onani hurmat qilish, ular oldida odob bilan turib, xizmatlarini bajarish hammamizning vazifamizdir. Ota-onalaringizni ranjitadigan so‘zlar aytishdan, ko‘ngillarini qoldiradigan ishlardan doimo saqlaning.

Aqlli bolalar ota-onalarini hurmat qilib, yetganicha ularga xizmat qiladilar.

Yomon so‘z aytishdan, achchiqlanib qarashdan o‘zlarini saqlaydilar. Ota-onaga qanday xizmat qilish haqida, aziz bolalar, sizlarga kichik bir misol keltiramiz:

Bir kishi kechasi uyqudan uyg‘onib, o‘g‘lidan «Suv ber!» deb so‘radi, o‘g‘li suv olib kelguncha, otasi yana uxlab qolgan edi. O‘g‘li: «Otam balki uyg‘onib suv so‘rar», – deb uxlamasdan otasining uyg‘onishini kutib tong otguncha o‘tirdi.

Mana, bolalar, odobli, tarbiyali bola shunday bo‘ladi. Ota-onalaringizni izzat-hurmat qilishga, ularning olqishlarini olishga intiling. Har bir bola ota-onasi qilgan nasihatlarini jon qulog‘i bilan eshitib, unga har vaqt amal qilishi kerak. Ota-onasiga ozor berib, ularning dillarini og‘ritadigan bola baxtli bo‘lmaydi.

Bayt:

Istasangkim yetmasin senga balo,

Ota-onangga sira qilma jafu.

«Donolar bisotidan»)



3-mashq. Uyga vazifa. «Bugungi kunda ayrim insonlar oliy dargohda o'qitishning sirtqi ta'lim shaklini afzal deb o'ylaydilar. Ba'zilar esa aksincha». Siz yuqoridagi fikrlarga qanday munosabat bildirasiz? O'z

munosabatlaringizni esse asosida yozing.

29-30-§ EGA VA KESIMNING SHAXS VA SONDA MOSLASHUVI. EGA BILAN KESIM ORASIDA TIRENING ISHLATILISHI



1- mashq. Quyida berilgan gaplardan ega va kesimni aniqlab, ulrning shaxsi va soni mos kelgan-kelmagani haqida fikrlaringizni bildiring.

1. Bu kunlarni ko'rib hayron qolasan kishi. 2. Ko'm-ko'k osmonda oppoq bulutlar izg'ib yuribdi. 3. Bu voqeadan xabar topgan odamlar tezda qishloq markaziga to'plandi. 4. Biz hamisha olg'a intilishga harakat qilamiz. 5. Oyim men yaxshi ko'rgan taomni mehr bilan tayyorlaydilar.

Nazariy ma'lumot. Ega kesim bilan grammatik va mazmun tomondan bog'langanligi uchun doimo kesimning shakliga mos shaklda turadi. Eganing kesim shakliga mos (shaxs-son) shaklda kelishiga moslashuv deyiladi³⁴. Ega kesim bilan sonda moslashmaydi.

Kesim bilan ega ba'zan son shakli bo'yicha moslashmasligi mumkin. Xususan, ega narsa, hayvonlarni bildiruvchi so'zlar bilan ifodalanganda ega bilan kesim sonda moslashmaydi. Masalan, Qushlar sayraydilar **emas**, Qushlar sayraydi³⁵.



2-mashq. Berilgan gaplarda ega va kesimning shaxs-sonda o'zaro mos yoki mos emasligini aniqlang, xulosangizni aytishni mashq qiling.

1. Kuz. Olovrang barglar yerga to‘shaldi. 2. Oyim – shifokor. 3. Men hozirda talabaman. 4. Kecha biznikida qarindoshlar bor edi. 5. Erta tongdan qushlar tinmay sayradi. 6. Buyuk insonlarning kamtarligiga hayron qolasan kishi. 7. Akam o‘z kasbining ustasi, u – uchuvchi. 8. Paranji yopingan ikki xotin sovchilikka kelibdi.

Nazariy ma’lumot. Kesim ot kesim bo‘lib, uning kesimlik shaklini ko‘rsatuvchi bog‘lamalar qo‘llanilmasa, u vaqtda kesim ohang yordamida shakllanadi³⁶.

Ot kesimning kesimlik shakllari maxsus ifodalanmay, ohang yordamida shakllanganda, shu tugallangan ohangni ifodalash uchun ega bilan kesim o‘rtasiga yozuvda tire qo‘yiladi³⁷.



Topshiriq

1-topshiriq. Berilgan gaplarga diqqat qiling, tirening qo‘yilishi yoki qo‘yilmaslik sabablarini aniqlang.

1. Zulfiya – o‘zbek shoirasi. 2. Sirni eshitishga qobil bo‘lgan ikki kishi bor: ularning birinchisi – vazir, boshqasi – kotib. 3. Bu yurtning tabiati go‘zal. 4. Shoshilish, yengil-yelpi ishlarga havas, jahldorlik – nodonlar ishi. 5. Bu dunyodagi eng yirik yov – nafsing. 6. Erishgan yutuqlarimdan do‘stlarim ham hayratda. 7. Bu gal kurashda sho‘rchiliklar birinchi. 8. Urush – quyon ovi emas. 9. Bu – hayot qonuniyati, biz uni inkor etolmaymiz va inkor etishga haqqimiz ham yo‘q. (I.Karimov). 10. Tanholik – shoirga dil ehtiyoji, xayolga oshnolik – buyuk baxtingiz.

Nazariy ma’lumot. Yozuvda ba’zan kesim bilan ega orasida tire ishlatiladi. Bu quyidagi holatlarda sodir bo‘ladi:

1. Kesim ot, olmosh, son bilan ifodalanib, -dir affiks bog‘lamasi qo‘llanmaganda: *Mehnat - hurmatning toji. (Maqol). Tashqaridagi gap – kir o‘radagi mag‘zava (Shuhrat). To‘rt karra to‘rt - o‘n olti.*

2. Gapning egasi yoki kesimi, yo bo‘lmasa ham egasi, ham kesimi harakat nomi bilan ifodalanib, **-dir** bog‘lamasi bo‘lmaganda: *Bekor yurish – illatning onasi, g‘urbatning makoni.* («Tafakkur gulshani»). *O‘qish - ulg‘ayish.* (Maqol). *Tilni bilish – dilni bilish* (Maqol).

3. Ega ko‘rsatish olmoshi bilan ifodalanib, kesim tarkibida affiks bog‘lama ishlatilmaganda: *Bular – ko‘m-ko‘k dov-daraxtlar.* (K.Yashin).¹



«O‘zbek tili omonimlarining izohli lug‘ati» kitobidan olingan quyidagi shakldosh so‘zlarning ma‘nolarini o‘qib o‘rganing. O‘z nutqingizdan ulardan to‘g‘ri foydalaning

Qo‘y I. Ot. Go‘sh, yog‘, jun olish uchun boqiladigan, kavshanuvchi ayri tuyoqli uy hayvoni. *Qo‘ychi, qo‘ybosh.*

Qo‘y II. Fe‘l. Biror sathni ishg‘ol qildirmoq, o‘rinlashtirmoq. *Boshini onasining yelkasiga qo‘ymoq.*

Qo‘y III. Ko‘makchi fe‘l. *Bog‘lab qo‘ymoq*³⁸.



Bolalarga mos savol: G‘orda qaroqchilar qarorgohi bor edi. U yerga kirish uchun maxfiy parolni aytish kerak edi. Bir qaroqchi kelganda qo‘riqchi unga 1 dedi, qaroqchi 3 deb aytdi va ichkariga o‘tib ketdi. Boshqa bir qaroqchi kelganda qo‘riqchi unga 2 dedi va u 4 deb javob berdi, u ham to‘g‘ri aytgani uchun o‘tkazib yuborildi. Boshqa bir qo‘riqchiga 7 raqami berildi u esa 5 deb javob aytdi. Uning javobi ham to‘g‘ri edi. **O‘ylab ko‘rib aytingchi**, 1-3, 2-4, 5-3 raqamlari qanday mantiq asosida tuzilgan?



3-mashq. Uyga vazifa. Savol va topshiriqlar ustida ishleng.


1. Ega qaysi so‘z turkumlari bilan ifodalanadi?
2. Eganing kesim bilan moslashmaslik holatlariga misol yozing.
3. Ega va ot kesim orasiga qanday holatlarda tire qo‘yish mumkin?

³⁸ Rahmatullayev Sh. O‘zbek tili omonimlarining izohli lug‘ati. –T.: “O‘qituvchi”. 1984. 216 b. 192-b

1. Jamolxonov H.A. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – T.: “Talqin” nashriyoti. 2005, 25-bet.

4. Ega va ot kesim orasiga tire qo'yilmaslik sabablarini aniqlang.
5. Ega va kesim orasida tirening noto'g'ri ishlatilishi qanday xatolik hisoblanadi?
6. Ega va kesim orasida tirening ishlatilishiga oid 5-6 ta misol topib yozing.

31-32-§. Hol, uning turlari va ifodalanishi



Topshiriq

1-topshiriq. Suratlarda mashhur Ermitaj muzeyi. Matnni o'qing. Karantin paytida Ermitaj muzeyi xodimlarining e'lon qilgan aksiyasi bilan tanishing.

Rossiyadagi dunyoga mashhur Ermitaj muzeyi tomonidan izolyatsiya xeshtegi³⁹ ostida aksiya e'lon qilingan edi.

Aksiyaga ko'ra, karantin munosabati bilan uyda o'tirganlar mashhur san'at asarlariga o'xshash kompozitsiyalar tayyorlab, ijtimoiy tarmoqlarga joylashtirishlari zarur edi. Qayd etish joizki, ushbu aksiya koronavirus pandemiyasi vaqtida uyda jon saqlayotgan minglab odamlar o'rtasida katta qiziqish keltirib chiqardi.

Hozirda feysbukda tashkil etilgan izolyatsiya ommabop guruhiga mashhur san'at asarlari nusxalarining yuzlab pastonovkalari fotolari joylashtirilmoqda. Ularda ishtirokchilarning fantaziyalari, yumoristik va romantik kayfiyatlari aks etmoqda.

Xo'sh, tasavvurga sal erk berib, bizda ham shunday kopirovkalar qilish mumkinmi, deb o'zimizga savol berib ko'ramiz. Albatta, mumkin!

Masalan, mashhur musavvirlar Abdulhaq Abdullayevning «Otello», Rahim Ahmedovning «Ona o'ylari» asarlariga taqlidan kompozisiyalar yaratish mumkin.⁴⁰



2-topshiriq. Savollarga javob bering.

1. Ermitaj muzeyi xodimlari qanday aksiya e'lon qilishdi?
2. Aksiya e'lon qilishdan maqsad nima edi?
3. Dunyoga mashhur yana qanday muzeylarni bilasiz?
4. Yurtimizda tashkil etilgan qaysi muzeylarda bo'lgansiz?



3-topshiriq. Matn tarkibidan hol bo'lagini aniqlang. Ular harakatning qaysi jihatlarini aniqlayotganini ayting.

Nazariy ma'lumot.

Hol ko'proq gap markazi – kesimga bog'lanib, undan anglashilgan ish-harakatning o'rnini, paytini, holatini, bajarilish sababini, maqsadini, daraja-miqdorini bildiradigan ikkinchi darajali bo'lakdir⁴¹.

Hollar qanday? qanday qilib? qay tarzda? qayerda? qayerga? qayerdan? qachon? nega? nima uchun? qancha? kabi so'roqlarning biriga javob bo'ladi.

Shunga ko'ra, o'rin holi, payt holi, ravish holi, daraja-miqdor holi, sabab holi va maqsad holi kabi turlarga bo'linadi⁴².



1-mashq. She'rni ifodali o'qing. Mazmunini gapirib bering. Hollarni topib, qaysi so'z turkumlari bilan ifodalanayotganini daftaringizga yozishni mashq qiling.

⁴⁰ <https://tarjumon.uz/20231script=lat>

⁴¹ M. Qodirov, H. Ne'matov, M. Abduraimova, R. Sayfullayeva. 8-sinf. Ona tili. Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. Toshkent – 2014. 82-bet.

⁴²

Kutish

Ballada

Bilmam to‘g‘rimidi va yoki xato,
O‘g‘ilchasin uch kun kuttirdi ota.

Uch kun unga umid bog‘ladi yetim,
Uch kun kir yengiga yig‘ladi yetim.

Keyin ota kutdi. Uch yillab kutdi.
Ko‘zi yoshdan xira, g‘iltillab kutdi.

Chiqib kunshuvoqqa, tom orqasiga,
Sog‘inchlarin ekdi tomorqasiga.

Keyin... o‘ttiz yillab ko‘zi yo‘l o‘ydi,
Keyin ko‘rmay qoldi. Ko‘ziyam to‘ydi.

So‘ng... timirskilanib chiqdi so‘riga,
O‘ldi. Shu yuk bilan ketdi go‘riga.

So‘ng...

U ham umr bo‘yi bo‘lganmidi xit –

Ular-chun uv tortdi hovlida ko‘r it. (Halima Xudoyberdiyeva.)



2-mashq. Gaplarni o‘qing. Hollarni aniqlang, ma’no turini yozing.

1. Shu payt hovli tomondan kimningdir tovushi eshitildi. (A.Q.)
2. Oddiygina shunday tanishdik-da, suhbatlasha ketdik. (Uyg‘un).
3. Endi siz qachon hisob berasiz? (A.Q.)
4. Mardlarcha kurashmoq – mardlarning ishi. (S.A.)
5. – Xo‘p, – dedim. Ko‘p savdolashmay kirani kelishdik. (O‘.U.)
6. Otaginam, men mol-dunyo uchun olishmadim. Mol-dunyo hirsidan o‘zimni hamisha saqlab keldim. (T.M.)
7. Boisi, o‘zga tumanlardan polvonlar ko‘p keldi. (T.M.)
8. Bir kuni osmoni falakni qora bulut qopladi. (O‘.U.)
- 9...Fotihadan so‘ng Hojar buvi darrov dasturxon yozdi, birpasda choy damlab keldi-da, nevarasining yoniga o‘tirdi. (O‘.U.)
10. Hovlida esa musicha hamon quqular, chars-chars yonayotgan g‘o‘zapoya ovozi unga qo‘shilib g‘alati, orombaxsh ohang kasb etardi⁴³. (O‘.U.)
11. Oilamiz bilan ertalab qishloqqacha yayov keldik.
12. Istadim sayr aylamoqni men g‘azal bo‘stonida

⁴³ Anorgul Atajonova, Muhabbat Jumaniyozova “Ona tili va adabiyot” fanidan mashq va testlar majmuasi. T.2018.

(E.Vohidov). 13. Shuncha kundan beri ularning kelishini intqlik bilan kutardim (Muallif). 14. Derazamning oldida bit tup O'rik oppoq bo'lib gulladi (H.Olimjon).



4-topshiriq. Matnini o'qing. O'zingizga kerakli xulosa chiqaring.

Tuya bergan dars



Bir kuni sichqon tuyaning yuganidan ushlab, uni o'zi bilan ergashtirib keta boshlabdi. Tuya muloyim jonivor emasmi, indamay, to'dasiga ham bildirmay sichqonning ortidan yurib boraveribdi. Bundan kibrlangan sichqon: «Men Alpomishday yigit ekanman-ku, shunday katta tuyani sudrab ketyapman-a», debdi. Garchi tuya sichqonning bu fikridan xafa bo'lgan bo'lsa-da, payt poylab, unga hali dars berib qo'yarman, degan o'y bilan yo'lda davom etaveribdi.

Sichqon **kibr bilan**, tuya **sukut bilan** yo'l yura-yura soy bo'yiga kelib qolishdi. Sichqon suvni ko'rgach to'xtab qoldi. U qo'rquvdan oqarib ketgan edi. Voqeani kuzatib turgan tuya sichqonga sezdirmaslikka harakat qilib shunday dedi: «Ey tog'larda, vodiylarda yuganimdan ushlab, menga yo'l ko'rsatuvchi sohibim, nega to'xtab qolding. Sen mening yo'l boshlovchimsan, sen yursang, ortingdan men ham yurar edim».

Sichqon ortga tisarilib dedi: «Bu suv juda ham chuqur, juda ham katta. Men bu yerda cho'kib ketaman-ku».

Suv tuyaning tizzasi bo'yicha kelar edi. «Eee, shu tizza bo'yi keladigan suvdan qo'rqyapsanmi?» – deya tuya sichqonning ustidan kula boshladi.

– **Tizza bilan** tizzaning farqi bor. Senga chumoliday tuyulgan narsa bizga ajdarhoday tuyuladi. Sening tizzangdagi suv bizning bo'yimizni o'n marta ko'madi.

– Unday bo'lsa, sen o'zingga o'xshagan **sichqonlar bilan** bo'y o'lchash. Tuyalar bilan bo'y o'lchashaman deb, yosh umringni xazon qilma.



Topshiriq **5-topshiriq.** Matn tarkibidan soʻroq berib, hollarni toping va jadvalga joylashtiring.

oʻrin holi	payt holi	ravish holi	daraja- miqdor holi	sabab holi	maqsad holi



Topshiriq **6-topshiriq.** Ajratib koʻrsatilgan oʻrinlarga alohida eʼtibor bering. Koʻmakchilar qaysi gap boʻlaklarini shakllantirishi mumkinligini izohlang.



2-mashq. Oʻqing. Gaplar tarkibidagi hollarni topib quyidagicha tahlil qiling: a) maʼnosiga koʻra turi; b) qaysi soʻz turkumi bilan ifodalanganligi; d) tuzilishiga koʻra turi (sodda yoki birikmali).

1. U koʻp vaqtini koʻzdan yiroq, xilvat va toqi ravoqda tanho oʻtkazar, ahyon-ahyon, hushi kelgan chogʻlardagina Yusufiyni chaqirib chogʻir buyurar edi. (X. Sulstonov) 2. Bu gaplarning barisini Hafiza xomush va oqilona tinglab, Umidning hamma fikrlariga qoʻshilishini bosh qimirlatib bildirardi. (Mirmuhsin) 3. Ertalab turganingda, kunduzi yurganingda, kechasi uxlaganingda hech qayering ogʻrimasligi shuning oʻzi baxt! (Oʻ.Hoshimov) 4. «Inson va Qonun» gazetasi 1996-yil 30-yanvardan chiqa boshlagan 5. Dunyoda mukammal narsa yoʻq. Hatto muhabbat deb atalmish oliy tuygʻuda ham adolatsizlik bor. Kim qattiqroq sevsa, oʻsha koʻproq iztirob chekadi. (Oʻ.Hoshimov)



«Oʻzbek tilining imlo lugʻati» kitobidan olingan quyidagi soʻzlarning yozilishini bilib oling. Oʻz nutqingizda ulardan toʻgʻri foydalanishga harakat qiling.

Pahlavonqomat , tatbiq, tamagir, tavsif, olampanoh⁴⁴ , tadqiq, taqiq, tafsilot



Boshlang'ich sinf o'quvchisi bu vazifani besh daqiqada, yuqori sinf o'quvchisi o'n besh daqiqada, oliygoh talabasi oltmish daqiqada yechadi, olim esa yecholmaydi.

Mana o'sha vazifa: «BIUTBOYESTO'» nimani bildiradi?



3-mashq. Uyga vazifa. Matnli testlarni bajaring. Mavzuga oid bilimlaringizni mustahkamlang.

I. Bir kishi quturgan tuyadan jonini qutqarish uchun **jar ustiga** egilgan ikki shoxga osilib, jar yoqasiga oyoq qo'yadi. Lekin oyog'i ostidagi indan to'rtta ilon bosh chiqarib turganini ko'rib qoladi. Jarining ostiga nazar tashlasa, u yerda ulkan bir ajdaho og'zini **katta ochgan**cha uning tushishini kutib turganligiga, yuqoriga qarasa, oq va qora sichqonlar u osilib turgan shoxlarni to'xtovsiz kemirayotganliklariga ko'zi tushadi. Bu ahvoldan qutulish chorasini o'ylab turganida shunday yonginasida asalari uyasini ko'radi va barmog'ini asalga botirib, yalay ketadi. Asalning shirinligi uning boshini shu darajada aylantirgan ediki, natijada u o'zining qanday ahvoldaligini unutib qo'yadi: oyoqlarini to'rt ilonning boshiga qo'yganligi va bu ilonlar uni **har lahzada** chaqib olishlari mumkinligi, sichqonlar shoxlarni kemirib bitirishlari va shox sinsa, u ajdaho komiga tushishi muqarrarligi xayolidan ko'tariladi. Jaholat pardasi aql nurini to'sib qo'yadi va oz fursat o'tmay, u jarga qulab halok bo'ladi.

1. **Bu hikoyatda oq va qora sichqon, to'rt ilon, asal, ajdaho majoziy ma'no ifodalamoqda. Ular nimaning ramzi ekanligini toping.**

A) ranglar, davr, shirinlik, hasad

B) kun va tun, dunyoning to'rt tomoni, boylik, sehr

C) kecha va kunduz, fasllar, nafs, o'lim

D) yaxshilik va yomonlik, , o'yin - kulgi, yovuzlik

2. **Ushbu matnda hollar qaysi so'z turkumi bilan ifodalangan?**

A) ravish , sifat

B) ot, fe'l

C) ot, fe'l, ravish

D) fe'l, ravish

⁴⁴ O'zbek tilining imlo lug'ati. –T.: "O'qituvchi". 2013.240b.296-;281-b

3. Ushbu matnda ajratib ko'rsatilgan so'zlar holning qanday ma'no turini hosil qilgan?

- A) ravish holi, miqdor-daraja holi, payt holi B) o'rin holi, ravish holi, payt holi
C) sabab holi, ravish holi, miqdor-daraja holi D) maqsad holi, payt holi, sabab holi

II. Ovchilar ta'qibidan qochib kelayotgan tulki o'rmonda bir daraxt kesuvchiga ro'para keladi va unga: «Meni yashir», – deb iltijo qiladi. Daraxt kesuvchi unga: «Bor, kulbanga kirib berkina qol», – deydi. Birozdan so'ng **bu yerga** ovchilar yetib kelishadi va daraxt kesuvchidan: «Ko'rmadingmi, shu yerdan bir tulki yugurib o'tmadimi?» – deb so'raydilar. Daraxt kesuvchi baland ovoz bilan: «Ko'rmadim», – deb aytadi, ammo ayni paytda tulkinging qayerga berkinganini qo'li bilan ko'rsata boshlaydi. Lekin ovchilar uning ishorasini tushunishmaydi, qisqasi, ovchilar uning gapiga ishonishib, jo'nab ketishadi. Nihoyat, tulki ovchilarning ot choptirib ketishganini eshitib kulbadan chiqadi va **churq etmay** keta boshlaydi. Bu holni ko'rgan daraxt kesuvchi unga: «Hoy, noshukur jonzot, axir, men seni o'limdan qutqarib qoldim-ku! Sen bo'lsang menga rahmat ham aytmay, juftakni rostlab qolyapsan-a?» – deb malomat qiladi. Unga javoban tulki deydi: «Agar aytgan so'zing bilan imo-ishorang bir-biriga mos bo'lganida rahmat aytardim».

1. Matnda alohida ajratib ko'rsatilgan so'zlar haqida berilgan to'g'ri ma'lumotni toping.

- A) barchasi sodda yasama ravish
B) holning bir xil turini hosil qilib kelgan
C) qo'shma fe'l va holning tarkibidagi undoshlarning barchasi jarangli
D) qo'shma ravish gapda o'rin holi vazifasida kelgan.

2. Matnda qo'shma fe'l holning qaysi ma'no turini hosil qilgan?

- A) miqdor-daraja holi B) ravish holi C) payt holi D) sabab holi

3. Yuqoridagi matn qaysi uslubga tegishli ?

- A) Badiiy uslub B) Ilmiy uslub
C) Publitsistik uslub D) Rasmiy-idoraviy uslub


33-34-§. TO‘LDIRUVCHI, UNING TURLARI VA IFODALANISHI



Topshiriq

1-topshiriq. Berilgan hikmatlarni o‘qing. Har biriga to‘xtalib, ularning mazmunini tahlil qiling.

- Ey ko‘ngil, ibrat ol, boq har tushgan yaproqqa,
U ham avval ko‘kdan boqardi tuproqqa.



- Ey do‘st, darding nima bo‘lsa bo‘lsin,
Umiding har zamon Alloh bo‘lsin.
 - Hamma yaxshiliklar sabrdan keyin keladi.
 - Ba‘zan tugash bilmagan dardlar yomg‘ir bo‘lib
ustingdan yog‘adi.
 - Shuni unutmaki, rango-rang kamalak yomg‘irdan
keyin chiqadi.
 - Men jim turaman.
 - Mening sirlarimni senga ko‘nglim aytadi.
- Diqqat et, ko‘ngil tovushini ko‘ngil eshitadi.
 - Bizga jon qulog‘ini ber. Tan qulog‘i kerakmas. (Jaloliddin Rumi)



Topshiriq

2-topshiriq. Vositasiz va vositali to‘ldiruvchilarni toping. Ular qanday so‘roqlarga javob bo‘layotganini ayting.

Nazariy ma‘lumot. Gapning kesimi bilan bog‘lanib predmetlik ma‘nosini ifodalovchi va kimni? nimani? kim (bilan, orqali, uchun, haqida), nima (bilan, orqali,

uchun, haqida) so'roqlariga javob bo'lgan ikkinchi darajali bo'lakka to'ldiruvchi deyiladi⁴⁵.

To'ldiruvchilar kesim bilan qanday bog'lovchi vosita yordamida bog'lanishiga ko'ra ikki xil bo'ladi: a) kelishikli to'ldiruvchilar; b) ko'makchili to'ldiruvchilar. Masalan, sen bilan (kim bilan?) olam munavvar gapida sen bilan bo'lagi ko'makchili to'ldiruvchi. Senga (kimga?) aytar gapim bor gapidagi **senga** bo'lagi kelishikli to'ldiruvchi sanaladi⁴⁶.

To'ldiruvchi hokim bo'lakdan anglashilgan harakatiga, munosabatiga ko'ra ikkiga bo'linadi: 1) vositasiz to'ldiruvchi; 2) vositali to'ldiruvchi.

Tushum kelishigi orqali ifodalangan to'ldiruvchi vositasiz, qolgan shakllardagi to'ldiruvchilar vositali sanaladi⁴⁷.



1-mashq. Maqollarni o'qing. To'ldiruvchilar qaysi so'z turkumlari va qanday vositalar bilan shakllanganini aniqlashni mashq qiling.

1. Bog'ingni zog'dan saqlamoqchi bo'lsang, unga e'tiborda bo'l. 2. Imsizga ishonch yo'q, Hunarsizga quvonch yo'q. 3. Yomg'ir bilan yer ko'karar, duo bilan el. 3. Onangni kaftingda tutsang, singlingni kiftingda tut. 4. Sen o'zingni maqtama, birov seni maqtasin. 5. Ishi borga bir kun hayit, Ishi yo'qqa har kun hayit. 6. Aql ko'pga yetkazar, Hunar – ko'kka. 7. Birni birov bersa, mingni mehnat beradi. 8. Ko'rganni eshitgan yengibdi. 9. Yantoqdan atir chiqmas, Qo'rzoqdan – botir. 10. Men ularning tepa sochi tikka bo'lishini sira kutmagandim. 11. Hasan aka G'anini uyga yuboribdilar. 12. Mixlangan qulog'idan, suv quyur oyog'idan. 13. Maxdum oilasini ham kiyim-kechak vajidan o'zi kabi tutar edi. 14. Birinchi bor bahorni tanigan, ilk bor varrak uchirgan, birinchi marta hayitlik olgan joying, birinchi o'qituvchi, birinchi muhabbatingni tanitgan makon – Vatandir.


^{45,147,148} A.Nurmonov, A.Sobirov, Sh Yusupova. Hozirgi o'zbek adabiy tili. T "ILM-ZIYO". 2013. 479-bet. 480-bet. 467-bet



Topshiriq

3-topshiriq. Matnni o‘qing. Unda qanday g‘oya ilgari surilganligi haqida gapiring.

Mehmondo‘stlik – ulug‘ fazilat



Odamlar orasidagi o‘zaro mehr-muruvvatning ibratli jihatlaridan biri mehmonnavozlikdir. O‘zbek xalqi asrlar davomida o‘zining mehmondo‘stlik udumlarini asrab kelmoqda. Zero, kimningdir uyiga mehmon kelishi – yaxshilik belgisi, mehr-oqibat, o‘zaro iliqlik, insoniylik ramzi. Mehmon bilan birga uyga rizq-ro‘z, hamdardlik, osoyishtalik kirib keladi, ko‘ngilsiyoxliklar, gina-kudurat unutiladi, qarindoshlar o‘rtasida totuvlik mustahkamlanadi.

Mehmon kutish kishilarda saxiylik, xushmuomalalik sifatlarini tarbiyalaydi, xasislik, xudbinlik, manmanlik illatlarini bartaraf etadi. Mehmon kirgan uyga yangi kayfiyat, yangicha ruh, do‘stlik kirib keladi.

O‘zbekiston qahramoni, O‘zbekiston xalq shoiri Erkin Vohidovning:

Do‘st bilan obod uying,
Gar bo‘lsa u, vayrona ham,
Do‘st qadam qo‘ymas ekan,

Vayronadir koshona ham, – degan satirlari xalqimiz mentalitetidagi noyob fazilatni – o‘zbek xonadoni eshiklari do‘stlar uchun doimo ochiq ekanini ifodalaydi.

Xalqimiz «*Mehmon kelsa eshikdan, rizqi kelar teshikdan*» der ekan, odamlarni bag‘ri keng bo‘lishga, bu dunyoga hamma o‘zining risqi bilan kelganiga ishora qiladi. Mehmonning shu fazilati uchun ham kelgan kishining ostiga yangi ko‘rpachalar yoziladi, ohorli idish-tovoqlarda taom tortiladi. Qo‘ni-qo‘shni ham chaqirilib, dilbar suhbatlar quriladi.

Albatta, har bir xalqning mehmon kutish udumlari turlichadir. Lekin bizning xalqimiz qaysi millat bo‘lishidan qat’i nazar, eshikdan kelgan odamning hurmatini

joyiga qo‘yib kutub oladi, lazzatli taomlar bilan siylaydi. Mexmondo‘st o‘zbek xalqi azaldan uyiga kelgan kishini ochiq yuz bilan kutib olishga odatlangan.



Topshiriq **4- topshiriq.** Matndagi imloviy xatolarni topib, tuzating.



Topshiriq **5-topshiriq.** Matndan to‘ldiruvchilarni toping va daftaringizga yozing.



«O‘zbek tili antonimlarining izohli lug‘ati» kitobidan olingan quyidagi so‘zlarning ma‘nolarini o‘qib o‘rganing. So‘z boyligingizni oshirishda ulardan unumli foydalaning.

Chalqancha. Yuzi osmonga qaragan holda. *Chalqanchasiga yotmoq.*

Yuztuban. Yuzi yerga qaragan holda. *Yuztuban yotmoq*⁴⁸.



Bir kema halokatga uchrab birgina erkak kishi omon qolibdi. To‘lqinlar uni faqat ayollar yashaydigan orolga eltib tashlabdi. Erkak hushiga kelganda ayollar uni qurbonlik qilish uchun tayyorlanishayotgan ekan. Ular erkakka so‘nggi so‘zlarini aytishini taklif qilishibdi. U so‘nggi so‘zlarini aytgach ayollar uni o‘ldirish o‘rniga qayiq yasab, oziq-ovqatlar bilan ta‘minlab qo‘yib yuborishibdi. Qiziq, erkak nima degan?



2-mashq. Uyga vazifa. To‘ldiruvchilarni toping va ularni ma‘naviy guruhlariga ko‘ra tahlil qiling.

1. O‘n yildan beri kichik ilmiy xodimlikdan bir enlik ham siljimabdi. (T.Malik)
2. Bir juma kuni so‘z Tolstoyning vafoti haqida ketib, Salimxon Abdulla To‘qayning shu munosabat bilan yozgan sochma she‘rini yod o‘qib berdi (A.Qahhor).
3. Zelixon sof ko‘ngilda to‘yona bergan bo‘lsa-da, gaplaridagi ohangda biroz manmanlik, minnat sezilgan edi. (T.Malik)
4. Oqpodsho qamchi sopini Ibodin soqov peshonasiga

⁴⁸ Rahmatullayev Sh. , Mamatov N. , Shukurov R. O‘zbek tili antonimlarining izohli lug‘ati.

–T.: “O‘qituvchi”.1980. 232 b.

nuqilaydi. (T.Murod) 5. – Ollodan qo‘rqinglar, bunday bema’ni urushga bel bog‘lashdan tiyilinglar. (T.Malik) 6. Sofdil va jonkuyar insonlar bilan bu dunyo oboddir. 7. Doston qahramoni bir kosa suv evaziga buloqni egallab yotgan ajdahoni o‘ldiradi.

35-36-§. ANIQLOVCHI, UNING TURLARI VA IFODALANISHI



Topshiriq **1-topshiriq.** She’ni ifodali o‘qing. Shukur Burhon haqida nimalarni bilasiz? Ma’lumot bering.



Shukur Burhon haqida qo‘shiq

Shukur Burhon ham qarib qoldi,
O‘xshab qoldi qadim qal’aga.
Cho‘kkan devor qaddin tiklaydi,
Shukur Burhon chiqqach sahnaga.
Endi undan kuchli odam yo‘q,

Yengar manaman degan yigitni.

U kuyladi misoli qo‘shiq

So‘zlararo yotgan sukutni.

Tanaffusda yana horg‘inlik

Yelkasiga tashlaydi kuchin.

Yuragida uxlar Ulug‘bek,

So‘ng sahnada hayqirmoq uchun

...Shukur Burhon tunda tush ko‘rar,

Tongga qadar cho‘ziladi tush.

Xo‘ja Ahror tasbeh o‘g‘irar,

Abbos xanjar o‘qtalar emish.... (Xurshid Davron)





Topshiriq

2-topshiriq. Matn tarkibidan aniqlovchilarni toping. Qanday soʻroqlarga javob boʻlayotganini aniqlang.

Nazariy maʼlumot. Maʼlum bir gap boʻlagi vazifasida kelgan predmetni bildiruvchi soʻzlarga bogʻlanib, uning belgisini bildirgan boʻlak aniqlovchi hisoblanadi.

Aniqlovchi aniqlagan boʻlak aniqlanmish deyiladi⁴⁹.

Aniqlovchilar predmetning qanday belgisini ifodalashiga koʻra uch turli boʻladi.

Predmetning belgisini (maza-taʼm, xil-xususiyat, miqdor, tartib, oʻrin-paytga munosabat) bildirgan aniqlovchilarga **sifatlovchi aniqlovchi** deyiladi⁵⁰.

Sifatlovchi aniqlayotgan predmet esa sifatlanmish deb yuritiladi. Sifatlovchi va sifatlanmish munosabati sifatlovchili birikma sanaladi.


Bir predmetning boshqa predmetga qarashlilik belgisini bildirgan aniqlovchiga **qaratqich aniqlovchi** deyiladi⁵¹. Qaratqich kelishigini qabul qilgan soʻz qaratqich aniqlovchi, u bogʻlangan boʻlak esa qaralmish deyiladi.

Qaratqich va qaralmish munosabati qaratqichli birikma hisoblanadi⁵².



1-mashq. Gaplarni oʻqing. Aniqlovchi va uning turlarini aniqlashni mashq qiling.

1. Ertasiga Mastura haqida yana bir koʻngilsiz gap eshitdik: bechoraning tomogʻidan hech narsa oʻtmasligi ustiga qornida tez-tez suv toʻplanar ekan. (A.Q.)



^{49,151,152,153.} A.Nurmonov, A.Sobirov, Sh Yusupova. Hozirgi oʻzbek adabiy tili. T "ILM-ZIYO". 2013. 490-bet.

2. Ular tor ko‘cha boshidagi kattakon xarsangtosh oldida xayrlashdilar. (O‘.H.) 3. Shu boisdan ham sevishtganlar odamlarning nazariga tez tushadilar. (X.Do‘stmuhammad). 4. Yana bilginki, tashqi dushmandan ham ko‘ra ko‘proq ularning aravasiga minganlar yomon. (O.Muxtor) 5. Odanning yaxshi, yomonligi boylikka, kambag‘allikka qaramaydi. (O.Muxtor)



2-mashq. Gapnlarni o‘qing, aniqlovchilarni jadvaldagi talablar asosida tasniflashni mashq qiling.

1. Xiyobonning ikki tomonidan ikki to‘p kishi baland tovushda gapirib, kela boshlashdi. (O.Muxtor) 2. Uning quvnoqligi, o‘zini erkin tutishi bilan faxrlanardim. (Ch.A.) 3. E’tiroz bildirgan kishining tovushi supurgi bilan urilgan arining tovushiday birdan o‘chdi. (A.Q.) 4. Devorlari nurab qolgan hovlining kungay tomonidagi ayvonda keksagina bir xotin kamzuliga tugma qadab o‘tiribdi. (S.A.) 5. Daryoning quyi tomonida ko‘ringan sel oqimi o‘rkach-o‘rkach to‘lqinlari bilan yuqoriga qarab bostirib kelardi. (T.Malik.)

a) sifatlovchi–aniqlovchi tahlili

t/r	sifatlovchi aniqlovchi	sifatlanmish	so‘rog‘i	qaysi so‘z turkumi bilan ifodalangani
1.				
2.				

b) qaratqich–aniqlovchi tahlili

t/r	qaratqich aniqlovchi	qaralmish	so‘rog‘i	qaysi so‘z turkumi bilan ifodalangani	qaratqichni shakllantiruvchi vosita
1.					
2.					

Nazariy ma’lumot. *Izohlovchi* aniqlovchining bir turi bo‘lib, u shaxs yoki narsani boshqacha nom bilan aniqlaydi. Izohlovchilar, ko‘pincha, ot so‘zlar bilan ifodalanadi.

Izohlanmish shaxsning millati, kasb-kori, nasl-nasabi, unvoni, laqabi, yoshi, qarindoshligi, jinsi va boshqa qo‘shimcha belgilarini tavsiflovchi bo‘lak izohlovchi aniqlovchi deyiladi.

Eslatma: Izohlovchi taxallus va o‘xshatish ma’nolarini bildirganda, izohlovchi bilan izohlanmish o‘rtasiga tire qo‘yiladi⁵³: Hayotning poyonsiz ummoni ichra Bor shunday g‘ariblar — temirlar hissiz. (A. Oripov)



3-mashq. Gaplarni o‘qing. O‘. Hoshimovning qaysi asaridan olingan parchalar ekanligini eslang. Izohlovchlarni toping va shaxsning qaysi belgilarini tavsiflayotganini aniqlang.

- Kimsan akam yalangoyoq loy tepadi.
- Orif oqsoqol ishboshi bo‘lib, u yoqdan bu yoqqa yuguradi.
- Zuhra kelin - Zokir akaning xotini. Xolposh xola ikkala kelinini birdek ko‘radi. To‘yga borsa bir yoniga Fotima kelinini, bir yoniga Zuhra kelinini olib cho‘g‘day yasantirib oboradi.
- Urushgacha mo‘rchasidan bo‘lak hech vaqosi bilan tanilmagan Rashid abzi to‘satdan eng mashhur odamga aylanib qoldi.
- O‘sha prokuror Xo‘jaqulovga, anavi so‘galli, so‘xtasi sovuqlarga, maktabda menga ta’na qilgan o‘qituvchi xotinga aytsam: «Senlar tufayli begunoh dadam qamaldi. Senlar tufayli maktabdan ketib qolgan edim, ana, ko‘rib qo‘y, otam dushman emas ekan-ku, qahramon bo‘pti-ku»,– desam...
- Ayvonda birov tomoq qirdi. Umar zakunchining yangroq ovozi jarangladi:
- Qayoqqa ketdi bizning soldat?
- Lazakat o‘qtin-o‘qtin, «bolamning ko‘zi yaxshi ko‘rmasdi-ku, endi nima bo‘ladi», deb nolir, Komil tabib esa vazminlik bilan indamay borar, qor yog‘ib turgan osmonga qarab-qarab qo‘yar edi.
- Shopmo‘ylovli Ismoil melisa chang solib, bolaning yelkasidan ko‘tardi.
- Tur! Kimning o‘g‘lisan?

⁵³A.Nurmonov, A.Sobirov, Sh Yusupova. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. T “ILM-ZIYO”.2013.490-bet.



«O‘zbek tili paronimlarining izohli lug‘ati» kitobidan olingan quyidagi so‘zlarning ma‘nolarini o‘qib o‘rganing. Ularning ma‘nolariga e‘tibor bering. Paronimlarga oid xatoga yo‘l qo‘ysangiz so‘z ma‘nosiga qanday ta‘sir qilishini o‘ylab ko‘ring.

O‘TKAZMOQ – O‘TQAZMOQ – O‘TQIZMOQ

O‘tkazmoq. O‘tish uchun imkoniyat yaratib bermoq, yo‘l bermoq. **Bolani ariqdan o‘tkazmoq.**

O‘tqazmoq. O‘tqazmoq. **Bolani stulga o‘tqazmoq.**

O‘tqizmoq. Ekmoq. **Ko‘chat o‘tkizmoq. Ikki go‘zal akatsiyani shu yerga o‘tqizdi. (H.G‘ulom)⁵⁴**



Bir vaqtning o‘zida 2 uy yonmoqda, biri badavlat kishiniki, ikkinchisi kambag‘al kishiniki. Qaysi uyni politsiya birinchi bo‘lib o‘chirishga shoshiladi?



4-mashq. Uyga vazifa. A.Oripovning «O‘zbekiston» qasidasini o‘qing. Unda nomi tilga olingan shaxslarni daftaringizga yozing. Izohlovchi bo‘lagi yordamida ularga tavsif bering.

37-38-§. Gap bo‘laklarining kengaygan birikmalar va iboralar bilan ifodalanishi




Topshiriq

1-topshiriq. « Abulfayzxon» dramasidan Siyovushning taxtga qarata aytgan gaplarini o‘qing. Yurtimiz tarixidagi eng qora kunlar haqida fikr yuriting.

...Sen fazilatlik bilimlarning qo‘l, qanotlarini uzib tashlading. Inju tizg‘uchi adiblarning qalamlarini o‘choq supurgisiga aylantirding. **Ota pichog‘i bilan bolalarini bo‘g‘izlading. Bola xanjari bilan otalarni yiqitding.** Do‘stlarni bo‘g‘ishtirding, o‘rtoqlarni urushtirding. Dalaning erkini, shaharning tinchini,

⁵⁴ Ma‘rufov A. Paronimlar lug‘ati. –T.: “O‘qituvchi”. 1974. 52 b. 47-b

erlarning g'ayratini, xotinlarning ismatini talatding. **Otamdan qochib, o'ziga sig'ing'an**im holda uyalmayin, boshimni kestirgan Afrosiyobingdan mana shu kimsasiz bolani og'ulatib yiqitqon **Rahimxonningg'acha** minglarcha yirtqich xoinlarni sen yaratding, sen yashatding. Ey insonning dushman tangrisi, qachong'acha bu ongsizlar to'dasini o'zingga ham topintirib, ham qurbon qilarsan?! Ey boyqushlar qafasi, bunday dev ishtiholiq hayvonlarning qo'li bilan qachong'acha dunyolarni bir-biriga urib turasan?! **Tinchlik saqlamoq bahonasi bilan millionlarcha inson ko'masini chuqurdan chuqurg'a yumalatmog'ingning zamoni hanuzg'acha bitmadimi?!**



Topshiriq 2-topshiriq. Ajratib ko'rsatilgan o'rinlarga diqqat qiling. Murakkab tuzilishga ega bo'lgan gap bo'laklarini toping.

Nazariy ma'lumot. Gap bo'laklari ba'zan bir so'z bilan ifodalansa, ba'zan ikki yoki undan ortiq so'z bilan ifodalanadi. Demak, gap bo'laklari tuzilishiga ko'ra ikki xil bo'ladi: a) sodda bo'laklar; b) murakkab bo'laklar.

Sodda bo'laklar bir so'z bilan ifodalanadi. Bunda qo'shma, juft, takroriy so'zlar bitta leksik birlik sifatida qaraladi va gapning yakka so'z bilan ifodalangan bo'lagi sanalaveradi⁵⁵. Masalan: Mezbonlar ularni samimiy kutib olishdi (A.Muhiddin).

Murakkab bo'laklar bir-biri bilan bog'langan ikki yoki undan ortiq so'z bilan ifodalanadi. Murakkab bo'laklar quyidagi hollarda ro'y beradi:

1. Kengaygan birikma gapning murakkab bo'lagini tashkil qilishi mumkin. Bunda keygaygan birikmadagi har bir so'z gapdagi boshqa bo'lak bilan yakka holda bog'lana olmaydi, bu o'rinda o'zi aloqador bo'lgan so'z bilan bir butunlikni hosil qiladi⁵⁶. Masalan : To'lanboy *Nizomjon ag'dargan* yerga razm solib boshini sarak-

⁵⁵ 157,158 F. A. Абдурахмонов, ш. Ш. Шоабдурахмонов, а. П. Хожнев. узбек тили грамматикаси. II том. Синтаксис. Узбекистон сср «фан» нашриёти. тошкент — 1976

sarak qilib qo‘ydi (S.Ahmad). *To‘rt tomoni baland uy-ayvonlar bilan o‘raglan* hovlida nafas bo‘g‘ila boshladi (Oybek).

Eslatma. Kengaygan birikmalar bilan ifodalangan gap bo‘laklarini ichki qurilishi jihatidan tahlil qilish mumkin. Bu ikkilamchi tahlil hisoblanadi. Masalan: *Ikki dugona* bir-biriga termulib qolishdi (H.G‘ulom). Misoldagi *ikki dugona* birikmasi yaxlit holda kim? so‘rog‘iga javob bo‘lib, ega vazifasida keladi. Ikkilamchi tahlilda *ikki* – aniqlovchi sanaladi.

2. Iboralar bilan ifodalangan gap bo‘laklari ham murakkab gap bo‘laklarini hosil qiladi. Iboralar birdan ortiq so‘zning o‘zaro bog‘lanishidan tuzilsa ham mazmunan va shaklan yaxlit bo‘ladi, bitta gap bo‘lagi vazifasini bajaradi⁵⁷. Masalan: Zuhra Karimovna, bu masala ustida ilgariyam, hozir ham ko‘p olimlar *bosh qotirgan* (S.Anorboyev).

Gap bo‘laklarining kengaygan birikma va iboralar bilan qo‘llanilish holatlari barcha gap bo‘laklari orasida uchraydi va ular murakkab ko‘rinishga ega bo‘ladi.



1-mashq. Gaplarni o‘qing. Kengaygan birikmalar bilan ifodalangan gap bo‘laklarining turini aniqlab daftaringizga yozing.

1. Rahbarimiz oqko‘ngil odam edilar. 2. Dudburondan tutun aralash chiqqan cho‘g‘ qorong‘ida aniq ko‘rindi.(O‘.H.) 3. Mayorning arpa bo‘yi dag‘al soqol bilan qoplangan, kirroq ko‘ringan yuzidan kinoyali, qiyshiq tabassum biroz o‘chdi. (O.) 4. Otlarning otxonaga olib o‘tilmagani Ziyodullani taajjublantirdi. 5. Jang boshlanganda o‘zini yo‘qotib qo‘yishga hech kimning haqqi yo‘q. 6. Umar zakonchi o‘z qo‘li bilan ruchka sovg‘a qilgani bolani judayam sevintirib yubordi (O‘.H.) 7. Direktor birga kelishga vaqt topmagandan keyin Davlatbekov oraga tushdi.(P.Q.)



2-mashq. Gap tarkibidagi iboralarni toping. Qanday gap bo‘lagi vazifasini bajarayotganligini aniqlab daftaringizga yozishni mashq qiling.

1. Ertaga elning og‘ziga tushadi, unda nima degan odam bo‘lamiz, xalq nima deydi? (S.A.) 2. – So‘zimni yerda qoldirmaslig‘ingizga ishong‘anim vajida, – dedi Og‘acha jiddiy tus olib, – siz bilan bu to‘g‘risida maxfiy bir-ikki og‘iz gaplashmoqchi edim. (A.Qod.) 3.Qani, og‘zimga gap kelsa, tilim o‘lgurga kaltak keldi-qo‘ydi. (S.A.) 4. Lekin tabiatan ko‘ngli ochiq kishi bo‘lgani uchun Sodiqni ko‘rib, o‘rnidan turdi. (Sh. X.) 5. Muqaddam sarg‘ish jingalak sochli, serharakat, bir gapirib o‘n kuladigan yigitni esladi. (O‘.H.) 6. Burgaga achchiq qilib ko‘rpani kuydirish yaxshi emas.



«O‘zbek tilining izohli lug‘ati» kitobidan olingan quyidagi so‘zlarning ma’nolarini bilib oling. O‘z nutqingizdan ulardan to‘g‘ri foydalanishga harakat qiling.

Doka. Yupqa harir ip gazlama. *Otabek o‘zining so‘l qo‘lini yupqa doka bilan o‘rab bog‘lagan va ko‘kragiga ko‘tarib o‘rab olgan edi. (A.Qodiriy)*

Bilvosita. Vositali ravishda biror kimsa yoki narsa vositasida, bavosita. *Bevosita va bilvosita ta’sir o‘tkazmoq⁵⁸.*



Finlyandiya, Norvegiya, Shvetsiyada yangi yil kuni uni sovg‘a qilishsa bilingki, sizga baxt va iliqlik istashayotgan bo‘ladi. Yunoniston va Ispaniyada u xavf-xatar belgisi bo‘lgan. Haqiqatdan ham, undan katta xavf bo‘lishi mumkin. Savol: U nima?



3-mashq. Uyga vazifa. Frazologik lug‘atdan foydalanib iboralarning ma’nosini aniqlang. Iboralardan kesim, ega, hol, to‘ldiruvchi, aniqlovchi bo‘laklarini shakllantirib gap tuzishni mashq qiling.

Avzoyi buzilmoq –

Boshi bilan sho‘ng‘ib ketdi –

Yuragiga qil sig‘maydi –

Ochiq yuz bilan –

Qordan qutulib, yomg‘irga tutilmoq –

⁵⁸ O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 5 jildli. A.Madvaliyev tahriri ostida. –T.: “O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi”. 2005-2008. Izohli lug‘at II tom. 1981. 1. 232-b 2- 112

Qo‘lini sovuq suvga urmaslik –
Sichqonning ini ming tanga bo‘ldi –
Boshi qotmoq –
Yuziga oyoq qo‘ymoq –

39-40-§. GAP BO‘LAKLARINING TARTIBI: ODATIY TARTIB VA O‘ZGARGAN TARTIB



Topshiriq **1-topshiriq.** She‘rni ifodali o‘qing. Unda qanday g‘oya ilgari surilgan?

BOBUR DARDI

Boshlab keldi bu yoqlarga oyoqlarim,
Qaytib ona tuprog‘imga ketolmadim.
Farg‘onada qolmish do‘st-u o‘rtoqlarim,
Qaytib ular visoliga yetolmadim,
Amudaryo, suvlaringdan o‘tolmadim...

Qorlar erir bu daryolar oqar toshib,
Ketgim kelar ona yurtga tog‘lar oshib,
Lekin dushman yo‘lim to‘sgay doim shoshib,
Ona diyor, visolingga yetolmayman,
Amudaryo, suvlaringdan o‘tolmayman...

Dushmanlarning qo‘li uzun zamon bo‘ldi,
Ona yurtim yov qo‘lida tamom bo‘ldi,
Tashlab chiqdim – bu ishim ko‘p yomon bo‘ldi,
Qaytib endi u yoqlarga yetolmayman,
Amudaryo, suvlaringdan o‘tolmayman.



Vafo qilmay jafo qildi do‘st-u yorim,
 Hind-afg‘onga boshlab keldi nomus, orim,
 Qaytmoq uchun garchi ko‘pdir ixtiyorim,
 Lekin ortga qaytolmayman, ketolmayman,
 Amudaryo suvlaringdan o‘tolmayman... (Abdulhay Sobirov)



Topshiriq 2-topshiriq. Siz ham Vatanni, oilani, ota-onani qadrlashga undaydigan sog‘inch hissini tuyganmisiz? Fikrlaringizni o‘rtoqlashing.



Topshiriq 3-topshiriq. She`rdagi gap bo‘laklarining o‘zgargan tartibda joylashgan o‘rinlarini toping. O‘zingiz ularni odatdagi tartibga o‘zgartiring.

Nazariy ma’lumot. Gap bo‘laklarining tartibi ikki xil bo‘ladi: O‘zbek tilida gap bo‘laklarining joylashishi tartibi erkin bo‘lsa ham, ular gapda ma’lum qoidalar asosida joylashadi. Odatdagi va o‘zgargan tartibda gap bo‘laklari quyidagicha bo‘ladi:



t/r	Odatdagi tartib	t/r	O‘zgargan tartib
1.	Ega oldin, kesim esa gapning oxirida keladi.	1.	Ega kesimdan keyin keladi
2.	Payt va o‘rin hollari egadan oldin keladi.	2.	To‘ldiruvchi kesimdan keyin keladi
3.	To‘ldiruvchi egadan keyin keladi.	3.	Vaziyat holi fe‘l-kesimdan keyin

			keladi
4.	Vaziyat holi kesimdan oldin keladi.		

Eslatma: Odatdagi tartib ilmiy uslub uchun xos. O'zgargan tartibdan esa she'riyatda yoki so'zlashuv nutqida foydalaniladi. O'zgargan tartib *inversiya* deyiladi.

Gap bo'lagi tartibi o'zgarishi quyidagi talablarda kuzatiladi:

1) badiiy nutqda, ko'pincha, she'riyatda;

Senga bo'ldim azaliy oshiq.

Bunga berar o'lim xotima.

2) hayajon kuchli bo'lganda: Oling qo'lingizni!

3) shior va chaqiriqda: Yashasin mustaqillik!

4) mantiqiy urg'u talabi bilan: Bordik biz. Ayting o'zingiz⁵⁹.



1-mashq. Gapnlarni o'qing. Ularning odatdagi yoki o'zgargan tartibda joylashganligiga diqqat qiling. O'zgargan tartib qanday talablar asosida sodir bo'lganligini daftaringizga yozing.

1. Zebi onasining javobini oldindan bilardi. 2. Gulla, yashna, mustaqil O'zbekiston! 3. Kecha guruhimiz yig'ilishi bo'ldi. 4. Zotiljam kasali-yu yurak siqilishi nimaligini bilmaydi o'sha xonadon ahli. 5. Mehmonxonadan ko'zlarini uqalay-uqalay Miryoqub chiqib keldi. 6. Kecha yosh havaskorlar bizga katta tomosha ko'rsatishdi. 7. To'xtat gapni! 8. Havoda ... yong'oq xazonlarining o'tkir hidi gurkirardi. 9. Bog'da yetti-sakkiz tup mevali daraxt, ikki chinor, ikki tup mirzaterak o'sgan edi. 10. Go'dakday uxlaydi tunda odamlar. 11. Istadim sayr aylamoqni men g'azal bo'stonida (E.Vohidov).

⁵⁹ Baxtiyor Mengliyev, O'ral Xoliyorov. O'zbek tilidan universal qo'llanma. Toshkent O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi «Fan» nashriyoti. 2008. 261-bet.



Topshiriq

4-topshiriq. Matnni o'qing. So'ng Razzoq so'fining jahl qilishi sababini izohlang.

«Kecha va kunduz» romanidan

...– Xudo xudo bo'lib turib, avval jon beradi, undan keyin oladi. Sen kimsan?

Xudodan zo'rmisan, taqsir?

– Bay-bay! Tiling kesilsin, badbaxt! Kofir!

So'fi o'sha xilda gapirganicha purning boshiga kelib to'xtadi.

– Yer jonidan – ilgari beradi, keyin oladi. Yerdan ham kuchlimisan, taqsir?

– Nima bo'ldi senga, so'fi? Jinni bo'ldingmi?

– O'zlari jinni, taqsir, o'zlari! Eshaklari jinni, itlari!..

– Hay, kim bor? Bolalar!– deb qichqirdi eshon, o'rnidan turib, orqaga tisarilib:

– Qochma, taqsir! Hovuchingni och! Men gadoy bo'lsam ham xurjunimning ikki ko'zi to'ladir... Sendaqalarni necha yil boqishga yarayman...

– Bolalar! – deb baqirdi yana eshon. O'zi tisarilib-tisarilib borib, xonaqoning bir burchiga qisilgan edi.

– Qo'rutmang, taqsir, bechora muridingizni. Men nima qildim sizga?

So'fi birdaniga yig'lay boshladi. Tashqaridan muridlar yugurib kelishdilar.

– Qayda qolding hammang? Chaqira berib tomog'im qirildi.

Olib chiq bu jinnini! Suvga pish!

Muridlar hammasi so'figa yopishdilar.

– Tegma menga!– deb bo'kirdi so'fi. – Men o'rus sudidan qochib qutilgan kishi bo'laman. Eshoningni sog' qo'yamanmi men? A?.... (Cho'lpon).



Topshiriq

5-topshiriq. Matndan gap bo'laklarining o'zgargan tartibda joylashgan o'rinlarni toping.

O'zgarish qaysi gap bo'laklari orasida sodir bo'layotganligini aniqlang.



«O‘zbek tilining imlo lug‘ati» kitobidan olingan quyidagi so‘zlarning yozilishini bilib oling. O‘z nutqingizda ulardan to‘g‘ri foydalanishga harakat qiling.

Yeyarmon-icharmon

Zehnsizlik⁶⁰



Bu «mashina» umuman harakatlanish uchun mo‘ljallanmagan. Ammo butun dunyodagi ularning yurgan «yo‘lini» hisoblasak, ular avtomobil va samolyot bosib o‘tgan masofadan ortib ketadi. Hammamiz ko‘rgan va ba‘zilarimizda bor bo‘lgan bu «mashinaning» nomi nima?



2-mashq. Uyga vazifa. She’rni ifodali o‘qing. Inversiyaga uchragan qatorlarni ajratib daftaringizga yozishni mashq qiling.

Nechun qulluq qilmay Andijonga men
Shu yurtda tug‘ilib, Shu yurtda o‘sdim,
Agar do‘stim bo‘lsa u bitta do‘stim
Nechun qulluq qilmay Andijonga men.
Yodimga o‘t tushsin etmasam yodlar
Dukchi Eshonlari qilgan faryodlar,
Uni tavof qilgan Mashrabdek zotlar
Nechun qulluq qilmay Andijonga men...

...Tuprog'in jannatdek qilguvchi g‘amza
Men o‘sha yam-yashil vodiyan maysa,
Ming jonim sadaqa bitta jilmaysa-
Nechun qulluq qilmay Andijonga men...

(M. Yusuf)

⁶⁰ O‘zbek tilining imlo lug‘ati. –T.: “O‘qituvchi”. 2013.240b.463-479-b

41-42- § TO‘LIQ VA TO‘LIQSIZ GAPLAR



1-mashq. Gap juftlaridagi birinchi gaplarga asoslanib, ikkinchi gaplardagi tushirib qoldirilgan bo‘laklarni tiklang.

1. Bir olimdan so‘rabdilar;
 - Ukangni ko‘proq yaxshi ko‘rasanmi, do‘stingnimi?
 - Ukamni, – deb javob beribdi u.
2. – Isming nima?
 - Qobiljon.
 - Kimning o‘g‘lisan.
 - Sobirjonning.

Nazariy ma‘lumot. Fikrni ifodalash uchun zarur bo‘lgan gap bo‘laklarining barchasi qatnashgan gaplar **to‘liq gaplar** deyiladi: *Ulardan xat keldimi?*

Nutq vaziyatidan ma‘lum bo‘lgan ayrim bo‘laklari tushirilgan gaplar **to‘liqsiz gaplar** deyiladi: – *Siz maktabga borasizmi? – Boraman (ega – men, hol – maktabga tushirilgan).*

To‘liqsiz gaplarning turlari: **1) dialogik nutq tarkibidagi:**– *Kim kelmadi? – Ahmad.* **2) ibora tarzidagi:** *Tug‘ilgan kuningiz bilan! Navro‘zingiz muborak!* **3) qo‘shma gap tarkibidagi:** *Yaxshidan ot qoladi, yomondan dod (qoladi).*

To‘liqsiz gaplar suhbatda, so‘zlashuv nutqida va badiiy asarlarda ko‘proq qo‘llanadi.



2-mashq. Quyida berilgan matnni o‘qing. Qaysi asarga tegishli matn deb o‘ylaysiz?

...Mirzakarimboy dargohidan tamom chekilgan Yo‘lchi bir oy har yerda darbadar kezib, bu kun singlisini ko‘rgali kelgan edi.

Unsin xizmatkorxonada eshigida magʻrur, lekin gʻamli, oʻychan holda turgan akasini koʻrish bilan yugurib borib, uni quchoqladi. Yigit singlisining boshini silab, dardli tabassum bilan termildi.

– Aka, nimaga jim boʻlib ketdingiz? Tobingiz yoʻqmi? Ozibsiz-a... Man sizni juda sogʻindim. Har kun tushimda koʻraman...– dedi qiz.

Yoʻlchi singlisini xizmatkorxonaga olib kirdi. Ikkisi ham namatchaga oʻtirishdi. Bir necha daqiqa soʻzlashgandan soʻng Yoʻlchi soʻradi:

– Unsin, bu oila qalay? Ketasanmi yo bu yerda qola turasanmi? Unsin javob bermadi, bir lahza oʻylagandan soʻng oʻzi savol qildi:

– Siz-chi?

– Man bu yerdan ketdim, – koʻzini yerga tikdi Yoʻlchi. Unsin onasidan yodgor qolgan va yagona ziynati boʻlgan yupqagina eski kumush bilaguzukni aylantirib gapirdi:

– Man ham qolmayman, aka. Yumushlari ogʻirdir, deb oʻylamang, yumush mayli, oʻzim xohlamayman.

– Nimaga?

Unsin akasining koʻzlariga gʻamgin, lekin chuqur mehribonlik bilan boqdi va koʻzlariga toʻlgan tomchilarni bazoʻr tutib javob berdi:

– Bu yerdagilar sizni xafa qilmagan boʻlsalar, siz birdan ketib qolarmidingiz? Siz xafasiz, yashirmang, aka. – Unsin biroz toʻxtab, soʻng yana davom etdi:

– Man bu uyda Gulnor opam uchun sochim oqarguncha xizmat qilishni istar edim. U mani tugʻishgan opadan afzal sevadi, shunday yaxshi juvon boʻladimi? Mani naq kichkina qizday quchoqlaydi, ovunadi, yonimdan ayrilgusi kelmaydi, baribir, man

bu uyda turmayman. Gulnor opani unutmayman sira, uni ko'rgali tez-tez kelib turaman...



Topshiriq

1-topshiriq. Matndan to'liqsiz gaplar qatnashgan o'rinlarni aniqlang va qaysi bo'laklar tushib qolgani haqida bahslashing.



Topshiriq

2-topshiriq. Xalq maqollari orasidan to'liqsiz gap qolipidagi maqollardan "kim ko'p topish" musobaqasi tashkil qiling.

Namuna: O'zingdan kattaga hurmatda bo'l, kichikka izzatda.



«Paronimlar lug'ati» kitobidan olingan quyidagi so'zlarning ma'nosini bilib oling. O'z nutqingizda ulardan to'g'ri foydalanishga harakat qiling.

BAYON – BOYON

BAYON – biror voqea yoki hodisani ifodalab berish. Bayon yozish. Bayon qilmoq.
1. Xo'p, bu o'rtoqning so'zini eshitaylik, so'ngra fikringizni bayon qilarsiz; – dedi rais Mirsobotga.(S.Ayniy.) 2. Har kim har turli fikr bayon qilib uzoq bosh og'ritdilar. (A.Qodiriy.)

BOYON – boylar. – Oyi, olam nurga to'ldi, ozodlik, inqilob oftobi chiqdi!.. Bo'nlr in-iniga kirib ketdi (Oybek.)

DIPLOMAT – DIPLOMANT

DIPLOMAT – davlatlar bilan aloqa qilib turuvchi hukumat vakili. Tajribali dimlomatlar tomonidan yozilgan bunday hujjatlar diqqat bilan o'qishdan tashqari, sinchiklab o'rganishni ham talab qiladi. («O'zb.ovozi»)

DIPLOMANT – oliy o'quv yurtlarida diplom olish uchun berilgan topshiriqlarni bajarayotgan student. Institutimizdagi diplomantlar o'z ishlarini yozib tugatdilar. («O'zb.madaniyati»)



3-mashq.Uyga vazifa. Ushbu rasm sizga bolalik paytlaringizni eslatdimi? Unday bo'lsa, xotiralaringiz asosida diologli matn tayyorlab, tengdoshingiz bilan fikrlashing.O'tilgan mavzular asosida bilimlaringizni mustahkamlang.



43-48-§. Uyushiq bo'lakli gaplar uslubiyati. Uyushiq bo'laklarning shakllari va ularda bog'lovchi vositalarning qo'llanishi.



Topshiriq

1-topshiriq. Matnni o'qing. Siz ham bolaligingizni, undagi qiziq voqealarni eslang.

Bolaligim bog'lari

Taxtapuldan chiqib kunchiqar tomonga biror chaqirim yurmasdan keng dala va bog'lar boshlanardi. Biz yoz bo'yi bilqillagan issiq tuproqni yalangayoq bosib, olmazor, uzumzorlarda o'ynar, polizlardan handalak, qovun-tarvuz uzib, yorib yerdik, ariqlarda cho'milardik.

Toshkent ahlining ko'pchiligi yozda dala hovlisiga ko'chib ketar, kech kuzgacha mehnat qilib qishlikni g'amlab qaytardi.

Hozirgi kichik halqa yo'l bilan Usta Shirin ko'chasi oralig'ida qarindoshlarimizning bog'lari, polizlari bo'lar, bahorgi qulupnay mavsumidan to kuzgi xazonchinakkacha, ham hashar, ham oshar deganlaridek, u yerlardan qadamimiz uzilmasdi. Yong'oq qoqish va terish bormi, tutga chiqib shox silkitish-u tut tagida chodir tutib turish bormi, hammasi bizning bo'ynimizda, o'ynab-yayrab bajarar edik.

Keksa tut shoxlari bizga ham top-atraksion, ham lyuks restoran edi. O'sha bolalik kunlarimni eslasam, dimog'imga jiyda gulining hidi keladi. Dala hovlining eshigi yonida o'sgan bir tup jiydadan atrofga shirin bo'y taralar, uning tagidan nari ketgim kelmasdi. (E.Vohidov)



Topshiriq

2-topshiriq. Matndan uyusliq bo'laklarni ajrating. Qaysi gap bo'laklari uyushganligini aniqlang.



Topshiriq

3-topshiriq. Uyushgan bo'laklarni tanlashda nimaga asoslanib ajratdingiz? Shu haqda xulosalang.

Nazariy ma'lumot. Gapda ikki va undan ortiq bir xil gap bo'laklari ishlatilishi mumkin. Bir umumiy bo'lakka tobe bog'lanuvchi, bir xil sintaktik vazifa bajaradigan, o'zaro teng bog'lovchilar va sanash ohangi yordamida bog'langan, ko'pincha bir xil so'roqqa javob bo'luvchi ikki yoki undan ortiq bo'laklarga uyushgan bo'laklar deyiladi.



1-mashq. Gaplarni o'qing va uyushib kelgan gap bo'laklarini topib jadvaldagi talablar asosida tahlil qiling.

1. Ma'ruzachiga qiziq, kishini hayratda qoldiradigan savollar berishdi. 2. U goh Toshkentga, goh Andijonga ketib, uzoq-uzoq turib qolar edi. 3. Shu onda chiroq sharaqlaganicha borib shipga urildi-yu, yerga tushib chilparchin bo'ldi va birdaniga

ikkita o‘q chiqdi. Yerga tushgan chiroq bir-ikki lopilladi-yu, avval ko‘k, keyin qizg‘ish alanga ko‘tarildi. 4. Bo‘taboy tin olmay, goh bosh chayqab, goh qoshini kerib, goh «Ana! O‘h, o‘h-o‘h!» deb quloq soldi. 5. Odamlarda g‘ayrat va tashabbus yashnab ketdi... 6. Bizning matbuot ham, radio ham – hamma-hammasi mana shunga qaratilgan bo‘lishi kerak.

Uyushuq bo‘lak	Uyushgan bo‘lak nomi	Bog‘lovchi vositalari	Grammatik shakli bor /yo‘qligi	So‘z turkumlarining bir xil yoki har xilligi
<i>Namuna:</i> mehr, yer, suv, olovni e‘zozlash	vositasiz to‘ldirivchi	ohang yordamida bo‘g‘langan	-ni . eng oxirgi uyushiq bo‘lakka qo‘shilgan	bir xil—ot

Savol: Uyushiq bo‘laklar bir xil gap bo‘laklari ekan , bir xil so‘z turkumi ham bo‘la oladimi?

Nazariy ma‘lumot. Uyushgan bo‘laklarning xarakterli xususiyati shundaki, ular bir xil grammatik shaklda bo‘ladi. Bu grammatik shakllarning qo‘llanilishi ikki xil bo‘ladi:

a) uyushgan bo‘laklarning har birida takrorlanadi:

Yam-yashil vohalarga,

Badiiy lavhalarga,

She‘riy sarlavhalarga,

Boy ekansan, Farg‘ona.

Bunday vaqtda uyushgan bo‘laklarning har biri ta‘kidlangan bo‘ladi;

b) uyushgan bo‘laklarning eng oxirida qo‘llanilib, hammasi uchun tegishli bo‘ladi:

Toshkent, Samarqand, Buxoroda bo‘lishdi. Bunday vaqtda sanalayotgan bo‘laklarning har qaysisi ta‘kidlanmaydi, balki sanab ko‘rsatiladi⁶¹.

^{61.163} A.Nurmonov, A.Sobirov, Sh Yusupova. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. T “ILM-ZIYO”. 2013.467-bet, 459-bet

Uyushgan bo‘laklar o‘zaro teng bog‘lovchilar, bog‘lovchi vazifasidagi yordamchi so‘zlar (ham,-u(-yu), na...na...yuklamalari, bilan ko‘makchisi) va sanash ohangi yordamida bog‘lanadi⁶².



2-mashq. Gaplarni o‘qing. Gap bo‘laklarining birdan ortiq qo‘llash mumkin bo‘lgan o‘rinlarini toping. Uyushiq bo‘laklar qo‘shib fikringizni kengroq ifodalashni mashq qiling.

1. Xurmo mevasi sovuqqa chidamli. 2. Shahrimizda qurilayotgan yangi uylar uning xayolini band etgan. 3. Lola dugonasi Oygizning jasoratiga qoyil qoldi. 4. Gazetalarda e‘lon qilinayotgan yangiliklardan xabardormisiz, do‘stim? 5. Mirzakarimboy hayajonli tovush bilan qizini duo qildi. 6. Yigit boshini baland ko‘tardi, xursand holda qadam tashladi.



«O‘zbek tili paronimlarining izohli lug‘ati» kitobidan olingan quyidagi so‘zlarning ma‘nolarini o‘qib o‘rganing. Ularning ma‘nolariga e‘tibor bering. Paronimlarga oid xatoga yo‘l qo‘ysangiz so‘z ma‘nosiga qanday ta‘sir qilishini o‘ylab ko‘ring.

SHAHID – SHOHIID

Shahid. Haqqoniy, to‘g‘ri ish uchun qurbon bo‘lgan. *Shahid bo‘lmoq.*

Shohid. Guvohlik beruvchi shaxs, guvoh. *Ammo mulla Muhsin, alohida fikrlash qoldi. Ayblamoq uchun uch nafar shohid zarur. (A.Qahhor)*⁶³




Kulgili savol: Qishloqqa kelgan sayyohlarni doim bir narsa ajablantirar ekan. U yerda telbaroq bir o‘spirin bo‘lib, sayyohlar unga 50 sentlik yaltiroq tanga yoki 5 dollarlik qog‘oz kupyuralardan birini olishni taklif qilishsa, doim 50 sentlikni tanlar ekan. Holbuki, 50 sent 5 dollardan 10 barobar kam. Qiziq, telba o‘spirin nega doim 50 sentlik tangani tanlashi mumkin? Balki, bunga sababi bordir, juda telba ham emasdir?

⁶³ Ma‘rufov A. Paronimlar lug‘ati. –T.: “O‘qituvchi”. 1974. 52 b.45-b



3-mashq. Uyga vaziga. Imom al - Buxoriyning «Al-Adab al-Mufrad» asaridan olingan hadislarni o‘qing, undagi fikrlarni tahlil qiling. Qaysi gap bo‘laklari uyushganligini va bog‘lovchi vositalarini aniqlang.

❖ Abu Hurayra aytdilar: «Rasululloh (s.a.v.):«Uch toifa kishilarning duosi hech shubhasiz Alloh taolo qoshida maqbuldir: mazlum kishining duosi, musofirning duosi va ota-onaning duosi», deganlar .



❖ Abdulloh ibn Amr Oss (r.a.) aytdilar: «Rasululloh: «Kishi o‘z ota-onasini so‘kishi katta gunohdir», dedilar. Sahobiyalar: «Yo Rasululloh, kishi o‘z ota-onasini ham so‘kadimi? » – deb so‘rashganda, Rasululloh: «U kishi bir odamni so‘kadi, u odam ham avval so‘kkan kishining otasini ham, onasini ham so‘kadi», dedilar». Demak, kishi birovni so‘ksa, keyin o‘sha odam uning ota-onasini ham so‘kadi, shu bilan u bilvosita o‘z ota-onasini so‘kkan bo‘ladi⁶⁴.

49-69-§. Bosh va ikkinchi darajali bo‘laklarning uyushib kelishi. Ularda umumlashtiruvchi so‘zlar va tinish belgilarining qo‘llanishi



Topshiriq

1-topshiriq. Suratlariga qarang. Bir qarashda nimalarni o‘yladingiz. O‘zingiz istiqomat qiladigan shahar, qishloq, ko‘chalarda ham shunday manzaralarni ko‘rganmisiz?

Munosabat bildiring. Yechim topishga harakat qiling.



⁶⁴ <https://kh-davron.uz/kutubxona/multimedia/muhaddislar-sultoni.html>



Topshiriq

2-topshiriq. Suratdagi manzaralarga asoslanib «Ona-tabiat» yoki o‘zingizga yoqqan sarlavha asosida gazetaga maqola yozing. Gapning uyushiq bo‘laklaridan foydalaning.

Nazariy ma’lumot. Gapda bosh bo‘laklar ham, ikkinchi darajali bo‘laklar ham uyushib keladi. Uyushgan bo‘laklar ishtirok etgan gaplar uyushiq bo‘lakli gaplar hisoblanadi⁶⁵. Kesim uyushib kelganda uni shakllantiruvchi vositalar: zamon, shaxs-son, mayl, tasdiq-inkor shakllari, bog‘lama va ko‘makchi fe‘llar oxirgi bo‘lakka qo‘shiladi⁶⁶.

Fe‘l kesim uyushadi: Qobil bobo qo‘l qovushtirib uning ketidan yurar va yig‘lar edi. Men uzoq yillardan buyon shu shaharda yashab, o‘qib, ishlab kelyapman. U allaqachon yozib, chizib bo‘ldi.

Ot kesim uyushadi: U juda kamgap va qaysar edi. Biz o‘z ko‘zimiz bilan ko‘rishimiz va ishonch hosil qilishimiz kerak.

Agar ushbu vositalar har bir kesimga qo‘shilsa, bunday gap uyushiq kesimli sodda gap emas, qo‘shma gap hisoblanadi: Bularni mirzolarga havola qilar edi va javobini kutar edi.

Kesimlik ko‘rsatkichlari bilan shakllangan ikki va undan ortiq kesimli gaplar qo‘shma gaplar sanaladi⁶⁷.

Bir sodda gap tarkibida birdan ortiq ega qator kelishi mumkin. Sodda gap kesimiga bir xil munosabatda bo‘lib, sanash ohangi bilan aytiluvchi birdan ortiq eganing ketma-ket kelishi uyushiq ega hisoblanadi⁶⁸: Tiniq suvlar, ko‘m-ko‘k daraxtlar unga cheksiz zavq bag‘ishlaydi.

Gap tarkibida hol, to‘ldiruvchi va aniqlovchilar ham uyushiq holda kelishi mumkin.



1-mashq. Gaplarni o‘qing, uyushgan ega va kesimlarni topishni mashq qiling.

⁶⁵ A.Nurmonov, A.Sobirov, Sh Yusupova. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. T “ILM-ZIYO”.2013.468-bet

⁶⁶ Mengliyev B. , Xoliyorov O‘. , Abdurahmonova N. O‘zbek tilidan universal qo‘llanma. 6-nashr. –T.: “Akademnashr”.2018.

^{67,169} Mengliyev B. , Xoliyorov O‘. , Abdurahmonova N. O‘zbek tilidan universal qo‘llanma. 6-nashr. –T.: “Akademnashr”.2018.

1. Bilib qo‘ying, o‘rtoq Komilov! Kelajak va tarix sizning bu xatti-harakatlaringizni kechirmaydi! (O.Y.) 2. Kampir yangi ko‘rpacha solib, Abdullani o‘tkazar ekan, sevinchi ichiga sig‘may, shang‘illab gapirar, Abdulla esa javob berishga ulgurolmay jilmayardi. (O‘.U.) 3. Yigit yalt etib qo‘shni dalaga qaradi. U yerda xotin-xalajlar, bola-chaqalar chuvullashib paxta terishayotgan edi. (M.I.) 4. Xona past, bozorga ochiladigan derazasining bir ko‘ziga qog‘oz yopishtirilgan, havosi bo‘g‘iq, achigan non, paypoq hidi kelar, lekin sim karavotlarga yap-yangi guldor ko‘rpalar solib qo‘yilgan edi. (Sh.X.) 5. Bir lahzadan keyin ko‘z o‘ngidagi narsalar tag‘in siyrak tumanlik ichida yo‘qoldi-yu, yana alahlay, g‘o‘ldiray boshladi. (O‘.H.)



2-mashq. Gaplarni o‘qing. Qaysi gap bo‘laklari uyushib kelayotganligini aniqlab daftaringizga yozing.

1. Ketma-ket uzatilgan chelak va savatlarni keksalar yerga ag‘dardilar, xirmon borgan sari ko‘paydi. (O.) 2. Madrasa talabalari orasida hatto yigirma-yigirma besh yil mobaynida matonat va ijti hod bilan tahsil qiluvchilar borligini aytdi. (O.) 3. Bir zumda mashinani ham, izini ham ko‘zdan yo‘qotdik. 4. Avvalo, qishning sovuq nafasi seziladi. So‘ng tog‘larning, uning etagidagi qishloqlarning aybini berkitmoqchi bo‘lganday qor yog‘a boshladi. (T.M.) 5. U hamon dag‘-dag‘ titrar, nazarida mudhish bir chohga qulab tushayotganday tuyular, lekin endi to‘xtab, orqaga qaytishning iloji yo‘qligini ham sezardi. (O.Y.) 6. Kishining boshiga tushgan kulfat nechog‘lik og‘ir bo‘lmasin, uni sabr-u toqat va iroda bilan yengish mumkin. 7. Qilich ikkinchi piyoladagi choyni ichib ulgurmay eshik ochilib, jussasi kichik, eti ustixoniga yopishgan, qaldirg‘och mo‘ylabi o‘ziga yarashgan odam ko‘rindi. (T.Malik)



3-topshiriq. Gaplarni o‘qing. Ularning tarkibida uyushiq bo‘laklar qatnashgan yoki qatnashmaganligini maktabda olgan bilimingizga tayanib izohlang.

1. Mashina keng yo‘lga chiqdi-yu, yo‘lda **tuyaday ko‘ndalang cho‘kib yotgan** qumlarga duch kelib, yurishi sekinlashdi. (Sh.R.) 2. Men qo‘limdagi chiroyli **guldastani onamga** olgan edim. (P.Q.) 3. U **kecha ertalab** biznikiga kelib ketdi.

4. **Kichkina qora** uyga yig'ilgan yetti-sakkiz kelin uying chetiga qator tizilishib o'tirar edilar. 5. U **qalin jun** ro'moli bilan o'rangan rus ayoli edi.

Nazariy ma'lumot.

To'ldiruvchi har xil ma'noni bildirib, turli shakllarda bo'ladi. Shunga ko'ra, har qanday yonma-yon kelgan ikki yoki undan ortiq to'ldiruvchi uyushiq hisoblanavermaydi⁶⁹.

Sifatlovchilar bir nechta bo'lib, ularning oldingisi bevosita sifatlanmishga bog'lanmay, o'zidan keyingi kelgan sifatlovchi bilan sifatlanmish birikmasiga aloqador bo'lganda uyushiq sanalmaydi: Uning *katta qora* ko'zlari. Bunda qora so'zi ko'zlar so'ziga nisbatan sifatlovchi, katta so'zi esa qora ko'zlar birikmasiga nisbatan sifatlovchidir⁷⁰.

Ketma-ket kelgan, lekin sanash ohangi bilan aytilmaydigan, yozuvda orasiga vergul qo'yilmaydigan hol uyushmagan hisoblanadi. Uyushmagan hol o'zi bog'langan bolakning turli tomoniga oid belgini anglatadi: *Bugun maktabda ota-onalar majlisi bo'ladi. Payt hollarida bu holat ko'p ko'zga tashlanadi: Xurshida, ertaga ertalab aeroportga borishim kerak.*



4-topshiriq. Gapnlarni o'qing. Uyushiq bo'laklarni jamlab, umumlashtirib keluvchi so'zlarning ostiga chizing.

1. Umrzoq hamma narsani: konvertni ham, mayda-mayda qilib yozilgan oq qog'ozni ham, undan keyin cheti qora hoshiyali pushti rang qog'ozni ham ko'rdi.
2. Yog'liq qo'y go'shti yaxnasi ham, tok bargi va uzum boshining surati solingan chinni kosadagi qaymoq, non, qora mayiz – hammasi dasturxonda qo'l tekkizilmay turardi.
3. Kanalning ikki qirg'og'ida g'uj-g'uj bo'lib turgan odamlar: erkaklar, ayollar va bolalar shod-xurram, suvning orqasidan, Bekbo'taning orqasidan chopib

69,171 Abdurahmonov G.A. Shoabdurahmonov Sh.Sh.Hojiyev A.P.O'zbek tili grammatikasi. II.Sintaksis.O'zbekiston SSSR "Fan" nashryoti.T.1976.

borardilar. 4. Tog‘ etaklari hali ham ko‘m -ko‘k bo‘lib, turli go‘zalliklar bilan: sariq va qizg‘ish tusdagi boychechaklar, chuchmomalar, qoshlariga qop-qora o‘sma qo‘ygan lolalar bilan yasangan edi. 5. Oldin mutaxassis – olimlar: geologlar, gidrogeologlar, geodezistlar keldilar⁷¹.



Topshiriq

5-topshiriq. Umumlashtiruvchi so‘zlar qaysi so‘z turkumlari bilan ifodalanayotgani va qanday gap bo‘lagi vazifasini bajarayotganini aniqlang.



Topshiriq

6-topshiriq. Uyushiq bo‘laklar va umumlashtiruvchi so‘zlar orasida qanday tinish belgilari qo‘llanayotganligiga diqqat qiling.



3-mashq. Gaplarni o‘qing. Tushirib qoldirilgan tinish belgilarini o‘rniga qo‘yib daftaringizga yozishni mashq qiling.

1. Bu uyda na Ashirdan, na Sohat cho‘loqdan hech kimdan darak yo‘q edi.
2. Cho‘lpon umri davomida juda ko‘p narsalarning qiziq shirin nash‘ali voqealarning guvohi bo‘lgan. 3. Ishlangan yerlar yo‘llarning ikki tomonidagi ariqlarda jildirab oqayotgan suv ariqlar labida qad ko‘targan yosh teraklar hammasi Olimjonning diliga sevinch-u quvonch bag‘ishlardi. 4. A.Qahhor oddiy dehqondan tortib to akademik-kacha hammaning ko‘nglini topa olardilar, odamning ko‘ngliga tushadigan birgina kaliti bor, bu kalit – kamtarlik, oddiylikdir. (K. Qahhorova) 5. Qorin to‘ysa arpa ham holva ham bir xil ikkalasi ham ortib qolaveradi⁷².



«O‘zbek tilining imlo lug‘ati» kitobidan olingan quyidagi so‘zlarning yozilishini bilib oling. O‘z nutqingizda ulardan to‘g‘ri foydalanishga harakat qiling.

Xayr-xo‘shlamoq, vasiqa⁷³.

⁷¹ A.Nurmonov, A.Sobirov, Sh Yusupova. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. T “ILM-ZIYO”. 2013. 510-bet.

⁷² A.Nurmonov, A.Sobirov, Sh Yusupova. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. T “ILM-ZIYO”. 2013. 509-bet.

⁷³ O‘zbek tilining imlo lug‘ati. –T.: “O‘qituvchi”. 2013. 240b. 249-; 240-b



Ukraina, Xitoy, Turkiya, Kanada kabi davlatlarda u 2 ta, O‘zbekiston, Rossiya, Frantsiya, Italiya kabi davlatlarda – 3 ta, Efiopiya, Surinam, Quvayt, Suriyada – 4 ta.
Savol: Lixstenshteyn va Liviyada u nechta?



7-topshiriq. Uyga vazifa. Matnni o‘qing. Unda ifodalangan fikrlarga diqqat qiling.

Tabiat bilan oshnolik

Xalqimizda tabiatni muhofaza qilishga oid juda ko‘p odatlar bor. Lekin keyingi paytda bunday odatlarga kamroq ahamiyat beriladigan bo‘lib qoldi. Shunday odatlardan biri suvga bo‘lgan hurmatdir. Ilgarilari kichik ariqcha yuzlab xonadonlardan oqib hech kim iflos qilmas edi. Qo‘l yuvish kerak bo‘lsa, ariqdan suv olib, undan uzoqroqda yuvilar edi.



o‘tar va uni

Hozirgi vaqtda shahardagi ba’zi ariqlar ahvoriga bir nazar tashlang: axlat to‘kilganini, chiqindi iflos suvlar oqizib qo‘yilganini ko‘rasiz. Ko‘pincha ko‘chalarda turli xil moy, iflos qo‘shilgan oqova suvlari ham ariqlarga tushib, sasib yotadi. Yosh kelin - qizlarga hovli, ko‘cha va uy oldilarini erta bilan suv sepib supurish odat. Lekin ba’zi ko‘p qavatli uylarining podyezdlariga kirganingizda oyoq qo‘ygani toza joy topilmaydi.

«Yaxshidan bog‘ qolar», degan maqol bor. Xalqimizda qadim-qadimdan daraxt ekish, bog‘ qilish odati mavjud. Farg‘ona vodiysida o‘g‘il farzand tug‘ilganda 10 ta terak ekish odati bo‘lgan. O‘g‘il balog‘atga yetguncha, bu teraklar ham o‘sib, uy-joy qurish uchun yaroqli bo‘lib qolar edi. Hozirgi vaqtda daraxt ekish yana odat tusiga kirib bormoqda. Har yili bahorda ko‘chat ekish oyligi o‘tkazilmoqda.

Yana bir yaxshi odatlardan biri qushlarga in qurish. Hozir ko‘pchilik maktablarda erta bahorda bolalar qushlarga in qurish oyligini o‘tkazishadi.

Har yili mart oyida umumiy shanbalik o‘tkazish ham odat tusiga kirib qoldi⁷⁴.

⁷⁴www.zinonet.



Topshiriq **8-topshiriq.** Savol va topshiriqlar ustida ishlang.

1. Matnda xalqimizning qanday urf-odatlar haqida gap boradi?
2. Farg'onada qanday odat bor ekan?
3. «Yaxshidan bog' qolar» maqolini izohlang.
4. Matndan uyushiq bo'laklarni toping.
5. Suratlariga qarab «Tabiat va biz» mavzusida esse yozing.

70-88-§. Ajratilgan bo'lakli gaplar uslubiyati. Ajratilgan bo'lakli gaplarda tinish belgilarining qo'llanishi. Ajratilgan va uyushiq bo'laklarning bir- biridan farqi. Matndan ajratilgan bo'lakli gaplarni aniqlash



Topshiriq 1-topshiriq. Berilgan she'riy parchalarni o'qing, ajratib ko'rsatilgan birikmalarning qanday vazifa bajarayotganligini ayting.

G'ala-g'ovur shaharda
Ularga orom qayda.
Ular mazza qilmoqda
O'rmonda – **tip-tinch joyda.** (*H.Rahmat*)

Kechqurun osh suzsak, bir nasiba kam,
Qo'msayman birovni – **allakimimni.**

Hasharchi qo'shni qiz – **uning sevgani,**
Ma'yus bosar edi orqamdan odim. (*G'afur G'ulom*)

Men nurman – **yo'lingiz yoritib turgan,**
Ming bir jilolarda suydirishim bor. (*R.Fayzullayeva*)



1-mashq. Gaplarni o'qing. Ajratilgan bo'laklarni toping, qaysi gap bo'laklari ajratilganligini aniqlang.

1. Mana, boyagi xotin, Savri satang, dutor va childirma kuyiga yo‘rg‘alay ketdi. 2. Qorovul boshlig‘i, barvasta leytenant, bularni guruhlarga bo‘ldi . 3. Jo‘raxonga o‘xshagan gavdali xotin – bilim yurtining mudirasi sinfga kirdi. (M. Ism.) 4. Men uni ko‘ndirishga harakat qildim – yalindim, yolvordim, hatto tiz cho‘kdim . 5. Sen, onasi, boxabar bo‘lib tur, tag‘in Varvaraning boshiga bir kulfat solishmasin, ularning qo‘lidan har balo keladi. (M. Gorkiy.) 6. Ikki chol, haqoratlangan mo‘ysafidlar, boshlarini solintirib qaytib ketdi. (M. Ism.) 7. Uyda ko‘p ish qildi – supurdi, kir yuvdi, tozaladi.



2-mashq. Gaplarni o‘qing. Ajratilgan bo‘laklarni aniqlang, tinish belgilarining qo‘llanilishiga diqqat qiling.

1. U tomonga, qiyalik, archazor yoqqa, chiqamiz. (P. Q.) 2. Shaharga borish uchun, ya‘ni o‘yinni ko‘rish uchun ulov qidirdi . 3. Qo‘llar ishlar tez – mo‘jizakor. 4. Pastlikka – Labzak tomonga tusha boshladik. (H . G‘.) 5. Bir oqshom, Mirzo Yodgorning tantana bilan poytaxtga kirishining uchinchi kuni , Sultonmurod sham oldida g‘amgin, tanho o‘tirar edi. (O.) 6. Bugun, soat beshda, qizlar majlisi bo‘ladi.

Nazariy ma‘lumot. Gap bo‘lagini ajratishda so‘z tartibining o‘zgarishi, gap bo‘lagining kengayishi, bir bo‘lakning o‘zidan oldingi bo‘lakni izohlashi, bir bo‘lakni boshqasidan ajratib, bo‘rttirib ko‘rsatish zaruriyati kabilar sabab bo‘ladi⁷⁵.

Eslatma: Gap bo‘lagini ajratishda so‘z tartibining o‘zgarishini, asosan, sifatlovchi-aniqlovchida, ba‘zan holda uchratish mumkin.



3-mashq. Gaplarni o‘qing. Ajratilgan bo‘laklarni jadvaldagi talablar asosida tahlil qiling.

1. Hozircha uning, To‘rayevning, bajarishi lozim bo‘lgan ish yo‘q, dedi-da, o‘zini chetga oldi. (H.P) 2. Ko‘kdagi oy tanhodir, yakka-yu yolg‘iz. 3. Akangning xotiniga, kelin ayangga uylan, deyapti. (S. Ahm .) 4. Bu kulgi va hazillar, aksariyat, yana o‘sha eski dardni – hijron dog‘i, visol orzusini qo‘zg‘atdi. (O. E.) 5. Men Hafizaga – qizimga gapirayotibman. (A. Q.) 6. Otasi Badiuzzamon

⁷⁵ Menglijev B. , Xoliyrov O‘. , Abdurahmonova N. O‘zbek tilidan universal qo‘llanma. 6-nashr. –T.: “Akademnashr”.2018.

Balxga ketarkan, o‘z o‘rnini, Astrobod hokimligini, vaqtincha unga topshirgan edi.
(O) 7. Kuz guli – Rangi o‘chgan, Umri kechgan. Bir yo‘li pastroq egil.

t/r	Ajratilgan bo‘lak	Sintaktik Vazifasi	Tartibni o‘zgartirish usuli	Qayta nomlash usuli
1.	Namuna: Bayroq – havorang	sifatlovchi aniqlovchi	+	



4-mashq. Gaplarni o‘qing. Maktabda olgan bilimlaringizga tayanib, ajratilgan izoh bo‘laklarda tinish belgilarining ishlatilish sabablarini izohlang.

1. Kanal bo‘yidagi choyxonada, avtobus bekatida, A‘zamjon uchradi 2. Endi odamlar – otliq, piyoda, yosh-qari – uchray boshladi. 3. Mening o‘z muhabbatim bor – toza va musaffo! 4. Men – Muhammedova Munira, VIII sinfda o‘qiyman. 5. Otam – Ilyos Tohirov, zavodda ishlaydi.



1-topshiriq. Matnni o‘qing, undan chiqargan xulosangizni ayting. Ajratilgan bo‘laklarni toping.

Insonning tavallud kunidan boshlab, uning voyaga yetgan kuni – balog‘at yoshiga qadar bo‘lgan uzoq davrni majoziy ma’noda bir maktab deb atasak, ana shu maktabning ramziy ma’nodagi ustoz ham boshlang‘ich sinf muallimi, ham yuqori sinf o‘qituvchisidir. Chunki, farzand uchun hayotdagi ideal ustoz – ona ekanligi bugungi kun tadqiqotlarida to‘la-to‘kis e‘tirof etilmoqda. Zero, mustaqil hayot ostonasiga qadam qo‘yguvchilar uchun, yosh avlod uchun, eng birinchi galda, onalarning ma’naviy dunyosi, muloqot madaniyati, axloqiy olami namuna maktabidir. Bu foniy dunyoda inson doimo orzular, umidlar olamida yashaydi. Tabiat insoniyat - ning dunyoga kelgan kunidan to hayotining so‘nggi kuniga qadar odamzod qalbiga mana shu buyuk ikki hisni – orzular va umidlar dunyosini oshufta qilgan. Farzandini dunyoga keltirgan onaning o‘y-xayolida birgina orzu mujassam yashaydi – u ham

bo'lsa, farzandlarning barkamol inson bo'lib yetishishidir.

(Gazetadan)



5-mashq. Gaplarni o'qing. // belgisi o'rniga tushirib qoldirilgan tinish belgilarini qo'yishni mashq qiling.

1. Bu qizga //Ra'noga// atlas ko'ylak juda yarashibdi.
2. Paxtakor o'zbekman // zavadast, mag'rur,
Sharqning mayog'i deb atalur yurtim. (G'.G')
3. Ismi barlos // sodda, dilobar // ov va qush ilmining piridir.
4. Bayroq// havorang// mag'rur hilpirab turardi.
- 5.Sakrab tushdi shunda tuyadan,
Karvonboshi //berahm, nodon
6. Qishloqdan bir qir narida // behisob qizg'aldoqlar dalani qizartirib, xiyol chayqalib turgan joyda// Hulkar o't o'rar edi.



«O'zbek tili omonimlarining izohli lug'ati» kitobidan olingan quyidagi shakldosh so'zlarning ma'nolarini o'qib o'rganing. O'z nutqingizda ulardan to'g'ri foydalaning

Sira I. Ot. Tartib, ketma-ketlik, birin-ketinlik. *Sira son.*

Sira II. Sifat. Ochiq, aniq, to'g'ri. *Gapning sirasini aytishganda.*

Sira II. Ravish. Hech, aslo. Sira tushunmaslik.



Har yili millionlab odamlar haj amalini bajarishadi. Makka shahriga bu tadbirni o'tkazish uchun xavfsizlik masalalarida, xizmatkorlar, taksistlar va boshqa yo'llanma ishchilar jalb etiladi. Turkiya davlatidan bir kasb vakillaridan 30 minglab kishilar chaqiriladi. Savol: Bu qaysi kasb vakillari va ular qanday ishni bajarishadi?



6-mashq. Uyga vazifa. O'zingiz nuqtalar o'rniga gapga moslab ajratilgan bo'laklarni joylashtirishni mashq qiling. 5-6-gaplar tarkibidan ajratilgan izoh bo'laklarni toping.

1. Soyda,, oppoq qorga ko‘milib uzoq turdi. 2. Tok ostida o‘tirgan ikki do‘st – issiqqa dosh berib qizg‘in suhbatlashmoqda... 3. Gullar terdim, 4. Tunov kuni,, Gulchehra uni uylariga boshlab bordi. 5. Onasi ham bolasining, baxtiqora jigargo‘shasining, ko‘zlarida shu zor-u mushtoqlik olovini ko‘rdi. (M. Ism.) 6. Modomiki, odam bir marta yashar ekan, umrbod bir kishi bilan – o‘z sevgilisi bilan yashashi zarur. (H . G‘.)

89 -110-§ . Undalma. Undalmada so‘zlovchi sub’yektiv munosabatining aks etishi



Topshiriq

1-topshiriq. Quyida berilgan gaplarda undalmani aniqlang va qanday vazifa bajarayotganini izohlang.

1. Aziz farzandim! Insonga fahm-u farosat, aql-tafakkur uni kerakli joyda, lozim tarzda ishlata bilish va kerakli samara olish uchun berilgan⁷⁶. 2. Shu non sizdan aylansin. Sindiraveramiz-da, bu ham dasturxon ko‘rki. Non sizdan aziz bo‘libdimi, mehmonjon!.. 3. Ehtiyot bo‘l, og‘lim, ko‘cha tasodiflarga to‘la.



Topshiriq

2-topshiriq. Quyidagi gaplardagi undalmalarni aniqlab, egadan farqini tushuntiring.

1. Ona qizim, sharm-hayo – qiz bola ichki va tashqi qiyofasini ko‘rsatadigan ko‘zgu. Unda betakror nafosat, pinhona g‘urur, noz-u karashma, sirli nigoh va, umuman, dunyo tilsimlarining bari mujassam. 2. Odamzod bir-birisiz yashay olmaydi. Bir-

⁷⁶ Mahmudov, Obidjon Abbosovich. Farzandnoma: adabiy-badiiy nashr. –Toshkent: “O‘qituvchi.2018.

birisiz baxtli ham bo‘lmaydi... Shunday ekan, bolajonim, hech qachon kishilardan o‘z mehring va bor-budingni ayama!

Nazariy ma’lumot. Gapda ba’zan gapning bo‘lagi vazifasidagi so‘zlardan tashqari, shunday so‘zlar guruhi ham bo‘ladiki, ular shu gapga mazmun jihatdan bog‘lansa ham, grammatik jihatdan bog‘lanmaydi. Ular gap bo‘lagi bo‘la olmaydi. Bunday so‘zlar nutqda gap bo‘laklaridan ohang bilan ajralib turadi⁷⁷.

Undalma so‘zlovchining nutqi qaratilgan shaxsni bildiradi. **Bolam, bilim – barcha kulfatlarga qalqon, – degan edi Rudakiy.**

Undalmalar gapning boshqa bo‘lakalari bilan grammatik aloqaga kirishmaganligi sababli uning o‘rni erkin bo‘ladi, lekin undalma gapning qayerida kelishiga ko‘ra, alohida-alohida vazifa bajaradi. **So‘zlovchi tinglovchining diqqatini nutq jarayoniga jalb qilishni maqsad qilib olsa, u vaqtda undalma gap boshida keladi.** Masalan: Qobil, gunoh ishni qilmasdan oldin uning oqibati nimalarga olib kelishini o‘yla.

So‘zlovchi tinglovchilarga murojaat etish orqali unga subyektiv munosabatini ifodalashni maqsad qilib olsa, u vaqtda undalma gap o‘rtasi va oxirida keladi. Qalay, Hamidboy, ishlar o‘ngidami?(A. Qod.) O‘zingiz to‘g‘risini so‘zlatib, tag‘in nega mendan xafa bo‘lasiz, oyi!?(A.Qod.)⁷⁸

Undalmalar quyidagi grammatik shakllar bilan qo‘llanadi va turli-tuman uslubiy bo‘yoqlarga ega bo‘ladi:

1. –u, -yu, -ov, -ey undovlar. Bunday undovlar bilan qo‘llangan undalmalar tinglovchining so‘zlovchidan ancha olis masofada ekanligini ifodalaydi va ulardan

⁷⁷ G‘ulomov A. Hozirgi o‘zbek adabiy tili: Sintaksis.-T.: O‘qituvchi, 1987

⁷⁸ Abdurahmonov G’.Ona tili: 10-sinf uchun darslik.-T.: “O‘qituvchi”, 2003.

oldin chiziqcha (-) qo'yiladi. Masalan: Salima-yu, akam chaqiryaptilar. Ma'rifat-u, bolang uyg'ondi. Karim-ov, kitobni tezroq olib bor.

2. Hoy, hov, hey, ey kabi undov so'zlar. Bunday undov so'zlar undalmalardan oldin kelib, undash ma'nosini kuchaytirishga xizmat qiladi. Hoy qizlar, Salimjon akaning uyi shu atrofdami?

3. Kichraytirish-erkalash shakllari. Bunday shakllar turli xil his-hayajonni, erkalashni ifodalaydi. Masalan: Rustamjon, mashinangda shaharga olib bor.

4. Egalik qo'shimchalari. Bu qo'shimchalar hayvon nomlari, o'simlik nomlariga qo'shilsa, erkalash, suyish ma'nolari ifodalanadi. Masalan: Arslonim, kechga qanday ovqat tayyorlab qo'yay. Gulim, ko'ngling nimani tusaydi?

Undalmalar **so'zlashuv, badiiy va publisistik** uslublarda, asosan, emotsional ekspressivlik bo'yog'iga ega bo'ladi.⁷⁹



Topshiriq

3-topshiriq. Kitob haqidagi quyidagi hikmatli so'zlarni o'qing va gaplarning turli o'rinlariga undalmalar qo'yib, ularga xos xususiyatlarni ayting.

Kitobsiz uy – qalbsiz tanaga o'xshaydi. (Sitseron) Savodli bo'la turib kitob o'qimagan kishining savodsizdan farqi yo'q. (Mark Tven) Men doimo jannat kutubxonaga o'xshagan joy bo'lsa kerak, deb o'ylayman. (Jorj Luis Borxes) Ma'nan yetuk kitoblarni tanlab o'qi. Aks holda, bir dasta qog'oz hayotingni zaharlashi mumkin. (Mark Tven) Shohona, biroq kutubxonasiz uyga achinaman. (Jeyn Ostin) Kichkina bo'lsa ham, bog'ing va kutubxonang bo'lsa – sen boshqa hech narsaga muhtoj emassan. (Sitseron) Agar uyingizda kitob uchun javon bo'lmasa, siz bilan

⁷⁹ "N.M.Mahmudov va boshq.-Toshkent O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi", 2017.

shubtlashish befoyda va men buni rad etaman. (Terri Pratchet) Eski po‘stin kiysang ham, yangi kitob o‘qishga odatlan. (Ostin Felps)⁸⁰



Topshiriq **4-topshiriq.** Berilgan matndan undalmalarni aniqlab, ularning uslubiy xususiyatlariga to‘xtaling.

Rivoyat qiladilarki, bir kuni shogird ustoz piri komildan so‘radi:

– Nima uchun chaqaloqlar hamma yerda bir xil yig‘laydilar. Ulg‘ayganlarida esa ularda har xil xislatlar paydo bo‘ladi?

Ustoz javob berdi:

– Bu tarbiyaning natijasidir.

Shogird so‘radi:

– Ey ma’nolar xosxonasini egallagan piri komil, tarbiyaning hosilasi yoshga ham bog‘liqmi?

Dono ustoz dedilar:

– Ha, albatta. 20 yoshda hissiyot, 30 da iste’dod, 40 da aql hukmronlik qiladi.

Ilmtalab shogird yana so‘radi:

– Eshitishimcha, tana qartayganda, axloq mustahkamlanadi, deydilar. Buning sababi ne?

Piri komil bir lahza o‘yga cho‘mgach, shunday dedi:

– Chunki inson tanasidagi barcha a’zolar o‘z nafsini qondiraverib charchaydi, holdan toyadi, ruh esa hayot charxida charxlanib, axloq orzu holini boyitib boraveradi.

⁸⁰“ Liderlar” kanalidan

Qiziquvchan shogird yana so‘radi:


– Ey, ustoz, ming mashaqqat ila yuksalikka ko‘tarilgan insonni nima pastga tushirishi mumkin? Men shundan ogoh bo‘layin.

Sermulohazali ustoz shogirdiga qarab, shunday dedi:

– Kishi qanchalik yuksaklikka erishmasin, axloqda oqsasa, pastga tushib ketishi muqarrardir. Ey shogird, misqollab yig‘gan obro‘ying bir zumda to‘kilmasin desang, aqlingni hamisha rahnamo etgil. Noloyiq ishlardan olisga ketgil⁸¹.



Topshiriq 5-topshiriq. Guruh uchga bo‘linib, quyidagi rasm asosida “Tabiat qo‘ynida” mavzusida kichik matn yarating. Unda undalmalardan o‘rinli foydalaning va turli emotsional-ekspressiv bo‘yoqlarni ifodalang.



«O‘zbek tili antonimlarining izohli lug‘ati» kitobidan olingan quyidagi so‘zlarning ma‘nolarini o‘qib o‘rganing. So‘z boyligingizni oshirishda ulardan unumli foydalaning.

Poygak. Xonaning eshikka kiraverishga yaqin qismi; mezbon, uning yaqinlari va yoshlar o‘tiradigan joy. *Uy egasi to‘r ko‘rsatsa, poygakda qoluvchi bo‘lma (“Erali va Sherali”)*⁸²

⁸¹“ Liderlar” kanalidan

⁸² Rahmatullayev Sh. , Mamatov N. , Shukurov R. O‘zbek tili antonimlarining izohli lug‘ati.

–T.: “O‘qituvchi”.1980. 232 b.155-b



Mantiqiy savol: Ali va Vali baliq ovlagani chiqishibdi. Ular o'g'illarini olvolishibdi. Valining o'g'lining ismi Mirvali ekan. Ali 4 ta, Vali 3 ta, Mirvali 6 ta baliq tutibdi. Savol: Alining o'g'lining ismi nima?



Uyga vazifa. Turli badiiy asarlardan undalma ishtirok etgan gaplarni ko'chiring va ularning uslubiy vazifalarini ayting.

111-126-§. Kiritmalar uslubiyati. Sodda kiritmalar



Topshiriq

1-topshiriq. Berilgan gaplarda ajratib ko'rsatilgan so'zlarning qanday vazifa bajarayotganligini, qanday ma'nolar ifodalayotganini ayting.

1. **Demak**, hikmat – insoniyatning noyob topilmasi, donishmandlikning dur-u gavhari.(M.Quronov) 2. **Darhaqiqat**, kishining baxtsizligi – uning tarbiyasizligida. (Shayx Abdulaziz Mansurov) 3. Vatan himoyachisi, **avvalo**, o'z g'ururi, oilasi sha'nini himoya qila oladigan mard, jasur inson. 4. **Ikkinchidan**, ezgulik qilish niyati hamisha dilingda va uni amalga oshirish xatti-harakatingda namoyon bo'lsin. 5. **Zotan**, donolarimiz aytganidek, "ilmga jismning rohati bilan erishilmaydi"⁸³.



Topshiriq

2- topshiriq. Menimcha, ehtimol, afsuski, baxtinga, esiz, shekilli, shubhasiz, xayriyat so'zlari ishtirokida gaplar tuzing va ularning gapda nima uchun qo'llanganligini izohlang.



Topshiriq

3-topshiriq. Aftidan, chamasi, shubhasiz, to'g'ri, yaxshi so'zlarini qatnashtirib gaplar tuzing. Unda bu so'zlarning gap bo'lagi yoki kiritma vazifasini bajarayotganligiga e'tibor bering. Agar kiritma bo'lsa, qanday ma'no ifodalayotganini izohlang.

⁸³ Mahmudov, Obidjon Abbosovich. Farzandnoma: adabiy-badiiy nashr. –Toshkent: "O'qituvchi.2018

Nazariy ma'lumot. Kiritma (kirish soʻz)lar soʻzlovchining oʻz nutqiga xilmal xil munosabatini va tabiat hodisalarini, ilmiy xulosalarni asoslash yo manbayini koʻrsatish kabi maʼnolarni bildirishga xizmat qiladi. Badiiy adabiyotda qahramonlarning biror tomonini – oʻziga xos salobat yo xususiyatini yanada qabartirishda kirish soʻzlar qulay vosita vazifasini bajaradi. Masalan: **Nihoyat**, tongga yaqin dard chekindi. Bolaning issigʻi tushib, ota qoʻynida uxlab qoldi.

Kirish soʻzlar ham undalmalar singari gap boʻlaklari bilan grammatik jihatdan bogʻlanmaydi, lekin gapning, matnning umumiy mazmuniga aloqador boʻladi va oʻziga xos ohang bilan aytiladi. Masalan: **Xayriyat**, kutubxona yopilib qolmabdi.

Ogʻzaki soʻzlashuv uslubida **deydilarki, xayriyat, aytishlaricha, meningcha, taxminimcha** kabi kirish soʻzlar koʻp qoʻllanadi⁸⁴. Masalan: **Menimcha**, sen notogʻri oʻylayapsan, oʻrtoq.

Shaksiz, shubhasiz, darhaqiqat, demak, avvalambor, fikri ojizimcha soʻzlari kitobiy uslubga xos.⁸⁵ Kitobiy uslubga xos bu soʻzlar oʻz ichida ichki xoslanishga ega: **shaksiz, fikri ojizimcha** – badiiy uslubga xos; **bayon qilinishicha** -publitsistik uslubga xosdir.

Sheʼriyatda **afsuski, yaxshiyam, attang, mayli, esiz** kabi kirish soʻzlar koʻp qoʻllanadi⁸⁶: Yaxshiyam, shodlik bor boqiy hayotda. (E.Samandar) Kirish soʻzlar vazifasida koʻproq, **sifat, son, olmosh, feʼllar, modal soʻzlar kelib, tasdiq, inkor, tartib, izoh, qaratish, fikriy yoʻnalish, xulosalash, eʼtiborni tortish, fikrlarni bogʻlash** kabi uslubiy maʼnolarni anglatadi.

Kirishlar mohiyatan **subyektiv maʼno ifodalashga xoslangani** uchun **rasmiy uslubda** deyarli qoʻllanmaydi.⁸⁷

⁸⁴ Abdurahmonov Gʻ., Rustamov H. Ona tili: 11-sinf uchun darslik.-T.: “Oʻqituvchi”, 2004

⁸⁵ Jamoa. Hozirgi oʻzbek adabiy tili.1,2,3 –kitoblar.-T:”ILM ZIYO”, 2015

⁸⁶ Abdurahmonov Gʻ., Rustamov H. Ona tili: 11-sinf uchun darslik.-T.: “Oʻqituvchi”, 2004

⁸⁷ “N.M.Mahmudov va boshq.-Toshkent Oʻzbekiston Milliy ensiklopediyasi”,2017.



Topshiriq 4-topshiriq. Kirishlarni aniqlang, ularning qanday uslubiy ma'no ifodalayotganini izohlang.

Dangasalikdan qutilish uchun yettita foydali maslahat

«Buni keyinroq bajararman. Ertaga qilsam - chi? Yo indinga qoldiraymikan?..»
Bu gaplarni qanchalik ko'p ishlatasiz? Har kuni?! Axir, o'sha «keyin» ham qachondir kelishi kerak - ku! Xuddi ayoliga uydagi yumushlarni bajarishga va'dabozlik qilgan multfilm qahramoni kabi uyingizdagi buyumlardan tog' paydo bo'lib, qulab tushishi mumkin. Xo'sh, nima qilish kerak?



1. Avvalo, nimani yo'qotayotganingizni o'ylab ko'ring. Til o'rganishni orqaga suryapsizmi? Unda sizni, shubhasiz, xorijsa xizmat safariga yuborishmaydi.

2. O'zingizga stimullar toping. Atrofingizga nazar tashlang: tengqurlaringiz sizdan o'zib ketibdi-ku!

Hasadingiz kelyapti, shekilli? Unda ishlang.

3. Diqqatingizni chalg'itmang. Kompyuterda muhim hisobotni tayyorlashingiz kerakmi, «butun dunyo o'rgimchak to'ri»ga ilinmaslikka harakat qiling. Avval ishni bajaring, qolgani kutib turadi.

4. Oldingizda turgan ishlar juda ko'p bo'lsa, ularni qismlarga bo'lib, eng osonidan boshlang. Yoki, aksincha, eng qiyin ishni bajarib bo'lgach, qolgani cho't bo'lmay qoladi.

5. Siz ishlayotganda, albatta, o'zgalar bezovta qilmasligini ta'minlang. Telefon, turli gurunglar odamni ishdan chalg'itadi. Ularga berilmaslik tadbirlarini ko'ring.

6. O‘zingizga ish yig‘mang. Masalan, ba‘zi ishlar (misol uchun, idish yuvish)ni o‘sha zahoti qilgan ma‘qul. Chunki tartib o‘rnatishdan ko‘ra uni saqlab turgan osonroq.

7. O‘zingiz kabi o‘zgarishni istayotgan hamfikrni toping. Bir-biringizga erishgan eng kichkina yutuqlarni ham gapirib berishga kelishib oling. Shunda o‘zingizni avval o‘rtog‘ingizga, so‘ng boshqalarga tan oldirish uchun kattaroq ishlarni bajarishga rag‘batlantirasiz.⁸⁸



«O‘zbek tili antonimlarining izohli lug‘ati» kitobidan olingan quyidagi so‘zlarning ma‘nolarini o‘qib o‘rganing. So‘z boyligingizni oshirishda ulardan unumli foydalaning.

G‘irrom. Kishi haqiga xiyonat qiladigan, aldashga urinadigan. *G‘irrom sotuvchi.*



Tarixdan savol: Aholini ro‘yxatga olish qadimgi Misrdan boshlangan. Ular eramizdan avvalgi 3,5 ming yil avval bu ishni amalga oshirganlar. Savol: Aholini ro‘yxatga olishdan maqsad nima bo‘lgan?



Uyga vazifa. O‘zingiz yoqtirgan badiiy asardan kiritmalarni aniqlab, uslubiy xususiyatlarini izohlang.

127-128-§. Kiritmalar uslubiyati. Murakkab kiritmalar



Topshiriq

1-topshiriq. I kurs o‘quvchilari fan olimpiadasining saralash bosqichida birinchilikni qo‘lga kiritishibdi. I kurs o‘quvchilari –hozirgina radiouzel orqali e‘lon qilishdi – fan olimpiadasining saralash bosqichida birinchilikni qo‘lga kiritishibdi. **Berilgan gaplarning bir-biridan qanday farqi bor? Ularni izohlang.**

⁸⁸ “Liderlar” kanalidan



Topshiriq

2-topshiriq. Endilikda salomatlik posbonlari (**buni hamma ochiq e'tirof etmoqda**) Yurtboshimiz rahnamoligida inson salomatligi yo'lida juda katta ishlarni amalga oshirmoqdalar. Berilgan gapda ajratib ko'rsatilgan til birligi qanday vazifani bajarmoqda?

Nazariy ma'lumot.: So'z birikmasi, kengaygan birikma va gaplar bilan ifodalangan til birliklari murakkab kiritmalar hisoblanadi. Masalan: **Keksalarning aytishiga qaraganda**, bu yil qish qattiq kelarmish. Oybek (**buni aytish yodimdan ko'tarilibdi**) dushanba kuni soat 10:00da ota-onalar yig'ilishi bo'lib o'tadi. Murakkab kiritmalar bir-biridan farqlanadi. **So'zlovchining o'zi bayon qilayotgan fikriga qo'shimcha munosabat bildirishi so'z birikmasi va kengaygan birikmalar orqali berilsa, fikriga qo'shimcha mulohaza kiritishi kirish gaplar bilan amalga oshiriladi.** Kirish gaplar pasayuvchi yoki ko'tariluvchi ohang bilan ajralib turadi. Kiritma gaplarning asosiy xususiyatlaridan yana biri ularning nutq jarayonida paydo bo'lib, gapga kiritilishidir. Bu qiz (o'tgan yili Respublika fan olimpiadasining IV bosqichida g'olib bo'lgan edi) she'riyatni juda yaxshi ko'radi. Kiritmalar, asosan, kitobiy uslubga xos. Ular fikrga qo'shimcha axborot bergani uchun, asosan, gap o'rtasida keladi. Kiritma gaplar keng qo'llaniladigan soha dramatik nutqdir. Nutqning bu turida qahramon nutqi qay tarzda bayon etilishi remarkalarda (personaj nomi bilan uning nutqi oralig'idagi qavslar) ko'rsatib beriladi⁸⁹. Masalan: Mir Vafo. Kisht! (Bir dona surar. O'yinchilar singirlanib, taxtga qaraylar)⁹⁰



Topshiriq

3-topshiriq. Berilgan adabiy parchani o'qing va kiritmalarni aniqlab, qanday vazifa bajarayotganini izohlang.

Q o z i N i z o m. «Biz xon hazratlarig'a o'zimizni qurbon qildik, emdi nomusumizni ham istamasinlar», dedilar. Men aytdimki...

⁸⁹ Ona tili: 8-sinf uchun darslik. M.Qodirov va boshq.-T.: Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2010.

⁹⁰ Adabiyot 11-sinf

Xon (soʻzini kesib). Bas!.. Yegan tuzlar koʻr etsin uni... Kimni tuproqdan koʻtarib kursiga chiqarsak, tezgina boshimizgʻa chiqmoqchi boʻladir.

U l f a t. Xoqoni olam! Ularni yana tuproqqa qaytarmoq sizning qoʻlingʻizdadir.

X o n. Yaxshikim, bularning oʻlimi qoʻlimizdadir. Yoʻqsa, oz zamonda bizni eshak qilib minmak istaylar!!!

U l f a t. Xoqonimizgʻa maʼlumdirkim, podshohlik qon bilan sugʻorilaturgʻan bir ogʻochdir. Qon oqib turmagʻan yerda bu ogʻochning qurib qolishi aniqdir. Xon(Ulfatgʻa). Tur joyingdan. Tez ket. Besh daqiqadan keyin Farhod otaliq boshini keltirasan. Qanday istasang, shunday ishla! (Ulfat qulluqlab chiqar.) Men tinchgʻina turayin deb akamni oʻldirdim. Emdi bir-ikki buzuqbosh chiqib, menim tinchligʻimni buzmoq istaylar! Qoʻyaman sizni!

Q o z i N i z o m. Xoqoni olam! Otaliq eski bir qulingizdir. Kichkinagina bir erkalik qilgʻani uchun uni oʻldirmak nechuk boʻlar ekan?

Xon (Qozining soʻzini eshitmagandek biroz oʻylagʻandan soʻng). Farhod otaliqni eski bir qulimmi, dedingiz?!

Q o z i N i z o m. Hazratim karomat qildilar.

X o n. Farhod otaliq xitoy qipchoqning boshligʻidir, bilmaysizmi?!



Topshiriq

4-topshiriq. Men sizga aytsam, ochigʻini aytsam, dehqonlarning gapiga koʻra, toʻgʻrisini aytsam, koʻnglinizga kelmasin, bilasanmi, anigʻi esimda qolmagan kiritmalari ishtirokida gaplar tuzing va ularning vazifasini tushuntiring.



«Oʻzbek tilining imlo lugʻati» kitobidan olingan quyidagi soʻzlarning yozilishini bilib oling. Oʻz nutqingizda ulardan toʻgʻri foydalanishga harakat qiling.

Zohidona , oʻrta-yarim⁹¹

⁹¹ Oʻzbek tilining imlo lugʻati. –T.: “Oʻqituvchi”. 2013.240b.480-b;487-b



Yunon faylasufi Diogen «Agar bo‘ysunmas, to‘polonchi qulim bo‘lsa uni jazolab Kolizeyga olib borib o‘tirmasdim», degan. Savol: Faylasuf to‘polonchi qul hovurini bosib olish uchun qayerga jo‘natishni aytgan bo‘lishi mumkin?



Uyga vazifa. Berilgan surat asosida A. Oripovning «Sohibqiron» (yoki boshqa dramatik asar) dramasiidan foydalanib, kiritma qatnashgan o‘rinlarni aniqlab, yozib keling.



129-130-§. Undalma va kiritmalarda tinish belgilarining qo‘llanilishi



Topshiriq


1-topshiriq. 8-sinfda olgan bilimingizga tayanib, berilgan gaplardagi tinish belgilarining ishlatilish sabalarini tushuntiring.

1. Umuman, hayot ne‘mati odamzodga insondek yashash uchun ato etilgan. 2. Dilbandim! Farzand tarbiyasi asov otni jilovlash kabidir. 3. Sensan sevarim, xoh inon, xoh inonma. 4. Vatanni sevish, bolalarim, insoniy fazilatlarining zevari. 5. Har bir

narsa, avvalo, niyatga bog‘liq. 6. Men sizga aytsam, odamning yaxshi-yomoni bo‘lmaydi.



Topshiriq 2-topshiriq. Berilgan surat asosida matn yarating va sarlavha qo‘ying. Unda kirish so‘z, kirish birikma, kirish gap va undalma qatnashsin.



Nazariy ma’lumot. Undalma, kirish so‘z va kirish birikmalar gap bo‘laklari bilan grammatik jihatdan bog‘lanmaganligi uchun yozuvda vergul bilan ajratiladi. Masalan: Bilasanmi, do‘stim, imkoni bo‘la turib, bir umr boshqalarga qaram bo‘lib yashashdan hatto nogiron tilanchilar ham or etishadi. Darhaqiqat, ta’lim olishning majburiyligi zamirida aynan jamiyat taraqqiyoti, barkamol avlod kamoloti bilan bog‘liq hayotiy masala yotadi⁹².

Gap boshida kelib his-hayajon bilan aytilgan undalmadan so‘ng undov belgisi qo‘yiladi. Masalan: Ey farzand! Bil va yodda tut! Ilm ol, odob o‘rgan, hunar kasb et va ularni takomillashtirish yo‘lida g‘ayrat ko‘rsat.

Tarkibi uncha katta bo‘lmagan kirish gaplar vergul bilan ajraladi. Masalan: Yolg‘iz borishga, men sizga aytsam, qo‘rqaman. (O)

Kiritmalar fikrga qo‘shimcha ma’lumot berganligi uchun, asosan, gap o‘rtasida keladi va yozuvda gapning boshqa qismlaridan qavs bilan ajratiladi yoki kiritma gapning ikki tomoniga tire qo‘yiladi. Masalan: Shundan so‘ng Saltanatni o‘ninchi

⁹² Mahmudov, Obidjon Abbosovich. Farzandnoma: adabiy-badiiy nashr. –Toshkent: “O‘qituvchi.2018

sinfni bitiruvchilar kechasida (bu to‘yga odatdagiday hammamiz yig‘ilgan edik) ko‘rdim⁹³.



Topshiriq

3-topshiriq. Berilgan matndan gap bo‘laklari bilan aloqaga kirishmaydigan bo‘laklarni aniqlab, ularning vazifasini tushuntiring.

JAHLINGIZ SIZNI KASAL QILADI!

Olimlarning ta’kidlashicha, jahldorlik, asabiylik, g‘azabkorlik, ayniqsa, o‘pkaga yomon ta’sir qiladi. Ko‘p asabiylashadigan kishilarda bora-bora xavfli o‘pka kasalliklari rivojlanishi ham mumkin.

Inson jahl otiga minganda:

- Kishi tanasida gormonlar miqdori ko‘payadi. Natijada yuzaga keladigan metabolizm jarayoni qon bosimini ko‘taradi.
- Bosh og‘rig‘ini yuzaga keltiradi.
- Oshqozonda ovqat hazm bo‘lishini qiyinlashtiradi.
- Va hattoki, terida ekzema paydo bo‘lishiga olib keladi.
- Shu bilan birga yurak qisishi, nafas bo‘g‘ilishi singari xastaliklarning yuzaga kelishiga sabab bo‘ladi.
- Natijada tananing immun tizimi ishdan chiqadi, ba’zi hollarda esa organizmda, hatto saraton xastaligining dastlabki unsurlari paydo bo‘ladi.
- **!** Shu sababli har qanday vaziyatda, eng avvalo, asabni saqlash, jahlni tiya bilish tavsiya etiladi⁹⁴.

⁹³ Jamoa. Hozirgi o‘zbek adabiy tili.1,2,3 –kitoblar.-T:”ILM ZIYO”, 2015

⁹⁴ “Salomatlik maslahatlari” kanalidan.



Topshiriq

4-topshiriq. Cho‘lponning «Binafsha» she‘ri bilan tanishing, tinish belgilarining ishlatilishiga e‘tibor bering. Shoir she‘rda nega jonsiz predmetlarga murojaat qilganligi haqida fikr yuring. Siz ham shunday she‘r yozishga urinib ko‘ring.

BINAFSHA

Binafsha senmisan, binafsha senmi,
Ko‘chada aqchaga sotilgan.
Binafsha menmanmi, binafsha menmi,
Sevgingga, qayg‘ungga tutilgan?
Binafsha, nimaga bir ozroq ochilmay,
Bir erkin kulmasdan uzilding?
Binafsha, nimaga hidlaring sochilmay,
Yerlarga egilding, cho‘zilding?
Binafsha,
Ayt menga,
Kimlardir, ularkim,
Ignani bag‘ringga sanchalar?
Binafsha,
Bir so‘yla,
U qanday qo‘llarkim,
Uzalar, hidlaylar, yanchalar?
Binafsha, shunchalar chiroyli yuzing bor,
Nimaga uzoqroq kulmaysan?
Binafsha, shunchalar tortguvchi tusing bor,
Ko‘nglimga isriqlik to‘kmaysan?
Binafsha, yig‘lama, binafsha, kel beri,

Qayg‘ungni qayg‘umga qo‘shgil.

Binafsha, sen uchun ko‘kragim erk yeri,

Bu yerdan ko‘klarga uchgil.

Binafsha, go‘zalim, qayg‘ulim, kelmaysan,

Qayg‘ung zo‘r, qayg‘umni bilmaysan,

Menga bir kulmaysan⁹⁵.



«O‘zbek tili omonimlarining izohli lug‘ati» kitobidan olingan quyidagi shakldosh so‘zlarning ma’nolarini o‘qib o‘rganing. O‘z nutqingizda ulardan to‘g‘ri foydalaning

Tol I. Ot. Bargi ingichka, novdalari egiluvchan daraxt. *Tolzor.*

Tol II. Fe‘l. Holsizlanmoq, tolinqiramoq. *Hormay-tolmay ishlamoq.*

Tol III. Fe‘l. Cho‘mmoq, sho‘ng‘imoq. *Xayolga tolmoq*⁹⁶.



Qiziqarli savol. Uning o‘rnida Sulaymon orollarida odamning bosh suyagi, Santa Krus orollarida qush patlaridan yasalgan 10 metrlik tasma, Tinch okeanidagi ba’zi orollarda 100 yil oldin diametrik 4 m.lik bo‘lgan toshlar ishlatilgan. Savol: Uning o‘rnida biz hozir nima ishlatamiz?



Uyga vazifa. DTM tomonidan nashr etilgan «Test topshiriqlari to‘plami»dan mavzuga doir testlarni ishlash.

131-132-§. Gapning ifoda maqsadiga ko‘ra turlari. Darak gaplar va ularning uslubiy xususiyatlari



Topshiriq

1-topshiriq. Berilgan matnni o‘qing, ularning kesimining tagiga chizing va kesimning qaysi so‘z turkumi bilan ifodalanishiga ko‘ra gapning ifoda maqsadiga ko‘ra turini aniqlang.

⁹⁵ Adabiyot: Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 7-sinfi uchun darslik-majmua. Qayta ishlangan 4-nashri / Q. Yo‘ldoshev, B. Qosimov, V. Qodirov, J. Yo‘l doshbekov. – T.: «Sharq», 2017.

⁹⁶ Rahmatullayev Sh. O‘zbek tili omonimlarining izohli lug‘ati. –T.: “O‘qituvchi”. 1984. 216 b.133-b

Rozetkadan uzilmagan maishiy texnikalar uchun elektr hisoblanaveradi.

Ba'zida maishiy texnikalardan foydalanib bo'lgach, rozetkadan uzib qo'yilmaydi. Garchi ular o'chirilgan bo'lsa-da, rozetkaga ulangan holda ham elektr energiya iste'mol qilaveradi.

Har bir xonadon yiliga o'rtacha 400 kvk/soatgacha elektr tejashi mumkin, deb ma'lum qildi Energetika vazirligi.



Topshiriq

2-topshiriq. Berilgan so'zlar asosida gaplar tuzing, tuzgan gapingizning ifoda maqsadiga ko'ra turini ayting va izohlang.

Taklif qilinsin, yuborildi, kirasizmi, boray, aytgin, bajaraylik, kelsa, ozoda.

Nazariy ma'lumot: Gaplar kuzatilgan maqsadning har xilligiga ko'ra quyidagi turlarga bo'linadi:

- 1. Darak gaplar:** Ota farzandiga xulq-u odobdan buyukroq meros qoldirolmaydi. (Hadis)
- 2. So'roq gaplar:** Nimalar insonga ko'pgina hollarda pand beradi?
- 3. Buyruq gaplar:** Farzandingizga bittagina kitob oling.
- 4. Istak gaplar:** Butun dunyo bolalari baxtli bo'lsa.

Darak, so'roq va buyruq kabi gapning ifoda maqsadiga ko'ra turlari nutqiy uslublarda turli qo'shimcha uslubiy ma'nolarni ifodalash uchun xizmat qiladi. Bu turlarning barchasi kuchli his-hayajon, emotsionallikka ham ega bo'lishi mumkin, bunday hollarda ular undov gaplar ham deyiladi. Nutq uslublarning deyarli barchasida gaplarning bunday turlari matn maqsadiga muvofiq ravishda qo'llanadi.

Darak gaplar nutqda eng ko'p ishlatiladigan gap turidir. Maxsus intonatsiya, ohang yordamida bunday gaplarda gumon, sevinch kabi qo'shimcha ma'nolar ifodalanishi mumkin.

So‘roq gaplar xilma-xil uslubiy xususiyatlarga ega. Bunday gaplarning ayrim ko‘rinishlari so‘roq bilan birga hayrat va taajjub (Shunaqayam bo‘ladimi?!), sevinch-hayajon (Do‘stim g‘olib bo‘ldimi?!), shubha-gumon (Vaqtida yetib bora olarmikanmiz?) kabi bir qator uslubiy ma‘nolarni voqelantirishi mumkin. Hatto, ba‘zan so‘roq gap bevosita so‘roqni emas, balki buyruqni ham bildirib kelishi kuzatiladi. Masalan: Tez-tez yurmaysanmi?!. Bunday holatlar ko‘proq so‘zlashuv, badiiy va publisistik uslublarga xos.⁹⁷

Buyruq gaplarning ilmiy va rasmiy uslublarda qo‘llanishi ularning so‘zlashuv, badiiy va rasmiy uslublardagi qo‘llanishidan farq qiladi. Ilmiy va rasmiy uslublarda buyruq gaplar his-hayajonsiz qo‘llanadi, keyingi uch uslubda esa ko‘proq emotsionallik ifodasi bilan ishlatiladi.



Topshiriq

3-topshiriq. Rauf Parfi qalamiga mansub ushbu she‘rni o‘qing va gapning ifoda maqsadiga ko‘ra turlari bo‘yicha tahlil qiling.

Meni ta‘qib qilar shoir degan nom

Meni ta‘qib qilar shoir degan nom,
Chiqmagan she'rimga sadaqa oldim.
Aslo tark etmadi qurmag‘ur Ilhom,
Neki undan o‘tdi, Xudoga soldim.
Qirq yil she'r yozdim. Ey voh, bo‘lmadi,
Rosa yigirma yil yeldim, yugurdim.
Ammo topilmadi biror mard noshir.
Hayot jomi to‘ldi. Ko‘ngil to‘lmadi,
Ko‘ksimni yirtdim men, bag‘rimni tildim,

⁹⁷ N.Mahmudov va boshq.-Toshkent: “O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi”, 2017.

Ay, sen, oltmishni tepgan yosh shoir.

Yuzimni, og‘zimni yopdi soqollar,

Somonlari teshib chiqdi terimni.

Maymunlar yig‘ladi, kuldi shoqollar:

Sichqonlar yeb ketdi oxir she‘rimni.

(Rauf Parfi)

Kesimi aniqlik maylidagi fe‘llardan, tasdiq yoki inkor ma‘nosini bildiruvchi otlardan ifodalanib, biror voqea-hodisa haqida xabar bildiruvchi gaplarga darak gaplar deyiladi. Masalan: *Ana bu – bizning bog‘imiz*⁹⁸.




Topshiriq

4-topshiriq. Quyida berilgan buyruq gaplarni darak gaplarga aylantiring.

- Taomdan shikoyat qilishdan oldin, yeyishga bir tishlam noni yo‘qlarni esga ol....
- Hayotingdan shikoyat qilishdan oldin, umri ayni gullagan yoshida tugaganlarni eslagin...
- Uyni tozalash, kim pol yuvishi haqida janjal ko‘tarishdan oldin, millionlab uysiz odamlar ham borligini bilib qo‘ygin...
- Ishing og‘irligidan nolishdan oldin, qanchadan qancha odamlarga seningdek ishi bo‘lishi orzu ekanligini ham bilib qo‘y...
- Birovni barmog‘ing bilan ko‘rsatib, uning gunohlarini sanashdan oldin, o‘zingning ham gunohkor banda ekanliging va bir kun Alloh oldida javob berishing ko‘z oldingda tursin...
- Dilingni g‘am-alam qamrab olsa, hali tirik ekanliging uchun Allohga shukrona ayt...

⁹⁸ Jamoa. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. 1,2,3 –kitoblar.-T:“ILM ZIYO”, 2015

 Hayot – bu bebaho hadya. Doimo shukr va fikrda bo‘l...



«O‘zbek tili antonimlarining izohli lug‘ati» kitobidan olingan quyidagi so‘zlarning ma‘nolarini o‘qib o‘rganing. So‘z boyligingizni oshirishda ulardan unumli foydalaning.

Lanj. Normadan ortiq suv solib pishirilgan, ortiqcha damlanib turgan. *Qozondagi osh lanj bo‘lib ketdi.*

Tirik. Normadan oz suv solib pishirilgan, yetarlicha damlanib turmagan. *Polov biroz tirik bo‘lib qolibdi⁹⁹.*



Tarix bo‘yicha savol: Buyuk sarkarda Iskandar Zulqarnaynning qo‘shinlari orasida maxsus 700 kishilik saralangan jangchilari bor edi. Ularning bir xislati tufayli raqib qo‘shinlari ular bilan jang qilishga qiyalishar edi. Savol: Saralangan jangchilarning qanday xislati bor edi?



Uyga vazifa. Quyidagi she‘rni darak gap shaklidagi matnga aylantiring. She‘rdagi ifoda bilan uning oddiy gapga aylantirilgandagi farqni bayon eting.

Nega yapon yuz yil yashaydi

Nega yapon yuz yil yashar-u

O‘zbek buncha yoshga bormaydi?

Chunki yapon bizdek qorong‘u

Sahar turib oshga bormaydi.

Ta‘ziyada el ko‘zi uchun

Ming kishilik ziyofat qurmas.

Hayiti yo‘q, bel bog‘lab uch kun

⁹⁹ Rahmatullayev Sh. , Mamatov N. , Shukurov R. O‘zbek tili antonimlarining izohli lug‘ati.

–T.: “O‘qituvchi”.1980. 232 b. 127-b

Shamday qotib ko‘chada turmas.

Garchi bizdan yuz bor farovon,

Garchi bizdan yuz karra to‘qdir.

To‘y xarjida yuzta boy yapon

Bir kambag‘al o‘zbekcha yo‘qdir.

Bu so‘zimni yaponga aytsam

Dedi battar qisib ko‘zini:

– Yapon bundoq yasholmas hech ham,

– Xarakiri qilar o‘zini. (Erkin Vohidov)

133-134-§. So‘roq gaplarning uslubiy xususiyatlari



Topshiriq

1-topshiriq. Quyidagi so‘roq gaplarni bir-biridan farqlang.

1. Dalada yer chopish osonmi, ilm o‘rganish? 2. Onang seni nahotki shu umid bilan katta qilgan bo‘lsa? 3. Gap deb har narsani gapiraverasizmi, jo‘ra?



Topshiriq

2-topshiriq. So‘roq gaplarni hosil qiluvchi vositalarni ayting va misollar keltiring.

Nazariy ma’lumot. So‘roq olmoshlari, so‘roq yuklamalari yoki so‘roq ohangi yordamida ifodalanib, so‘zlovchiga noma’lum bo‘lgan voqea-hodisa haqida axborot olish maqsadida qo‘llaniluvchi gaplarga so‘roq gaplar deyiladi. So‘roq olmoshlari yordamida ifodalangan so‘roq gaplar bilan so‘roq yuklamalari va so‘roq ohangi

yordamida ifodalangan so‘roq gaplar qanday javob talab qilish bilan farq qiladi. So‘roq olmoshlari ma’nosiga muvofiq aniq javobni talab etadi. Masalan:

– Guruhingizda kim yaxshi o‘qiydi?

– Fotima.

So‘roq yuklamasi ishtirok etgan so‘roq gaplar esa «ha» yoki «yo‘q» javobini talab etadi. «Ha» va «yo‘q» so‘zlarini javob tarzda qo‘llab, so‘ngra unga izoh beriladi. Masalan:

– Sen akademik litseyda o‘qiysanmi?

– Ha, men akademik litseyning bitiruvchi o‘quvchisiman.

Yoki:

– Bu litseymi?

– Ha, bu litsey.

So‘roq gaplar oxiriga doimo so‘roq belgisi qo‘yiladi¹⁰⁰.



Topshiriq **3-topshiriq.** Quyidagi gaplarni o‘qing va so‘roq gaplarning hosil bo‘ishini tushuntirib bering.


1. Uch kelin, nabiralari uning atrofida parvona. Bundan ortiq baxt bormi?
2. Kishining o‘z qalbiga yaqin bo‘lgan paytlar qaysilar?
3. Donishmandlikning belgisi nima?
4. Qanday umr mazmunli hisoblanadi?¹⁰¹
5. Dars boshlandi?



Topshiriq **4-topshiriq.** Quyidagi rasmlar asosida so‘roq gaplar hosil qiling.

¹⁰⁰ Jamoa. Hozirgi o‘zbek adabiy tili.1,2,3 –kitoblar.-T:”ILM ZIYO”, 2015

¹⁰¹ Mahmudov, Obidjon Abbasovich. Farzandnoma: adabiy-badiiy nashr. –Toshkent: “O‘qituvchi.2018



Nazariy ma'lumot: So'roq gaplarning turlari:

- 1. Sof so'roq gaplar:** Quyosh yerdan necha marta katta?
- 2. Ritorik so'roq gaplar:** Farzandni sevmaydigan odam bormi?
- 3. So'roq-buyruq gaplar:** O'qishingga tezroq bormaysanmi?

Ritorik so'roq gaplar javob talab qilmaydigan, tasdiq mazmunidagi javobni o'zida yashirin ifodalaydigan gaplar bo'lib, ular eng kuchli uslubiy vositalardan sanaladi. Bunday so'roq gaplarda fikr kuchli his-hayajon, emotsionallik bilan, juda ifodali, ta'kidli va ta'sirchan tarzda beriladi. Shuning uchun bunday gaplar, asosan, so'zlashuv, badiiy va publitsistik uslublarda keng qo'llanadi.¹⁰² Misollar: Yosh bir joyga borib qolganda, birovning eshigini qoqib, qosh-qovog'iga qarashdan og'ir ish bormi?(A.Q) Darhaqiqat, olam jamolini tomosha qilishdan ham go'zal narsa bormi?



Topshiriq

4-topshiriq. Quyidagi ritorik so'roq gaplarda yashirin mazmunning qanday yo'l bilan ifodalanganligini ayting.

1. Sut ko'r qilgur Gitler – oqpadar, farzandning qadrini qayerdan bilsin?
2. Kitobning insoniyat uchun bebaho ne'mat ekanligini kim bilmaydi?

¹⁰² N.Mahmudov va boshq.-Toshkent: "O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi", 2017.

3. Sevimli diyorumizda nimalar yo‘q? 4. Qamish kekkayib nima bo‘ldi oxiri?
5. Mensiz qo‘lingdan nima ish keladi? 6. Men nechun sevaman O‘zbekistonni?
Tuproq‘in ko‘zimga aylab to‘tiyo? (A. O.) 7.Nechun tug‘ding, men baxti qaroni?
Baloga muhtalo motamsaroni? Muruvvat bilmagan kunlar uchunmi? Jafokash,
berahm tunlar uchunmi? («Navoiy» dramasiidan)



«O‘zbek tilining imlo lug‘ati» kitobidan olingan quyidagi so‘zlarning yozilishini bilib oling. O‘z nutqingizdan ulardan to‘g‘ri foydalanishga harakat qiling.

Ishtaha

Raxshon¹⁰³



Tayland qonunlariga ko‘ra pul va tangalarni oyoq bilan bosish mumkin emas. Bunday ishni qilgan shaxslarga jarima solinadi. Bu qonun o‘ziga xos ma‘noga ega. Savol: Nima uchun bunday qonun chiqarilgan?



Uyga vazifa. Quyida rasmlari berilgan shoir va yozuvchilarning asarlaridan ritorik so‘roq gaplarni aniqlab, daftaringizga ko‘chiring va o‘zingiz ham shunday gaplar tuzing.



135-136-§. Buyruq va istak gaplarning uslubiy xususiyatlari

¹⁰³ O‘zbek tilining imlo lug‘ati. –T.: “O‘qituvchi”. 2013.240b.183-;347-b



Topshiriq

1-topshiriq. Buyruq-istak mayllari haqida nimalarni bilasiz? Bu mayl shakllarining qanday xususiyatlari bor? Sinf doskasi va daftaringizga bu mayl shakllarini yozing va ular ishtirokida gaplar tuzing.



Topshiriq

2-topshiriq. Xalqimizda shunday maqol bor: «Taka bo'lsin, suti bo'lsin». Siz bu maqolga qanday qaraysiz? Maqoldagi mayl shakllarining uslubiy xususiyatini eslang.



Topshiriq

3-topshiriq. *Dam olish kuni tog'anglarga qarashishga sen borasan, Mirzohid o'g'lim.* Bu gap buyruq gapmi yoki darak gap? Fikringizni asoslab bering.

Nazariy ma'lumot: Kesimi buyruq maylidagi fe'l bilan ifodalanib buyruq-xitob ma'nolarini ifodalagan gaplarga buyruq gaplar deyiladi. Buyruq gaplarning buyruq maylidagi fe'l bilan ifodalangan kesimi ba'zan tushib qolishi mumkin, lekin uning izi nutq vaziyatidan bilinib turadi. Masalan: **Hamma paxta terimiga!**

Buyruq gaplarning oxiriga yozuvda nuqta, ba'zan undov belgisi qo'yiladi. Buyruq gaplarning kesimi **aniqlik nisbati, ikkinchi shaxs, buyruq maylidagi fe'llar bilan ifodalanadi.** Masalan: Chekmang!

Ba'zan **majhul nisbat, uchinchi shaxs, buyruq maylidagi fe'llar** bilan ifodalanishi ham mumkin. Masalan: **Ishga qabul qilinsin.**

Ayrim hollarda **uchinchi shaxs buyruq maylidagi fe'llar bilan ifodalangan gapning kesimi II shaxs ma'nosida** qo'llaniladi. Masalan: **Chekmang o'rnida Chekilmasin. Uyga kiring o'rniga Uyga kirilsin.** Bunday vaqtda **iltifot, mulozamat bildirish, kesatq kabi** ma'nolarni ifodalaydi.


Buyruq gapning kesimi, odatda, gap oxirida keladi. Ba'zan buyruqni kuchaytirish, do'q-po'pisa ma'nosi ifodalanganda kesim gap boshida keladi. Masalan: *Qo'lingizni oling o'rniga Oling qo'lingizni.*¹⁰⁴



Topshiriq 4-topshiriq. Quyidagi she'riy matnni o'qing, uning ichidan buyruq gaplarni daftaringizga ko'chiring va buyruq-istak gaplarga xos xususiyatlarga to'xtaling.

Onangizni asrang!

Onangiz yonida bir zum o'tirib,
Meharli ko'zlarga bir to'yib qarang,
Dunyo ishlarini bir chetga surib,
Onasi hayotlar, onangiz asrang!
Hayotdan ketganda qadri bilinar,
Tomoqqa hattoki suv ham ilinar,
Pushaymon bo'larsiz, bag'ir tilinar,
Onasi hayotlar, onangiz asrang!
Qalbini g'am alam qamrab olmasin,
Yo'lingizni kutib ko'zi tolmasin,
Keksaygan ko'nglida armon qolmasin,
Onasi hayotlar, onangiz asrang!
Onasin holidan xabarsiz kishi.
Mazmunsizdir umri, bahor-u qishi,
Hech qachon tugamas bu dunyo ishi,
Onasi hayotlar, onangiz asrang!
Onalar poyida bo'lsa gar jannat,
Ne uchun onaga qilmaysiz xizmat,
Onadan ayrilmoq eng og'ir qismat,
Onasi hayotlar, onangiz asrang!



¹⁰⁴ Jamoa. Hozirgi o'zbek adabiy tili.1,2,3 –kitoblar.-T:"ILM ZIYO", 2015

Biz uchun hadisdur aytgan har so‘zi,
Dunyoda onaday zot bormi o‘zi,
Faqat quvonch bilan yoshlansin ko‘zi,
Onasi hayotlar, onangiz asrang!¹⁰⁵



Topshiriq

5-topshiriq. Kesimi shart maylidagi fe‘llar bilan ifodalangan quyidagi ikkita gapni bir-biridan farqlang.

1. To‘g‘ri to‘rtburchakning tomonlari teng bo‘lsa, kvadrat hosil bo‘ladi.
2. Hamma qo‘shnilar ham sizga o‘xshasa, Gulnozaxon.

Nazariy ma‘lumot. Nutq jarayonida boshqalarga o‘zingizning istak-xohishingizni bayon qilgiz kelsa, ana shu maqsadingizga muvofiq kesimi shart-istak maylidagi fe‘l bilan ifodalangan gap shaklini tanlaysiz. Masalan: Toshkentga borsam, Mustaqillik maydonini ko‘rsam.

Kesimi shart-istak maylidagi fe‘llar bilan ifodalangan gaplar istak gaplar deyiladi. Yozuvda istak gaplar oxiriga nuqta qo‘yiladi¹⁰⁶.



Topshiriq

6-topshiriq. Quyidagi gaplar ichidan istak gaplarni ajratib, daftaringizga ko‘chiring.

1. Kitobxonlarga esdalik uchun sovg‘alar berildi.
2. To‘kilsa, manglay tering, Unumli bo‘lar yering.
3. Nigori gulbadanimni tushimda ko‘rsam edi. (Nodira)
4. Do‘stim, ko‘rgan film va spektakllaringiz haqida hikoya qilib bersangiz.
5. Oltovlon ola bo‘lsa, og‘zidagin oldirar.
6. Qani edi shu vaqt muzdekkina tarvuz bo‘lsa.
7. Balki, tun yarmidan og‘ganda birdan uyg‘onib ketasiz, sizda ham shunday hollar bo‘lgandir.

¹⁰⁵ “Liderlar” kanalidan.

¹⁰⁶ Jamoa. Hozirgi o‘zbek adabiy tili.1,2,3 –kitoblar.-T:”ILM ZIYO”, 2015



«O‘zbek tili paronimlarining izohli lug‘ati» kitobidan olingan quyidagi so‘zlarning ma‘nolarini o‘qib o‘rganing. Ularning ma‘nolariga e‘tibor bering. Paronimlarga oid xatoga yo‘l qo‘ysangiz, so‘z ma‘nosiga qanday ta‘sir qilishini o‘ylab ko‘ring.

XIYOL – XAYOL – HAYAL

Xiyol. Sal, salgina, biroz.

Xayol . O‘y, fikr. *Endi uning xayolida hamma narsa bo‘sh va ma‘nosiz edi. (Oybek)*

Hayal. Qisqa vaqt, fursat, on. *Hayal o‘tmay Dilshod yugurib chiqdi-da, o‘z xolasi yo ammasiday , Olga Petrovnani qo‘lidan ushlab ichkariga tortdi. (M.Ismoilij)*¹⁰⁷



Qunduzning dumi vaqti-vaqti bilan kattalashar, keyin esa kichiklashishni boshlaydi. Shu tufayli ham ko‘pchilik, qunduz dumini boshqa bir hayvonning tana a‘zosiga qiyoslashadi. Diqqat savol: Qaysi hayvon va uning qaysi tana a‘zosiga o‘xshatishadi?



Uyga vazifa. O‘zbekiston xalq artisti Ozodbek Nazarbekov ijrosidagi qo‘shiqni tinglang, uning matni bilan tanishib, istak gaplarga xos qanday xususiyat borligini ayting.

Yarim ko‘nglim qani to‘lsaydi,
Go‘dak qalbim diydor qo‘msaydi,
Sochlari oq, xasta bo‘lsa ham
Orangizda onam bo‘lsaydi.
Xo‘p yosh edim, yosh qolib ketdim,
Ko‘zlarimda yosh qolib ketdim,
Yosh boladay erkalab aytdim,
Orangizda onam bo‘lsaydi.
Yosh boladay erkalab aytdim,
Orangizda onam bo‘lsaydi.



¹⁰⁷ Ma‘rufov A. Paronimlar lug‘ati. –T.: “O‘qituvchi”. 1974. 52 b. 43-b

Onasi bor ko‘ngli oydami,
Davralarda yoki to‘ydami,
So‘nggi qator, so‘nggi joydami
Orangizda onam bo‘lsaydi.
Farzandlarin to‘yin ko‘rmagan,
Nabiralar bo‘yin ko‘rmagan,
Hech bo‘lmasa qirqqa kirmagan,
Orangizda onam bo‘lsaydi.
Yarim ko‘nglim qani to‘lsaydi,
Go‘dak qalbim diydor qo‘msaydi,
Sochlari oq, xasta bo‘lsa ham
Orangizda onam bo‘lsaydi.
Sochlari oq, xasta bo‘lsa ham,
Orangizda onam bo‘lsaydi.

137-138-§. Gaplarning his-hayajon ishtirokiga ko‘ra turlari



Topshiriq **1-topshiriq.** Quyidagi shakli bir xil bo‘lgan gaplarning bir-biridan qanday farqi bor?

1. Buvijonim keldilar. Buvijonim keldilar!
2. Baxtingiz kulsin, toleyingiz porlasin. Baxtingiz kulsin, toleyingiz porlasin!
3. Qachongacha kutamiz? Qachongacha kutamiz?!
4. Shu paytda Kamola kelib qolsa. Eh, shu paytda Kamola kelib qolsa!



Topshiriq **2-topshiriq.** 7-sinfda olgan bilimlaringizga asoslanib, undov so‘zlarga xos xususiyatlarni misollar yordamida aytib bering.

Nazariy ma'lumot: Mustaqilligimiz abadiy yashasin! (Ko'tarinki ohang bilan).
Mustaqilligimiz abadiy yashasin.(Tinch ohang bilan).

Ma'lum voqea-hodisani hech qanday ehtirossiz oddiy bayon qilish bilan birga, ba'zan ehtiros, hayajon qo'shilgan holda ifoda qilinadi. Yuqorida keltirilgan birinchi gap oddiy sodda gap bo'lsa, ikkinchi sodda gap his-hayajon qo'shilgan gapdir.

His-hayajonning qatnashish yoki qatnashmasligiga ko'ra gaplar ikki guruhga bo'linadi: **1) his-hayajonsiz gaplar.** Bularga odatdagi darak, buyruq, so'roq, istak gaplar kiradi; **2) his-hayajon gaplar** (undov gaplar).

Gaplarning ifoda maqsadiga ko'ra yuqoridagi to'rt xil turiga nutq jarayonida so'zlovchining his-hayajoni qo'shilishi bilan bu gaplarni his-hayajon gapga aylantiradi. His-hayajon gaplar undov gaplar atamasi bilan yuritiladi.¹⁰⁸



3-topshiriq. Quyidagi hikmatli so'z asosida his-hayajon gaplarni qatnashtirib matn tuzing.

Bir daqiqalik g'azabga qarshi sabr minglarcha daqiqalik pushaymonlikning oldini oladi. (Ali ibn Abu Tolib)



4-topshiriq. O'zbekiston xalq yozuvchisi O'tkir Hoshimovning «Daftar hoshiyasidagi bitiklar» kitobidan olingan quyidagi hikmatni o'qing va shu asosda his-hayajon gaplarni qatnashtirib, «**Men kimman?**» mavzusida esse yarating

Avtobus o'rindig'idagi yozuv

«Hoy yigitcha! Tepangda qaltirab turgan qariyaga joy berish-bermaslik o'zingga havola. U sening hech kiming emas. Faqat «men ham shuning yoshiga yetarmikanman» deb o'zingdan o'zing so'rab ko'rsang bas...»

¹⁰⁸ Jamoa. Hozirgi o'zbek adabiy tili.1,2,3 –kitoblar.-T:"ILM ZIYO", 2015



«O‘zbek tili omonimlarining izohli lug‘ati» kitobidan olingan quyidagi shakldosh so‘zlarning ma’nolarini o‘qib o‘rganing. O‘z nutqingizda ulardan to‘g‘ri foydalaning

Uloq I. Ot. Echki, uy hayvoni. *Mehmonlarga uloq so‘ydik.*

Uloq II. Sifat. Ulangan. *Uloq arqon.*

Uloq III. Ot. Yamoq. *Yana o‘sha ulog‘i yirtilibdi.*

Uloq IV. Fe‘l. Uzoqlashib ketmoq. *Qayoqlarga uloqib ketding¹⁰⁹?*



Firdavsiyning «Shohnoma» sida uning ixtiro qilinishiga turtki bo‘lgan voqea haqida quyidagicha rivoyat qilinadi. Janglarning birida hukmdor Talxondning dushmanlar qurshovida qolib halok bo‘lish manzarasini qayta tiklashga uringanliklari sabab bo‘lgan. Diqqat savol: Nimani ixtiro qilishgan?



Uyga vazifa. Quyidagi matn asosida «Bizning oilamizda!» mavzusida uy inshosi yozing. Unda his-hayaonsiz va his-hayajon gaplardan foydalaning.

Farzandlaringizning yuziga urmang!

Insonning yuziga shapaloq tortib yuborilsa, asab tolalaridagi 300 yoki 400 ga yaqin hujayra halok bo‘lar ekan. Buni qarangki, insonning boshi silansa, miyada yangi hujayralar dunyoga kelar ekan. Rasululloh sollallohu alayhi vasallam: «Kim yetimning boshini silasa, uning uchun har bir tuk miqdoricha savob bo‘ladi», deb ayni haqiqatni aytganlar. Zero, u zot sollallohu alayhi vasallamning sifatlaridan biri «sodiqul masduq»dir.¹¹⁰



¹⁰⁹ Rahmatullayev Sh. O‘zbek tili omonimlarining izohli lug‘ati. –T.: “O‘qituvchi”. 1984. 216 b.144-b

¹¹⁰ “Farzand tarbiyasi” ijtimoiy kanalidan.

139-140-§. Gap va uning belgilari. Gapning tuzilishiga ko‘ra turlari. Sodda gaplar



Topshiriq

1-topshiriq. Quyidagi so‘zlarni bir-biriga bog‘lab gap tuzing va so‘z, so‘z birikmasini gapdan farqlang. **O‘zbeklar, tushunadilar, qozoqlar, bir-birini, va, ham, oladi, tarjimonsiz.**



Topshiriq

2-topshiriq. Tilshunoslikning morfologiya bo‘limida qanday grammatik shakllar gap tarkibidagi so‘zlarni bog‘lashga xizmat qilishini ayting va misollar yordamida isbotlang.



Topshiriq

3-topshiriq. Gap uchun ohang muhimmi? Agar shunday bo‘lsa, buni isbotlang.

Nazariy ma‘lumot: Bilamizki, til kishilar orasida muhim muomala vositasi bo‘lib xizmat qiladi. Ularning hayot, voqea-hodisalar haqidagi fikr va tuyg‘ulari til orqali ifodalanadi. Shuning uchun ham so‘z mulkining sultoni Alisher Navoiy bobomiz:

So‘z durki, nishon berur o‘likka jondin,

So‘z durki, berur jonga xabar jonondin.

Insonni so‘z ayladi judo hayvondin,

Bilkim, guhari sharifroq yo‘q ondin, – deb bekorga aytmaganlar.

Demak, gap muomala vositasining eng kichik birligidir. U orqali fikr, tuyg‘u ifodalanadi. Gap hosil qilish uchun zarur so‘zlarni bir-biriga , avvalo, ma‘no tomondan, so‘ng grammatik jihatdan bog‘lashimiz zarur. Yana shuni alohida aytib o‘tish kerakki, ohang gap uchun muhim belgi sanaladi. Negaki gapning ohangiga ko‘ra turli fikrni ifodalashimiz mumkin:

1. **Anvar ukam** institutda kafedra mudiri bo‘lib ishlaydi.
2. **Anvar**, ukam institutda kafedra mudiri bo‘lib ishlaydi.
3. **Anvar, ukam** institutda kafedra mudiri bo‘lib ishlaydi.

4. **Anvar, ukam**, institutda kafedra mudiri bo‘lib ishlaydi.

5. **Anvar ukam** institutda kafedra mudiri bo‘lib ishlaydi?

6. **Anvar ukam** institutda kafedra mudiri bo‘lib ishlaydi!

Gap so‘z birikmasidan kesim va ega, yoki faqat kesim bo‘laklariga aloqador grammatik asosga egaligi bilan farq qiladi, chunki gap fikr ifodalaydi, so‘z birikmasi esa tushuncha. Yozma nutqda ohangga qarab har bir gap oxiriga yo nuqta, yo so‘roq, yoki undov belgisi qo‘yiladi



Topshiriq 4-topshiriq. Quyidagi matn bilan tanishib, gapga xos bo‘lgan belgilarni aytib bering.

Tabiiy holki ishlashing kerak. Ishdan uyga holdan toyib bir amallab yetib



kelasan. Barcha mas‘uliyat sening bo‘yningda. Shu mahal validang sendan «falon narsamni keltirmadingmi?» deb so‘rab qoldilar. Erinma. Ularga shu zahoti tabassum qil va «Hozir onajonim, bir lahzada keltirib beraman» deb ayt. Ehtimol, ularning qilgan duolari sen uchun najotdur...

Otang senga murojaat qilib: «O‘g‘lim, meni shu tabibga eltib qo‘y. Falon vaqtda kelgin deb aytgan edi»,- desalar, hamma muhim ishlarini birozga kechiktirib, ularga: «Xo‘p bo‘ladi, otajon», deb aytib duolarini olib qol. Ehtimol, bu sening najotingdur...



5-topshiriq. Salomatlik haqidagi quyidagi matn bilan tanishib, kesimlarni aniqlang va u orqali gapning belgilari haqida o‘z fikringizni bayon qiling.

Har dardga davo sirka

Rasululloh (s.a.v): «Sirka naqadar ajoyib nonxurushdir. Alloh sirkaga baraka bersin! U mendan avvalgi payg‘ambarlarning ham yeguligi edi. Sirka bor uyda boshqa nonxurushga ehtiyoj bo‘lmas», deganlar (Ibn Moja rivoyati).

Bu mo‘jizaviy ne‘mat bundan o‘n ming yil oldin ham bo‘lgani ta’kidlanadi. Uni bobilliklar kashf etishgan. Gippokrat sirkani dori sifatida ishlatgan. Hozir bir qancha meva, o‘simliklardan sirka olinadi. Ularning eng yaxshisi olma sirkasi sanaladi. Ishtaha ochish uchun salat va tuzlamalar tayyorlashda qo‘llanadi. Uning yana quyidagi xususiyatlari bor:

- ✓ Ko‘kat va mevalar sirka suvida yuvilgani foydali;
- ✓ Unitaz, vannaga o‘rnagan dog‘larni sirka bilan tozalash mumkin;
- ✓ Tomoq og‘riganda sirka bilan g‘arg‘ara qilinsa, naf beradi;
- ✓ Toshmalar, yaralarga sirka surtilsa, qichishishni to‘xtatib, yarani tezda bitiradi;
- ✓ Qattiq charchoq va uyqusizlikda sirkali suv ichilsa, tinchlantiradi;
- ✓ Ustiga sirkaga bo‘ktirilgan non qo‘yilsa, so‘gal to‘kiladi;
- ✓ Sirka qo‘shilgan suvda yuvinish tanaga mayinlik, tiniqlik baxsh etadi;
- ✓ Asalli sirka suvi ozishda yordam beradi;
- ✓ Oynalar yarqirashi uchun iliq suvga sirka qo‘shib artiladi;
- ✓ Archilgan kartoshka qorayib qolmasligi uchun sirkali suvga solib qo‘yiladi;
- ✓ Pishloqni yaxshi saqlash uchun sirka bilan namlangan dokaga o‘raladi;
- ✓ Qo‘lga o‘rnab qolgan piyoz hidini sirka bilan ketkazish mumkin;
- ✓ Sirka bilan namlangan dokada artilsa, gilamning yorqinligi ortadi.



«O‘zbek tilining imlo lug‘ati» kitobidan olingan quyidagi so‘zlarning yozilishini bilib oling. O‘z nutqingizdan ulardan to‘g‘ri foydalanishga harakat qiling.

Qulupnay

Pirsillamoq¹¹¹

¹¹¹ O‘zbek tilining imlo lug‘ati. –T.: “O‘qituvchi”. 2013.240b.336-;305-b



Eng yaqin shahardan 700 mil uzoqlikda bo'lgan Vernal shahrida bank qurishga ehtiyoj paydo bo'ladi, ammo qurilish uchun materiallarini yetkazib berish pudratchilarga juda qimmatga tushishini hisoblab chiqishadi. Shunda pudratchilar bir tashkilot xizmatidan foydalanishni afzal ko'rishadi. Qaysi tashkilot?



Uyga vazifa. Berilgan kesimlar ishtirokida gaplar tuzing va shu gaplarda qanday axborot uzatilayotganiga e'tibor bering.

To'kildi, yaralandi, tozalayapman, o'qimoqchiman, olinsin, taklif qilindi, boraylik, kelsa, kuzatmoqchi, o'qiganman, ko'rgan edim, ketmoqdaman, o'qi.

141-142-§. Eganing ishtirokiga ko'ra sodda gaplarning turlari. Egasi ma'lum va egasi umumlashgan gaplar



Topshiriq

1-topshiriq. Quyidagi matnni o'qing va undagi gaplarni 8-sinfda olgan bilimlaringiz asosida egali, egasiz gaplarga ajrating va sabablarini tushuntiring.

Qosh qo'yaman deb ko'z chiqarmaslik haqida

Adabiy nashrlarda ishlagan paytlarim yosh qalamkashlarning yozganlarida, ayniqsa, she'rlarida shunga o'xshash holatlarga ko'p duch kelardim. Muallif o'zi bilmagan yo ma'nosini chala bilgan so'zni o'zi istagan mazmunda qo'llayveradi. Natijada kulgili yoki qo'pol ma'nolar chiqib qoladi. Bunga o'xshash holatlar oddiy yozishmalarda ham kuzatiladi.

Yaqinda bir maqtov gapga ko'zim tushib qoldi. Umumiy mazmuni bunday: «Siz kabi rahbar bilan yuksak natijalarga erishish mumkin. Xodimlarni doim qo'llab-quvvatlab, ruhlantirib turasiz. Baliq boshidan, deyishadi... Sizga hurmatim cheksiz. Omad sizni tark etmasin».

Avvalo, maqtovni ommaviy aytmagan yaxshi. Hatto, odamning o'ziga ham. Juda zarur bo'lsa, uni havolantirmaydigan, xijolatga solmaydigan ma'noda e'tirof qilib qo'yish mumkin. Lekin ko'pincha shu ham ortiqcha.

Xullas, yuqoridagi gapda «Baliq boshidan, deyishadi» jumlası ko‘zlangan maqsadga zıd. Chunkı maqolning to‘lig‘ı «Baliq boshidan sasiydi» ko‘rınışıga ega va salbiy mazmun tashiydi. Maqtov gapda bu iboraning turishi mutlaqo ortiqcha. «Siz boshchilıngızda hamma yoqning rasvosi chiqdi. Lekin sizni hurmat qilaman» deganga o‘xshash gap bu . Bu holatning oti qosh qo‘yaman deb ko‘z chiqarish deyiladi.¹¹² (Orif Tolib)



Topshiriq

2-topshiriq. Quyidagi gaplar bir-biridan nimasi bilan farqlanadi?

1. Yaxshi uxladingizmi, oyijon? 2. Kunduzi yerga qaraydi, kechasi osmonga qaraydi. (Topishmoq) 3. Vaqtingni yo‘qotding-baxtingni yo‘qotding. 4. Haq gap shu: yaxshini maqtaydilar, yomonni uyaltiradilar. 5. Yaqında juda katta stadion qurishdi. 6. Ikki soat ichida chinnidek qilib tozalansin. 7. Futbol. Sportning bu turini sevmaydigan bola topiladimi?¹¹³

Nazariy ma‘lumot. Sodda gaplar eganing ishtirok etishi va ishtirok etmasligiga ko‘ra egali gaplar va egasiz gaplarga bo‘linadi. Masalan: *Men xushmanzara joylarni yaxshi ko‘raman* – gapi egali gapdir, chunki unda *men* egasi grammatik jihatdan ifodalangan. *Tog‘amlarnikiga boramizmi?* gapi esa egasiz gap hisoblanadi, chunki unda ega (*Biz*) grammatik jihatdan ifodalanmagan.

Egasiz gaplar quyidagi turlarga bo‘linadi:

- 1. Egasi ma‘lum gaplar:** Kishining ko‘ziga qarab uning kimligini aytib bera olaman.
- 2. Egasi umumlashgan gaplar:** Berilgan topshiriqni o‘z vaqtida, vijdonan bajaring.
- 3. Egasi noma‘lum gap:** Baxtsizni baxtli etishga qanoat, umidvorlik, tirishqoqlik bilan erishiladi.
- 4. Atov gap:** Osmon to‘la yulduz. Biz shu vaqtda dala tomon yurdik.

¹¹² Telegramm kanali. Orif Tolib sahifasidan olindi.

¹¹³ G‘ulomov A va boshq. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Sintaksis.-T.:O‘qituvchi, 1987.

5. So‘z-gap: Assalomu alaykum, mehribonim mening!



Topshiriq

3-topshiriq. Quyidagi rasmlarni, sizningcha, nima birlashtirib turibdi? Ular asosida matn yaratib. Matningizda egasiz gaplarning barcha turi ishtirok etsin.



Nazariy ma’lumot. Gapning kesimi orqali uning egasini tiklash mumkin bo‘lgan gaplar egasi ma’lum gaplar hisoblanadi. Kesim orqali topilgan ega kishilik olmoshlari bilan ifodalanadi: *Qushlarga qarashni yaxshi ko‘raman. Qayoqlarda yuribsang? O‘rtog‘ini ko‘rgani ketdi. Sizni har doim hurmat qilamiz. Nima dedingiz?*

Mazmuni har uchala shaxsga tegishli bo‘lgan gaplar egasi umumlashgan gaplar hisoblanadi: Suvni isrof qilmang! Bunday gaplarning kesimi, asosan, II,III shaxs shakllarida keladi. Shaxsi umumlashgan gaplar ko‘pincha maqollarda uchraydi: O‘ynab gapirsang ham, o‘ylab gapir.

Egasiz gapning bu turi turmush tajribasidan kelib chiqqan xulosalarni, ma’lum, odatdagi hodisalarni umumlashgan shaklda beradi, shunga ko‘ra uning mazmuni nasihat, maslahat, biror ishning bajarilishidagi zarurlik yoki zarur emaslikni ifodalash xarakterida bo‘ladi. ¹¹⁴Masalan: *Bu yerda chekilmaydi!*

Siz uchun muhim! «Qarz-qavola qildi»: qavola nima?

Qavola so‘zi o‘zbek tilida mustaqil ishlatilmaydi. Faqat qarz so‘zi bilan birga qo‘llanadi. U asli arabcha, aslyatda kafolat, javobgarlik; shartnoma ma’nolarini bildiradi.

¹¹⁴ G‘ulomov A va boshq. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Sintaksis.-T.:O‘qituvchi, 1987.

Qarz-qavola iborasi yordam tariqasida olingan qarz, qarz-qurzni anglatadi:

Boyoqish Do'sanov qarz-qavola qilib, inspektorga ming so'm to'g'rilab berdi.
(«Mushtum»)

Shu so'z ko'pincha qarz-havola, qarz havola qildi kabi xato shakllarda ishlatiladi. Bu iboralar mazmunan xato. Havola ixtiyoriga topshirish, manba ko'rsatish kabi ma'nolarga ega. Qarz olinadi yoki beriladi, birovning ixtiyoriga topshirib yoki manba ko'rsatib yuborilmaydi. Qarzini bermay, birovga havola qilib yuborish esa boshqa narsa.

Demak: Qarz-qavola , qarz-qavola qildi – to'g'ri

Qarz-havola, qarz-havola qildi, qarz havola qildi - noto'g'ri¹¹⁵.

ESLATMA! Egasi umumlashgan gaplarda undalma qatnashsa, bunday gaplar egasi ma'lum gapga aylanib qoladi. Masalan: *Do'stim, hurmat qilsang, hurmat ko'rasan.*



«O'zbek tilining imlo lug'ati» kitobidan olingan quyidagi so'zlarning yozilishini bilib oling. O'z nutqingizda ulardan to'g'ri foydalanishga harakat qiling.

Sohibqironlik

Qo'ni- qo'shnichilik¹¹⁶



Xitoyliklarning fikricha hayvonlar va o'simliklarning odamlar kabi so'zlashishi bu falokat olib kelar ekan. Shuning uchun, hammamiz yoshligimizdan sevib tomosha qilgan multfilmini tomosha qilish va uning kitobini o'qish Xitoyning ayrim viloyatlarida taqiqlangan ekan. Bu qaysi asar?



Uyga vazifa. Quyidagi rasm asosida matn yarating, unda egasi ma'lum va egasi umumlashgan gaplar ishtirok etsin

¹¹⁵Telegramm kanali. Orif TOLIB sahifasidan olindi

¹¹⁶ O'zbek tilining imlo lug'ati. –T.: "O'qituvchi". 2013.240b.474-;341-b



143-144-§. Egasi noma'lum gaplar



Topshiriq

1. Ilmni mashaqqatsiz egallab bo'lmaydi. 2. Guruh yig'ilishida o'zlashtirishi sust o'quvchilar haqida ma'lumot berishga to'g'ri keldi. 3. Bu yerda gaplashib o'tirishga yo'l qo'yilmaydi. 4. Tabiiy resurslardan maqsadli foydalanilsin. 5. Faxriddinning bunday harakatlarini ota-onasiga vaqtida aytish kerak.



Topshiriq

2-topshiriq. Quyidagi gap juftliklarini bir-biriga solishtiring va qanday farqli tomonlari borligini ayting.

1. Bu muammoni yechish uchun kalavanning uchini topish lozim. Bu muammoni yechish uchun kalavanning uchini topishi lozim. 2. Ko'chatlarning yaxshi o'sishi uchun sabr-toqat bilan mehnat qilish lozim. Ko'chatlarning yaxshi o'sishi uchun u sabr-toqat bilan mehnat qilishi lozim. 3. Kutubxonaning kitoblarini o'z vaqtida topshirish kerak. Biz kutubxonaning kitoblarini o'z vaqtida topshirishimiz kerak. 4. Gapni ehtiyot bo'lib gapirish kerak, do'stim. Gapni ehtiyot bo'lib gapirishing kerak, do'stim. 5. Ma'lumotlar bilan keyinroq tanishish mumkin, Odinaxon. Ma'lumotlar bilan keyinroq tanishishingiz mumkin, Odinaxon.

Nazariy ma'lumot. Ish-harakat va holatning bajaruvchisi noma'lum bo'lgan gaplar shaxsi noma'lum gaplar hisoblanadi. Bunday gaplarning kesimlari quyidagicha ifodalanadi:

1. Majhul nisbatdagi fe'llar bilan

2. Bo‘ladi (bo‘lmaydi), to‘g‘ri keladi (to‘g‘ri kelmaydi) fe‘llari bilan.

3. –mas qo‘shinchali fe‘l bilan.

4. Fe‘lning harakat nomi shakliga kerak, lozim, mumkin, darkor kabi modal so‘zlarni qo‘shish bilan.



Topshiriq **3-topshiriq.** Do‘stingiz qiyin ahvolga tushib qoldi. Unga yordam berish lozim. Shifokor, o‘qituvchi, ruhshunos, yaqin qarindosh sifatida unga qanday maslahat va yordam bergan bo‘lar edingiz? Ularni shaxsi noma’lum gaplar yordamida ifodalang. Masalan: Ertalabgi salqinda ko‘proq piyoda yurish kerak, chunki piyoda yurish tufayli tanangizdagi qon aylanishi yaxshilanadi.



Topshiriq **4-topshiriq.** Quyidagi matndagi gaplarni shaxsi noma’lum gaplarga aylantiring.

BAXTLI YASHASH SIRI

Arab donishmandlaridan biri shunday degan ekan:

- Oila a‘zolaringga nisbatan qahr va muloyimlik o‘rtasida muomala qilib yashagin!
- Odamlar bilan goh ularga aralashib, gohida ulardan uzlatga chekinib yashagin!
- Birodarlaring bilan jiddiylik va hazil orasida yashagin!
- Shogirdlaring bilan viqor va oddiylik orasida yashagin!
- Farzandlaring bilan qattiqqo‘llik va mehribonlik orasida yashagin!
- Solih hokimlar bilan ular huzuriga qatnash va ulardan uzoq bo‘lish orasida yashagin!
- Qorning borasida to‘yish va ochlik orasida muomala qilib yashagin!
- Jisming bilan charchatish va dam oldirish orasida yashagin!
- O‘z nafsing bilan bermaslik va berish orasida yashagin!
- Robbing bilan qo‘rquv va umid orasida yashagin! Shunda sen baxtli yashaysan!

«Koʻhna dunyo rivoyatlari» kitobidan.



«Oʻzbek tili paronimlarining izohli lugʻati» kitobidan olingan quyidagi soʻzlarning maʼnolarini oʻqib oʻrganing. Ularning maʼnolariga eʼtibor bering. Paronimlarga oid xatoga qoʻl qoʻysangiz soʻz maʼnosiga qanday taʼsir qilishini oʻylab koʻring.

TAASSUB – TAASSUF

Taassub. Maʼlum yoʻl yoki oqimga nihoyatda eʼtiqod qoʻygan, sodiq. *Eyki, sizlar to taassub birla davron edingiz. (A. Oʻtar)*

Taassuf. Afsuslanish, achinish. *Taassuf bildirmoq¹¹⁷.*



Buning nomi turli davlatlardan turli yeguliklar yoki ichimliklar nomi bilan bogʻliq. Masalan, Meksikada mahalliy konfet nomi bilan, Marokashda qovurilgan goʻsht nomi bilan, Germaniyada Shnaps spirtli ichimlik nomi bilan atalsa, bizda choy nomi bilan bogʻliq. Bu oʻrindagi soʻzlarni toping?



Uyga vazifa. Quyidagi matndan shaxsi nomaʼlum gaplarni aniqlang va oʻzingiz ham shunday foydali maslahatlardan 5 tasini yozib kelib, doʻstlaringizga ulashing.

FOYDALI RETSEPTLAR

Shamollashga qarshi yaxshi samara beradigan bir retsept bor. Qirgʻichdan chiqarilgan zanjabil, asal va limonning har biridan bir osh qoshiqdan olib, ulardan choy damlab, bir kunda 3-4 mahal ichiladi.

Sovuq kunlarda odam gavjum joylarda boʻlganingizdan soʻng furatsilin tabletkasini ezib, 20 ml suvda eritib oling va 2 kun davomida har bir burunga 3 mahal bir-ikki tomchidan tomizing.

Haftada 1-2 marta uylarda isiriq tutatib turish kerak. Isiriq mikroblarni oʻldirib, ularning koʻpayib ketishiga yoʻl qoʻymaydi¹¹⁸.

¹¹⁷ Maʼrufov A. Paronimlar lugʻati. –T.: “Oʻqituvchi”. 1974. 52 b. 37-b

¹¹⁸ Shifo-info – tibbiy-maʼrifiy, hammabop gazetasi.2015-yil, 49-son

145-146-§. Atov gaplar va soʻz-gaplar



Topshiriq

1-topshiriq. Bobur qalamiga mansub quyidagi satrlar egasiz gaplarning qaysi turiga mansub? Oʻz fikringizni asoslab bering.

Yoz fasli , yor vasli , doʻstlarning suhbatlari,

Sheʼr bahsi, ishq dardi , bodaning kayfiyati.



Topshiriq

2-topshiriq. Nutqimizda faol ishlatiladigan *assalomu alaykum, bor boʻling, marhamat, tashakkur, bemalol, uzr* kabi til birliklari egasiz gaplarning qaysi turiga mansub? Bunday til birliklarining nutqimizdagi ahamiyati qanday?

Nazariy maʼlumot: Maʼlum bir predmet yoki hodisalarning mavjudligini tasdiqlash yoʻli bilan ifoda etgan gaplarga atov gaplar deyiladi.

Atov gap bosh kelishikdagi soʻz va soʻz birikmalari bilan ifodalanadi.

Masalan: **Bahor.** Hamma yoq koʻm-koʻk. Koʻkda pagʻa-pagʻa bulutlar suzadi.

Salqin kecha. Shabada gul hidlarini taratadi.

Atov gaplar shaklan oddiy soʻz va soʻz birikmalariga oʻxshaydi, ammo maxsus gap ohangining boʻlishi bilan va maʼlum bir fikr tugalligining ifodalanishi bilan ulardan farqlanib turadi¹¹⁹.

Atov gap oxiriga nuqta qoʻyiladi. U his-hayajon bilan aytilsa, undan soʻng undov belgisi qoʻyiladi: **Bahor! Oʻz oti bilan Bahor!**¹²⁰

Shunday gaplar ham borki, ular birgina soʻzdan iborat boʻlib, turli his-tuygʻular ifodalanayotgan fikrga modal munosabatlarni bildiradi:

¹¹⁹ Uzbek tili grammatikasi. II tom.T., «Fan», 1976

¹²⁰ Abdurahmonov Gʻ va boshq. Oʻzbek tili darsligi. -T> Oʻqituvchi, 1993.

– Ertaga kutubxonaga borasanmi?

– Ha.

Bunday gaplar tobe yoki hokim bo‘laklarni talab ham etmaydi, ularda biror bo‘lakning «yashiringani» ham sezilmaydi. Ular oldin aytib o‘tilgan fikrga ekspressiv-modal munosabatlarni ifodalaydi. Shuning uchun ham ular ko‘proq dialog, ba‘zan monolog gaplarda qo‘llanadi. Ana shu xususiyatlarga ko‘ra ular to‘liqsiz gaplardan ham farqlanib turadi.

So‘z-gaplarning asosiy xususiyatlaridan biri ularning maxsus intonastiyaga ega bo‘lishidir. Masalan: *Siz ham shunday o‘ylaysizmi?* – *Yo‘q.*

So‘z gaplarning quyidagi turlari mavjud:

1. **Tasdiq bildiruvchi so‘z-gaplar.** Bunday so‘z-gaplar so‘zlovchining aytilayotgan fikrni tasdiqlashi yoki biror fikrga qo‘shilishini ko‘rsatadi. Tasdiq so‘z-gaplar vazifasida: ha, shunday, to‘g‘ri, yaxshi, albatta, xo‘p, bo‘lmasa-chi kabi so‘zlar ishlatiladi.

2. **Inkor so‘z-gaplar.** Bu xil so‘z-gaplar berilgan savolga so‘zlovchining inkor javobini yoki ma‘lum fikrga qo‘shilmaganini ifodalaydi. Bu inkor ayrim o‘rinlarda ekspressiv ma‘noni anglatadi. Inkor so‘z-gaplar vazifasida yo‘q, hech, aksincha kabi so‘zlar ishlatiladi:

– Siz ham shunday o‘ylaysizmi?

– Aksincha! (yoki yo‘q).

3. **So‘roq so‘z-gaplar** so‘zlovchining savoli, taajjubini anglatadi yoki tinglovchini javob berishga, biror ish-harakatga undaydi. So‘roq so‘z-gaplar vazifasida shundaymi, yo‘qmi, nahot, rosti bilan-a, bo‘ptimi, yaxshimi kabi so‘zlar va bu xil so‘zlarning yuklama yoki ayrim ko‘makchilar bilan birikuvi orqali ifodalanadi:—Salim bugun darsga qatnashmabdi? – Nahot?!



Topshiriq

3-topshiriq. Quyidagi matnni o‘qing va undan so‘z-gaplarni ajrating..

...Anvar sekin-sekin yurib kelib qo‘lini uzatdi. U kuyovlardek yasanib, yangi kostum -shim kiyibdi. Ko‘kish yaltiroq galstuk taqib olibdi.

- Yana sovuq suvga yuvindingmi? – dedi u yolg‘ondaka po‘pisa qilib.
- Nima qipti? – Alimardon kuldi. – Senga o‘xshab oyim qiz bo‘laymi?
- Kim , kim shunaqa? – Anvarning ko‘zlari alamdand qisilib ketdi.
- Qahramon -ey ! Bir oy inqillab yotmagin tag‘in...
- Bo‘pti! – Alimardon uning hech nimadan xabari yo‘qligiga tamoman ishonm-yu, yelkasiga shapillatib urib qo‘ydi.
- Hazil, uyga kiraylik.
- Yo‘q... – Anvarning ko‘zlariga jiddiyat cho‘kdi.
- Ertaga ertalab studiyaga borgin... Konsert bor. Sen ham chiqasan.¹²¹



Topshiriq

4-topshiriq. Quyidagi rasm asosida matn yarating, unda so‘z-gaplar ishtirok etsin.



«O‘zbek tilining imlo lug‘ati» kitobidan olingan quyidagi so‘zlarning yozilishini bilib oling. O‘z nutqingizda ulardan to‘g‘ri foydalanishga harakat qiling.

Shahsuvor

Charxlanmoq¹²²



Tadqiqot natijalaridan shu ma‘lum bo‘ldiki, bu davlatda 90 foiz qonunbuzarliklar jazosiz qoladi. Bu ko‘rsatkich dunyodagi eng yomon natija hisoblanadi. Statistikaqarasak, bir kishiga 1,5 ta jinoyat to‘g‘ri kelar ekan.

Diqqat savol: Bu qaysi davlat?



Uyga vazifa. O‘qigan badiiy asaringizdan atov gap va so‘z-gap qatnashgan o‘rinlarni belgilang va daftaringizga ko‘chirib keling.

¹²¹ O‘tkir Hoshimov. “Bahor qaytmaydi” qissa. “Sharq”. –T.:2005

¹²² O‘zbek tilining imlo lug‘ati. –T.: “O‘qituvchi”. 2013.240b.499-;515-b



147-148-§. Sodda yig‘iq va sodda yoyiq gaplar. Murakkablashgan sodda gaplar.



Topshiriq **1-topshiriq.** Quyidagi gaplardagi mazmuniy farqni toping.

1. Men keldim // Men uydan keldim. 2. Do‘stim – o‘quvchi // Do‘stim – guruhda a’lochi o‘quvchi.



Topshiriq **2-topshiriq.** Sodda gaplarni murakkablashtirgan vositalarni aniqlang.

1. Qadamlaringizga gul bitsin, akalar! (A. Yo‘ldoshev) 2. Hurmatli Hoshimjon Olimjonov, bilim yurti talabalari bilan uchrashuvga kelishingizni iltimos qilamiz. (Said Ahmad) 3. Qani, To‘xta xola, gapiring! (Abdulla Qahhor). 4. Voy, xolagingang aylansin, katta yigit bo‘p qopsan-ku, bolam. (Murod Mansur).¹²³ 5. Eshilib, to‘lg‘onib ingranadi kuy. (A.Oripov) 6. Tursunali akaga, shunday katta olimga, kuyov bo‘lish hazil gap emas. (O‘.Usmonov)¹²⁴

Nazariy ma’lumot. Ega va kesimdan yoki faqat kesimdan iborat gap yig‘iq gap hisoblanadi. Masalan: Kuch – adolatda. (Amir Temur) Ikkinchi darajali bo‘laklardan birortasi yoki barchasi ishitirok etgan gaplar sodda yoyiq gaplardir. Masalan: Qalblar kamoli odamiylikni sevish bilan anglashiladi. (O. Mahmudov)¹²⁵

Tarkibida undalma, kirish so‘z, uyushiq bo‘lak, ajratilgan bo‘laklardan

¹²³ N. Mahmudov Ona tili: O‘rta ta‘lim muassasalarining 10-sinfi va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limi muassasalari o‘quvchilari uchun darslik/N.M.Mahmudov vaboshq. -Toshkent: «O‘zbekiston milliyensiklopediyasi» Davlatilmiynashriyoti, 2017. - 112bet.

¹²⁴ A. Nurmonov, A.Sobirov, N.Mahmudov, N. Qosimova, Sh. Yusupova Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent: “Ilm Ziyov” – 2015. – 590 bet

¹²⁵ Mahmudov O. “Farzandnoma” . – Toshkent: “O‘qituvchi” – 2018. 207-bet

birortasi yoki bir nechta qatnashgan gaplar murakkablashgan sodda gaplar deyiladi. Masalan: Ey zohid, bir soat adl qilg‘onning savobi na bo‘lur? («Miftoh ul-adl»)¹²⁶. Zeroki, insonlar haq yo‘lini hamisha aqlning nuri bilan topmishlar. (Oybek)¹²⁷ U ba‘zan yo‘limni to‘sar, gazetaga biror narsa yozib berishim yoki rasm solishimni so‘rar edi. (Z. Saidnosirova)¹²⁸. Men, Dilafro‘z Sobirova, 1992-yilda tug‘ildim.¹²⁹



Topshiriq

3-topshiriq. Quyidagi sodda yig‘iq gaplarni yoyiq gapga aylantiring.

1. Gul ekildi. 2. Ota – do‘st. 3. Mavzu tushuntirildi. 4. Qushlar uchyapti.
5. Vatan muqaddas. 6. Biz g‘alaba qozondik. 7. Siz talabasiz. 8. Men sevaman.



Topshiriq

4-topshiriq. Rasmlar asosida sodda yig‘iq, sodda yoyiq va murakkablashgan sodda gaplar tuzing.



5-topshiriq. Uyga vazifa. Matn tarkibidagi gaplarni mavzu bo‘yicha turlar: sodda yig‘iq, sodda yoyiq va murakkab sodda gaplarga ajrating. O‘zingizning hayot falsafangizni qog‘ozga tushirib, guruhdoshlaringizga o‘qib bering.

Hayot falsafasi

Munkillab qolgan ammam bo‘lardi. O‘ta xudojo‘y kampir edi. Bolaligimda oldiga o‘tkazib qo‘yib, bir gapni ko‘p aytardi. – U quloq, bu qulog‘ing bilan ham eshitib ol, bolam. Odamning u yelkasida ham, bu yelkasida ham bittadan farishta

¹²⁶ Adabiyot: Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarining 9- sinfi uchun darslik. / Q. Yo‘ldoshev, V. Qodirov, J. Yo‘ldoshbekov. Qayta ishlangan 4-nashri. — T.: «O‘zbekiston» NMIU, 2019. — 91-bet

^{127, 221} Adabiyot: Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarining 9- sinfi uchun darslik. / Q. Yo‘ldoshev, V. Qodirov, J. Yo‘ldoshbekov. Qayta ishlangan 4-nashri. — T.: «O‘zbekiston» NMIU, 2019. — 149-bet, 145

¹²⁹ A. Nurmonov, A.Sobirov, N.Mahmudov, N. Qosimova, Sh. Yusupova Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent: “Ilm Ziyoyi” – 2015. – 590 bet

o‘tiradi. O‘ng yelkangdagi farishta umr bo‘yi qilgan savob ishlarini, chap yelkangdagisi gunohlarini hisoblab boradi. U dunyoga borganingda hisob-kitob qilib ko‘rishadi. Savobing ortiq bo‘lsa, jannatga, gunohing ortiq bo‘lsa, do‘zaxga tushasan... Savodsiz kampirning sodda falsafasida qanchalik chuqur ma’no borligini endi tushunyapman¹³⁰.

149-150-§. Sodda gapni sintaktik tahlil qilish. Tahlil tartibi

Sodda gap bo‘yicha to‘liq sintaktik tahlil 3 bosqichda amalga oshiriladi¹³¹:

1. Gapda so‘zlarning o‘zaro bog‘lanishi (so‘z birikmasi) bo‘yicha.
2. Gap bo‘laklarini aniqlash bo‘yicha.
3. Gap qurilishi bo‘yicha.

Gapda so‘zlarning bog‘lanishi bo‘yicha tahlilda:

- a) birikmaning teng bog‘lanishi yoki tobe bog‘lanishidagi turi;
- b) tobe bog‘lanish bo‘lsa, tobelanish turi (moslashuv, boshqaruv, bitishuv);
- d) teng yoki tobe bog‘lanishni yuzaga keltirgan vositalar (bog‘lovchilar, ohang, so‘z shakllari, ko‘makchilar, so‘z tartibi) aniqlanadi.

Gap bo‘laklarini aniqlash bo‘yicha tahlilda:

- a) gap bo‘laklari belgilanadi, uyushiq va ajratilgan bo‘laklar bor yoki yo‘qligi izohlanadi;
- b) gap bo‘laklari bilan munosabatga kirishmagan «bo‘laklar» (kiritma, undalmalarning mavjud yoki mavjud emasligi) ko‘rsatiladi;
- d) gap bo‘laklarining joylashuv tartibi (me‘yoriy tartibda yoki o‘zgargan tartibda) izohlanadi.

¹³⁰ Hoshimov O. “Daftar hoshiyasidagi bitiklar/to‘ldirilgan va qayta ishlangan nashri. – T.: “Sharq”, 2012.

¹³¹ Ona tili: o‘rta maktabning 8-sinfi uchun darslik/ M. Qodirov va boshq. — T.: Cho‘lpon nomidagi N M IU , 2014. 144 b.

Gap qurilishi bo'yicha tahlilda:

- a) gapning ifoda maqsadiga ko'ra turi (darak, so'roq, buyruq, istak);
- b) gapning his-hayajonning ifodalanishiga ko'ra turi (his- hayajonsiz yoki his-hayajonli (undov) gap);
- d) yig'iq yoki yoyiq sodda gapligi, to'liq yoki to'liqsiz gapligi, egali yoki egasiz gap ekanligi; egali gap bo'lsa, uning egasi ma'lum gap yoki egasi umumlashgan gapligi; egasiz gap bo'lsa, uning shaxsi noma'lum gapligi, atov yoki so'z - gapligi izohlanadi.

Tahlil namunasi

Do'stim, bilim va tafakkur – barcha kulfatlarga qalqon.

1. Gapda so'zlarning bog'lanishi:

- 1) bilim – qalqon: – tobe bog'lanish, moslashuv, ega va ot kesimning shaxs-sonda mosligi;
- 2) tafakkur – qalqon: – tobe bog'lanish, moslashuv, ega va ot kesimning shaxs-sonda mosligi;
- 3) barcha kulfatlar – tobe bog'lanish, bitishuv, tobelik ohangi orqali bog'langan;
- 4) kulfatlarga qalqon – tobe bog'lanish, boshqaruv, jo'nalish kelishigi yordamida bog'langan;
- 5) bilim va tafakkur – teng bog'lanish, va teng bog'lovchisi orqali bog'langan.

2. Gap bo'laklarini aniqlash.

Do'stim, bilim va tafakkur – barcha kulfatlarga qalqon.

Uyushiq bo'lagi bor: bilim va tafakkur

Ajratilgan bo'lagi yo'q.

Kiritma yo'q.

Undalma : do'stim.

Gap bo'laklarining joylashuvi – me'yoriy.

3. Gap qurilishi tahlili:

- 1. Ifoda maqsadiga ko'ra : darak gap.

2. His-hayajonning ifodalanishiga ko‘ra: his-hayajonsiz gap.
3. Tuzilishiga ko‘ra: sodda gap, yoyiq sodda gap, to‘liq gap, egali gap.



Topshiriq 1-topshiriq. Quyidagi gaplarni sodda gap bo‘yicha to‘liq sintaktik tahlil qiling.

1. Bolalar, samimiyat va rostgo‘ylik inson fe‘l-atvoridagi nodir fazilatlardandir. 2. Pokiza tuyg‘u, sof qalb, hur tafakkur uyg‘unlashgandagina insonda samimiy so‘zlar mushohadasi yuzaga keladi. 3. Biror bir narsani idrok etish, albatta, chuqur his-hayajon orqali yuz beradi. 4. Ulardan biri – sersoqol, rangpar va oriq – o‘z mantig‘ining kuchini ko‘rsatishga harakat qilardi. (O) 5. Anvar (sen uni bilasan, Chimiyonda tanishgan edik) chet elga sayohatga ketibdi.



«O‘zbek tili paronimlarining izohli lug‘ati» kitobidan olingan quyidagi so‘zlarning ma’nolarini o‘qib o‘rganing. Ularning ma’nolariga e‘tibor bering. Paronimlarga oid xatoga yo‘l qo‘ysangiz, so‘z ma’nosiga qanday ta’sir qilishini o‘ylab ko‘ring.

TAFSIL-TAFSIR

Tafsil. Biror narsaning to‘liq, mukammal holati. *Tafsili bilan gapirib bermoq.*

Tafsir. Biror narsaga berilgan sharh, tushuntirish. *Ahmadxo‘ja oz xatida madrasai oliyada tafsir, hadis ilmi, kimyo kabi turli ilmlar o‘qitilishini yozgan edi. (M.Muhammadjonov)¹³²*



Ferrero kompaniyasiga tegishli bu mahsulotning issiq iqlimli o‘lkalar uchun ishlab chiqarilganda nomiga «Joy» so‘zi qo‘shiladi. 2013-yilgacha esa tarkibida yeyishga yaroqsiz qo‘shimcha borligi sabab AQSHga bu mahsulotni olib kirish qonun bilan taqiqlangan edi.

Diqqat savol: Qaysi mahsulot haqida gap ketayotganini toping.

¹³² Ma’rufov A. Paronimlar lug‘ati. –T.: “O‘qituvchi”. 1974. 52 b. 37-b



Uyga vazifa. Quyidagi matndan sodda gaplarni aniqlang va sodda gap tahlili bo'yicha to'liq sintaktik tahlil qiling.

Yaxshilik sayyorasi

Gulzorga kirgan kishi nafaqat gul uzib chiqadi, balki xushbo'y iforlardan yayraydi, go'zalliklardan ko'ngli ko'tariladi. Ijodni, she'riyatni xuddi shu manzaraga qiyoslash mumkin. Ayniqsa, betakror ijod bo'lsa, go'zal she'r bo'lsa. Shoir Rauf Qasaniyning she'rlari ham o'zining ruhiyatiga olib kirib ketadi, bir-biridan ma'noli satrlari rang-barang gullar kabi odamni mahliyo etadi. U har bir satrida odamlarning orzu-armonlarini, dard-iztiroblarini ochib beradi. Ayniqsa, «Qizingga gapirsang eshitar kelin, So'ng kelin gapirar tinglaydi o'g'ling» – satrlarini o'qib, Rauf Qasaniyning she'riyatiga yana-da qiziqish ortadi. Eng qizig'i, bunday voqealar har bir xonadonda kuzatiladi. Buni ko'ngilga ozor bermay, chiroyli gaplar bilan egasiga yetkazib bera olish shoirning mahorati. Rauf Qasaniy o'z she'rlarida buni uddalay olgan. Uning «Yaxshilik sayyorasi»ga mehmon bo'lish va unda yashash har birimizga nasib etsin¹³³.

151-152-§. Qo'shma gaplar. Qo'shma gap qismlarini bog'lovchi vositalar



Topshiriq

1-topshiriq. Quyidagi matndagi belgilangan gaplarni grammatik asoslar miqdoriga ko'ra turlarga ajrating.

PLASTIK LIKOPCHA

Duradgor ancha keksayib qoldi. Endi uning ko'zlaridagi nur so'nib, barmoqlarida kuch qolmagan edi. **Qo'llari shu qadar qaltirar ediki, hatto, taomlanish asnosida ovqatni dasturxonga to'kib yuborar edi.** Uning o'g'li va

¹³³ «O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi» ijtimoiy kanalidan.

kelini esa otaxon buni ehtiyotsizlikdan qilmoqda deb o‘ylab jahllanar edilar. **Oxir-oqibat ular qariyaning ovqatlanadigan joyini alohida qilishdi. O‘zlari xontaxta atrofida o‘tirar, qariya esa yerda ovqatlanar edi.**

Duradgorning kenja nabirasi Hasan bobosi uchun juda qayg‘urar, ovqatlanayotgan paytda uning qo‘llaridan ushlab, yordam berar edi. Kunlardan bir kuni qariya yoshli ko‘zlari bilan xontaxta atrofidagilarni kuzata turib, qo‘lidagi likopchani tushirib yubordi va u sindi. Bu esa oila a‘zolarining yana-da jahlini chiqardi. **Ular bechora qariyaga haqoratomuz va qo‘pol tanbehtar bilan tashlanishdi.** Ovqatni esa shundan keyin plastik likopchada beradigan bo‘lishdi.

Bir kuni duradgorning o‘g‘li xotiniga mevalarni plastik likopchaga solmaslikni ayta turib: «Bu likopchalarni tashlab yubor!» – dedi. Hasan esa ikkita likopchani alohida ajratib qo‘yib: «Onajon, bularni tashlab yubormang, kelajakda kerak bo‘ladi», – dedi. Otasi qiziqsinib: «Bularni nima qilasan, o‘g‘lim?» – dedi. Hasan javoban: «Sizlar qariganingizda ovqatni mana shu likopchalarda beraman», – dedi.

O‘g‘lining bu gapini eshitgan Hasanning ota-onasi kekxa otaxonga qilgan ishidan juda afsuslandilar va uni xontaxta atrofida o‘tirishga taklif qilishdi. Agar ular ota-onaga yaxshi munosabatda bo‘lish insonni jannatga yetaklaydigan amallardan ekanligini bilganlarida o‘zlarini bunday tutmagan bo‘lar edilar. Rosululloh sollallohu alayhi va sallam bu borada qanday yaxshi so‘zni aytganlar: «Allohning roziligi ota-onaning roziligidadir. Allohning g‘azabi ota-onaning g‘azabidadir». (Termiziy, Bir 3-hadis)¹³⁴

Nazariy ma‘lumot: Mazmuni, grammatik tuzilishi hamda intonatsiyasiga ko‘ra bir butunlikni tashkil etgan, bog‘lovchi yoki bog‘lovchi vazifasidagi vositalar yordamida birikkan sodda gaplar qo‘shma gapni tashkil etadi.

Shaklan qo‘shma gap birdan ortiq sodda gaplarning birikuvidan tarkib topgan bo‘lsa ham, bu sodda gaplar mazmunan yaxlit holda birikib, umumiy bir fikrni, maqsadni ifodalaydi. Bunday gaplar turli bog‘lovchilar yoki bog‘lovchi vazifasidagi

¹³⁴ «Farzand tarbiyasi» ijtimoiy tarmog‘idan.

vositalar yordamida yoxud turlicha ohang bilan o‘zaro birikadi¹³⁵. Masalan: To‘g‘ri so‘z qilichdan o‘tkir, **shuning uchun** hamisha rost so‘zlashga odatlan. Sabrning boshi achchiq, oxiri **bo‘lsa** shirin. Dunyoning ishlari ko‘p qiziq ekan: quvonch va qayg‘u hamisha yonma-yon yuradi.

Qo‘shma gapning asosiy belgilari:

1. Qo‘shma gap tarkibidagi sodda gaplar bir-birini yoki biri ikkinchisini mazmunan izohlaydi va har ikkisi birikib, umumiy maqsadni ifodalash uchun xizmat qiladi: Qo‘shning tinch – sen tinch (Maqol). Bu qo‘shma gapni tashkil etgan sodda gaplar umumiy bir fikrni – kishining tinchligi nima bilan bo‘lishini ifodalaydi, bu mazmun har bir sodda gap alohida olinganda anglashilmay qoladi.

2. Qo‘shma gap tarkibidagi gaplar grammatik tomondan ham bir-birlariga bog‘liq bo‘ladi. Bu xil gaplar kesimning bir xil yoki bir-biriga mos shaklda ekanligi, ularda umumiy darajali bo‘laklarning bo‘lishi, sodda gaplar tarkibida mazmuni izohlanayotgan bo‘laklarning mavjudligi, kesimlar bir xil bo‘lganda, ularning bir o‘rinda umumlashgan holda berilishi va boshqa xususiyatlar qo‘shma gap tarkibiy qismlarini grammatik struktura tomondan bir-biriga yaxlit bog‘lab qo‘yadi.

3. Qo‘shma gap tarkibidagi gaplarning ohang jihatdan ham o‘ziga xos xususiyati bor. Qo‘shma gap tarkibidagi bir gapning ohangi va har ikki gap orasidagi pauza ikkinchi bir gapni talab etadi; ohang qo‘shma gapning oxirida tugallanadi¹³⁶.

Quyidagilar qo‘shma gap tarkibidagi sodda gaplarni bog‘lashga xizmat qiladi:

1. Boglovchilar

2. Bog‘lovchi vazifasidagi vositalar:

a) -u, -yu, -da, -ki, ham yuklamalari;

b) bo‘lsa, esa, deb so‘zlari;

c) shuning uchun, shu tufayli singar ko‘makchili qurilmalar;

d) nisbiy so‘zlar: kim – o‘sha, qanday – shunday;

¹³⁵ Uzbek tili grammatikasi. II tom.T., «Fan», 1976

¹³⁶ Uzbek tili grammatikasi. II tom.T., «Fan», 1976

e) shart mayli shakli -sa.

3. Ohang.



Topshiriq

2-topshiriq. Quyida berigan gaplardan qo'shma gap qismlarini bog'lovchi vositalarni aniqlang.

1. Kim farzandini xato qilmaydigan qilib tarbiya qilsa, u hayot tajribalarini o'rgana olmaydi. 2. Endi bu soatdan boshlab Marg'ilondan roziman, negaki yo'qlab kelguchi sizning kabi qadrdonlar ham bo'lur ekan. (*Abdulla Qodiriy*) 3. Shodi akaning gaplarini eslayman, ammo qanday ko'rinishi esimdan chiqib ketgan. (*Ahmad A'zam*) 3. Xuddi shu yerda o'sha kuni Toshboltaning jomadonlari turgan, shuning uchun gilamni ko'tarib qarash hech kimning xayoliga kelmagan edi. (*Tohir Malik*) 4. Jiyan ham bir zumda buyruqni bajo keltiradi – inqillab, sinqillab buzoqchani ko'tarib chiqadi. (*Said Ahmad*) 5. Bir kuni ko'zi otilib yerga tushganda, bildirmay bir tepgan edim, ruda olib ketayotgan transportyor lentasiga borib tushdi. (*Said Ahmad*)¹³⁷



Topshiriq

3-topshiriq. Quyidagi matndan qo'shma gaplarni ajratib, qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplarni bog'lovchi vositalarni aniqlang.

Qulay vaqt hech qachon kelmaydi!

«Qachon ta'til boshlansa, o'shanda men o'z veb-saytimni yaratishni boshlayman», «Kelgusi haftadan boshlab, sport bilan shug'ullanishni boshlayman» - bu so'zlar sizga tanishmi? Bu sizning katta rejalaringsizni kechiktirishingizning asosiy sababi.

Hayotning haqiqati shundaki, nimanidir boshlash uchun ideal sharoitlar hech qachon kelmaydi. Bu sizning qo'rquvingiz va qat'iyatsizligingizni oqlash uchun qilingan psixologik hiyla.

Kutilgan sharoit kelganda, har doim boshqa, undan ham qiyinroq to'siq

¹³⁷ Ona tili: O'rta ta'lim muassasalarining 10-sinfi va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari o'quvchilari uchun darslik. N>Mahmudov va boshq. –Toshkent2017.

bo‘ladi. E’tibor bering, agar boshlash uchun eng qulay kun bor bo‘lsa, U BUGUN¹³⁸.

(Murat Azamov)



Topshiriq

4-topshiriq. Quyida berilgan qo‘shma gaplarda tushirilib qoldirilgan bog‘lovchi vositalarni qo‘ying.

1. Men faqat shuni aytmoqchiman..., bizdek do‘stlaringizni unutib yubormang.
2. Safarni iztirob aralash hayajon bosadi, ... u birinchi marta taqdirlanayotgan edi.
3. Tomoshabinlar unga qarata guldastalar otishdi, ... u gullarga e‘tibor bermay sahnani bir aylanib chiqdi.
4. Bu yil qish erta boshlanadi, ...daladagi ishlarni kechiktirmasdan bitirib olishimiz kerak.
5. ... boshqalarni hurmat qilmasa, ...hurmatga sazovor bo‘la olmaydi.



«O‘zbek tilining imlo lug‘ati» kitobidan olingan quyidagi so‘zlarning yozilishini bilib oling. O‘z nutqingizda ulardan to‘g‘ri foydalanishga harakat qiling. Sir-sinoat , qo‘llab-quvvatlamoq¹³⁹



Birinchi marta 1831-yilda nashr etilgan romanning muqaddimasida uning muallifi shunday so‘zlarni yozgan edi: «Mening asosiy maqsadlarimdan biri bu millatni me‘morchiligimizga muhabbat bilan ruhlantirishdir».

Ushbu fikrlar muallifini toping?



Uyga vazifa. Quyidagi rasm asosida matn yarating, unda qo‘shma gap qismlarini bog‘lovchi vositalar qatnashsin.



¹³⁸ «Liderlar» kanalidan

¹³⁹ O‘zbek tilining imlo lug‘ati. –T.: «O‘qituvchi». 2013.240b.371-;340-b

153-154-§. Qo‘shma gap turlari. Bog‘langan qo‘shma gaplar uslubi



Topshiriq 1-topshiriq. Qo‘shma gaplar qanday belgi-xususiyatlariga ko‘ra turlarga bo‘linadi?



Topshiriq 2-topshiriq. Qanday bog‘lovchilar va bog‘lovchi vazifasidagi vositalar yordamida bog‘langan qo‘shma gaplar hosil qilinadi?



Topshiriq 3-topshiriq. Qo‘shma gap tarkibidagi bog‘lovchi vositalardan kelib chiqib, ular orasidagi mazmuniy munosabatni aniqlang.

1. Baliq boshidan sasiydi, ammo uni dumidan tozalaydilar.¹⁴⁰ 2. Umr tangrining odamzotga o‘lchab bergan omonatidir, biz esa ko‘pincha uni behuda o‘tkazib omonatga xiyonat qilamiz.¹⁴¹ 3. Kunlarning birida onam qoshiga keldim va uning tizzasiga boshimni qo‘ydim.¹⁴² 4. Yozuvchi hamisha yo nimanidir yoqlaydi, yoki inkor qiladi.¹⁴³ 5. Na qo‘lingiz bilan tutasiz, na ortidan yugurib yetasiz...¹⁴⁴

Nazariy ma‘lumot. Qo‘shma gaplar qanday bog‘lovchilar va bog‘lovchi vazifasidagi vositalar yordamida bog‘lanishiga ko‘ra uch turga bo‘linadi:

1. Bog‘langan qo‘shma gaplar.
2. Ergashgan qo‘shma gaplar.
3. Bog‘lovchisiz qo‘shma gaplar.

Bog‘langan qo‘shma gaplar tarkibidagi sodda gaplar biriktiruv bog‘lovchisi va bog‘lovchi vazifasidagi -u(-yu), -da yuklamalari bilan bog‘langanda turli mazmuniy munosabatlar: qo‘shma gap qismlarida ifodalangan voqea-hodisalarning birin-ketin

^{140,244,242} Hoshimov O. “Daftar hoshiyasidagi bitiklar/to‘ldirilgan va qayta ishlangan nashri. – T.: “Sharq”, 2012.

¹⁴² Mahmudov O. “Farzandnoma” . – Toshkent: “O‘qituvchi” – 2018. 207-bet

¹⁴³ Adabiyot: Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarining 9- sinfi uchun darslik. / Q. Yo‘ldoshev, V. Qodirov, J. Yo‘ldoshbekov. Qayta ishlangan 4-nashri. — T.: «O‘zbekiston» NMIU, 2019. — 4-bet

sodir bo'lishi, ularning bir-biridan uzilmaganligi, voqea-hodisalarning tez almashganligi yuzaga chiqadi. Masalan: *Ko'nglimni zavq asir etdi va yosh boladek har yon yugurdim// Ko'nglimni zavq asir etdi-yu, yosh boladek har yon yugurdim// Ko'nglimni zavq asir etdi-da, yosh boladek har yon yugurdim.*

Bog'langan qo'shma gap qismlarini bog'lovchi vositalar ma'nodoshlik hosil qiladi:

a) -u(-yu), -da yuklamalari biriktiruv va zidlov bog'lovchilari o'rnida qo'llanadi.

Gaplar orasidagi mazmuniy munosabat matndan anglashiladi: *To'satdan eshik taraqlab ochildi-yu, ostonada Ertoyev paydo bo'ldi. Uning so'zlari jonli chiqdi-yu, ko'plab savollarga javob berolmadi.*

b) zidlov bog'lovchilari o'rnida bo'lsa, esa so'zlari, balki modal so'zi, faqat, yolg'iz yuklamalari qo'llanishi mumkin¹⁴⁵. *Barcha tillar aniqlikka intiladi, aniqlik esa qisqalik, ixchamlikni talab etadi.*



Topshiriq 4-topshiriq. Bog'langan qo'shma gaplardagi bog'lovchilarning o'rniga ularning ma'nodoshlarini qo'ying va ma'noda yuz bergan o'zgarishlarni izohlang.

Ko'nglimni zavq asir etdi va yosh boladay har yon yugurdim.¹⁴⁶



Topshiriq 5-topshiriq. Shu qolipga mos bog'langan qo'shma gaplar tuzing.

■ va ■

■ va bo'lsa, esa ■

■ va -u(yu) -da ■

■ va, balki ■

^{145,249} Abdurahmonov G', Rustamov H. Ona tili: 11-sinf uchun darslik. – T.: "O'qituvchi" 2004.



«O‘zbek tili izohli frazeologik lug‘ati» kitobidan olingan quyidagi iboralarning ma‘nolarini o‘rganing. Iboralarning nutq jarayonidagi ta’siri haqida o‘ylab ko‘ring. Ularni eslab qolishga harakat qiling.

Hasratidan chang chiqadi. Ortiq darajada noroziligini bildirib gapirmoq. Ishonmasangiz, o‘g‘li Turob bilan gaplashing, hasratidan chang chiqadi. (H.Nazir)

Qorasini ko‘rsatmaslik. Kimningdir ko‘ziga hech ko‘rinmaslik. Dori bergan tabib, go‘yo kasaldan umid uzganday qorasini ko‘rsatmadi. (H.Maqsudiy)¹⁴⁷



1953- yil 2-iyun kuni Buyuk Britaniyada Yelizaveta II ning «toj kiydirish» marosimi bo‘lib o‘tdi. Shu kuni ertalab qirolichaga telegramma kelib tushdi, qirolicha ushbu telegrammani hamma zamon va xalqlarning eng ulug‘vor tantanali sovg‘asi deb atadi. Ushbu sovg‘ani jo‘natgan ikki kishining birini nomini ayting?



Uyga vazifa. Bog‘langan qo‘shma gap qolipidagi maqollarga 5 tadan misol yozib keling.

155-156-§. Ergashgan qo‘shma gaplar va ularning uslubiyati

Quyidagi savol va topshiriqlarni bajaring.



Topshiriq

1-topshiriq. Sinf doskasiga ergashtiruvchi bog‘lovchilarni yozing va ularning vazifasini tushuntiring.



Topshiriq

2-topshiriq. Ana shu bog‘lovchilar yordamida qo‘shma gap hosil qiling.



Topshiriq

3-topshiriq. Hosil qilingan qo‘shma gap nima uchun ergashgan qo‘shma gap hisoblanadi?

Misollar bilan izohlab bering.



Topshiriq

4-topshiriq. Ergashgan qo‘shma gaplarda ergash gap bosh gapga qanday vositalar yordamida bog‘lanishiga ko‘ra bir necha turlarga bo‘linadi. Ular qaysi?

¹⁴⁷ Rahmatullayev Sh. O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati. –T.: “O‘qituvchi».1978. 405 b. 307-;291-b



Topshiriq 5-topshiriq. Ergashgan qo‘shma gaplarda ergash gap bilan bosh gapning joylashuv o‘rni qanday?



Topshiriq 6-topshiriq. Ergashgan qo‘shma gaplarda ergash gap bilan bosh gap qanday farqlanadi?

Nazariy ma’lumot. Ergashtiruvchi bog‘lovchilar yoki bog‘lovchi vazifasidagi vositalar orqali bog‘lanib, bir gap ikkinchisiga mazmunan tobe bo‘lgan gaplar ergash gapli qo‘shma gap deyiladi.¹⁴⁸ Bunday qo‘shma gaplar doim ikki qismdan borat bo‘ladi: ergash gap va bosh gap. Masalan: *Ishlarimni har doim o‘z vaqtida qilaman, shuning uchun hamkasblarim meni hurmat qilishadi.* Ushbu gapda *ishlarimni har doim o‘z vaqtida qilaman* gapi ergash gap, *shuning uchun hamkasblarim meni hurmat qilishadi* gapi esa bosh gap. Ergashgan qo‘shma gaplarda so‘z birikmalari singari so‘roq hamma vaqt bosh gapdan ergash gapga beriladi: *Nima uchun hamkasblarim meni hurmat qilishadi?*

Ergashgan qo‘shma gaplar turli ergashtiruvchi bog‘lovchilar, bog‘lovchi vazifasidagi vositalar bilan bog‘lanib, bir mazmuniy munosabatni ro‘yobga chiqarishi mumkin. Bunday vaqtda ular ma’nodoshlikni hosil qiladi. Ma’nodoshlik esa uslubiyatning asosi hisoblanadi. Misollar: *Litseyimizda fan to‘garaklari yaxshi yo‘lga qo‘yilgan, shuning uchun fan olimpiadalarida doim g‘olib bo‘lamiz. Fan olimpiadalarida doim g‘olib bo‘lamiz, chunki litseyimizda fan to‘garaklari yaxshi yo‘lga qo‘yilgan.*



Topshiriq 7-topshiriq. Quyidagi gapni ergash gapni bosh gapga bog‘lovchi vositani o‘zgartirish orqali xuddi shu mazmundagi ergashgan qo‘shma gap hosil qiling. **Baxtim borki, har narsa go‘zal ko‘rinadi mening ko‘zimga. (H.O)**

¹⁴⁸ O‘zbek tili darsligi. G‘.Abdurahmonov va boshq. - T>O‘qituvchi, 1993.



Topshiriq **8-topshiriq.** Quyidagi shakllar orqali ergashgan qo‘shma gaplar hosil qiling.

1. -----, chunki -----.
2. -----, shuning uchun -----.
3. -----sin deb, -----.
5. Qayerda -----sa, o’sha yerda -----.
6. -----ki, -----.
7. Agar -----sa, -----.



Topshiriq **9-topshiriq.** Quyidagi sodda gaplarni ergashgan qo‘shma gaplarga aylantiring.

1. Kunlar isib ketdi.
2. Baxtiyor inson ekanligingni bilib qo‘y.
3. Bilimdon bo‘lib ulg‘ayadi.
4. Seni to‘ydiradi, kiyintiradi.
5. Astoydil o‘qidim.
6. Biz sizni yaxshi ko‘ramiz.
7. Qadriyatlar bor.
8. O‘shani olib kelaman.
9. Baxtli bo‘ladi.



Topshiriq **10-topshiriq.** Quyidagi dialogik nutqni ergashgan qo‘shma gapga aylantiring.

- Adabiyot nima uchun kerakligini bilasizmi?
- Yo‘q.
- Sizga aytaymi?
- Bilsangiz, ayting.
- Tuyg‘ular o‘lmasligi uchun, ularning yashashi uchun, agar bo‘lsa.

(Javlon Jovliyev)



«O‘zbek tilining imlo lug‘ati» kitobidan olingan quyidagi so‘zlarning yozilishini bilib oling. O‘z nutqingizda ulardan to‘g‘ri foydalanishga harakat qiling.

Hukmnoma, fojia¹⁴⁹



Bu inson o‘z sohasini 1908-yili Sankt Peterburgga jo‘natilgan xorazmliklar delegatsiyasi tarkibida o‘rgangan va o‘sha yerdan Pate-593 kamerasini ham olib kelganda boshlagan ekan. Diqqat, savol: Bu inson kim?



Uyga vazifa. 9-sinf darsligidan olingan quyidagi gaplarni davom ettiring. Davom ettirgan gapingizni asli bilan solishtiring.

1. Ular mening aytganimni qilishadi, ...
2. Kimda odob bo‘lsa, ...
3. Uning bunday odati yo‘q edi, ...
4. Ukalarim bezovta bo‘lmasin deb, ...
5. Yerga mehringni bersang, ...
6. Shunday yashaylikki, ...
7. Shunday odamlar borki, ...
8. Kimning ko‘ngli ochiq bo‘lsa, ...
9. Kimki o‘z og‘zining qorovuli bo‘lsa, ...
10. Yozuvchining mahorati shundaki, ...
11. Kimki ilm urug‘ini sepsa, ...
12. Odamlar ishdan qolmasin deb¹⁵⁰, ...

157-158-§. Ergashgan qo‘shma gaplar va sodda gaplar orasidagi ma’nodoshlik



Topshiriq

1-topshiriq. Bir umumiy mazmun sodda gap shaklida ham, qo‘shma gap shaklida ham berilishi mumkin. Lekin ular bir-biridan qanday farqlanadi? Uni quyidagi misollar yordamida tushuntirib bering.

¹⁴⁹ O‘zbek tilining imlo lug‘ati. –T.: “O‘qituvchi”. 2013.240b.166-;134-b

¹⁵⁰ Ona tili: Umumta’lim maktablarining 9-sinfi uchun darslik / N.M.Mahnudov va boshq. –T.: “Tasvir”, 2009.

Kechalarni o‘qigan va bilganlarining takrori bilan o‘tkazgan tong-la kunduzlari kabi qalbi shodlikka to‘ladi. Kim kechalarni o‘qigan va bilganlarining takrori bilan o‘tkazsa, tong-la kunduzlari kabi qalbi shodlikka to‘ladi¹⁵¹.



Topshiriq 2-topshiriq. Quyidagi ergashgan qo‘shma gaplarni sodda gaplarga aylantiring.

1. Kim barcha orzularining birdaniga ro‘yobga chiqishini xohlasa, ularga erishish yo‘lida kechalarini manziliga yetkazadigan tuya karvoni qilsin! 2. Bilginki, tolibi ilm ham, tolibi kasb-hunar ham faqatgina ilm va ilm ahlining hurmatini o‘z o‘rniga keltira olishi – uni hurmatlab, ta‘zimini ado eta olishi bilangina ilmga, kasbga erishib, ulardan muvaffaqiyat ila manfaat topadi¹⁵².

Nazariy ma’lumot: Ko‘makchili qurilmalar vositasida ergashgan qo‘shma gaplar, ko‘rsatish olmoshili ergashgan qo‘shma gaplar va nisbiy so‘zli ergashgan qo‘shma gaplar tegishli sodda gaplar bilan ma‘nodoshlik hosil qilishi mumkin. Masalan: Uyga berilgan vazifalarni o‘z vaqtida bajardim, shuning uchun har doim ustozlarimning maqtoviga sazovor bo‘ldim. Uyga berilgan vazifalarni o‘z vaqtida bajarganligim uchun har doim ustozlarimning maqtoviga sazovor bo‘ldim. Bilginki, ilmni yashirsang, so‘ralgan vaqtda bilganingni bildirmasang, uni unutasan. Ilmni yashirsang, so‘ralgan vaqtda bilganingni bildirmasang, uni unutishingni bilgin¹⁵³. Kim biron narsani talab qilsa, unga erishish yo‘l-yo‘riqlarini izlasa, talab qilgan niyatiga erishadi. Biron narsani talab qilgan, unga erishish yo‘l-yo‘riqlarini izlagan talab qilgan niyatiga erishadi¹⁵⁴.



Topshiriq 4-topshiriq. Quyidagi sodda gaplarni ergashgan qo‘shma gaplarga aylantiring.

¹⁵¹ Ilm olish sirlari/ I. Zarnujiy; tarjimon Z.Sharifov. – Samarqand: Imom Buxoriy xalqaro markazi nashriyoti, 2018.

^{152,256,257} Ilm olish sirlari/ I. Zarnujiy; tarjimon Z.Sharifov. – Samarqand: Imom Buxoriy xalqaro markazi nashriyoti, 2018.

1. Hamma maqsadimizga erishdik.
2. Oliyjanob insonlarning farzandisan.
3. Ukalarining ham shu ishni qiladi.
4. U joyda olimlar suhbatlashadi.
5. Uning bilimlari manfaat yetkazadi.
5. Unga ishonib topshirish mumkin.



Topshiriq

5-topshiriq. Guruh uchga bo‘linib quyidagi rasm asosida ko‘makchili qurilma vositasida ergashgan qo‘shma gaplar, ko‘rsatish olmoshili ergashgan qo‘shma gaplar va nisbiy so‘zli ergashgan qo‘shma gaplarga beshtadan misol yozing va bir-biringiz bilan almashtirib, ularni sodda gaplarga aylantiring.



«O‘zbek tili omonimlarining izohli lug‘ati» kitobidan olingan quyidagi shakldosh so‘zlarning ma‘nolarini o‘qib o‘rganing. O‘z nutqingizda ulardan to‘g‘ri foydalaning.

Pora I. Ot. Parcha, bo‘lak, burda. *Sadpora aylamoq.*

Pora II. Ot. O‘z manfaatiga xizmat qildirish maqsadida g‘ayri qonuniy yo‘l bilan beriladigan pul, buyum, rishvat. *Pora bermoq*¹⁵⁵.



Solijon Sharipov ochiq koinotga chiqqanida quyidagi fikrni aytgan: Fazodan yerga qaralganda go‘yo yerda umuman urushlar bo‘lmagandek, zero koinotdan **ular** ko‘rinmaydi. Diqqat, savol: Ular o‘rnidagi so‘zni toping?



Uyga vazifa. Shoir va yozuvchilar asarlaridan sodda gapga aylantirish mumkin bo‘lgan ergashgan qo‘shma gaplarga o‘ntadan namunalar yozib keling.



¹⁵⁵ Rahmatullayev Sh. O‘zbek tili omonimlarining izohli lug‘ati. –T.: “O‘qituvchi”. 1984. 216 b.104-b

159-§. Bog‘lovchisiz qo‘shma gaplar va ularda tinish belgilarining ishlatilishi. Vergul va nuqtali vergulning ishlatilishi



Topshiriq

1-topshiriq. Quyidagi gaplarning nimasi bilan bir-biridan farqlanishi va ular o‘rtasida qanday umumiy tomonlar borligini aniqlang. Bu gaplar qanday bog‘lovchi vositalar bilan bog‘lanishiga ko‘ra qo‘shma gapning qaysi turiga kirishini bayon qiling.

1. Bahor keldi, dalada ishlar avj oldi. 2. Bahor keldi-yu, dalada ishlar avj oldi. 3. Bahor keldi – dalada ishlar avj oldi. 4. Bahor keldi va dalada ishlar avj oldi. 5. Ham bahor keldi, ham dalada ishlar avj oldi. 6. Bahor keldi, natijada dalada ishlar avj oldi¹⁵⁶. 7. Bahor keldi, shuning uchun dalada ishlar avj oldi. 8. Bahor kelsa, dalada ishlar avj oladi.



Topshiriq

2-topshiriq. 9-sinf darsligidan olingan quyidagi bog‘langan va ergashgan qo‘shma gaplarni bog‘lovchisiz qo‘shma gaplarga aylantiring va mazmuniy munosabatdan kelib chiqib tegishli tinish belgisini qo‘ying.

1. E‘tiqod susaysa, til emas, imon ham unutilgay. 2. Yozi bilan tinimsiz mehnat qildik, shu sababli mo‘l hosil oldik. 3. Shunday yashaylikki, hamma havas qilsin. 4. Shuni angladimki, inson qobiliyati cheksiz ekan. 5. Shunga xursandmizki, bolalar o‘z yo‘lini topib ketishdi. 6. Deraza ochildi va muzday kuz havosi kirib keldi. 7. Men o‘z fikrimni aniq tushuntirib berishga harakat qilyapman, lekin siz uni eshitishni xohlamayapsiz.

Nazariy ma‘lumot. Sodda gaplarning bog‘lovchi va bog‘lovchi vositalar yordamisiz, mazmunan birikishidan tuzilgan qo‘shma gaplar bog‘lovchisiz qo‘shma

¹⁵⁶ Ona tili darsligi.9-sinf darsligi.

gaplar deb ataladi¹⁵⁷. Masalan: **Shirinso‘z, oqko‘ngil insonlar mevali daraxtga o‘xshaydi: hamma ulardan bahra oladi¹⁵⁸.**

Bog‘lovchisiz qo‘shma gaplarda quyidagi hollarda sodda gaplar orasiga vergul qo‘yiladi:

1. Bog‘lovchisiz qo‘shma gap tarkibidagi sodda gaplar bir paytda ro‘y bergan voqea-hodisalarni ifodalasa. Masalan: **Hamma chuqur xo‘rsindi, Anorxon piq-piq yig‘ladi¹⁵⁹.**(O)

2. Bog‘lovchisiz qo‘shma gap tarkibidagi sodda gaplar ketma-ket sodir bo‘lgan voqea-hodisalarni ifodalasa. Masalan: **Bir vaqt dasturxon yozildi, turli taomlar kirdi¹⁶⁰.** (Ertakdan)

3. Bog‘lovchisiz qo‘shma gap tarkibidagi sodda gaplar biror voqea-hodisa, biror joy, biror shaxs va narsa buyumni tasvirlasa. Masalan: **Yer tosh qotgan, qor moylanmagan aravaday g‘ijirlaydi¹⁶¹.**



Topshiriq

3-topshiriq. Adabiyot darsligingizdan foydalanib, bog‘lovchisiz qo‘shma gap tarkibidagi sodda gaplar orasida vergulning ishlatilishiga misollar yozing va izohlang.

Nazariy ma‘lumot. Bog‘lovchisiz qo‘shma gap tarkibidagi sodda gaplar mazmuni u qadar yaqin bo‘lmasa, ular orasida vergul ishlatilgan bo‘lsa, sabab, natija va izoh munosabati bilan bog‘lanib, tarkibida bir necha tinish belgisi qo‘yilgan bo‘lsa, ular orasiga nuqtali vergul qo‘yiladi. Masalan: **Kitob ajoyib bog‘ga o‘xshaydi; u kishiga doimo zavq bag‘ishlaydi¹⁶².** Yosh do‘stim, o‘qituvchi

¹⁵⁷ O‘zbek tili darsligi. G. Abdurahmonov va boshq. - T: O‘qituvchi, 1993.

¹⁵⁸ Ona tili va adabiyot. 2019-yil. Test topshiriqlari to‘plami, amaliy qo‘llanma/Davlat test markazi.-Toshkent.: Davr Press.

¹⁵⁹ G‘ulomov A. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Sintaksis. –T.: “O‘qituvchi”, 1987.

^{160,264,265}. Abdurahmonov G‘ va boshq. Ona tili 10-sinf uchun darslik.-T.: “O‘qituvchi”, 2013.

ham xuddi onadek mehribon, ulug‘; otadek bog‘bon, mehnatkash: ularni hurmat qil¹⁶³! (H.Nuriy)



Topshiriq

4-topshiriq. Quyidagi bog‘lovchisiz qo‘shma gap tarkibidagi sodda gaplar orasiga vergul, nuqtali vergul qo‘ying va izohlang.

1. Sen o‘g‘limsan //xotining kelinim. 2. Sultonmurod o‘zini chetga olishga urindi//xalq to‘lqini uni surib ketdi. 3. Siz otam o‘rnida otalik qildingiz//sizdan hech yomonlik ko‘rmadim.¹⁶⁴ 4. U biladi, ishonadi; singlisi o‘zi ko‘rmasa yoki aniq bilmasa, uydirma-yu mish-mishlarga ishonadigan anoyi emas. 5. Qish oxirlamoqda, qorlar erigan, hamma joyda loygarchilik; yo‘lda arava tugul, piyoda ham, qo‘rqa-pisa qadam bosadi¹⁶⁵. 6 Bir joyda turganimda deyarli fikr qilolmayman; tanam hamma vaqt harakatda bo‘lishi kerak.7. Osmonda yoqutdek yirik yulduzlar porlaydi, yangi oyning o‘rog‘i daryoda qalqib-qalqib suzadi. 8. Kechasi shamol tindi, yo‘l azobidan horigan kishilar qattiq uyquga ketdilar.



G‘arbda uzoq muddat bu insonni ikki kishi sifatida ko‘rishgan. Chunki ayrim tekstlarni arab tilida, ayrimlarini forschada yozgan. Diqqat, savol: Bu inson kim?



Uyga vazifa. Quyidagi qo‘shma gaplarda vergul va nuqtali vergulning ishlatilish o‘rinlarini izohlang.

1. Nihoyat, osh ham yarimladi; chinni laganning tubi ko‘rindi. (So‘zl.)
2.Ko‘klamning sayroqi qushlari tabiat ko‘rinishlarini kuylamoqdalar, ko‘m-ko‘k ko‘katlar silkinib, qushlarni olqishlamoqdalar. (Oybek) 3. Botirlari kanal qazadi, shoirlari g‘azal yozadi. (H. Olimjon) 4. Sohibqironning bug‘doyrang yuzi xiyol qoraydi, ko‘zlari katta-katta ochildi. (M. Ali) 5. Avval ular bizga etib olishsin, keyin birga jo‘naymiz. (H. To‘xtaboev) 6. Siddiqjon to‘xtadi, orqasidan kimdir kelayotgan

¹⁶³ Abdurahmonov G‘ va boshq. Ona tili 11-sinf uchun darslik.-T.: “O‘qituvchi”, 2004

¹⁶⁴ O‘zbek tili darsligi. G‘.Abdurahmonov va boshq. - T>O‘qituvchi, 1993.

¹⁶⁵ Ona tili darsligi,r]9-sinf darsligi.

edi. (A. Qahhor) 7. Hamidaning boshi og‘irlashib ketdi; ikki marta sekin, og‘zini ochmasdan esnadi. (A. Qahhor) 8. Faqat pashsha g‘ing‘illaydi, bemor inqillaydi; har zamon yaqin-yiroqdan gadoy tovushi eshitiladi. (A. Qahhor) 9. U otasi singari baland bo‘yli, keng yag‘rinli; otda ko‘p yurgani uchun oyog‘ini kerib tashlaydi, ovda ko‘p bo‘lganidan fikrini qo‘l harakati bilan ham tushuntirib gapiradi. (SH. Holmirzaev)¹⁶⁶

160-§. Bog‘lovchisiz qo‘shma gaplarda ikki nuqta va tirening ishlatilishi



Topshiriq

1-topshiriq. Berilgan bog‘lovchisiz qo‘shma gaplarda ikki nuqtaning ishlatilish sabablarini izohlang.

1. Toshbag‘irlikda ikki illat mavjud: egasini muruvvat yo‘lidan yiroqlashtiradi va kibr so‘qmog‘iga yaqinlashtiradi. 2. Bolangiz tez-tez yo‘qolib qolyapti, telefonda soatlab gaplashmoqda: u mustaqillikka intilmoqda.



Topshiriq

2-topshiriq. Berilgan bog‘lovchisiz qo‘shma gaplarda tirening ishlatilish sabablarini izohlang.

1. Vatanning bor ekan – davlating ham ziyoda, kuch-quvvating ham zo‘r, hammaga keraksan. 2. Ariqlar chiqardik – yovlar quritdi.

Nazariy ma’lumot. Bog‘lovchisiz qo‘shma gap tarkibidagi keyingi sodda gap oldingi sodda gapning ma’nosini izohlab kelsa, ular orasiga ikki nuqta qo‘yiladi. Masalan:

¹⁶⁶ www.ziyouz kutubxonasi.

Sizning qilayotgan ishingiz yomg'irga o'xshaydi: har bir tomchisi don undiradi.

Bunday qo'shma gaplarda keyingi sodda gap oldingi sodda gap tarkibidagi ko'rsatish olmoshi bilan ifodalangan quyidagi bo'laklarning ham ma'nosini izohlab keladi:

1. Kesimning: Yassaviyning xulosasi shu: nafs ichki, lekin katta dushman.

2. Eganing: Ta'limda shunisi muhim: har bir o'quvchi kelajak bunyodkori, shu tufayli ularga sifatli bilim berish zarur.

3. Aniqlovchining: Oramizda shunday odamlar bor: tishlab turgan nonini ham berib yuborishadi.**4. To'ldiruvchining:** Shunga ishonchim komil: bolalarning har biri g'olib bo'lib keladi.



Topshiriq

3-topshiriq. Quyidagi ergashgan qo'shma gaplarni bog'lovchisiz qo'shma gapga aylantiring va zarur tinish belgisini qo'ying.

1. Shuni bilginki, har bir yangilik bexosiyat bo'lmaydi. 2. Hikmat shunday liboski, kiyganing bilan eskirmaydi. 3. Men shunday bir inson haqida xabar keltirdimki, uning har bir so'zi bebaho gavhardir. 4. Maqsadim shuki, qilayotgan ishimizdan xalqimizga manfaat yetsin. 5. Shuni iltimos qilamanki, tog'a, ukalarim yolg'iz qolib ketishmasin.

Nazariy ma'lumot. Bog'lovchisiz qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplar orasiga quyidagi o'rinlarda tire qo'yiladi:

1. Bog'lovchisiz qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplar orasida shart munosabati bo'lsa: *Ishning ko'zini bil – dala ham obod, choyxona ham obod.*

2. Bog'lovchisiz qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplar orasida zidlash munosabati bo'lsa: *O'zim hali yoshman – olamcha g'ururim bor.*

3. O'xshatish munosabati bo'lsa: *Doston aytdim – kitob bo'ldi.*



Topshiriq

4-topshiriq. Quyida berilgan bog'lovchisiz qo'shma gaplar tarkibidagi sodda gaplar orasiga nima uchun tire qo'yilgan?

1. Jismimiz yo‘qolur – o‘chmas nomimiz. 2. Suv keldi – nur keldi. 3. Men tirikman – o‘lja bo‘lmaydi otim. 4. Quyosh ko‘tarildi – tungi sovuqning zardasi hali sezilib turardi. 5. Said Jalolxon tovush chiqarmay uning yoniga o‘tirdi – u ko‘rmadi. 6. Maqtanchoq bo‘lmang – xijolat tortmaysiz.



«O‘zbek tili paronimlarining izohli lug‘ati» kitobidan olingan quyidagi so‘zlarning ma‘nolarini o‘qib o‘rganing. Ularning ma‘nolariga e‘tibor bering. Paronimlarga oid xatoga yo‘l qo‘ysangiz, so‘z ma‘nosiga qanday ta‘sir qilishini o‘ylab ko‘ring.

Diplomat. Davlatlar bilan aloqa qilib turuvchi hukumat vakili. *Tajribali diplomatlar tomonidan yozilgan bunday hujjatlar diqqat bilan o‘qishdan tashqari sinchiklab o‘rganishni ham talab qiladi. (gazetadan)*

Diplomant. Oliy o‘quv yurtlarida diplom olish uchun berilgan topshiriqlarni bajaruvchi talaba. *Institutimizdagi diplomantlar o‘z ishlarini yozib tugatdilar. (gazetadan)¹⁶⁷*



Uning otasi ko‘p yillar Bursa shahrining qozisi bo‘lib xizmat qilgan, o‘zi esa Mirzo Ulug‘bekka turli fanlardan saboq berib uning ustoziga aylangan. U inson kim?



Uyga vazifa. «Xotin-qizlarga e‘tibor – kelajakka e‘tibor» mavzusida esse yarating, unda bog‘lovchisiz qo‘shma gaplarning ishlatilishiga alohida e‘tibor qarating.



¹⁶⁷ Ma‘rufov A. Paronimlar lug‘ati. –T.: “O‘qituvchi”. 1974. 52 b. 19-b



Topshiriq

1-topshiriq. Quyidagi qo'shma gaplar bir umumiy mazmuni ifodalasa ham, lekin bog'lovchi vositalar bilan bog'lanishiga ko'ra farqlanadi. Shunga ko'ra ularni turlarga ajrating va uslubiy jihatdan farqlang.

1. Jismimiz yo'qoladi, lekin nomimiz o'chmaydi. 2. Jismimiz yo'qoladi-yu, nomimiz o'chmaydi. 3. Jismimiz yo'qoladi-yu, lekin nomimiz o'chmaydi. 4. Jismimiz yo'qolsa ham, nomimiz o'chmaydi.



Topshiriq

2-topshiriq. Istiqlol keldi – o'zligimizni angladik, qadriyatlarimiz tiklandi bog'lovchisiz qo'shma gapni turli vositalar yordamida bog'langan va ergashgan qo'shma gaplarga aylantirib, qo'shma gaplar orasidagi ma'nodoshlikni hosil qiling.

Nazariy ma'lumot. Turli mazmuniy munosabatlarni bog'langan qo'shma gaplar, ergashgan qo'shma gaplar va bog'lovchisiz qo'shma gaplar bilan ifodalash mumkin. Shunga ko'ra ular ma'nodosh bo'ladi.

Sinonimlarda ozmi-ko'pmi uslubiy baho bo'lgani kabi, bunday gaplar ham bir-biridan ozgina bo'lsa-da farq qiladi: gaplarda ritorika, hissiyot va ta'sir kabi uslubiy ma'nolar ifodalanadi¹⁶⁸. Masalan: Ko'ngil yig'laydi, lekin ko'zlarda nam yo'q. Ko'ngil yig'laydi-yu, ko'zlarda nam yo'q. Ko'ngil yig'laydi-yu, lekin ko'zlarda nam yo'q. Ko'ngil yig'lasa ham, ko'zlarda nam yo'q. Ko'ngil yig'lasa ham, lekin ko'zlarda nam yo'q.



Topshiriq

3-topshiriq. Quyidagi gaplarni turli vositalar yordamida ma'nodosh gaplarga aylantiring va ular orasidagi ma'no nozikliklarini bayon qiling.

¹⁶⁸ Abdurahmonov G', Rusramov H. Ona tili: 11-sinf uchun darslik-T.: "O'qituvchi", 2004.

Yurt tinch – sen tinch. Oftob dunyoni yoritadi, mas’ullik tuyg‘usi inson nomini bezaydi. Nur borki, soya bor. Yaxshi so‘z – jon ozig‘i, yomon so‘z – bosh qozig‘i. O‘z mehnatidan non yegan kishi, Hotam minnatidan ozod yoz-qishi. (Sa’diy Sheroziy) Asta-sekin ketganlar yo‘q, asta-sekin kelganlar bor. (Jaloliddin Rumi)



Topshiriq

4-topshiriq. Quyidagi ergashgan qo‘shma gaplarni qo‘shma gapning boshqa turiga aylantiring.

1. Shuni bilingki, aql bilan odob – jism bilan jon. Shuni esdan chiqarmaslik lozimki, aqlsizga so‘z uqtirgandan ko‘ra yelkada tosh tashish afzal. 3. Shunga amin bo‘ldimki, serjahl boshda aql bo‘lmaydi. 4. Shundan ehtiyot bo‘lish lozimki, hamrohingiz aslo nodon bo‘lmasin. 5. Shuni doimo yodda tutish kerakki, nodon odamning gapi ko‘p bo‘ladi. 6. Endi sizlarga muborak topshiriq shuki, har biringiz alohida-alohida ketasiz. 7. Maslahatim shuki, bugun o‘zga bir go‘shaga chekining. 8. Qizig‘i shundaki, u hali bundan bexabar ekan. 9. Bizda shundayki, o‘zidan kichiklarni ham sizlashadi.



Topshiriq

5-topshiriq. Quyidagi bog‘lovchisiz qo‘shma gap shaklidagi xalq maqollarini qo‘shma gapning boshqa turiga aylantiring. Qanday farqlanishni kuzatdingiz, uni tushuntirib bering.

1. Olgan mard emas, bergan – mard. 2. Piyozni mard artsin, sabzini – nomard. 3. Dard ketar, odat qolar. 4. Baxilning mushugi bor, sichqon kirmas uyiga. 5. Yantoq o‘zini bog‘ aylar, ahmoq o‘zini tog‘ aylar. 6. Katta topganini kiyar, kichik – suyganini. 7. Yaxshi yaroqsiz bo‘lar, yomon quloqsiz bo‘lar.



«O‘zbek tilining imlo lug‘ati» kitobidan olingan quyidagi so‘zlarning yozilishini bilib oling. O‘z nutqingizda ulardan to‘g‘ri foydalanishga harakat qiling.

Haqiqatparvar, fahmlamoq¹⁶⁹ .



Bir necha asr oldin Xitoylik oshpazlar ovqat tayyorlash jarayonida uni tejash maqsadida sabzavotlarni yupqa to'g'rashgan ekan. Savol: Oshpazlar nimani tejashmoqchi bo'lishgan?



Uyga vazifa. Quyidagi maqollarni davom ettiring va qo'shma gaplar ma'nodoshligini hosil qiling.

1. Ahmoqqa kaltak, ... 2. Vafodor do'st yo'lga solar, ... 3. Mard yiqilsa, ... 4. Dard ketar, ... 5. Saxiyning o'ng qo'li berar, ... 6. Joningni fido qilsang qil, ... 7. Qo'r ketdi, ... 8. Odam ochlikdan o'lmas, ...¹⁷⁰

163-166-§. Murakkab qo'shma gaplar



Topshiriq

1-topshiriq. Quyidagi gapni o'qing, unda gap nima haqida boryapti? Ushbu gap qo'shma gapdan farqlanadimi? Uni qanday bilsa boladi?

Yaxshi tarbiya ko'rmagan va turmushda tajriba orttirmagan kishi ko'p narsalarni nazarga ilmaydi, u bilim va tajribaga ega bo'lgachgina fikri o'zgaradi, noo'rin ko'ringan narsalarning aslida zarur ekanini payqaydi¹⁷¹.



Topshiriq

2-topshiriq. Adirlar rang-barang gullar bilan yasanadi, soylikda suvlar toshib hayqiradi, lekin bularning barchasini ona ko'rmaydi sira!¹⁷² Ushbu gap nechta sodda gapdan hosil qilingan va ular qanday bog'langan?

Nazariy ma'lumot: Uch va undan ortiq sodda gaplardan tarkib topib, turli bog'lovchi vositlar yordamida bog'langan gaplar murakkab qo'shma gaplar

¹⁶⁹ O'zbek tilining imlo lug'ati. -T.: «O'qituvchi». 2013.240b. 159-;129-b

¹⁷⁰ O'zbek xalq maqollari:To'plam_T.: Adabiyot va san'at nashriyoti.,1989

¹⁷¹ Ona tili. 9-sinf uchun darslik.

¹⁷² G'ulomov a, Asqarova M. Hozirgi o'zbek adabiy tili: Sintaksis.-T.: "O'qituvchi, 1987.

hisoblanadi¹⁷³. Masalan: Aqling bo'lsa, biror narsani o'rgan, chunki uquvsiz aql ko'ylaksiz tan, yoinki beqiyofa odamdir, axir, ilmni aqlning yuzi, deyishadi-ku! ("Qobusnoma"dan)

Murakkab qo'shma gaplar to'rt turga bo'linadi:

1. Bir necha ergash gapli murakkab qo'shma gaplar.
2. Bir necha bosh gapli murakkab qo'shma gaplar.
3. Aralash murakkab qo'shma gaplar.
4. Qismlari uyushgan murakkab qo'shma gaplar.

Tarkibida ikki va undan ortiq ergash gaplari mavjud bo'lgan gaplar **bir necha ergash gapli murakkab qo'shma gap** hisoblanadi¹⁷⁴. Masalan: *Hamma aytganlarimni qilsang, darslaringni o'z vaqtida bajarsang, sayohatga olib boraman.*

Tarkibida ikki va undan ortiq bosh gaplari mavjud bo'lgan gaplar **bir necha bosh gapli murakkab qo'shma gap** hisoblanadi¹⁷⁵. Masalan: *Shu narsa ayonki, hamma shu narsani yaxshi biladiki, odobsiz kishilar hech qachon e'tibor qozonmaydi.*

Tarkibida ergashgan, bog'langan yoki bog'lovchisiz qo'shma gaplar mavjud bo'lgan gaplar **aralash murakkab qo'shma gaplar** hisoblanadi¹⁷⁶. Masalan: *Shuni unutmaki, sen yer farzandisan va yerni ardoqlash, uni obod qilish sening vazifangdir. (Yo'ldosh Sulaymon)*

Bir turdagi uch va undan ortiq gaplardan tashkil topgan gaplar **qismlari uyushgan murakkab qo'shma gaplar** hisoblanadi¹⁷⁷. Masalan: *Yer shivirlaydi, yulduz jivirlaydi, bahordan darak keladi. (O'.Hoshimov)*

¹⁷³ Ona tili: Umumta'lim maktablarining 9-sinfi uchun darslik/ N.Mahmudov bva boshq.-T.: "Tasvir", 2009.

^{174, 278, 279, 280} Ona tili: Umumta'lim maktablarining 9-sinfi uchun darslik/ N.Mahmudov bva boshq.-T.: "Tasvir", 2009.



Topshiriq

3-topshiriq. Quyidagi she'ri o'qing va o'zingizga tegishli xulosa chiqaring. Ushbu she'riy satrlarda murakkab qo'shma gapning qaysi turi bor, uni izohlab bering.

Husni xulqda taqvo bor,

Taqvodorga shikastlik yor.

Kamtarinlik, shirinso'zlik

Komillik karvonin tortar.

Sultoni komilning shayxlar

Maktubiga javobin o'qi:

«Siz yaxshisiz, biz yomon,

Siz bug'doysiz, biz somon! »¹⁷⁸ (Adibul Muxtor)



Topshiriq

4-topshiriq. Quyidagi gap murakkab qo'shma gapning qaysi turiga mansub, uni izohlang.

Kim kechalarni o'qigan va bilganlarining takrori bilan o'tkazsa, tongla kunduzlari qalbi shodlikka to'ladi, chunki kelajakda bu ishlari foyda keltirib, kechalarini bekor o'tkazmagani uchun afsuslanmaydi¹⁷⁹.



Topshiriq

5-topshiriq. Davron Ulug'murodovning «G'alati bemor» hajviy hikoyasidan olingan quyidagi parchani o'qing va undan murakkab qo'shma gaplarni ajrating.

...Xullas, bunaqa navbatda turib bajaradigan ishlarga yuguraverdim, kami qolmadi. Lekin...

Hamma gap ana shu lekinda-da. Dunyoga koronavirus degan balo yog'ilgan bir paytda men undan battar kasallikka chalindim. Virus yuqqan qancha odamlar dorining zo'ridan otday bo'lib ketyapti, vaksina olishyapti. Har holda chorasi bor-



da. Men esa bir dardi bedavo kasallikka chalindim. Koronavirusdan ham battari nima ekan deysizmi, aytsam ishonmaysiz. Navbat kutish kasaliga duchor bo'ldim. «Katta

¹⁷⁸ Ilm olish sirlari/ I.Zarnujiy; tarjimonZ.Sharifov.-samarqand.2018.

¹⁷⁹ Ilm olish sirlari/ I.Zarnujiy; tarjimonZ.Sharifov.-samarqand.2018.

o‘g‘il» sifatida, buning ustiga g‘irt bekorchi emasmanmi, har xil idoralarda, bozorlarda navbatga turaverib shu kasalni orttirib oldim. Tanam soppa-sog‘, lekin poraxo‘r pora olayotganda kafti qichigandek, bangi nasha chekmasa xumor qilgandek, men ham xumor qiladigan bo‘lib qoldim. Nimaga xumor qilardim – oxiri yo‘q navbat kutishga xumor qilaman. Shunaqasi ham bo‘larkan-da.

Endi ishim bo‘lsa-bo‘lmasa bozorga boraman, biron joyda odamlar tizilishib turgan bo‘lsa, men ham turib olaman, nima uchun turishgani, nima sotilayotgani bilan ishim yo‘q, navbat kutsam bo‘ldi, navbatim yaqinlashib qolganda bir ikkita o‘zimd keyingilarni o‘tkazib ham yuboraman, baribir navbatim yetib keladi, shunda menga umuman kerak bo‘lmagan nimadir sotilayotgan bo‘ladi. Sekin chetga chiqib ketaman, ba’zida uyalganimdan mutlaqo keraksiz narsani sotib olgan vaqtlarim ham bo‘lgan...



«O‘zbek tili omonimlarining izohli lug‘ati» kitobidan olingan quyidagi shakldosh so‘zlarning ma‘nolarini o‘qib o‘rganing. O‘z nutqingizdan ulardan to‘g‘ri foydalaning

Yot I. Sifat. Begona. *Yotsiramoq.*

Yot II. Fe‘l. Biror sathni gorizontal holda egallab turmoq. *Divanda yotmoq.*

Yot III. Ko‘makchi fe‘l. *Mevalar chirib yotibdi*¹⁸⁰.



Bananlar shaklini bilasiz. Bananlar bunday o‘shiga sabab qilib, ularning bu ishni qilishga harakat qilishlari keltiriladi. Diqqat savol: Bu ishni qilganligi tufayli nom olgan o‘simlikni toping.



1-mashq. Uyga vazifa. «Telegramm»ning «Adiblar» kanalidan Davron Ulug‘murodovning «G‘alati bemor» hajviy hikoyasini to‘liq o‘qib chiqing va murakkab qo‘shma gaplarni aniqlab, daftaringizga ko‘chiring.

¹⁸⁰ Rahmatullayev Sh. O‘zbek tili omonimlarining izohli lug‘ati. –T.: «O‘qituvchi». 1984. 216 b. 62-b

Qo‘shma gaplarni tahlil qilish namunasi

1. Qo‘shma gapni tashkil qilgan qismlarni (kesimlarni) aniqlash.
 2. Qo‘shma gap qismlarini bog‘lovchi vositalarni aniqlash
 3. Bog‘lovchi va bog‘lovchi vositalardan kelib chiqqan holda qo‘shma gap turini aniqlash.
 4. Qo‘shma gap tarkibidagi sodda gaplarning birlashib qanday mazmuniy munosabat ifodalaganini aniqlash.
 5. Agar qo‘shma gap bog‘lovchisiz qo‘shma gap bo‘lsa, tinish belgilarining ishlatilish sabablarini izohlash.
 6. Berilgan gap murakkab qo‘shma gap bo‘lsa, turini aniqlash va izohlash. **Masalan: Kimki mamlakatni obod qilibdi, Bilki, u o‘ziga haykal qo‘yibdi¹⁸¹.**
1. Ushbu qo‘shma gapni tashkil qilgan qismlar quyidagilar: obod qilibdi, haykal qo‘yibdi.
 2. Qo‘shma gap qismlari nisbiy so‘zlar: **kim – u** yordamida bog‘langan.
 3. Qanday bog‘lovchilar va bog‘lovchi vositalar bilan bog‘lanishiga ko‘ra, ergashgan qo‘shma gap.
 4. Ergashgan qo‘shma gap tarkibidagi **kimki mamlakatni obod qilibdi** ergash gapi **u o‘ziga haykal qo‘yibdi** bosh gapidagi ko‘rsatish olmoshi bilan ifodalangan **u** egasini izohlagan, shuning uchun bu gapni **ega ergash gapli qo‘shma gap deyish** mumkin.



Topshiriq

1-topshiriq. Berilgan gaplarni qo‘shma gaplarni tahlil qilish namunasi asosida bajaring.

1. Kimki hayo libosini kiygan bo‘lsa, odamlar uning aybini ko‘rishdan ozod bo‘ladilar. (Maqol)
2. Inson bir umr mo‘jiza kutib yashaydi, lekin asl mo‘jiza uning

¹⁸¹ Farzandnoma: adabiy-badiiy nashr.O.A.Mahmudov.-Toshkent: “O‘qituvchi”,2018.

o'zida yashirinib yotganini doim ham anglayvermaydi.(O.Mahmudov)
3. Yolg'onchidan shon qolmas, nomidan nishon qolmas. (Maqol) 4. Taraqqiy etgan millatlarni onalar o'qitar ekan, biz avval onalarimizni o'qitib, ularga til o'rgatmog'imiz kerak, chunki bizning ilmsiz va tilsizligimiz ulardandir. (Mahmudxo'ja Behbudiy) 5. Donishmand – baqqolning do'koniga o'xshaydi: borini indamaygina ko'rsatadi-qo'yadi, nodon esa lashkar nog'orasining o'zi: ovozi baland-u, ichi bo'm-bo'sh va g'arib. (Sa'diy Sheroziy) 6. Mansabdor mol to'playdi, oqil esa fazilat.(Mu'iddin Juvayniy) 7. Umrning omonatligi shundaki, umr – ato etilgan ishonch bo'lgani bois unga xiyonat qilib bo'lmaydi. (O.Mahmudov)



Topshiriq

2-topshiriq. O'tkir Hoshimovning «Daftar hoshiyasidagi bitiklar» kitobidan olingan quyidagi hikmatni o'qing va takibidagi qo'shma gapni tahlil qiling.

Gumroh bandalar

Odamlarga hayronsan. Ota-onasi tirikligida ikki og'iz shirin so'zni tekinga aytmaydi-da, ular o'lganidan keyin ming-ming pul sarflab, o'sha so'zlarni qabrtoshga yozdirib qo'yadi...



Topshiriq

3-topshiriq. OTMlarga kirish uchun beriladigan testlar ustida ishlash.

1. Qaysi bog'langan qo'shma gap qismlari orasida payt munosabati ifodalangan?

A) Shu onda chiroq o'chdi va birdaniga o'q uzildi.

B) Oyim gapiryapti-yu, mening ko'zlarim Kimsan akamda.

C) Yo urug' aynigan, yoki agrotexnika qoidalari buzilgan.

D) Nuri goh sevinib shirin xayollarga botadi, goh butun vujudini qo'rquv bosadi.

2. Qaysi javobda bosh gapda qo'llanmagan olmoshning ma'nosini izohlagan ega ergash gap berilgan?

A) Kimki ilm urug'ini sepsa, u ulug'lik mevasini teradi.

B) Shu narsa aniqki, tarixni yaxshi bilmagan kishi oxir-oqibat qul sifatida kun kechiradi.

C) Kim erta bahordan dalaga chiqib peshona teri to'ksa, kuzda mehnatining rohatini ko'radi.

D) Anvarga shunisi qiziq tuyuldiki, bu yerda hamma daraxtlar bir chiziq ustida saf turardi.

3. Qismlari nisbiy so'zlar vositasida bog'langan kesim ergash gapli qo'shma gap berilgan javobni toping.

A) Shuni doimo yodda tutish kerakki, nodon odamning gapi ko'p bo'ladi.

B) Kim chaqqon va tez harakat qilsa, yutuq o'shaniki bo'ladi.

C) Vatanimizning kelajagi shuning uchun ham buyukki, unda yashayotgan aholining katta qismini yoshlar tashkil etadi.

D) Qayerda tinchlik hukm sursa, shu yer baxt maskanidir.

4. Qaysi bog'lovchisiz qo'shma gap qismlari orasida vergul qo'llanishi lozim?

A) Yulduzlarni xayolida har xil rangga bo'yab ko'rdi // yulduzlar o'z rangida xira miltillab turaverdi.

B) Bizning qarorimiz shu // hasharda barchamiz faol ishtirok etamiz.

C) Ehtimol, sizda ham shunday hollar bo'lgandir // tun yarmidan og'ganda birdan uyg'onib ketasiz.

D) Oyim endi o'rnidan turayotgan edi // eshik shaxt bilan ochildi.

5. Qaysi bog'lovchisiz qo'shma gap qismlari orasida tire qo'llanishi lozim?

A) Yulduzlarni xayolida har xil rangga bo'yab ko'rdi // yulduzlar o'z rangida xira miltillab turaverdi.

B) Bizning qarorimiz shu // hasharda barchamiz faol ishtirok etamiz.

C) Ehtimol, sizda ham shunday hollar bo'lgandir // tun yarmidan og'ganda birdan uyg'onib ketasiz.

D) Oyim endi o'rnidan turayotgan edi // eshik shaxt bilan ochildi

6. Qismlari qaysi bog'lovchi vositasida bog'langan ergashgan qo'shma gaplarni sodda gapga aylantirish mumkin?

1) ko'makchili qurilma 2) deb so'zi 3) -ki yuklamasi

4) nisbiy so'zlar 5) ergashtiruvchi bog'lovchilar

A) 1,2,3,4,5 B) 1,2,5 C) 2,3 D) 1,3,4

7. Qaysi javobda ifodalangan fikr to'g'ri emas?

A) Ergashgan qo‘shma gaplar , tarkibida nechta gap bo‘lishidan qat’i nazar, doimo ikki qismdan tashkil topadi.

B) Mazmuni izohlanayotgan gap ergash gap, ergash gapning mazmunini izohlayotgan gap bosh gap hisoblanadi.

C) Ergashgan qo‘shma gap qismlari yozuvda vergul bilan ajratiladi.

D) Ergash gap bosh gapdan oldin yoki keyin qo‘llanishi mumkin.

8. *Traktor berilsa, yer traktor bilan haydalsa, mehnat unumi ortadi, hosil mo‘l bo‘ladi.* Ushbu murakkab qo‘shma gap qanday sodda gaplardan tashkil topgan?

A) ergash gap+bosh gap+ergash gap+bosh gap

B) ergash gap+ergash gap+bosh gap+bosh gap

C) bosh gap+bosh gap+ergash gap+ergash gap

D) bosh gap+ergash gap+bosh gap+ergash gap

9. Sabab-natija va payt munosabati bog‘langan qo‘shma gapning qaysi turi bilan ifodalanadi?

A) biriktiruv bog‘lovchisi yordamida bog‘langan qo‘shma gap

B) zidlov bog‘lovchisi yordamida bog‘langan qo‘shma gap

C) ayiruv bog‘lovchisi yordamida bog‘langan qo‘shma gap

D) bo‘lsa, esa so‘zi yordamida bog‘langan qo‘shma gap

10. Qaysi javobda bog‘lovchisiz qo‘shma gap berilgan?

A) Suv keldi – cho‘llarda hayot boshlandi.

B) Suv keldi, shu bois cho‘llarda hayot boshlandi.

C) Suv keldi va cho‘llarda hayot boshlandi.

D) Suv kelishi bilan cho‘llarda hayot boshlandi.



«O‘zbek tili paronimlarining izohli lug‘ati» kitobidan olingan quyidagi so‘zlarning ma’nolarini o‘qib o‘rganing. Ularning ma’nolariga e’tibor bering. Paronimlarga oid xatoga yo‘l qo‘ysangiz, so‘z ma’nosiga qanday ta’sir qilishini o‘ylab ko‘ring.

QULP-QULF

Qulp. Qulp urmoq, yashnamoq, barq urib ochilmoq.

Qulf. Kalit yordamida qulflanadigan asbob. *Ko'ng'il xazinasi qulfi tildir, ul xazinaning kaliti tildir. (Navoiy)¹⁸²*



U Rossiyada birinchi o'rinda, Fransiyada ikkinchi o'rinda, Germaniyada uchinchi o'rinda turadi. U nima?



Uyga vazifa. 2-topshiriqda berilgan hikmat asosida «**Ota-onamizga tirikligida yaxshilik qilaylik!**» mavzusida insho yozish va unda qo'shma gaplarning turlarini o'rinli qo'llash.



169-170 –§. Badiiy uslubga xos matnni o'qish, undan gaplarning tuzilishiga ko'ra turlarini aniqlash



Topshiriq

1-topshiriq. Cho'lponning «Kecha va kunduz» romanidan olingan parchani o'qing, undan sodda va qo'shma gaplarni ajratib, daftaringizga ko'chiring.

...Senlarning xonlaring bilan bizlarning podshohimiz yurtlariga ko'p ham achinmaydilar, shekilli... Senlarning Xudoyorxonningga «O'ruslar Oqmachitni olib qo'ydi», deganlar. Xudoyorxon «U yurtim necha kunlik yo'lda?» deb so'ragan, «Bir

¹⁸² Ma'rufov A. Paronimlar lug'ati. –T.: "O'qituvchi". 1974. 52 b. 49-b

oylik yo‘lda», deganlar. «Unday bo‘lsa, menga unaqa olis joydagi yurtning keragi yo‘q. Olsa, ola bersin!» degan... Bizniki ham, vallohi a’lam, undan qolishmas.

Miryoqub nima deyishini bilmay qoldi. Bunaqa siyosatlarga sira aralashmagan va bu to‘g‘rida shu choqqacha hech bir bosh qotirmagan kishi bunday katta siyosiy masalalar oldida birdaniga shoshmasdan iloji ham yo‘q edi. Quruq bo‘lmasin, deb gapga aralashib qo‘ydi:

– Ilgari bir oylik yo‘l bo‘lsa, endi poyezd bilan uch kunlik yo‘l bo‘lib qoldi...

– Havo kemasi bilan ertaga uch soatlik yo‘l bo‘ladi. Umuman, ertaga - masofaning ahamiyati qolmaydi, Miryoqub. Bizning kattalarimiz asrning sur‘atini anglamoq istamaydilar. «Shoshilmasang, yetasan» degan maqol boshimizga bir balo bo‘ldi.

Germaniya nega kuchlik?

– Siz bilasiz, to‘ra.

– Men, albatta, bilaman, sen ham bilib qo‘y. Germaniya sur‘at bilan yutadi. Sur‘at mashina bilan hosil bo‘ladi. Germaniya bizdan necha barobar kichik, odami bizning uchdan birimizcha ham kelmaydi! Ammo bir qarich yeri temir yo‘lsiz, tosh yo‘lsiz emas. Bugun, aytaylik, Samarqandda bo‘lgan askarini ertaga Oqmachitga olib borib to‘ka oladi. Biznikilar bir izlik temir yo‘l bilan sudralib borguncha ish tamom bo‘ladi... Nimaga germanlar Farangistonda qarichlab oldinga jiladilar? Chunki Farangiston ham Germaniya singari sur‘at degan narsani biladi. Texnikaga boy. Bizning shaldirama aravamiz, sizning anovi devsifat aravalarimiz butun-butun xalqlarni uxlatadigan narsa...



2-topshiriq. Shavkat Rahmon qalamiga mansub «G‘o‘za» she‘rini o‘qing, undan sodda va qo‘shma gaplarni ajratib, daftaringizga ko‘chiring.

G‘O‘ZA

Bir parixon

kabi so‘zladim

tuproq yorgan go‘zaga qarab:
«Avlodlarning haqqi-hurmati
o‘sgin,
o‘sgin,
pakana daraxt».
Shunday o‘ski,
hatto eng baland
daraxtlar ham qolsinlar dog‘da.
Shunday o‘ski,
lo‘ppi momiqlar
bulutlarday toshsin chanoqdan.
Axir senga egilaverib
yo aytolmay ko‘ngil dardini,
qancha avlod qadimdan buyon
rostlayolmay o‘tdi qaddini.
G‘o‘za,
ulkan daraxtga aylan,
osmon qadar yuksalgin yerdan,
o‘ynab pishiq shoxalaringdan
pag‘a-pag‘a bulutlar tersak.
Qo‘shiq aytsak,
qo‘shiqlarimiz
to‘lqinlanib, tekis taralsa,
kuylaganda ko‘rinsa osmon,
kuylagandan qayta yaralsak...
Bir parixon
kabi birpasda
zo‘r daryolar yulini to‘sdim,



avlodlarning haqqi hurmati

o‘sgin go‘za, g‘o‘zajon, o‘sgin.



Topshiriq

3-topshiriq. Sharof Boshbekovning «Temir Xotin» tragikomediyasidan olingan ushbu parchani o‘qing va undan sodda, qo‘shma gaplarni ajratib daftaringizga yozing.

Olimjon: – (Qo‘chqorga achinganday bosh-oyoq qarab chiqib.) Bir hisobda, sizgayam qiyin - shuncha bola-chaqa... Sakkiztamidi?

Qo‘chqor: – (Uh tortib.) Ha, qolgani shu. Beshtasi peshonamga sig‘madi, Olimtoy...

Olimjon: – Hechqisi yo‘q, Qo‘chqor aka, yaqinda hammasi yaxshi bo‘lib ketadi. Mana, hozir “oilani planlashtirish” degan bir gap chiqib turibdi.

Qo‘chqor: – Nimalashtirish?

Olimjon: – Planlashtirish. Menimcha, shu yaxshi gap, Qo‘chqor aka. Tushunmadingiz-a? Buning ma‘nosi shuki, yaxshi yashash uchun bolani to‘rtta-beshtadan oshirmaslik kerak.

Qo‘chqor: – Iye?.. Xudoning o‘zi berib tursa nima deysan?

Olimjon: – (Kulimsirab.) Ha, endi, Xudo bermaydigan qilinadi-da.

Qo‘chqor: – (Go‘yo tushunganday.) Ha-a, gap buyoqda degin? U... qanaqa bo‘ladi o‘zi?

Olimjon: – «Oilani planlashtirish» degan gap bekorga chiqqani yo‘q. Axir, ne-ne olim-u fozillar rosa o‘ylab, hamma tomonini hisobga olib, keyin gapirishyapti. Mana, siz va sizga o‘xshaganlarning bola-chaqa deb umri o‘tib ketmasin, bular ham odamga o‘xshab yashasin, degan gap bor buning tagida, bildingizmi?

Qo‘chqor: – Yo‘q, tagidagi gap yaxshi ekan-u, lekin boshimizga qo‘ylarning kuni tushmasmikan, deyman-da.

Olimjon: – Qaysi qo‘ylar?



Qo‘chqor: – Sening ham esingda bordir, bir paytlar SJKmi, PJKmi degan bir balo chiquvdi. Qo‘ylarni sun’iy urchitib, ko‘proq qo‘zi olish uchun-da. Keyin qo‘yning zoti aynidi, qorako‘ldan sifat qochdi, har xil kasallikka chalindi. Shu, turib-turib olimlaringga ham tushunmay qolaman-da, Olimtoy. Bir qarasang, qo‘ylarga qarab «ko‘p tug‘» deydi, bir qarasang, o‘zbekka qarab, «kam tug‘», deydi...

Olimjon: – Ana shunaqa gaplarni gapirmang-da, Qo‘chqor aka! Siz bilasizmi, yo yuqoridagilar biladimi? Gapingizni qarang! Qo‘y qayoqda, o‘zbek qayoqda?! Bu yerda gap xalqning turmushini yaxshilash haqida boryapti. Axir, o‘zingiz mundoq bir qarang, ayniqsa, qishloqlarimizda turmush darajasi nihoyatda past. Chidab bo‘lmaydigan darajada past!

Qo‘chqor: – (Asabiyroq.)Past, degin? Senlarning turmushlaring balandmi? Davlat o‘qitdi, odam qildi, olim degan noming bor, ko‘tar-da past bo‘lsa! «Prigres-mrigres» qilasan bu yerga kelib olib! Xotinlarning qorniga osilguncha paxta teradigan mashinani to‘g‘rila!

Olimjon: – Nima, bizni hukumatning pulini shundoq yeb yotibdi deb o‘ylayapsizmi? Biz ham qidiraymiz, izlanyapmiz, o‘ylayapmiz.

Qo‘chqor: – E, bitta paxta teradigan mashinani ellik yil o‘ylaydimi! Goh rulini o‘zgartirasanlar, goh kabinasini, goh o‘tirg‘ichini – bo‘ldi! Biz «Yangi mashina kelar ekan», – deb do‘ppimizni osmonga otib yuramiz. Qarasak, o‘sha-o‘sha – Xolxo‘janing tayog‘i!



«O‘zbek tilining imlo lug‘ati» kitobidan olingan quyidagi so‘zlarning yozilishini bilib oling. O‘z nutqingizda ulardan to‘g‘ri foydalanishga harakat qiling.

Zahmatkash, yurish-turish¹⁸³

¹⁸³ O‘zbek tilining imlo lug‘ati. –T.: “O‘qituvchi”. 2013.240b. 476-;473-b.



Ijodining ma'lum bir nuqtasiga kelganda Jeyms Joy rangli qalamlar va katta qog'ozlarda ijod qilishni boshlagan. Diqqat savol: Bunga uni nima majbur qilgan?



Uyga vazifa. Tog'ay Murodning «Ot kishnagan oqshom» qissasidan olingan parchani o'qing, bizning millatimizda inson qadrining naqadar ulug'ligini his qiling. Matndan qo'shma gaplarni ajratib, «Ikki muhim kun» mavzusida uy inshosi yozing.

...Endigi qog'oz kelishida bormadim.

Boisi, Dono momo bandalik qildi. Janozasiga bordim. Momoni o'rab-chirmab, yig'lab-yig'lab qo'yib keldim.

Uyda azali kayfiyatda yonboshlab yotib edim, Rixsiyev kelib qoldi.

- Ahay, choy qo'yinglar! – dedim ayolimizga.
- Kayfiyatingiz yo'q, o'rtoq Qurbonov? –dedi Rixsiyev.
- Dono momoni qo'yib keldik, – dedim.
- Qayoqqa qo'yib keldingiz?

Shunda, Rixsiyev janozada bo'lmaganini bildim.

- Dono momo olamdan o'tdi, shuni aytyapman, – dedim.
- Aha, dafn qildik deng. Qo'yib keldik deganingizga biror nimani qo'yib kelibdimi debman. Yuzimni o'girib, ko'zlarimni yumdim. O'zimni bosolmadim. Tag'in o'ng bo'ldim. Ko'nglimga qay bir gaplar keldi. Gap kelganda gapirmasa, shu gap o'ldim, deb ketadi. Shu bois, umrimda birinchi marta Rixsiyevga oqsoqolchilik qilishga jur'at etdim:

- Rixsiyev aka, – dedim, – siz o'qigan odamsiz, olamdagi bor gapni bilasiz. Sizga o'rgatib bo'lmaydi. Hech qachon eldan qolmang, aka. Xususan ikki vaqt elning yonida bo'ling. Biri – to'yida. Elning to'yini belingizni besh joyidan boylab xizmat qilib, o'ynab-kulib, xush-xushvaqt o'tkazib bering. To'y ko'pniki, ha. Yana biri- azasida. Yig'lab-siqtab elning qayg'usiga hamdard bo'ling. O'lim qayg'usini bir odam ko'tarolmaydi. Og'irlik qiladi. Shunda siz yonida bo'lib, qayg'usiga sherik bo'ling. Odam ana shu ikki vaqtda odamligini bildiradi.

– Men unday momoni tanimayman, u kim?

– O‘zimizday odam. Faqirgina bir momo edi. Umri kolxozda ishlab o‘tdi. Qarigan chog‘ida magazinda qorovul bo‘ldi. Na qizi bor, na uli bor edi. Bechorahol momo edi. Yig‘laydiganlari-da bo‘lmadi. O‘zimiz momomlab, xolamlab yig‘lab jo‘natdik. El ko‘mdi...

– Aha, qulog‘imga bir chalinganday bo‘ldi. Maktabga darsga ketayotgan edim, kimdir, birov o‘libdi, dedi. E‘tibor bermabman.

– Ana shu-da. Shu sababli-da janozada odam taxchil bo‘ldi. Ko‘nglim yarim bo‘lib qaytdim. Odamzotning qadri endi shu bo‘ldimi, dedim. Rixsiyev aka, bir kun kelib biz ham ketamiz. O‘lim barimizning boshimizda bor savdo. Shunday kunda bir-birovimizning kunimizga yaramasak, odam bo‘lib nima qilib yuribmiz...

Rixsiyev gapimni og‘zi bilan eshitdi.

– Hammaning borishi shartmi, o‘rtoq Qurbonov, – dedi. – Qarindosh-urug‘idan to‘rt kishi borsa bo‘ldi-da. Tobutning to‘rt yog‘ochidan ushlab ko‘tarib boradi. To‘rt kishidan ortig‘i ortiqlik qiladi. Aha, xo‘p, olti kishi ham bo‘lsin. Ikkitasi go‘r qazib turadi.

– Rixsiyev aka, odam it bo‘lsa ekan, oyog‘idan sudrab olib borib, chuqurga tashlab kela bersa. Odam o‘z nomi o‘zi bilan odam. Odamdan ulug‘ jonzot bormi...

Rixsiyev gapimni og‘zi bilan eshitdi.

– Ha, endi, bir kampir ekan-da. Bor-yo‘g‘i qorovul! – dedi. – Xalqaro ahamiyatga, aqalli mahalliy ahamiyatga molik shaxs bo‘lsa ekan, bilagimizga qora lenta taqib faxriy qorovullikda tursak! Motam tutsak, nutq so‘zlasak!

– Rixsiyev aka, odamning katta-kichigi bo‘lmaydi. Bariyam odam. Bir odam yaxshimi-yomonmi bir umr yashadi. Qo‘lidan kelgancha tirikchilik qilib, o‘zini odam sanab yurdi. Biz bilan betma-bet bo‘ldi, yelkama-yelka bo‘ldi, davrma-davr bo‘ldi. Endi qaytmas bo‘lib ketyapti. Odam qaytmas bo‘lib ketayotganda bormagan odam odammi...

Rixsiyev gapimni og‘zi bilan eshitdi.

– Kampirlarning o‘limi mahalliy gap, o‘rtoq Qurbonov, – dedi. – E’tiborga molik emas. Ana, xalqaro arenada qanchadan qanday tragediyalar sodir bo‘lmoqda. Eron shohi Pahlaviy yashirin buyruq berib, bir kinoteatrni yoqib yuboribdi. Ichida besh yuz inson bor ekan. Aha, tragediya deb buni aytadi! Dahshat! Men Eron xalqiga chuqur ta’ziya bildiraman. Men xalqaro ahvoldan tashvishdaman, o‘rtoq Qurbonov, qattiq tashvishdaman! Xalqaro vaziyat kun sayin keskinlashib bormoqda...

171-172-§. Rasmiy uslubga xos matnni o‘qish, undan gaplarning tuzilishiga ko‘ra turlarini aniqlash



1-topshiriq. Bayonnoma matni bilan tanishing, uning tarkibidagi gaplarni quyidagi jadvalga joylashtiring.

SODDA GAPLAR	QO‘SHMA GAPLAR

«Uchqun» fermer xo‘jaligi rahbari
O. Yo‘lchiyevadan Tuman fermerlar
uyushmasi raisi M. Anorqulovga

B I L D I R I S H

Fermer xo‘jaligimiz paxta yig‘im-terimi majburiyatlarini 28-oktyabrda, muddatidan 10 kun ilgari bajardi. Davlatga 20 ming tonna paxta topshirildi, hosilning 95 foizi birinchi navga qabul qilindi. Mavsum oxirigacha fermer xo‘jaligimiz kuchi bilan yana 4 tonna paxta topshirish majburiyatini olamiz.

Fermer xo‘jaligi raisi: (imzo) M.Anorqulov

2018. 28. 10.



Topshiriq

2-topshiriq. Ishonchnoma matni bilan tanishib, uning tarkibidagi gaplarni sodda va qo'shma gaplarga ajratib yozing.

ISHONCHNOMA

Toshkent shahri, ikki ming o'n to'qqizinchi yil mart oyining o'n birinchi kuni Men, Toshkent shahar Bobur ko'chasidagi 40-uyning 8-xonadonida yashovchi Sulton Karimovich Rahimov, ushbu ishonchnoma bilan Samarqand shahar Tinchlik ko'chasidagi 14-uyda yashovchi Lola Yo'ldoshevna Karimovaga Samarqand shahar Olmazor ko'chasidagi menga tegishli bo'lgan 21-uydagi hovli-joyni o'zi xohlagan narx va shartlar asosida sotishiga vakolat beraman.

Shu bilan birga, unga vakolatni bajarish chog'ida zarur bo'ladigan barcha ma'lumot va hujjatlarni olish, oldi-sotdi bo'yicha shartnoma tuzish va uni imzolash, menga tegishi kerak bo'lgan pullarni olish hamda mazkur vakolatni bajarish bilan bog'liq barcha zaruriy harakatlarni amalga oshirish huquqini beraman.

Ushbu ishonchnoma vakolatlarni birovga o'tkazish huquqsiz (huquqi bilan) **OLTI OYLIK** muddatga berildi.

(Imzo)

S.K.Rahimov

(Notarial idoraning ishonchnomani tasdiqlovchi yozuvlari va muhri)



Topshiriq

3-topshiriq. Tavsifnoma matni bilan tanishib va uning tarkibidagi gaplarni grammatik asoslar miqdoriga ko'ra turlarga ajrating.

O'zMU fizika fakultetining 4-bosqich talabasi, 1997- yilda tug'ilgan, o'zbek,

Nazar Shukurovga

TAVSIFNOMA

Nazar Shukurov o'rta maktabni tugatgach, 2016 -yilda Fizika fakultetining 1-bosqichiga o'qishga kirdi.

Universitetda tahsil olish davrida u intizomli, ziyarak va zukko talaba sifatida o'zini ko'rsatdi. Bilimlarni qunt bilan o'rganishga harakat qiladi. Fizika fanlariga alohida

qiziqadi. U 2017-yilning aprel oyida talabalarning Xalqaro ilmiy konferensiyasida ma'ruza bilan qatnashdi. Ma'ruzasi konferensiyaning faxriy yorlig'i bilan taqdirlandi. N.Shukurov fakultetning jamoat ishlarida faol qatnashadi, fakultetning «Yosh fiziklar» devoriy gazetasiga muharrirlik qiladi.

U kamtarin va to'g'riso'zligi, mehribonligi tufayli hamkurslari hurmatiga sazovor bo'lgan.

Tavsifnoma Olmazor tuman hokimligiga taqdim qilish uchun berildi.

Dekan (imzo) O.R.Azizov

Kasaba uyushmasi raisi (imzo) A.R.Mirvalieva (sana)



3-topshiriq. Tavsiyanoma matni bilan tanishing va uning tarkibidagi gaplarni tuzilishiga ko'ra sodda va qo'shma gaplarga aylantiring.

TAVSIYANOMA

Men Hakim Nasriddinovni 1974-yildan beri yaqindan taniyman. 1984-yildan boshlab O'zFA O'zbek tili, adabiyoti va folklori institutida birga ishlaymiz. Bu davr ichida u atamashunoslik sohasida yetuk mutaxassis sifatida tanildi, filologiya fanlari nomzodi bo'ldi. Uning dissertatsiya ishi, bir qancha maqolalari ilmiy puxtaligi bilan ajralib turadi.



H. Nasriddinov intizom va qat'iyatligi bilan jamoada obro' qozongan, totuv oilaning boshlig'i. Institut ilmiy va ijtimoiy hayotida faol ishtirok etib kelmoqda. Shu sababli men Hakim Nasriddinovni «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi» davlat ilmiy nashriyotida ilmiy muharrir sifatida ishlash uchun tavsiya qilaman.

filologiya fanlari nomzodi (imzo) **A.Madvaliev**

2016- yil 18- fevral



Topshiriq 4-topshiriq. Tarjimayi hol matni bilan tarnishing, uni sodda va qo‘shma gaplarga ajrating. Siz ham o‘zingizning tarjimayi holingizni yozing.

TARJIMAYI HOL

Men, Salimov Karim Olimovich, 1970-yil 15-sentyabrda Toshkent shahrida, xizmatchi oilasida tug‘ildim. Otam – Salimov Olim Oripovich Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetida o‘qituvchi, onam – Rahimova Gulnora Azimovna 122-bolalar bog‘chasida bosh tarbiyachi bo‘lib ishlaydilar.

1987-yildan 1997-yilgacha Toshkent shahridagi 1-o‘rta maktabda o‘qidim. 1997-yilda Toshkent texnika universitetining qurilish fakultetiga o‘qishga kirdim. 1998-2000- yillarda armiya safida haqiqiy xizmatni o‘tab qaytgach, o‘qishni davom ettirdim va 2004-yilda shu universitetni imtiyozli diplom bilan tugatib, quruvchi-muhandis mutaxassisligiga ega bo‘ldim. Yo‘llanma bilan Toshkentdagi 166-qurilish trestining 94-mexanizasiyalashgan ko‘chma korxonasiga ishga yuborildim. Dastlab muhandis lavozimida, 2009-yildan buyon bosh muhandis lavozimida ishlayapman.

2011-yilda rejadagi topshiriqlarni muvaffaqiyatli bajarganim va erishilgan natijalar uchun Respublika Qurilish vazirligining faxriy yorlig‘i bilan taqdirlandim. Bir necha jamoat ishlarida ham qatnashaman, jumladan, 166-qurilish tresti kasaba qo‘mitasining a‘zosiman.

2001-yildan XDP a‘zosiman.

Uylanganman. Xotinim Rasulova Muhabbat, 1982-yilda tug‘ilgan. 2-shahar kasalxonasida hamshira bo‘lib ishlaydi. O‘g‘lim – Salimov Nodir, 1996-yilda tug‘ilgan, O‘zMU talabasi. Qizim – Salimova Lola, 2000-yilda tug‘ilgan, 261-maktabda o‘qiydi.

Mening turarjoyim: 100210, Toshkent, Shota Rustaveli ko‘chasi, 5-uy, 27-xonadon.

Tel.: 71 272-28-61.

(imzo)

K. Salimov

2020.15.01



Topshiriq

5-topshiriq. Quyidagi tushuntirish xati matni bilan tarnishing va undan gapning tuzilishiga ko‘ra turlarini ajratib, daftaringizga ko‘chiring.

«O‘zbekko‘mir» aksiyadorlik
jamiyati Angren qo‘ng‘ir ko‘mir
koni shaxta boshlig‘i E.S.Latipovga
ishlab chiqarish intizomining
buzilganligi haqida

TUSHUNTIRISH XATI

2018-yil 9-iyun kuni men navbatchilik qilgan birinchi smenada ko‘miro‘ygich mashinani elektr toki bilan ta‘minlaydigan kabel uzilib ketdi.

Kabelning uzilishi quyidagi sababga ko‘ra ro‘y berdi: ishchi M.K.Salimov birinchi konveyerni boshqarish chog‘ida ko‘miro‘ygich kabelini o‘rab qo‘ymagan, natijada konveyer bloki kabelga ishqalanib, uni uzib ishdan chiqargan va mashina to‘xtab qolgan.

Ishchi M.K.Salimov avval ham texnika xavfsizligi qoidalarini buzib kelgan va tegishli ravishda jazosini olgan edi.

Yuqoridagilarni hisobga olgan holda, M.K.Salimovga yana-da qat‘iyroq intizomiy jazo choralarini qo‘llash zarur deb hisoblayman.

Tog‘ - kon muhandisi (imzo)

P.T.Maqsudov

2018.10.06



Bir ma‘lumotlarga ishonadigan bo‘lsak, bu ixtironing aniq sanasi sifatida 1869-yilda Amerikalik ruhoni Jonatan Skobi tomonidan Yokogama shahrida nogiron xotini uchun yaratilgani keltirib o‘tilgan. Diqqat savol: Gap qanday ixtiro haqida ketmoqda?



1-mashq. Uyga vazifa. Hisobot matnini yozing, unda sodda va qo‘shma gaplarni o‘rinli ishlating.

173 – 174-§. Sodda va qo‘shma gaplar bo‘yicha savol va topshiriqlar ustida ishlash.



Topshiriq

1-topshiriq. Quyidagi matn bilan tanishing va o‘zingizga tegishli xulosa chiqaring. Matndan egali va egasiz gaplar, murakkablashgan sodda gaplarni ajratib, daftaringizga ko‘chiring. Sodda gaplarni murakkablashtiruvchi vositalarni sanab o‘ting.

FARZANDINGIZGA ISHONING!

Siz o‘g‘lingizga ishonsangiz, u ham o‘ziga ishonadi. Tarixdan bir misol: 1432-yilda Sulton Murod II ning o‘g‘li Mehmed II dunyoga keladi. O‘g‘li 12 yoshga to‘lganda otasi taxtdan voz kechadi va o‘g‘liga Usmoniylar imperiyasini boshqarishni topshiradi. Bu ishi bilan shoh o‘g‘liga ishonishini ko‘rsatadi. Yoshgina podshohning taxtga o‘tirganini eshitgan xochlilar Usmoniylar ustiga bostirib boradi. Shoshib qolgan kichik podshoh otasiga xat bitadi: «Ota, kelib taxtingizni egallang», - deydi. Jangda mag‘lub bo‘lish Usmoniylar imperiyasining Yevropa yoqasidagi hukmronligiga barham berardi. Shoh: «O‘g‘lim, podsho sensan. Qo‘shinning boshida sen turishing kerak. Dushman bilan jang qil! Taxtni senga topshirganman», - deydi. Ana shunda Mehmed II haqiqatni anglab yetib, rostdan ham boshqaruv uning qo‘liga to‘liq o‘tganini tushunadi. «Otam o‘ynamayotgan ekan. Mening davlatni boshqara olishimga, zehninga, qobiliyatimga ishonibdi»- deya faxrlanib, vaziyatni o‘z qo‘liga olib, otasiga zudlik bilan xat jo‘natadi: «Otajon, agar podsho siz bo‘lsangiz, kelib qo‘shinga boshchilik qiling. Agar podsho men bo‘lsam, buyuraman: kelib, qo‘shinga qo‘mondon bo‘lib, boshchilik qiling!».

Har ikki holatda ham Murod II qo‘shinni boshqarishga majbur bo‘lgan. Otasining shu ishonchi tufayli o‘g‘li kichik podsho Istanbulni fath etadi. Otasining mutlaq ishonchi tufayli muvaffaqiyatga erishadi.

Siz ham farzandingizga ishonib, eplay olishiga ishonib. Xato qiladi demang. Xato qilmasa, qanday qilib xato qilmaslikni o‘rganadi?

Muhimi sizning ishonchingiz!

Ota-onaning farzandiga bo‘lgan ishonchi, bolaning o‘ziga bo‘lgan bahosini oshiradi.



Topshiriq **2-topshiriq.** Matndan gapning ifoda maqsadiga ko‘ra turlaridan buyruq va so‘roq gaplarni daftaringizga yozing.



Topshiriq **3-topshiriq.** Matndan qo‘shma gaplar va ko‘chirma gapli qo‘shma gaplarni ajratib, daftaringizga yozing va izohlang.



Topshiriq **4-topshiriq.** Quyidagi test topshirig‘ini bajaring.

Ushbu matndagi ko‘chirma gapli qo‘shma gaplarning qaysi birida ko‘chirma gap qismi murakkab qo‘shma gapdan iborat?

- A) Shoshib qolgan kichik podshoh otasiga xat bitadi: «Ota, kelib taxtingizni egallang»,– deydi.
- B) Shoh: «O‘g‘lim, podsho sensan. Qo‘shinning boshida sen turishing kerak. Dushman bilan jang qil! Taxtni senga topshirganman», – deydi.
- C) «Otam o‘ynamayotgan ekan. Mening davlatni boshqara olishimga, zehnimga, qobiliyatimga ishonibdi» – deya faxrlanib, vaziyatni o‘z qo‘liga oladi.
- D) Otasiga zudlik bilan xat jo‘natadi: «Otajon, agar podsho siz bo‘lsangiz, kelib qo‘shinga boshchilik qiling. Agar podsho men bo‘lsam, buyuraman: kelib, qo‘shinga qo‘mondon bo‘lib, boshchilik qiling!».



Topshiriq

5-topshiriq. Quyidagi test topshirig'ini bajaring. Berilgan matndagi qaysi ko'chirma gapli qo'shma gap **M: «K»**, – **M** shaklida?

1. Shoshib qolgan kichik podshoh otasiga xat bitadi: «Ota, kelib taxtingizni egallang», – deydi. 2. Shoh: «O'g'lim, podsho sensan. Qo'shinning boshida sen turishing kerak. Dushman bilan jang qil! Taxtni senga topshirganman», – deydi. 3. «Otam o'ynamayotgan ekan. Mening davlatni boshqara olishimga, zehnimga, qobiliyatimga ishonibdi» – deya faxrlanib, vaziyatni o'z qo'liga oladi. 4. Otasiga zudlik bilan xat jo'natadi: «Otajon, agar podsho siz bo'lsangiz, kelib qo'shinga boshchilik qiling. Agar podsho men bo'lsam, buyuraman: kelib, qo'shinga qo'mondon bo'lib, boshchilik qiling!».

A) 1,2,3 B) 1,2,3,4 C) 3,4 D) 1,2



Topshiriq

6-topshiriq. Berilgan matndagi qaysi ko'chirma gapli qo'shma gap tarkibida uyushiq bo'lak bor?

A) Shoshib qolgan kichik podshoh otasiga xat bitadi: «Ota, kelib taxtingizni egallang», – deydi.

B) Shoh: «O'g'lim, podsho sensan. Qo'shinning boshida sen turishing kerak. Dushman bilan jang qil! Taxtni senga topshirganman», – deydi.

C) «Otam o'ynamayotgan ekan. Mening davlatni boshqara olishimga, zehnimga, qobiliyatimga ishonibdi» – deya faxrlanib, vaziyatni o'z qo'liga oladi.

D) Otasiga zudlik bilan xat jo'natadi: «Otajon, agar podsho siz bo'lsangiz, kelib qo'shinga boshchilik qiling. Agar podsho men bo'lsam, buyuraman: kelib, qo'shinga qo'mondon bo'lib, boshchilik qiling!»



Topshiriq

7-topshiriq. Ko'chirma gapli qo'shma gapning tarkibidagi quyidagi murakkab qo'shma gap murakkab qo'shma gapning qaysi turiga mansub?

«Otajon, agar podsho siz bo'lsangiz, kelib qo'shinga boshchilik qiling. Agar podsho men bo'lsam, buyuraman: kelib, qo'shinga qo'mondon bo'lib, boshchilik qiling!»

- A) Bir necha ergash gapli murakkab qo'shma gap
- B) Bir necha bosh gapli murakkab qo'shma gap
- C) Aralash gapli murakkab qo'shma gap
- D) Qismlari uyushgan gapli murakkab qo'shma gap



Topshiriq

8-topshiriq. Berilgan matndan uning mazmuniga mos keladigan to'g'ri ma'lumotni aniqlang.

- A) «Ota, podsho sizsiz. Qo'shinning boshida siz turishingiz kerak. Dushman bilan jang qiling! Taxtni sizga topshirganman», – deydi Mehmed II
- B) «O'g'lim, podsho sensan. Qo'shinning boshida sen turishing kerak. Dushman bilan jang qil! Taxtni senga topshirganman», – deydi Mehmed II.
- C) Usmoniylar imperiyasining Yevropa yoqasidagi hukmronligiga barham berilishidan qo'rqib, Murod II qo'shinni boshqarishga majbur bo'lgan.
- D) Bobur taxtga o'tirgan yoshda podshoh bo'lgan Usmoniylar hukmdori hozirgi Turkiya poytaxtini fath etgan.



Uni tayyorlashga doir ilk retsept Misr papiruslaridan topilgan. Ushbu retsept quyidagicha: bir gramm tosh tuzi, 2 gramm quritilgan yalpiz, 1 gramm maydalangan iris va 20 ta murch donachasi. Diqqat savol: bu nimaning retsepti?



1-mashq. Uyga vazifa. Siz ham biror matn tanlab, uchta mantiqiy test topshiriqlarini tuzing.

175-178 –§. Ko‘chirma gaplarni o‘zlashtirma gaplarga aylantirish uslubi



Topshiriq **1-topshiriq.** Quyidagi ko‘chirma gapli qo‘shma gapni bilimingizga tayanib o‘zlashtirma gapga aylantiring.

Dono xalqimiz shunday degan edi: «Ota-onasi o‘lgan odamni emas, odob-axloqi bo‘lmagan odamni yetim de».



Topshiriq **2-topshiriq.** Uydagi o‘zlashtirma gapni ko‘chirma gapli qo‘shma gapga aylantiring.

Abu Ali ibn Sino muttasil badantarbiya bilan shug‘ullangan odamning tabibga muhtoj bo‘lmasligini aytgan.

Nazariy ma’lumot. O‘zganing gapi ko‘chirma gap orqali ham, o‘zlashtirma gap orqali ham berilishi mumkin. Bunday vaqtda ko‘chirma gap va o‘zlashtirma gap ma’nodosh bo‘ladi. Ko‘chirma gap quyidagi shakily o‘zgarishlar yo‘li bilan o‘zlashtirma gapga aylantiriladi¹⁸⁴:

1. Darak gap shaklidagi ko‘chirma gap kesimi tushum kelishigidagi sifatdash yoki harakat nomi bilan ifodalangan to‘ldiruvchiga aylantiriladi: «Dunyoda o‘lmas bo‘lib, faqat insoniylik **qoladi**», – deb aytgan edi Yusuf Xos Hojib. – Yusuf Xos Hojib dunyoda o‘lmas bo‘lib faqat insoniylikning **qolishini** aytgan edi. Najmiddin Kubro shunday degan edi: «Husni xulqdan ko‘ra yaxshilik ustiga yaxshilik qo‘shadigan, hasaddan ko‘ra yomonlik ustiga yomonlik qo‘shadigan narsa ko‘rmasdim». – Najmiddin Kubro husni xulqdan ko‘ra yaxshilik ustiga yaxshilik qo‘shadigan, hasaddan ko‘ra yomonlik ustiga yomonlik qo‘shadigan narsani ko‘rmaganligini aytgan edi.

¹⁸⁴ Ona tili: Umumta’lim maktablarining 9-sinfi uchun darslik /N.Mahmudov va boshq.-T>: “Tasvir”, 2009.

2. Darak gap shaklidagi ko‘chirma gap **egasi qaratqich aniqlovchiga** aylantiriladi: Mirzo Bedil shunday degan edi: «**Ilm** insoniyat gavharidir». – Mirzo Bedil **ilmning** insoniyat gavhari ekanligini aytgan edi.

3. Muallif gapining kesimi vazifasidagi **dedi** so‘zi **aytdi** so‘zi bilan almashtiriladi: Abu Hanifa Imomi A‘zam shunday **degan edi**: «O‘n yil och yursang ham, ilm yo hunar izlash yo‘lidan qolma». – Abu Hanifa Imomi A‘zam o‘n yil och yursak ham ilm yo hunar izlashning yo‘lidan qolmasligimizni **aytgan edi**.

4. Muallif gapining **egasi** o‘zlashtirma gap **egasi** bo‘lib gap boshida keladi: **Ahmad Yugnakiy**: «Yaxshi fe‘l bilan odamlar ko‘nglini olib, o‘zingni yomon qiliqlardan saqlab yasha», – deb aytgan edi. – **Ahmad Yugnakiy** yaxshi fe‘l bilan odamlar ko‘nglini olib, o‘zimizning yomon qiliqlardan saqlanib yashashimizni aytgan edi.

5. **So‘roq, buyruq** shaklidagi ko‘chirma gaplar **darak** shakliga aylantiriladi: Ustoz : «Nima insonni yolg‘izlikka mahkum etadi? – deb so‘radi. – Ustoz insonni yolg‘izlikka mahkum etadigan narsaning nimaligini so‘radi. Dadajonim shunday nasihat qildi: «Hamma vaqt ustozlaringning qadriga yet, ko‘zlariga tik boqma, aytganlarini sidqidildan bajar». – Dadajonim hamma vaqt ustozlarimizning qadriga yetishimizni, ko‘zlariga tik boqmasligimizni, aytganlarini sidqidildan bajarishimiz lozimligini uqtirdi.

6. Ko‘chirma gap tarkibidagi undov, kirishlar tushirib qoldiriladi: «**Iya**, bularni nima qilasan?» – dedi onam. Onam bularni nima qilishimni so‘radi. Nuroniylarimizdan biri shunday degan edi: «**Zero**, yashab o‘tilgan har bir daqiqa ibratdir». – Nuroniylarimizdan biri yashab o‘tilgan har bir daqiqaning ibratligini aytgan edi.

7. Ko‘chirma gap tarkibidagi **undalma jo‘nalish yoki tushum kelishigi shaklidagi to‘ldiruvchiga** aylantiriladi: «Farzandnoma» kitobining muallifi shunday yozgan: «**Ey farzand!** Unutma! Dunyoda yurt tinchligi, qalb osoyishtaligi, tani sog‘likdan ulug‘ nodir ne‘matlar bo‘lmaydi? » – «Farzandnoma» kitobining muallifi **farzandiga** unutmasligini, dunyoda yurt tinchligi, qalb osoyishtaligi, tani sog‘likdan ulug‘ nodir ne‘matlarning bo‘lmasligini ta’kidladi.



Topshiriq

3-topshiriq. Berilgan hikmatli soʻzlarni oʻqing, tegishli xulosa chiqaring va ularni oʻzlashtirma gapga aylantiring.

1. Ota farzandiga xulq-u odobdan buyukroq meros qoldirolmaydi. (Hadis)
2. «Imon nedir?» deya soʻradi. U qalb qulogʻiga egilib: «Imon odobdan iboratdir» deya shivirladi. (Jaloliddin Rumi)
3. Oʻrgatmoq uchun soʻkish, yordam berish uchun haqorat qilish shart emas. (F. Laroshfuko)
4. Qanday qilib kam yomonlik va qanday qilib koʻp yaxshilik qilishni oʻrganish inson bilishi kerak boʻlgan barcha ilmlarning boshidir. (L.Tolstoy)
5. Bilmaslik hech qachon ayb emas, bilishga intilmaslik aybdir...(Saʼdiy Sheroziy)



Topshiriq

4-topshiriq. Berilgan oʻzlashtirma gaplarni koʻchirma gapli qoʻshma gaplarga aylantiring.

1. Lev Tolstoy insonda ikki fazilat: faoliyat va aqlning borligini aytgan edi.
2. E.Habbard oʻz shogirdlarida mehnatdan zavqlanish xislatlarini uygʻota bilgan muallimning sharaflarga loyiqiligini aytgan edi.
3. J.Juber oʻqitishning ikki barobar oʻqish ekanligini taʼkidlagan edi.
4. Arab donishmandlari taʼlimning boylik, uni qoʻllay bilishning mukammalligini taʼkidlagan edi.
5. Ota farzandidan qachon dam olishini soʻradi.



Ingliz qiroli Eduard VII semiz boʻlgan. U har xil ballarda va paradlarda bemalol ishtirok eta olishi uchun bir etiket qoidasiga oʻzgartirish kiritilgan va bu oʻzgarish haligacha saqlanib qolgan. Diqqat savol: Qaysi etiket qoidasi?



1- mashq. Uyga vazifa. Koʻchirma gapli qoʻshma gaplarga quyida suratlari aks etgan buyuk siymolardan beshta hikmatli soʻz topib, ularni oʻzlashtirma gapga aylantiring.



179-180-§. Matn ustida ishlash. Matndan ko‘chirma gaplarni aniqlab, ularni o‘zlashtirma gaplarga aylantirish



1-topshiriq. Quyidagi matnni diqqat bilan o‘qing, undan o‘zingizga tegishli xulosa chiqaring va ko‘chirma gapli qo‘shma gaplarni aniqlab, o‘zlashtirma gapga aylantiring.

Vaqt ajratib o‘qishga arziydigan hikoya

Bir yigit donishmandning oldiga kelib:

– Men Oksford universiteti magistriman, Garvard universiteti faxriy doktoriman, dunyo falsafasi bo‘yicha nomzodlik darajasiga, Mantiq fani bo‘yicha doktorlik darajasiga egaman.



Bilimlarimda mabodo oq dog‘lar qolgan bo‘lsa, o‘shalarni ham to‘ldirish uchun sizdan biror narsa o‘rganmoqchiman , – debdi. Shunda donishmand senga biror narsa o‘rgatish befoyda, debdi. Unga javoban yigit, befoydam yoki o‘rgatishga ilmingiz yetishmaydimi, debdi kulib.

– Mayli, senga mantiq bo‘yicha bitta savol beraman, agar unga to‘g‘ri javob bersang, seni shogird sifatida birinchi sinfga olaman,– debdi donishmand.

– Eshit, o‘g‘lim, mantiq bo‘yicha savol: Ikki kishi bir mo‘ridan tushishdi. Birining beti qora bo‘ldi, ikkinchisniki esa toza. Qani ayt-chi qaysi biri betini yuvgani boradi?

Yigitning jahli chiqib, shu ham savolmi, shu ham mantiqmi, axir buni omi odam ham biladi-ku, albatta, beti qora bo‘lganida.

–Yo‘q, sen adashding, – debdi donishmand. Mana mantiqan o‘ylab qara. Ikkalasi mo‘ridan tushdi va bir-birining betiga qaradilar. Beti qora sherigining betiga qarasa u toza, o‘zining ham betini toza deb o‘ylaydi. Ikkinchisi esa sherigining

betining qoraligini ko‘rib, o‘zini ham shunday o‘ylab, betini yuvгани boradi-da. Beti tozasi boradi.

– Ha, bu tomonini o‘ylamabman. Mayli, yana bir savol bering-chi, debdi yigit shashti tushib.

– Mayli, eshit, yana bitta mantiqiy savol, - debdi donishmand.

– Ikki kishi bir mo‘ridan tushishdi. Birining beti qora bo‘ldi, ikkinchisiniki esa toza. Qani, ayt-chi, qaysi biri betini yuvгани boradi?

– Voy, ustimdan kulyapsizmi, hozir aniqlab oldik-ku, albatta, beti tozasida.

– Yo‘q, yana adashding,- debdi donishmand.

– Mana, o‘zing mantiqan o‘ylab qara. Beti toza inson sherigining betini ko‘rib yuvingani boradi. Ikkinchisi esa o‘zining ham betining qoraligini sezib, u ham yuvingani boradi. Ikkalasi ham yuvingani boradi.

– Ha, men yana bunisini o‘ylamabman. Yana bitta savol mumkinmi? – debdi yigit sekingina. Mayli, eshit:

– Ikki kishi bir mo‘ridan tushishdi. Birining beti qora bo‘ldi, ikkinchisiniki esa toza. Qani, ayt-chi, qaysi biri betini yuvгани boradi?

– Axir aniqladik-ku, ikkalasi ham boradi-da,- debdi yigit asabiylashib.

– Yo‘q, yana topa olmading. Mantiqan o‘ylamayapsan.

– Beti qorasi sherigining betining tozaligini ko‘rib, yuvгани bormaydi. Ikkinchisi esa bundan o‘zining betining tozaligini bilib, u ham bormaydi. Demak, ikkalasi ham bormaydi.

– Xo‘p, mayli, men yengildim, – deb taslim bo‘libdi professor. – Lekin men sizga shogird bo‘lib, o‘rgatayotganingizni o‘zlashtira olaman. Boshqa biror narsa so‘rang,- debdi.

Donishmand: – Ikki kishi mo‘ridan...

– Bo‘ldi, bo‘ldi, axir, bildik-ku, mantiqan ikkalasi ham bormaydi-da.

– Yo‘q, sen mantiqan adashding.

– Sening «Men hamma narsani bilaman» degan fikring seni ko‘r qilgan. Sen oddiy haqiqatni ko‘rmayapsan. Sen ustozingni eshitmayapsan. Axir, o‘zing mantiqan o‘ylab qara, qanday qilib bir mo‘ridan tushgan ikki insonning birining beti toza, ikkinchisidiki qora bo‘lishi mumkin.

Ushbu savolning o‘ziyoq mantiqsiz edi. Sen shunday mantiqsiz savollarga javob qidirsang, hayotingda mantiq qolmaydi. Sen boshidanoq xato yo‘lda eding. O‘rganish uchun keldingmi, o‘rganishga tayyor bo‘l. Asosni, maqsadni ko‘zdan qochirma. Mantiqsiz, keraksiz narsani izidan quvma.

To‘la idishga suv quyib bo‘lmaydi. Sen o‘zingcha to‘lasan, senga bilim quyib bo‘lmaydi, to‘kilib ketadi. Sen, avvalo, idishingni bo‘shat, bilim olish uchun, o‘rganish uchun tayyor bo‘l. O‘zingdan oldin ushbu yo‘lni bosib o‘tgan, sen bormoqchi bo‘lgan manzilga borgan insonni eshitishni, uni so‘zsiz qabul qilishni o‘rgan.



Topshiriq

2-topshiriq. Erkin Vohidovning quyidagi she‘rini o‘qing, undan ko‘chirma gapli qo‘shma gapni aniqlang va o‘zlashtirma gapga aylantiring.

ONA TILIM O‘LMAYDI

Notiq dedi:

«Taqdir shul,

Bu jahoniy iroda.

Tillar yo‘qolur butkul,

Bir til qolur dunyoda».

«Ey voiz, pastga tushgin,

Bu gap chiqdi qayerdan!»

Navoiy bilan Pushkin

Turib keldi qabrdan.

Kim darg‘azab,

Kim hayron,

Chiqib keldilar qator:

Dante, Shiller va Bayron,

Firdavsiy, Balzak, Tagor.

«Va‘zingni qo‘y, birodar,

Sen aytganing bo‘lmaydi».

Barcha dedi barobar:
«Ona tilim o‘lmaydi».
– Hey, bu qanday aqida! –
Qo‘lida tabarruk jom,
Go‘zal forsiy haqida
Ruboiy aytdi Xayyom.

Ehtirosli, otashdil
Beranje so‘rdi nolon:
– Nahotki, farangi til
Yo‘qolgusi bir zamon!
Neruda, Lorca turdi
Servantesning yoniga:
– Kim qasd etib tig‘ urdi
Ona tilim joniga!
Fuzuliy yondi:
– Ozar
Tili guldek so‘lmaydi.



2014-yilda Stiven Xoking bu ishni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun kamida uchta qadam orqaga chekinishingiz kerakligini amaliy statistika asosida hisoblab chiqdi. Biroq taniqli olimning tajribalari 2014-yilda vatandoshlariga yordam bera olmadi. Bu ishni nimaligini toping?



1-mashq. Uyga vazifa. Donishmand, faylasuf, shoir va yozuvchilarning hikmatli so‘zlaridan foydalanib «**Leksikologiya – nutq madaniyati bilan bog‘liq soha**» mavzusida ilmiy insho yozing.

Barcha dedi barobar:
«Ona tilim o‘lmaydi».
Kamalakdek rango-rang
Bo‘lsin deb san‘at, tillar,
Asrlarcha qildik jang,
Armon qildik ming yillar.
Beqadr bo‘lsa, nahot,
Tillardagi tarovat!
Yo‘qoldi bu kun, hayhot,
Qabrlarda halovat!
«Faust» yondi gurillab,
«Xamsa» o‘tga tutashdi.
Bir sado jahon bo‘ylab
Taraldi, tog‘lar oshdi.
Bu sado yangrar hamon,
Sira ado bo‘lmaydi.
Olam aytar:
Hech qachon
Ona tilim o‘lmaydi!

181-188-§. Nutq odobi. Nutqiy muloqot va nutq madaniyati. Madaniy nutq haqida tushuncha. Ifodali o‘qish

«Assalom»ning hikmati

...Bobo va nevara bog‘chadan uyga qaytishmoqda. Ko‘cha anchagina gavjum: katta-kichik, ota-bola, ona-bola, yigit-qizlar uyga qaytishyapti. Nazar solsangiz, hamma har xil kayfiyatda, biri boshqasiga o‘xshamaydi. Ularning yonidan yelim xalta ko‘targan katta odamlar, yosh yigit-qizlar va papkasini ortmoqlab, qadamini zo‘rg‘a sanab bosib, horg‘in kayfiyatda maktabdan qaytayotgan bolalar o‘tardi. Qodir dada yonlaridan kim o‘tsa, unga qarab salom beraverardi.

Muhammadali buning sababini endi so‘ramoqchi bo‘lib turganida, o‘rta yoshlardagi qo‘shnilari Sodiq aka bobo bilan salomlashib qoldi: «Assalomu alaykum Qodir aka, yaxshimisiz, sog‘-salomat yuribsizmi, baraka toping, nevarangizni bog‘chadan olib kelay debsiz-da, boringizga shukr! »

Muhammadali bu gal ham og‘iz ocholmadi. Ko‘cha eshigidan hovliga kirishgach, Muhammadali gap boshladi: «Bobo nega siz o‘zingizdan kichkinaga salom berdingiz? Kichiklar kattalarga salom beradilar-ku? »

Qodir dada nevarasiga qarab turib, qani bu yoqqa yuring-chi, deya o‘zi yashaydigan xonaga boshlab kirdi. Tokchadan bir kitob olib, «Bolam, yaxshilab quloq soling, men o‘qiyman tushunmaganingizni so‘rarsiz. Endi siz katta bo‘lib, maktabga tayyorgarlik guruhiga o‘tdingiz», deya o‘qishga kirishdi.

«Abdulloh ibn Mas‘ud (r. a.) rivoyat qiladilar: Rasululloh (s. a. v.): «Assalom, Alloh subhonahu va taoloning ismlaridan biridir. O‘zaro salomlashishni odat qiling. Salom bergan va salomga javob qaytargan har bir musulmonga farishtalar yetmish marta salavot yuboradilar. Bir-birini ko‘rib salomlashmagan va salomga javob bermagan musulmonga ular yetmish marta la‘nat yuboradilar, – deb marhamat qildilar...»

Endi tushunib oldingizmi? Ha, barakalla, demak, salom berishning qanchalik ulug‘ ekanligini bilib oldingiz. Bordi-yu, bir qo‘lingizni ko‘ksingizga qo‘yib salom bersangiz, hurmatingiz yanada oshadi. Bolam, sizga nasihatim, maslahatim shuki, siz taniysizmi, tanimaysizmi, katta kishimi, kichikmi – kim bo‘lishidan qat’i nazar salom beravering.

Salom bergan odam hech qachon kam bo‘lmaydi, yomonlik ko‘rmaydi, izzat hurmati ulug‘ bo‘ladi.

«Ibratli hikoyalar» Bahodir Qodirov



Topshiriq

1-topshiriq. Yuqorida berilgan matnni o‘qib, tahlil qiling. Nutq madaniyati, odobi haqida o‘z fikrlaringizni bildiring. «Assalom» so‘zining ma’nosi va fazilatini aytib bering.

Nazariy ma’lumot. Nutq madaniyati, chinakam ma’noda adabiy til bilan bog‘liq hodisadir. Uning paydo bo‘lishi lisoniy asosi, talab va mezonlari adabiy til va uning mezonlari bilan bog‘liqdir¹.

Nutq madaniyati esa nutqning ham og‘zaki, ham yozma shakli uchun taalluqli tushunchadir. Nutq madaniyati jamiyat a‘zolarining umumiy nutqiy faoliyatini ko‘zda tutadi.

Nutq madaniyati – bu faqat nutq haqidagi nutqiy faoliyatga tegishli tushuncha va soha emas, u til madaniyati bilan ham, ya’ni adabiy tilni va uning me’yorlarini o‘rganish va bu me’yorlarni qayta ishlash ishi bilan ham shug‘ullanadi.²

O‘rta Osiyo madaniyati tarixida ham nutq madaniyati bilan shug‘ullanish o‘ziga xos mavqega ega bo‘lgan.



Topshiriq

2-topshiriq. Quyidagi matndagi nutq odobi bilan bog‘liq o‘rinlarni bugungi kun bilan bog‘lang.

Ulug‘ turkolog olimlar Mahmud Qoshg‘ariyning «Devonu lug‘otit turk», Yusuf Xos Hojibning «Qutadg‘u bilig» asarlari bu masalaning juda qadimdan

o‘rtaga qo‘yib kelinganligidan dalolat beradi. U paytlar «nutq odobi» deb yuritilgan sodda va o‘rinli gapirish, qisqa va mazmundor so‘zlash, ezmalik va laqmalikni qoralash, keksalar va ustozlar oldida gapirganda odob saqlash, to‘g‘ri, rost va dadil gapirish, yolg‘onchilik va tilyog‘lamalikni qoralash singari bir qator ko‘rsatmalar bugun biz «nutq madaniyati» deb atab kelayotgan tushunchaning aynan o‘zidir.

Yusuf Xos Hojibning «Qutadg‘u bilig» dostonida ham «Til fazilatlarini, foyda va zararlari haqida», «Til ardami» deb nomlangan maxsus boblar bo‘lib, ular so‘zlash madaniyatiga bag‘ishlangan. Ushbu asardan ayrim namunalar keltiramiz:

So‘zingni ko‘dazgil boshing bormasin,

Tilingni ko‘dazgil tishing sinmasin...

(So‘zingga ehtiyot bo‘l, boshing ketmasin,

Tilingga ehtiyot bo‘l, tishing sinmasin...)

Esanlik tilasa saning bu o‘zung,

Tilingda chiqarma yarog‘siz so‘zung.

(Sening o‘zing esonlik tilasang,

Tilingdagi yarog‘siz so‘zingni chiqarma).

Bilib so‘zla, so‘z biligka sonur,

Biligsiz so‘z o‘z boshini yeyur.

(Bilib so‘zlasa, so‘z donolik sanaladi,

Nodonning so‘zi o‘z boshini yeydi).



3-topshiriq. Matnga sarlavha qo‘ying. Rivoyatdan kelib chiqadigan xulosangiz bilan o‘rtoqlashing. Talaffuzi va imlosi turlicha bo‘lgan o‘rinlarni aniqlang.

Rivoyat qilishlaricha: Qadimda bir podshoh o‘z xizmatkorlariga: «Menga qo‘y go‘shtining eng shirin joyidan pishirib keltiring», deb buyruq beribdi. O‘ylab o‘ylariga yetolmagan xizmatkorlar vazirga murojaat etibdilar. Vazir ham bu jumboqni

yecholmay boshi qotibdi va o'zining aqlli, dono, ko'p kitob o'qib ulg'aygan qizidan so'rabdi. Qiz: «Qo'yni so'yib, uning tilini podshohimizga pishirib keltiring», debdi. Ular xuddi shunday qilishibdi. Ertasiga podshoh: «Qo'y go'shtining eng achchiq joyidan pishirib keltiring», debdi. Xizmatkorlar yana hayron qolishibdi. Vazirning qizi esa: «Yana bir qo'yni so'yib, tilini pishirib beringlar», debdi. Ular yana xuddi shunday qilishibdi. Podshoh bunday aqlning kimdan chiqqanini surishtirib bilgach, qizga, uning aqlu-farosatiga ofarinlar aytib, katta to'y-tomoshalar bilan uni o'g'liga olib beribdi. Ha, shirini ham til, achchig'i ham til.

Xalqimizda «Sevdigan ham til, bezdirgan ham til», degan ajoyib naql bor.

Shirin til, mulohaza, mushohada bilan samimiy muomalada bo'lishga odatlanish, har bir insonning, ayniqsa, hayotimiz fayzi bo'lgan xotin-qizlarning, onalarning eng asosiy fazilati, burchlaridir. Agar qiz bola go'zal bo'lsa-yu, muomalasi qo'pol, zardali yoki beandisha bo'lsa, bitta so'z bilan atrofdagilar dilini og'ritsa, shubhasiz, uni hech kim, hech qachon yaxshi inson safiga qo'shmaydi, hattoki undan insonlarning ko'ngli qoladi.



4-topshiriq. Quyida berilgan maqolni izohlang. Shunga doir matn tuzing va daftaringizga yozing.

«Bug'doy noning bo'lmasa ham, bug'doy so'zing bo'lsin».



1-mashq. Behbudiyning «Padarkush» dramasidan olingan quyidagi parchadan nutq odobiga zid bo'lgan o'rinlarni toping. Ota va farzand o'rtasidagi bunday muloqot sabablarini izohlang.

B o y. Xayrullo! Choy va la'li keltur.

X a y r u l l o. Xo'p! (*Choy va la'li keltirar, choy suzar, alar tanovul aylar*).

T o s h m u r o d kirar, salomsiz, beadabona.

T o s h m u r o d. Ota, tomoshag'a boraman, pul bering.

B o y. O'g'lim, kim ila borasan?

T o s h m u r o d. Tursun akam ila.

B o y (*kissasidan pul berib*). Albatta, vaqtli kelinglar va yomon yerlarga bormanglar!

T o s h m u r o d. Xayr, xayr, hay ko‘p gapirarsiz-da (*chiqib ketar*)

Nazariy ma’lumot. Qadimdan go‘zal nutq, nutq odobi, ona tilining qudrati kabi masalalar hamisha allomalarimiz diqqat markazida bo‘lib kelgan. Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat, Ashurali Zohiriy kabi bir qator ma’rifat darg‘alari tilimiz muhofazasi, tilning sofliigi va nutq odobi haqidagi jiddiy fikrlarni bayon qilganlar.

Nutq madaniyati tushunchasi nutq odobini ham o‘z ichiga oladi. Nutq madaniyati fikrni mustaqil, ravon, go‘zal va nutq vaziyatiga muvofiq tarzda ifodalashni nazarda tutadi. Raso nutq madaniyati jamiyat madaniy-ma’rifiy taraqqiyotining, millat ma’naviy kamolotining muhim belgisi, o‘ziga xos ko‘zgidir. Nutqiy muloqotning samaradorligi nutq madaniyatiga bog‘liq, chunki madaniy nutqqina chinakam ta’sir kuchiga ega bo‘la oladi.



2-mashq. Quyida berilgan maqollarni daftaringizga ko‘chirib oling hamda yodda tuting. Ularda ifodalangan ma’nolarni og‘zaki bayon qiling.

- Achchiq savol berib, shirin javob kutma.
- Achchiq til – zahri ilon, chuchuk tilga – jon qurbon.
- Gapi to‘mtiqning o‘zi to‘mtiq.
- Yomon so‘z egasiga qaytar.
- Yomon so‘zlab sovutma, jon og‘ritib ovutma.
- Ochiq til osh yedirar, achchiq til – tosh.
- Yomon gapning oyog‘i olti.
- Zahar til suyakni yorar.
- Aytilgan so‘z – otilgan o‘q.
- Anjom – uy ziynati, so‘z – inson ziynati.

- Ariqni suv bezar, odamni – so‘z.
- Aytar so‘zni ayt, aytmas so‘zdan qayt.

* Bir tavakkal buzadi,
Ming qayg‘uning qal’asin.
Bir shirin so‘z bitkazar,
Ming ko‘ngilning yarasin.



3-mashq. Abulqosim Mahmud az-Zamaxshariyning mashhur asarlaridan biri –«Nozik iboralar»da nutq madaniyatiga oid quyidagi fikrlarni o‘qib, xulosa chiqaring. O‘z fikr-mulohaza - laringizni bayon qiling.

O‘z birodaringni yanchilgan mushkdan ko‘ra ham xushbo‘y so‘zlar bilan maqtab yod et, garchand u sendan uzoq shaharda bo‘lsa ham. O‘z birodaring so‘zini sukut saqlab tinglab, uning hurmatini o‘rniga qo‘y, garchi uni eshitishga rag‘bating va mayling yo‘q bo‘lsa ham.

Agar tilingni ortiqcha so‘zlashiga ega bo‘la olmasang, unda tizgining jilovini shaytonga topshirgan bo‘lasan. Aqlli, g‘ofil kishining (sukut saqlab) jim turish holati johil, parishon kishining uzridan afzaldir. Tilingdan chiqqan sadaqa (ya’ni pand-u nasihatning) ba’zan qo‘lingdan (mol-dunyongdan) chiqqan sadaqangdan ko‘ra xayrliroqdir. Ko‘pincha til bilan yetkazilgan jarohat tig‘ bilan yetkazilgan jarohatdan og‘irroqdir. O‘zi sazovor bo‘lmagan hamda sano-yu maqtovlarni talab qilish uyatsiz, telba odamlarning odatlaridandir. Ko‘p ortiqcha so‘zlashuv eshituvchini ranjitar. Tili-yu dili to‘g‘ri va haqgo‘y bo‘lgan odamning xató-yu nuqsoni kam bo‘lur. Ey bo‘tam, tilagim yomon so‘zlardan saqlan.



4-mashq. 3 guruhga bo‘lining. Nasr, nazm hamda dramatik turga oid asardan parcha yozib, ifodali o‘qing. Ifodali o‘qishda nimalarga e’tibor berish kerak deb o‘ylaysiz? Bayon qiling.

Savol va topshiriqlar:

1. Nutq odobi va nutq madaniyati tushunchalarini izohlang.
2. Nutq madaniyati fani qaysi fanlar bilan aloqador?
3. Adabiy me'yorlarning nutq madaniyiligini ta'minlashdagi ahamiyatini tushuntirib bering.
4. Talaffuz me'yorlarini ayting?



Fuqarolar urushining birinchi yirik jangida shimolliklar mag'lubiyatga uchradi. Bunga sabab qilib qo'shin orasida diareya va kam quvvatlik kuzatilishi aytili. Shundan so'ng qo'mondon Jeyms Sanderson har yuz askarga bittadan ularni biriktirish haqida buyruq beradi. Ularni esa qo'shin orasida ham maxsus bosh kiyimdan tanib olsa bo'lardi. Ular o'rnida qaysi kasb vakilini yashirdik?



5-mashq. Uyga vazifa. Olisdagi do'stingiz yoki yaqin qarindoshingizga maktub biting. Til me'yorlariga amal qiling.

189-194-§. Nutqning to'g'riligi, aniqligi, mantiqiyliigi



Topshiriq 1-topshiriq. Matnni o'qing. Xulosa chiqaring, sizningcha, nima deyishni o'rganish muhimmi yoki nima demaslikni?

Bir kun shoh o'ng qo'l vaziri bilan shikordan qaytib kelayotganda pastdan bir uyning oldida beli bukchaygan, hassaga tayangan holda bir qo'li oldinda tilanchilik qilib yurgan qariyaga ko'zi tushadi.

Shoh vazirga ishora qilib deydi: – Hu anovi mo'ysafidni ko'ryapsanmi? Bizlarga yoshligimizda saboq bergan Ali Safiy degan ustozga juda o'xsharkan-a?

Vazir: – O'sha qariya Ali Safiyning xuddi o'zidur, – dedi.

Shoh darg'azab bo'ldi: – Men yurt hukmdori, sen vazir bo'la turib, bizga alifbodan saboq bergan ustozimizning shunday ko'yga tushishiga sabab ne?

– Men ustozga ko‘p bor maslahat soldim, unamadi. Yaxshisi, o‘zingiz borib so‘rang, – dedi vazir.

Shoh otdan sakrab tushib, Ali Safiy hazratlarining oldiga borib, ko‘rishdi.

– Ustoz, bu ahvolotingizning boisi nedur? – deb so‘radi.

– To‘g‘ri, – o‘smoqchilab so‘z boshladi ustoz, – men sizlarga chin dildan, chin so‘zdan saboq berdim. Menga ham saboq bergan ustozlar ko‘p bo‘lgan. Ular ichida ikkitasi meni xush ko‘rib, doim ardoqlab yurardi. Biri nima deyishni o‘rgatardi, ikkinchisi esa nima demaslikni. Nima demaslikni bilaman-u, nima deyishni o‘rganishim kerak, – deb, birinchi ustozga qo‘l berdim, oqibatda shunday ko‘yga tushdim. Keyin anglab yetdim: nima deyishdan ko‘ra, nima demaslikni bilish donolik ekan.

Navoiy o‘gitlaridan biri shunday: «So‘zni ko‘ngulda pishqormaguncha tilga kelturma, har nekim ko‘ngulda bor, tilga surma».

R. Jumaniyozov, «Nutqiy mahorat» kitobidan.

Nutqning to‘g‘riligi

Nutq madaniyatining birinchi bosqichi hisoblanmish nutqning to‘g‘riligi kommunikativ sifati uning adabiy til me‘yorlariga muvofiqligi bilan belgilanadi. O‘zbek tilidagi mavjud grammatik shakl va kategoriyalarning adabiy me‘yorlashganlarini nutq maqsadiga muvofiq tanlash asosida to‘g‘ri nutq tuzish nutq madaniyati uchun asosiy jihatdir.

Nutq madaniyati fonetika va orfoepiya bilan ham chambarchas bog‘liq. Orfoepiya tovushlarning talaffuz xususiyatlarini o‘rganadi, adabiy talaffuz me‘yorlarini belgilab beradi. Nutqning to‘g‘riligini baholashda bu me‘yorlar ham asos ekan, o‘z-o‘zidan nutq madaniyatining orfoepiya bilan bog‘liqligi anglashiladi. Fonetika tilning butun tovush sistemasi, [uning qonuniyatlari](#), urg‘u, intonatsiya, ohang, nutqning tovush qurilishiga daxldor boshqa ko‘plab masalalarni o‘rganadi.

Nutq ogʻzaki va yozma shaklda mavjud boʻlsa-da, aslida yozma shakl ham «ichki» ogʻzaki nutq shaklida tuziladi va idrok etiladi. Tabiiyki, yozma nutqda ogʻzaki nutqdagi juda koʻplab fonetik-intonatsion xususiyatlar aks etmaydi (albatta, punktuatsiya ularning barini aslo ifodalay olmaydi).

Mashhur ingliz yozuvchisi Bernard Shouning «Nutqda ha deyishning ellik usuli va yoʻq deyishning besh yuz usuli bor, ammo buni yozishning esa faqat bitta usuli mavjud, xolos» degan gapini tilshunoslar koʻp eslashadi.

Atoqli oʻzbek adibi Asqad Muxtor ham «qalam soʻzning soyasini chizadi» deganida yozma nutq imkoniyatining anchayin chegaralanganligini taʼkidlagan. Ogʻzaki nutq qurilishidagi ovozning tembr sifatlari, ton, urgʻu, pauza, umuman, prosodik vositalar, nutq melodikasi (ohangi) kabilar ham kommunikativ, ham estetik ifoda uchun kerakli unsurlardir.

Olmon tilshunosi Karl Fossler tomoshabinlarni gʻayrioddiy tarzda benihoya mutaassir eta olgan bir aktyor haqida hikoya qilgan, bu sanʼatkor sahnada birdan yuzgacha boʻlgan sonlarni italyan tilida birin-ketin shunday prosodiya bilan talaffuz qilar ekanki, uning chiqishi tazarru qilayotgan qotilning nutqiday qabul qilinarkan: «Hech kim sonlar haqida oʻylamas, faqat shoʻrlik jinoyatchiga titrab-qaqshab hamdardlik bildirardilar. Urgʻu italyancha sonlarga ayricha maʼno bergan edi»– deb taʼkidlagan K.Fossler.

Albatta, mazkur unsurlarning har birini yozuvda toʻla koʻrsatishning iloji yoʻq. Ohang jumlada sintaktik (grammatik) vazifa bajarishi, kommunikativ ifoda uchun xizmat qilishi (**masalan, Bahor keldi. Bahor keldi? Bahor keldi! kabi**), estetik-emotsional vazifa bajarishi, ifodaga emotsionallik, taʼsirchanlik baxsh etishi mumkin (**masalan, jumla Bor-may-man! tarzida boʻgʻinlab aytilganda, qatʼiylik, gʻazab ifodalanadi**). Bu kabi holatlar nutq madaniyati uchun benihoya ahamiyatli, ularning mohiyati, tabiati va qonuniyatlarini fonetika oʻrganadi; bunday fonetik-intonatsion vositalardan **nutqning toʻgʻriligi va taʼsirchanligini** taʼminlashni koʻzlab

foydalanish esa nutq madaniyatining vakolatiga kiradi, bu o‘rinda nutq madaniyatining fonetika bilan aloqadorligi namoyon bo‘ladi.



1-mashq. Quyidagi hikmatni o‘qing. Uning g‘oyaviy mazmunini saqlagan holda matn yarating. Matnning to‘g‘ri va ta‘sirchan tuzilishiga e‘tibor bering.

Kechagi o‘tgan kuningni sarhisobini bugun qilasan!
Baxt bu doim ham xursandchilik yoki farovonlik degani emas. Bazida baxt sen baxtsizlik deb ataydigan muhitda tug‘iladi. Hayotning har bir daqiqasi sen uchun bir imtihon ekanligini unutma.



Kechagi kun o‘tmish, bugungi kun sir, ertangi kun esa sovg‘a.

Tilning lug‘at boyligini yetarli darajada bilmasdan turib madaniy nutq tuzish mumkin emas. So‘zlarning semantik strukturasi, undagi taraqqiyot, leksik sistemadagi so‘zlarning bir-biriga munosabati kabi masalalardan boxabar bo‘lmasdan turib, tilning behad boy so‘z xazinasidan konkret nutq uchun eng keraklisini tanlash mushkul. Bu xazinaning hayotini esa leksikologiya o‘rganadi.

Nutq madaniyati so‘zlarni nutq uchun tanlashda ayni shu leksikologiyaning ma‘lumotlariga tayanadi.

Leksikografiyaning nutq madaniyati bilan bog‘liqligi ham isbot talab etmaydi. Zotan, so‘zlar va ularning ma‘no tavsifi lug‘atlarda jamlangan bo‘lib, kerakli so‘zni tanlash, ma‘nosini to‘g‘ri tasavvur etish, o‘rnini adashtirmaslik, demakki, madaniy nutq tuzishda eng yaxshi va yaqin yordamchi aynan xilma-xil lug‘atlardir.

Nutq madaniyati va uslubiyat o‘rtasidagi munosabat haqida gap ketganda, bu ikki sohaning o‘rganish obyektini bir deb qarab, ularning birini ikkinchisi ichiga kiritib yuborish mumkin degan fikrdagi tadqiqotchilar ham bor.

Haqiqatan ham, nutq madaniyati va uslubiyat bir-biri bilan juda zich bog‘liq, biri ikkinchisiga suyanadi, ammo o‘z o‘rganish obyektiga ega bo‘lgan alohida-alohida sohalardir. O‘zbek tilshunosligida bu masalalar tadqiqi bilan jiddiy shug‘ullangan

olimlar quyidagicha ta'kidlaydilar: «Nutq madaniyati sohasining tekshirish obyekti nutqning aloqaviy sifatlari yig'indisi va tizimini, ularni ta'minlovchi shart-sharoitlar, shu sifatlarning takomillashuvi, rivoji yoki qoloqlashishi, pasayishi kabilarni o'z ichiga olsa, uslubiyat sohasining obyekti til va nutq uslublarini o'rganishdir. Modomiki, uslubiyat nutq uslublarini ham o'rganar ekan, xuddi shu holatda nutq madaniyati bilan uning munosabati vujudga keladi. Chunki nutq madaniyati haqidagi ta'limot o'z-o'zidan til uslublarini batafsil aks ettirish, har bir uslubning o'ziga xos tomonlarga ega ekanligi, imkoniyatlarining yoritilishiga ehtiyoj sezadi. Chunki nutqning aloqaviy sifatlari, odatda, har bir uslub doirasida o'zgarishi, biri bir uslubda yaxshiroq namoyon bo'lgani holda, ikkinchisi boshqa bir uslubda sustroq namoyon bo'ladi... Uslubiyat bilan nutq madaniyati bir-birini tamomila inkor etmaydi, aksincha, bir-birini to'ldiradi, alohida-alohida soha bo'lishlariga qaramay, bir-biri uchun xizmat qiladi».

Demak, nutq aniq va ravon bo'lishi, grammatik jihatdan to'g'ri tuzilgan bo'lishi, adabiy talaffuz qoidalariga bo'ysunishi, boshlanishidan oxirigacha izchil bayon qilinishi lozim. Ana shunday nutq asosida o'rganilayotgan bilim o'quvchi xotirasida uzoq vaqt saqlanib qoladi. Shunday nutq madaniy nutq talablariga javob beradi. Buning uchun o'qituvchilardan tinimsiz izlanish va o'z ustida ishlash, filologik bilim va muttasil nutqiy mashq qilish talab qilinadi.

Madaniy nutqning adabiy til me'yorlari (talaffuz, so'z yasalishi, leksik, morfologik, sintaktik, uslubiy me'yorlar)ga qat'iy mosligi **nutqning to'g'riligi** sanaladi. **Nutqning to'g'riligi** quyidagilarga asoslanadi:

- til birikmalarini to'g'ri, ifodali talaffuz qilish, so'z va mantiqiy urg'u, ohang, pauzaga e'tibor berish;
- fikrni tushunarli, mazmunli ifodalovchi so'z, atama va birikmalarni to'g'ri tanlash va o'z o'rnida qo'llash;

- soʻzlarni variantlilik, maʼnodoshlik imkoniyatlaridan foydalanishda tinglovchining mafkurasi, dunyoqarashi, madaniy saviyasini hisobga olish;
- qoʻshimchalarni toʻgʻri ishlatish, morfologik shakllarning koʻp maʼnoliligini nazarda tutish, ularning ortiqchaligi, takroriylikiga yoʻl qoʻymaslik;
- soʻzlarning oʻzaro birikish qonuniyatlariga amal qilish, gaplarni grammatik jihatdan toʻgʻri shakllantirish;
- soʻzlarni imlo qoidalariga koʻra toʻgʻri yozish va shu kabilar.

Nutqning aniqligi. Soʻzning oʻzi ifodalayotgan narsa-hodisani aniq ifodalab, tildagi maʼnosiga toʻla muvofiq tarzda qoʻllanilishi **nutqning aniqligi** hisoblanadi. Bunda quyidagilar eʼtiborga olinadi:

- narsa-voqealarni aniq nomlash, tushuncha va uni bildiruvchi soʻzning bir-biriga mosligini taʼminlash;
- maʼnodosh va koʻp maʼnoli soʻzlardan mosini tanlash hamda ulardan nutqda oʻrinli foydalanish;
- eskirgan soʻzlarning qoʻllanish oʻrni va qoʻllashni bilish;
- paronim soʻzlarning maʼnolarini farqlagan holda toʻgʻri qoʻllash;
- kasb-hunarga oid soʻzlar va atamalarni oʻz oʻrnida aniq qoʻllash;
- soʻzlarning oʻz hamda koʻchma maʼnolari, maʼno qirralarini farqlash va shu kabilar



2-mashq. Maʼnodosh va paronim soʻzlarni notoʻgʻri qoʻllash bilan nutq aniqligiga putur yetgan oʻrinlarni aniqlang, ularni muvofiq muqobillari bilan almashtiring.

1. Bilaman, uzoqning ishi qiyin. Lekin bir ogʻiz mujda yuborish shunchalar mushkul edimi? (*Murod Mansur*)
2. Boshqa shaxsning kechirmalarini tushunish, oʻzingni uning oʻrnida his qilish masalasiga kelganda esa fan buni inkor etmaydi. (*M. Nasibullin*)
3. Keyin, Qoʻchqor aka, bu robotlar juda arzonga tushadi, yoqilgʻi kerak emas – batareyalardan oziqlanadi. (*Sh. Boshbekov*)
4. Juman bobo hamisha bitta

gapni takrorlaydi: – Meni shoshirmanglar, nevara-chevaralarimni narigi ming yillikka o‘tkazib qo‘yay, ana undan keyin haydamasanglar ham o‘zim ketaman. (*Said Ahmad*)

5. Sovuq terga botgan ona tun bo‘yi ingrab, behalovat bo‘lib chiqdi. Nihoyat, u horg‘in ko‘z qobiqlarini ochdi. (*M. Nasibullin*)



3-mashq. Quyidagi paronim so‘zlar ishtirokida gaplar tuzing. Paronim so‘zlarni to‘g‘ri va aniq qo‘llashga harakat qiling.

1) dars-darz; 2) ahl-ahil; 3) asr-asir; 4) sut-sud; 5) otalik-otaliq; 6) burch-burj; 7) mard-mart; 8) qism-qisim.

Nutqning mantiqiyliqi. Nutqda so‘zlar va gaplar o‘rtasidagi ma’noviy-mazmuniy aloqalarning ifodalayotgan fikrdagi mantiqiy mohiyat va uning rivojlanib borishiga mos kelishi **nutqning mantiqiyliqi** sanaladi. **Nutqning mantiqiyliqi** quyidagilarni taqozo etadi:

- mantiqiy tafakkur qoidalarini bilish;
- bir fikrni ikkinchisiga bog‘lay olish va bu orqali fikr izchilligini ta’minlash;
- tushuncha va fikrlar o‘rtasidagi munosabatlarning mantiqiyliqiga erishish;
- o‘z fikrini asoslay bilish, uning to‘g‘riligini dalillar bilan isbotlash;
- bildirilayotgan fikrlar o‘rtasida ziddiyat bo‘lmasligiga erishish;
- so‘zlarning ma’noviy-mazmuniy mohiyati, ularning gapda o‘zaro bog‘lanish xususiyatlari va tartibini bilish, jumla va gaplarning fikr mazmuni bilan muvofiq bo‘lishiga erishish;
- mantiqan bir-biriga zid, o‘zaro aloqador bo‘lmagan tushunchalarni ifodalovchi so‘zlarni nutqda qo‘llamaslik va shu kabilar.



4-mashq. Berilgan matnni o‘qing hamda fikr mantig‘i buzilishi haqida suhbatlashing. Sizningcha-chi? Siz qanday fikrdasiz?

Alisher Navoiy o‘zining «Majolis un-nafois» asarida shunday bir voqeani hikoya qiladi. Bahorning yomg‘irli kunlaridan birida u «Xuroson mulkida turkiy va forsiyda malik ul-kalom» Lutfiy bilan uchrashib qoladi.

Mavlono Lutfiy Amir Xusrav Dehlaviyning bir she'ridagi go'zal ma'no va o'xshatish haqida juda ham maqtov bilan gapirib beradi, ya'ni: «Mahbuba yomg'irli kunda yo'lda tiyg'anib yiqilib ketay deydi. U shu qadar go'zal va nozikki, yog'ayotgan yomg'ir rishtasini ushlab, uning madadi bilan o'zini o'nglab oladi».

Bu ta'rif Navoiyga behad ma'qul tushadi. Saroydagi oliy adabiy majlislarning birida Navoiy bu o'xshatish haqida shoh Husayn Boyqaro huzurida gapirib, shohning ham hayratlanishini kutadi. Ammo Boyqaro «Yuqoridan pastga tushayotgan yog'in rishtasi yiqilayotgan kishi uchun madad bo'la olmaydi» deb, e'tiroz bildiradi. Navoiy Boyqaroning o'tkir va nozik mantig'i va she'rfahmlikdagi zakovatiga qoyil qoladi. Shoh va shoir Husayn Boyqaro mazkur holatda fikr mantiqiylikdagi buzilishni ilg'agan.

(N. Mahmudov)



5-mashq. Quyidagi hikmat asosida matn tuzing. Nutqning mantiqiylikini ta'minlovchi unsurlardan foydalaning.

Fursat borida ilm o'rgan! Ilm kerak bo'lganda fursat bo'lmasligi mumkin!

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Nutqning to'g'riligi deganda nima tushuniladi?
2. Nutqning aniqlik sifatini tavsiflang.
3. Aniqlik sifatining muloqotdagi o'rnini qanday baholaysiz?
4. Shakldosh so'zlar va aniq nutq munosabati haqidagi fikrlaringizni bayon qiling.
5. Ma'nodosh so'zlarning o'ziga xosliklarini bilish zaruriyati haqida gapiring.
5. Nutqning aniqligi va uslubiy bo'yoq munosabati haqida so'zlang.
6. Qanday nutqda so'z ma'nolarining ko'chishi ko'p kuzatiladi?
7. Nutqning mantiqiylik deganda nimani tushunasiz?

8. Nutq mantiqiyligi nutqning qaysi sifatlarisiz to'liq namoyon bo'lmaydi?

9. So'zlovchi mantiqan to'g'ri nutq tuzishi uchun ona tili fanining

qaysi bo'limlariga oid bilimlarga ega bo'lishi kerak?



Bir qadimiy qonunga ko'ra, 14 yoshga to'lgan barcha ingliz erkaklari mahalliy ruhoni rahbarligida haftada ikki soat davomida "shu ish" bilan shug'ullanishlari shart bo'lgan.

Diqqat savol: Sunnati nabaviyya bo'lgan ushbu mashg'ulot nomini toping?



6- mashq. Uyga vazifa. Gazeta, jurnal yoki turli e'lonlarda nutq to'g'riligi, mantiqiyligi buzilgan gaplarni topib, daftaringizga yozib keling.

195-200-§. Nutqning jo'yaliligi, sofligi, boyligi, ifodaliligi



Topshiriq

1-topshiriq. Ahmad Yugnakiyning «Hibat ul-haqoyiq» asaridan olingan quyidagi parchani izohlang.

Uqub so'zla so'zni eva so'zlama,

So'zung kizla kezin bashing kizlama.

(So'zni uqib so'zla, shoshib (behuda) gapirma,

So'zingni yashir, keyin boshingni yashirib yurma).

Biliksizga haq so'z tatiqsiz erur,

Anga tand nasihat asig'siz erur.

(Ilmsizga to'g'ri so'z ma'nosizdir, unga o'git-nasihat foydasizdir).

Nutqning jo‘yaliligi

Nutq tuzishdan oldin bu nutqning jo‘yaliligini – munosib o‘rnini bilib olish kerak. Har qanday nutq ifodalanmoqchi bo‘lgan axborotning mazmuni, tinglovchi yoki o‘quvchining yoshi, ijtimoiy maqomi, nutqning yozma yoki og‘zaki ekanligi, nutq vaziyatiga to‘la mos kelishi zarur. Nutqning jo‘yalilik sifati mana shular asosida yuzaga keladi.

Nutqda muayyan bir muloqotning maqsadi hamda sharoitlariga to‘la mos tarzda til vositalarini tanlash, ularni bir-biriga to‘g‘ri bog‘lab o‘z o‘rnida qo‘llash nutqning jo‘yaliligi hisoblanadi.

Nutqning o‘z o‘rnida, ya’ni jo‘yali bo‘lishi quyidagilarga amal qilishni taqozo etadi:

- nutqni tinglovchi-o‘quvchining yoshi, ijtimoiy va madaniy-ma’rifiy xususiyatlariga mos ravishda tanlash;
- til birliklarini nutqning mavzusi, mantiqiy va hissiy mazmuniga muvofiq bo‘lishini ta’minlash;
- til vositalarini ifodalanayotgan nutq uslubiga xos tarzda tanlash, so‘zlarning uslubiy farqlanishini nazarda tutish;
- og‘zaki va yozma nutqda qo‘llanadigan so‘z, grammatik shakl hamda gap qurilishlarini farqlay bilish;
- badiiy tasvir vositalari, gap ohangining fikr mantig‘i, tinglovchining hissiy-ruhiy holati bilan uyg‘un bo‘lishiga erishish va shu kabilar.



Topshiriq

2-topshiriq. Quyidagi matnni o‘qing va xulosa chiqaring. O‘zingiz ham boshqa misollar keltiring.

Ibrat olamizmi yo o‘rnak?

Ko‘pincha ibrat va o‘rnak so‘zlarini *bir-birining o‘rnida bemalol* qo‘llab ketaveramiz. Aslida, ularning nozik ma’no farqlari bor. Ma’lumot izlab, «Izohli lug‘at»ga qaradim. Lekin unda ham ma’no farqlanmagan. «Ibrat» so‘zi arab tilidan

olingani, asliyatda *o'git, pand-nasihat; namuna, o'rnak* ma'nolariga egaligi ta'kidlangan. Ammo u arab tilida ham *namuna* yoki *o'rnak* ma'nosida qo'llanilmaydi. Biror gunoh-ma'siyati sabab azob yoki jazoga uchragan qavmlar haqida Qur'oni karim oyatlarida «bunda aql egalari uchun *oyat-ibratlar* (yoki belgi-alomatlar) bor» degan mazmunda eslatmalar keladi. O'zbek tilida ham *ibrat olish, asosan, xulosa yasash, fikr qilib, to'g'ri to'xtamga kelish* ma'nosida qo'llanadi. *O'rnak* esa to'laligicha ergashish kerak bo'lgan, namunali kishilar, holatlarga nisbatan qo'llanadi. «Izohli lug'at»da unga «Boshqalar ergashsa, taqlid qilsa arziydigan ish yoki harakat namunasi» deya ta'rif berilgan. Lekin *ibratli* kishilar yoki ishlarga *ergashish, taqlid qilish* ko'p hollarda xato.

«Izohli lug'at»dagi misoldan foydalana qolaylik. Unda «Qutlug' qon»dan parcha berilgan ekan. Parchani asarning o'zidan, kengroq shaklda oldim:

– Men ko'rdim teatrni, – hovliqib, pixillab so'zga kirishdi paxtachi Jamolboy, – Abdishukur qiziqtirgan edi, borsam boray, dedim... Siz uni maktab deysiz, Abdishukur, qanday qilib maktab bo'ladi u? Domla qani, shogird qani? Men borganimda bir ilmsiz bolaning bezori bo'lib ketganini ko'rsatishdi, xolos.

– Maktab emas, ibrat deng, – kimdir izoh berdi. Oybek domla so'zni juda o'rnida qo'llaganini shu misol ko'rsatib turibdi. «Bir ilmsiz bolaning bezori bo'lib ketgani» o'rnak emas, ibratdir. Chunki birovning xatosi yoki aybidan namuna olinmaydi, ko'rib, eshitib, xulosa qilinadi, bir to'xtam yoki qarorga kelinadi.

Yaxshi ishlardan ham ibrat olinishi mumkin. Shu ishni qilish yoki uning ziddini qilmaslik ibratdir. Lekin namuna bo'ladigan holatlarda yo to'la ijobiy ma'no ko'zlanganda *ibrat* so'zini qo'llamaslik kerak. Masalan, Payg'ambarimiz Muhammad sollallohu alayhi va sallam haqlarida gapirganda *ibrat so'zini ishlatish mutlaqo o'rinsiz*. Chunki u kishi butun insoniyatga o'rnak, namunadirlar.

Ba'zi mumtoz adiblarimiz o'zlariga o'ta kamtar taxalluslar tanlaganlar. Foniyy (o'tkinchi), Gadoiy, Mujrim (gunohkor) Obid, Qul Ubaydiy kabi. Ular qatoriga

Is'hoqxon Ibratni ham qo'shish mumkin. Ko'p til bilishda hozirgi kun kishilariga ham o'rnak bo'la oladigan Is'hoqxon to'ra o'ziga bejiz Ibrat taxallusini olmagan. Agar bu so'z o'rnak ma'nosida bo'lsa, adib *maqtanchoq, manmanga* aylanib qoladi. Aksincha, taxallusdan «Mening holimni ko'rib, ibratlaninglar» degan ma'noni uqish mumkin. Bu shaxsiyatiga bino qo'ymagan, chinakam kamtar mutafakkirning tanlovidir.

Demak, qay o'rinda o'rnak olish, qay o'rinda ibratlanishni bilish ham o'ta muhim. Bu uquv odamning so'zini, hatto o'zini ham o'zgartirib yuboradi.

(Orif Tolib)



1-mashq. Abdulla Qahhorning «Notiq» hajviy hikoyasidan olingan parchani o'qing. Nutqning jo'yaliligi buzilishi sabablarini izohlashga harakat qiling.

Notiq ryumkani olib o'rnidan turdi. Qoshlari chimirildi, rangi biroz o'zgardi, avval ryumkaga, keyin uyining burchagiga qarab so'z boshladi:

– O'rtoq rafiqam! Ijzat berasiz, xushchaqchaq hayotimizni sharaf bilan davom ettirib, oilaviy burchimizni namunali bajarib kelayotganimizga bir yil to'lgan kunda sizni bevosita tabrik qilishga!

Xotin bu muqaddimani hazil gumon qilganligi uchun qiyqirib chapak chaldi. Notiq yana ham jiddiyroq qiyofada davom etdi:

– Bundan 365 kun muqaddam siz bilan biz o'z hayotimizda qat'iy burilish yasab, zo'r sinovlar sharoitiga bevosita qadam qo'ydik. Ilgarigi vaqtda faqat erkak, endilikda esa ham erkak, ham xotin boshchilik qiladigan oila masalasi o'zingizga ma'lum bo'lganligi uchun bunga keng ravishda to'xtab o'tirishni lozim ko'rmayman. Notiq oila to'g'risida o'z fikrini bayon qilganidan so'ng «Xotin va sotsializm» degan kitobning bir yeridan uch, yana bir yeridan ikki, yana bir yeridan bir yarim sahifa o'qib berdi. Xotin bu orada ikki marta og'zini ochmasdan esnadi, qo'lidagi ryumkani stolga qo'ydi. Notiq davom etdi:

– Siz bilan biz bir yillik oilaviy faoliyatimiz natijasida qanday yutuqlarga erishdik? Avvalo, shuni ta’kidlab o’tish kerakki, biz u yoki bu masalada yuz beradigan prinsipial kelishmovchiliklarni chetdan kuch jalb qilmasdan o’z kuchimiz bilan, o’zaro muhokama qilish yo’li bilan bevosita bartaraf qiladigan bo’lib qoldik. Ikkinchidan, o’rtoq rafiqam, oilamizni tashkiliy xo’jalik jihatidan misli ko’rilmagan darajada mustahkamladik. Men bu bobda faktlarga murojaat qilib o’tirmayman, chunki ordenli onangiz o’zlarining har bir tarixiy kelishlarida bu narsani ayrim ravishda qayd qildilar...

Nutqning sofligi

Nutqning sofligi nutqning adabiy til va jamiyatdagi ma’naviy-axloq qoidalariga yot bo’lgan unsurlardan xoliligi bilan belgilanadi. Kishi nutqining sofligi uning ma’naviy-ma’rifiy, lisoniy-madaniy saviyasini namoyon etadigan ko’rsatkichlardan biridir.

- 1) shevaga xos so’z, ibora, grammatik shakllar, urg’u va talaffuz;
- 2) o’rinsiz qo’llangan chet so’z va so’z birikmalari (varvarizmlar);
- 3) dag’al, haqorat so’z va iboralar (vulgarizmlar);
- 4) «ishlamaydigan» yoki parazit so’zlar;
- 5) idoraviy so’z va iboralar (kanselyarizmlar).

Og’zaki nutqda ba’zan uchrab turadigan so’kinish haqorat, qarg’ish so’zlari jamiyatimizning axloq me’yorlariga zid hodisa sifatida nutqimiz sofligiga ham salbiy ta’sir qiladi.



2-mashq. Quyida berilgan parcha qaysi asardan olingan? Parchadan nutqning sofligiga putur yetkazuvchi so’zlarni toping.

– Boshim gangib, hech narsa deyolmay yotibman...

– Ha, nima demoqchisan, Fitna? – So’fi avvalgiday quruq va sovuq gapirardi. Qurvonbibi xo’rsinganidan bir ozgacha nafasi bo’g’ziga tiqilib, gapirolmay turdi.

Keyin nafasini biroz o'nglab, yana boyagiday xo'rsinish ovozi bilan bo'lib-bo'lib so'zladi:

– Bu nima qilganingiz? Bu...

– Ha, nima qilibman, bachchag'ar?

– Ilgari... mingboshi o'lgurga... bermayman, deb kelib edingiz... qo'rsayib... maqtanib gapirib edingiz... «Benamozga... qiz yo'q!» degan edingiz... Qani u qo'rsayishlar? Nima bo'ldi? Tuppa-tuzuk so'fi odam bir benamoz, bir bo'zaxo'rga qiz berib o'tiribsiz?

– Bersam nima bo'пти, bachchag'ar? O'z qizim...



3-mashq. G'afur G'ulomning "Shum bola" qissasidan olingan quyidagi parchada qaysi unsurlar nutqning sofligiga putur yetkazadi?

– Xo'sh?!

– Shunday o'zim, sizni sog'inib bir ko'rib kelay deb kelgan edim.

– Yaxshi, yaxshi, barakalla, juda ham quruq kelmagandursan, biror ishing bordur, xo'sh, nimaga kelding?

Shu paytda boyga xizmatkor yurishda qo'ygan shartim esimga tushib qoldi. «Shart qilgan yolg'onni endi gapirmasang, qachon gapirasan?» – dedim-da, gap boshladim:

– Anavi, haligi, dandon sopli pichog'ingiz sinib qolib edi, shuning xabarini bergani keldim.

Ana shu so'zdan keyin menga «innaykeyin» savoli yog'ila boshladi.

– Xo'sh, innaykeyin, qanday qilib sindi? Ro'zg'orda mening pichog'imdan boshqa pichoq qurib ketgan ekanmi?

– Tozi itingizning terisini shilayotgan edim, suyakka tegib sinib qoldi.

– Iyya?! – dedi boy. – Tozining terisini mening dandon sopli pichog'imda shilasanlarmi, o'zing ayt-chi, nimaga shildilaring?

- Shoshib qoldik-da, o‘lib qolgandan keyin bekor ketmasin deb terisini shilib oldik.
- Nima qilib o‘ldi?
- Harom o‘lgan otning go‘ishtini ko‘p yeb qo‘ygan ekan, bo‘kib o‘ldi.
- Harom o‘lgan ot go‘шти qayoqda ekan?
- Ha, o‘zimizning to‘riq qashqaning go‘ishtini yeb o‘ldi-da, begona ot emas.

Boy alanglab qoldi.

- Hay-hay, bola, og‘zingga qarab gapir, to‘riq qashqa o‘ldi dedingmi? Xo‘sh, to‘riq qashqa nima qilib o‘ldi?
- Xomlik qilib o‘ldi.
- Nimaga xomlik qiladi?
- Hech aravaga qo‘shilmagan ekan, biz uni aravaga qo‘shib suv tashigan edik, zo‘riqib o‘ldi...

Nutqning boyligi

Nutqda tilning rang-barang unsurlari va imkoniyatlaridan ustalik bilan foydalanish orqali nutqning ta‘sirchanligi, to‘g‘riligi hamda qiziqarligini ta‘minlash **nutq boyligiga** bog‘liq. Nutq boyligiga erishishda quyidagilarga amal qilinadi:

- fikr ifodasida bir xillikdan qochish;
- yetarli so‘z boyligiga ega bo‘lish, so‘zlarning turli ma‘nolari, gap modellari, ohang turlarini bilish va o‘rinlisini tanlay olish;
- aynan bir xil tushuncha yoki fikrni ifodalashda turli-tuman so‘zlar, gap qurilishlari, ohangni qo‘llay bilish;
- til birliklarini o‘rinsiz takrorlamaslik, bunda leksik, morfologik va sintaktik ma‘nodoshlikdan o‘rinli foydalanish va shu kabilar.

Nutqning boy yoki kambag‘alligi unda tilning bir-biridan farq qiladigan unsurlari (so‘zlar, ma‘nolar, intonatsiya, sintaktik tuzilmalar, iboralar va sh.k)dan qay darajada foydalanilganlik bilan belgilanadi. Ayni bir til unsuri nutqda qanchalik kam takrorlangan bo‘lsa, bu nutqning boylik darajasi shunchalik yuqori bo‘ladi yoki,

aksincha, muayyan til unsurining takrori ko‘p bo‘lgan nutq kambag‘al hisoblanadi va uning ta’siri ham shunga yarasha bo‘ladi.

Nutqning bu sifati rang-baranglik tarzida ham talqin etiladi, ya’ni boylik tegishli fikr ifodasi uchun qo‘llangan til birliklarining xilma-xilligi, rang-barangligi bilan o‘lchanadi. Boy nutq tuzish uchun ifodalarning bir xilligidan qochish, ayni bir tushuncha yoki fikrga farqli til birliklarini tanlash lozim.

Buning uchun esa nutq tuzuvchi yetarli miqdordagi so‘zlar, ularning ma’nolari, so‘z birikmasi va gap modellari zaxiralariga sohib bo‘lmog‘i talab etiladi. Bu zaxira qancha boy bo‘lsa, notiq o‘z nutqining maqsadiga muvofiq tarzda undan maqbul birliklarni tanlash, xilma-xil ifodalarni ishga solish imkoniyatiga shunchalik ko‘proq ega bo‘ladi.



4-mashq. Rasm asosida matn yarating. Nutqning boyligini ta’minlovchi vositalardan foydalaning.



O‘zbek tili nutqining rang-barangligini ta’minlovchi lisoniy hodisalarga boyligi bilan ajralib turadi. Ana shunday lisoniy hodisalardan eng muhimi so‘zlardagi ko‘p ma’nolilikdir.

So‘z ma’nosiga ko‘ra ikkiga bo‘linadi: bir ma’noli so‘zlar, ko‘p ma’noli so‘zlar. Bir ma’noni anglatgan so‘zlar bir ma’noli so‘zlar, bir necha ma’noni anglatgan so‘zlar esa ko‘p ma’nolidir. Masalan, chumchuq – bir ma’noli so‘z hisoblanadi. Ko‘z so‘zi esa ko‘p ma’noli so‘zdir: odamning ko‘zi, hayvonning ko‘zi, yog‘ochning ko‘zi; yoqa: ko‘ylakning yoqasi, suvning yoqasi, yo‘lning yoqasi. Nutqning boyligini ta’minlashda ko‘p ma’noli so‘zlarning har bir ma’nosini bilish

taqozo etiladi. Izohli lugʻatlardan koʻp maʼnoli soʻzlarning har biri alohida izohlanadi. Demak, izohli lugʻatlar bilan ishlash orqali soʻzlarning maʼnolarini oʻzlashtirish mumkin. Nutqning rang-barangligini taʼminlovchi lisoniy hodisalardan yana biri soʻzlarning shakl va maʼno munosabatlariga koʻra turlaridir, yaʼni sinonim, omonim, antonim, paronim soʻzlardir. Maʼlumki, shakli har xil maʼnosi bir-biriga yaqin soʻzlar sinonimlardir. Oʻzbek tili, yaʼni nutqi ortiqcha takroni yoqtirmaydi. Takrorlar uslubiy gʻalizlikni keltirib chiqaradi. Agar soʻzlochi soʻzning sinonimlarini yaxshi bilsa, aynan takrordan holi boʻladi. Lekin maʼnoviy sinonimlarni qoʻllashda maʼnodagi nozik farqlarga ehtiyot boʻlish lozim, chunki ularni har doim birining oʻrniga ikkinchisini qoʻllab boʻlmaydi: kuldi, jilmaydi, tirjaydi, ishshaydi, tabassum qildi. Shuningdek, uslubiy sinonimlarni ham oʻz oʻrniga qoʻllash talab etiladi. Tamaddi qildi, ovqatlandi, ovqat edi. Tilimiz shakli bir xil, maʼnosi har xil boʻlgan soʻzlarga boy. Bunday soʻzlarni omonim soʻzlar deymiz. **Ot** (atama), **ot** (hayvon), **ot** (harakat, otmoq feʼlining oʻzagi): **oʻt** (maysa, olov), **oʻt** (harakat – oʻtmoq feʼlining oʻzagi), **oʻt** (tana aʼzosi – oʻt pufagi). Omonim soʻzlar adabiy janr omonim soʻzlardan foydalaniladi va u tajnis sanʼati, (yaʼni jinsdosh) deb ataladi.

Men behol aylagan yor oydurur,
Kim aning vasli menga yoroydurur.
Gar visoli boʻlmasa ketmoq yerim,
Yo Xuroson, yo Xitoy, yo Roydurur.

Nutqning rang-barangligini taʼminlashda antonim soʻzlarning ahamiyati ham katta. Chunki nutqda zid maʼnoli soʻzlarni qoʻllash orqali nutqning taʼsir kuchi oshiriladi. Antonim soʻzlar ham omonim soʻzlarga oʻxshab mumtoz adabiyotda sheʼriy sanʼat yaratishda ishtirok etadi. Tazod sanʼati “qarshilantirish” maʼnolarini ifodalaydi. Baytlarda zid maʼnoli soʻzlarni qoʻllash orqali taʼsirchan badiiy timsollar yaratish koʻzda tutiladi.

Rahm qilgʻin bandagʻa, ey shoh tangri uchun

Kim etar bizni gado ul sizni sulton aylagan.

Faqatgina soʻzlar sinonim, omonim, antonim boʻlib qolmasdan, iboralar va hatto qoʻshimchalar ham shu xususiyatlarga ega boʻlishi mumkin.

Boshi koʻkka etdi – ogʻzi qulogʻida – ogʻzining tanobi qochdi (sinonim iboralar).

ser-, *-li* (sinonim qoʻshimcha)

ogʻziga olmadi (gapirmadi, yemadi) – (omonim iboralar)

-chi (soʻz yasovchi, yuklama) – (omonim qoʻshimcha)

mum tishladi – jagʻi ochildi (antonim iboralar)

-li, *-siz* (antonim qoʻshimchalar)

Shuningdek, tilda talaffuzi oʻxshash, maʼnosi esa har xil boʻlgan paronim soʻzlar ham mavjud. Paronim soʻzlarning talaffuzi nutq sohibidan hushyorlikni talab qiladi. Chunki bunday soʻzlarni notoʻgʻri talaffuz qilish maʼnosini butunlay oʻzgartirib, boshqa soʻzga aylantirib yuboradi: kasr – qasr, otalik – otaliq, boʻshlik – boʻshliq, asr-asir, ahl – ahil, oʻn – un, chalgʻi- cholgʻu, xalos-xolos

Bulardan tashqari, tilimiz koʻplab grammatik shakllarga ega (kelishik, egalik, soʻz yasovchi, soʻz oʻzgartiruvchi, qoʻshimchalarga, sifatdosh, ravishdosh, harakat nomi, soʻz birikmalari, gap turlari qoʻshma gapning turlari). Ulardan nutqda oʻz oʻrnida foydalanish nutqining boyligi va rang-barangligini taʼminlaydi.

Nutqiy boylik va rang-baranglikni ifodalashda yuqoridagi lisoniy hodisalardan tashqari lisoniy hodisalar ustida quriladigan intonatsiya ham muhim oʻrin tutadi. Intonatsiya muhim prosodik hodisa boʻlib, u uzunlik, ton, kuch, tembr, pauza va ularning oʻzaro hamkorligi hamda oʻzaro kompensatsiyasidan tashkil topadi. Intonatsiya nafaqat lisoniy hodisa, balki insoniyatning nihoyatda boy ichki kechinmalari bilan bogʻliq psixologik, nutq uzvlarining faoliyati bilan bogʻliq fiziologik omillar bilan ham bogʻliq boʻlgan murakkab hodisadir. Mazmuni tinglovchiga yetkazishda leksik va grammatik qurilish bilan birga intonatsiyaning ham roli kattadir. Chunki har qanday soʻz va gapning real maʼnosi intonatsiya yordamida oydinlashadi. A.I.Simirnitskiy taʼkidlashicha, “intonatsiyasiz gap

intonatsiya olgan gapdan murda jonli tanadan qanday farq qilsa, shunday farq qiladi”. Demak, intonatsiya(ohang) nutqning ruhidir.

Shu bilan birga intonatsiya to‘g‘ri talaffuzning muhim unsuri sifatida ahamiyat kasb etadi. Haqiqatdan ham, melodik (ohang) va dinamik (kuch) harakatni to‘g‘ri yo‘naltirish, ma’lum me’yordagi tempda gapirish pauzalardan to‘g‘ri foydalanish, urg‘ularni o‘rniga qo‘yish nutqqa o‘zgacha bir joziba bag‘ishlaydi, tinglovchining diqqatini tortadi. Aksincha, intonatsiyani noto‘g‘ri berish, ya’ni melodik va dinamik harakatni noo‘rin yo‘naltirish (bir maromda) xaddan tashqari tez yoki sekin gapirish, keraksiz o‘rinlarda pauza qilish, urg‘ularni o‘rniga qo‘ymaslik tinglovchini toliqtiradi. Hatto yaxshi mazmuni unga yetkaza olmaydi.

Demak, nutqiy boylik deyilganda til boyliklaridan unumli va o‘z o‘rnida foydalanish ko‘zda tutiladi.

Nutqning ifodaliligi

Nutq madaniyatining eng muhim belgilaridan yana biri – **nutqning ifodaliligidir.**

Nutqning ifodaliligi so‘zlovchining so‘z qo‘llash mahoratiga bog‘liqdir. Nutqning ifodaliligi deyilganda nimalar tushuniladi?

Eng avvalo, so‘zlovchi matnga qaramay, mustaqil holatda so‘zlay bilishi fikrni aniq, lo‘nda ifodalay olishi lozim. Takrorlar nutqning ifodaliligini susaytiradi.

Tinglovchiga noma’lum bo‘lgan, bugungi kun uchun muhim masalalar haqida fikr yuritish nutqning ifodaliligini oshiradi. Buning uchun so‘zlovchi avvalo, o‘zi ifodalamoqchi bo‘lgan fikrga oid materialni yaxshi bilishi, kundalik yangiliklar bilan o‘z vaqtida tanishib borishi va uni tushunarli shaklda ifodalay olish mahoratiga ega bo‘lishi lozim.

Tinglovchiga tushunarli bo‘lmagan, yoki o‘zi yetarli darajada bilmagan so‘zlarni ishlatmaslik lozim. Chunki notanish so‘z nutqning boshqalarga yetib borishiga halaqit beradi, uning ifodaliligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Nutqdagi ortiqchalik, uslubiy g‘alizlik uning ifodaliligini, rang-barangligini, mantiqiyligini buzadi.

Soʻzlarni, har bir tovushini aniq talaffuz qilish ham nutqning ifodaliligini taʼminlovchi vositalardan biridir. Nutqning ifodali, ravon chiqishi uchun har bir soʻzgina emas, hatto har bir tovushning talaffuziga ham alohida eʼtibor bermoq kerak. Gʻaliz talaffuz qilingan soʻz tinglovchiga aniq yetib bormaydi. Bunday holat koʻproq fonetik jarayonlarda namoyon boʻladi. Doira (musiqa asbobi, aylana), amr – amir, asr – asir, feʼl (turkum, harakter).

Nutqning ifodaliligini taʼminlovchi vositalardan yana biri soʻzlardagi **urgʻuni** oʻz oʻrnida ishlatishdir. Ayniqsa, soʻz va mantiq urgʻulariga amal qilishning ahamiyati kattadir.

Nutqning ifodaliligini taʼminlovchi muhim vosita sifatida **ohangning** oʻrni beqiyosdir. Ohang va kuchning koʻtarilishi, tushishi va toʻgʻri xarakat qilishi, tempning sekinlashuvi va tezlashuvi, psixologik, fiziologik, xezitatsion pauzalar qilish, urgʻuli boʻgʻinlar talaffuziga alohida eʼtibor berish nutqning ifodaliligini oshiradi.

Nutqning ifodaliligini oshirishda badiiy adabiyotning oʻrni beqiyosdir. Chunki, nutqda badiiy tasvir vositalarini qoʻllash orqali ifodalilikka erishish mumkin. Ziyoli, ayniqsa, sanʼatkor oʻz nutqining badiiy boʻlmogʻiga erishmogʻi joizdir

Nutqning tuzilishi, gapning ifodali soʻz, jumlar va iboralardan tarkib topishi, badiiy-tasviriy vositalariga koʻra tinglovchi diqqatini jalb qila olishi nutqning ifodaliligi sanaladi.

Nutqning ifodali, taʼsirli boʻlishi quyidagilarga asoslanadi:

- soʻzlar talaffuzida unli tovushni choʻzish, undoshlarni ikkilantirish, ularni takrorlash, boʻgʻinlarga boʻlish, soʻz va qoʻshimchalar urgʻusini toʻgʻri qoʻyish;
- ohang tezligi, yuqori-pastligini oʻzgartirish;
- frazeologik ibora, maqol, matal va hikmatlardan oʻrinli foydalanish;

– ko‘chma ma’noli so‘zlar, sifatlash, metafora va boshqa ko‘chmalarni qo‘llash va shu kabilar.

Tinish belgilari ham uslubiy vazifa bajaradi. Shu sababdan ham yozma matnda fikr aniq, ravon va tushunarli bo‘lishi uchun ulardan o‘rinli foydalanish lozim. Tinish belgilari yozuvda, asosan, sintaktik bo‘linishni ko‘rsatish va shu bilan birga fikrni to‘g‘ri ifodalash uchun qo‘llaniladi. Shuningdek, tinish belgilaridan his-hayajonni oshirish, ayrim so‘zlarga yangi, qo‘shimcha ma’no berish uchun ham qo‘llaniladi.

Evfemizm – tilning ifoda va uslubiy vositalaridan biri sanaladi. Aytish noqulay yoki noo‘rin bo‘lgan so‘z yoki ibora o‘rniga ishlatiladigan "pardali" so‘z yoki ibora evfemizm deyiladi.



5-mashq. Zavqiy qalamiga mansub «Zamona kimniki?» she’rini ifodali o‘qing. Badiiy nutqni ifodali o‘qishda nimalarga e’tibor berish kerakligini tushuntiring.

Sen dema ushbu zamonda obro‘ mulloniki,

Qoldi a’lolar oyoq ostida, so‘z adnoniki,

Sar daraxti mevasin ko‘r: zog‘ ila qarg‘oniki,

Demangiz, ahboblar, gul bulbuli go‘yoniki,

Davlati vasli tikonda, hajri ul shaydoniki.

Shahru qishloq demangizkim, fisq ila to‘la jahon,

Ahli dunyo qoshida yolg‘onchilardur nuqtadon.

Yo‘q rivoj kasb-u hunarg‘a, sovrilibdur xonumon.

Xoh kosib, xoh dehqon qayga borsa bag‘ri qon,

Holi har yerda suxan sharmandayu rasvoniki...



6-mashq. Quyida berilgan hikmat asosida matn tuzing. Hikmat ma'nosini kengroq ochib berishga hamda nutqning ifodaliligiga e'tibor bering.

So'zni ko'ngulda pishqormaguncha tilga kelturma,
Har nekim ko'ngulda bor-tilga surma. (A.Navoiy)

Mavzuga oid savollar:

1. Nutqning jo'yaliligi deganda nimani tushunasiz?
2. Sinonimlar nima? Uning nutqdagi o'rni haqida gapiring.
3. Nutq ravonligini buzuvchi vositalar nima?
4. Tinish belgilarining uslubiy vazifasi haqida tushunchangizni ayting.
5. Kirish so'z va kirish birikmalar qanday uslubiy xususiyatlarga ega?



Yaqinda Perudagi xalqaro tadqiqot markazi xodimlari bir kinodagi jarayonni tajribada sinab ko'rish maqsadida past harorat, bosim va temir birikmalariga boy tuproqli yopiq muhit hosil qildilar. Tajribalar film qahramoni haqiqatan ham muvaffaqiyatga erishishi mumkinligini isbotladi. Gap qaysi kino haqida ketayotganligini yoki tajriba obyekti bo'lib nima xizmat qilganligini toping .



7- mashq. Uyga vazifa. Badiiy asarlardan nutqning sofligiga putur yetkazuvchi unsurlar qatnashgan misollardan yozib keling.

201-210-§. Nutq texnikasi – nutqiy madaniyatning muhim belgisi. Urg'u, talaffuz texnikasi. Monologik matn tuzish

Telefonda so'zlashish odobi

Hayotimizga telegraf, radio, keyin telefon kirib keldi. Radiotelefon, peyjer, uyali aloqa telefoni... Inson hayotining turmush tarzi rivojlanib bormoqda. Ammo bizlar mana shu imkoniyatlarimizdan to'g'ri foydalanamizmi? Uning o'ziga xos qonun-qoidalariga amal qilamizmi? Shu haqda suhbatlashamiz.

Muhim telefon soʻzlashuvlari qisqa, muloyim va hurmatni ketkazmaydigan boʻlishi kerak. Shunisi qiziqki, tadqiqotlarga koʻra, tik turgan holda gaplashingiz, ovozingizdagi ohang qatʼiyroq boʻladi. Agar oʻtirgan holda gaplashingiz, ovozingiz yumshoqroq va muloyimroq chiqadi.

Telefonda gaplashishning bir nechta umumiy qoidalari bor. Raqam terishdan avval oʻylab koʻrishingiz kerak. Sizing qoʻngʻirogʻingiz xush kelarmikan? Telefon qilayotgan kishingizni bezovta qilib qoʻymasmikansiz? Shu tobda siz qoʻngʻiroq qilayotganingizda uni kimdir bezovta qilmayotganmikan?

Har qanday qoʻngʻiroq salomlashish va tanishishdan boshlanadi, keyin gaplashishingiz kerak boʻlgan odamni chaqirib berishlarini iltimos qilasisz.



Topshiriq

1-topshiriq. Yuqorida berilgan matnni oʻqing. Siz ushbu qonun-qoidalarga amal qilyapman deb oʻylaysizmi? «Telefonda soʻzlashish odobi» mavzusida suhbatlashing. Yana nimalarga amal qilish kerakligini ayting.

Nutq texnikasi – nutqiy madaniyatning muhim belgisi. Talab darajasida shakllangan **nutq texnikasi** kishi umumiy nutqiy madaniyatining eng muhim qismi hisoblanadi. **Nutq texnikasi** deganda jonli, tovushli nutq va uning barcha unsurlarini toʻgʻri voqelantirish koʻnikma va malakalarining jami tushuniladi. Bunda ovozning sifati, nutq jarayonida toʻgʻri nafas olish, tovush va tovush qoʻshilmalarini aniq talaffuz qilish – aniq diksiya, nutq oqimining mazmun ifodasiga uygʻun tarzda tez yoki sekinligi kabi bir qator hodisalar nazarda tutiladi. Nutq texnikasini yetarli darajada egallashda umumiy tarzda boʻlsa-da, fonetik bilimlardan boxabarlik zarur.

**Inson ikki turda nafas oladi:
Fiziologik nafas va fonatsion nafas**

Fiziologik nafasda havo burun orqali olinib, nafas olish va nafas chiqarish teng hamda bir tekisda bo'ladi. U quyidagi ketma-ketlikda sodir bo'ladi: qisqa nafas olish, qisqa nafas chiqarish va pauza.

Fonatsion nafasda qisqa nafas olinadi, pauza va cho'ziq nafas chiqariladi. Chunki tovush hosil qilish uchun havo oqimi zarur bo'ladi.

Fonasion nafas shakllanmagan bo'lsa nutq jarayonida hapqirib qolish, yurak urishi tezlashishi, yuz qizarib ketishi kabi holatlar kuzatiladi.

Nutq tovushlari cho'ziq nafas chiqarish jarayonida hosil bo'ladi. Shu sababli fonasion nafas va tovush hosil qilish jarayonini takomillashtirishda diafragmal-qorin nafasni rivojlantiruvchi mashqlardan foydalanish lozim.

Yaxshi tovush yillar o'tishi bilan, maxsus mashqlar yordamida chiniqtirib borilmasa, o'zgarishi mumkin. Shuningdek, har bir insonning tovushi maxsus mashqlar asosida chiniqtirilsa kuchli, o'zgaruvchan va jarangdor bo'lishi mumkin.



1-mashq. Anorga bag'ishlab yozilgan qanday asarlarni bilasiz? Daftaringizga yozing. Shulardan birini nutq texnikasiga rioya qilib, yoddan o'qing.



O'qituvchi tovushining muhim jihatlariga quyidagilar kiradi:

1. Tovushni ma'lum masofaga etkazish va boshqarish.
2. **Tovushning egiluvchanligi** – nutq mazmuniga ko'ra o'zgartirish.

3. **Tovushning balandligi** – tovushning tonallik darajasi. Tovush harakati uning baland-pastligiga bog‘liq. Odam ovozi osongina 2 oktava balandligida o‘zgarib turishi mumkin, ammo kundalik nutqimizda 3-5 nota kuchida ovoz ishlatilishi mumkin.

4. **Diapazon** – ovoz ko‘lami, kengligi. Inson imkoniyatlari darajasidagi, eng yuqori va eng quyi chegarasiga ega turli balandlikdagi tovushlar yig‘indisi.

5. **Tembr** – har bir tovushning o‘ziga xos bo‘lgan sifati, tovush bezagi, uning mayinligi yoki yo‘g‘onligi, yorqinligi.

Har bir insonning tovush tembri rezonator tizim asosida o‘zgarishi mumkin. Rezonator tizimning 2 turi farq qilinadi: yuqori (bosh) va quyi (ko‘krak).

Yuqori yoki bosh rezonator tizimiga bosh miya, og‘iz va burun bo‘shlig‘i kiradi. Quyi yoki ko‘krak rezonator tizimiga traxeya va bronxlar kiradi. Rezonator tizim yordamida turli xildagi ton (tovush) va oberton (qo‘shimcha tovush)lar hosil qilish mumkin.

6. **Ritmika** – tovush va so‘zlarni talaffuz qilishdagi umumiy tezligi, davomiyligi, ovoz maromi yoki vazni. Ba’zi bir so‘zlarning, bo‘g‘inlarnng talaffuzi, ularning tezligi - nutqning sur‘atini tashkil etadi.

7. **Temporitm** - so‘zlar orasidagi tanaffuslardir.

8. **Nutq tezligi** o‘qituvchining shaxsiy sifatlari, nutq mazmuni, muloqot qilish vaziyatiga, har bir o‘qituvchining fazilati nutq mazmuni va muomala vaziyatiga bog‘liq.

Individual tarzda tashkil etiladigan maqsadli va aniq yo‘naltirilgan mashqlar tovush tembriga ta’sir etadi, tovushdagi noo‘rin qo‘shimcha tovushlarni yo‘qotishga yordam beradi.



2-mashq. She’rni ifodali o‘qing. Nutq texnikasi qoidalariga amal qiling.

Garchi shuncha mag‘rur tursa ham,

Piyolaga egilar choynak.

Shunday ekan, manmanlik nechun,

Kibru havo nimaga kerak?
Kamtarin bo‘l, hatto bir qadam
O‘tma g‘urur ostonasidan.
Piyolani inson shuning-chun
O‘par doim peshonasidan.

Nutq texnikasida urg‘u

Nutqning madaniyligini ta‘minlashda undagi ohang ham alohida o‘rin tutadi. Nutqda yaxlit ohangning shakllanishida **urg‘u**, to‘xtam (pauza), mazmuniy-hissiy intonatsiya kabi unsurlar ishtirok etadi. Og‘zaki madaniy nutq tuzayotgan kishi ana shu unsurlarning aniq va to‘g‘ri namoyon qilishi zarur.

Siz yaxshi bilasizki, urg‘u ikki xil bo‘ladi, ya‘ni: so‘z urg‘usi va gap urg‘usi. Gap tarkibidagi mantiqan muhim bo‘lak gap urg‘usi bilan ta‘kidlanadi. Nutq oqimidagi noto‘g‘ri yoki o‘rinsiz to‘xtam (pauza) hatto fikr ning yanglish anglanishiga ham olib kelishi mumkin. Masalan, *Mashinadan ikki bolali ayol tushdi* gapi agar *Mashinadan ikki / bolali ayol tushdi* tarzidagi to‘xtam bilan aytilsa, «Mashinadan bolasi bor ikkita ayol tushganligi» mazmuni anglashiladi, *Mashinadan ikki bolali / ayol tushdi* tarzidagi to‘xtam bilan aytilganda esa «Mashinadan ikkita bolasi bor bitta ayol tushganligi» mazmuni ifodalanadi. Ohang gapning mazmuniy-hissiy yo‘nalishini ko‘rsatadi.



3-mashq. Dialogni o‘qing. Nutqiy faoliyatda urg‘u va ohangning ahamiyatini tushuntiring.

- Otaxon, mana, to‘qson olti yoshga kiribsiz, sizningcha, uzoq yashashning siri nimada?
- Nima deydi?
- Uzoq yashashning siri nimada, deb so‘rayaptilar.

– Ha-a... sirini bilmayman. Parvardigor mani yo‘q joydan bunyod etdi: qo‘l berdi, oyoq berdi, ko‘z berdi, quloq berdi, rizqu ro‘z berdi, pokdomon xotin nasib etdi, aqli komil farzandlarni berdi. Bir umr shukr qilib yashadim. Uzoq umr berdi, uning sirini ham o‘zi biladi-da, muxbir bacham. Eng oliy sirdon Yaratganning o‘zi.

N.Aminov

Talaffuz texnikasi

Diksiya – tovush va so‘zlarni aniq, [tushunarli talaffuz qilish](#), ya'ni tovush hosil qilishda lab, til, jag', yumshoq va qattiq tanglay, tilcha, halqum, tovush paylari ishtirok etadi. Agarda ulardan birortasining faoliyati buzilsa diksiya buziladi.

Diksiya-talaffuz tarzi, talaffuzni aniq ravshanligi darajasi. O‘qituvchi uchun to‘g‘ri talaffuz - eng kerakli qurol hisoblanadi, chunki o‘quvchilar tushunishi uchun nutqi, talaffuzi ravon, har bir bo‘g‘in, so‘z va tovushlarni aniq aytishi kerak.

Pauza, temp va nutqning yoqimli bo‘lishi nutq ohangini tashkil etadi. Bir ohangdagi nutq zerikarli bo‘lib, qiziqish va diqqatni pasaytiradi.

Og‘zaki nutq jarayonida til birliklarini adabiy til me‘yorlariga muvofiq aytilishi talaffuz me‘yorlariga asoslanadi. Talaffuzda tovushlarning to‘g‘ri aytilishi muhim bo‘lib, o‘ziga xos qonuniyatlarga asoslanadi.

Nutq tovushlarining so‘z tarkibida alifboda belgilanganidek talaffuz qilinishi me‘yoriy sanalishi bilan quyidagi holatlar ham talaffuz me‘yoriga muvofiqdir:

1. So‘z oxirida b tovushining jarangsizlanib, p tarzida aytilishi: hisob > hisop, kelib > kelip.
2. So‘z oxirida d tovushining t tarzida talaffuz qilinishi, d yoki t tovushlarida tushib qolishi: dard > dart, band > bant, go‘sh > go‘sh, past > pas kabi.
3. Ayrim so‘zlarda l tovushining tushib qolishi: bo‘lgan > bo‘gan, kelsa > kesa kabi.
4. Bank, tank, disk kabi o‘zlashma so‘zlarga a tovushi qo‘shib aytilishi, ba‘zi

o‘zlashmalar talaffuzida v tovushining f tarzida o‘zgartirilishi me’yordan chekinish hisoblanmaydi.



4-mashq. Tez aytishlarni o‘qing. Tovushlarni aniq talaffuz qilishga harakat qiling.

1. Tez aytgin-u tez gapir, tez aytganga bir patir.
2. Chaman-chaman paxtazor ichida chevar qizning qo‘llari chanoqdan chanoq qa chaqqonlik bilan ko‘chadi.
3. Tubsiz dengiz dedingizmi, dengiz tubsiz dedingizmi?
4. G‘ozg‘onning marmari jahonga mashhur, bizning g‘ozg‘onchilar shuning uchun mag‘rur.
5. Simyog‘ochdagi qaldirg‘och qayrag‘ochdagi qora qarg‘aga qayrilib qaraganda, qayrag‘ochdagi qora qarg‘a qarag‘ayga qaradi.
6. Sijjakdagi g‘ijjakchi jiydadan g‘ijjak yasarmish.
7. Jajji jibljibon jajji Jo‘ra bilan jo‘ra, jajji Jo‘ra jajji jibljibon bilan jo‘ra.



5-mashq. So‘z haqida aytilgan maqol va hikmatli so‘zlarni o‘qing. O‘zingiz ham shunga o‘xshash maqollar topib yozing.

1. So‘zga tushmagan so‘zni aytma, sozga tushmagan g‘azalni.
2. So‘zida parishonlik – o‘zida pushaymonlik.
3. Mahalida aytar so‘zni asrama, aytmas so‘z tebrasiga yo‘lama.
4. Jo‘yali so‘z jo‘yasin topar, jo‘yasiz so‘z egasin chopar.

Demak, nutq texnikasi haqidagi tushunchaga ega bo‘lgach endi doimiy mashq qilishga o‘tish kerak. Nafas olishni bir maromga keltirish, talaffuzniig aniq-ravshanligi darajasini mashq qilish, tovush organlarinn mustahkamlash kerak.

Monologik nutq

Monolog so‘zlovchining o‘ziga yoki tinglovchilarga qaratilgan nutqidir. Monolog nutqida so‘zlovchi o‘ziga ma’lum bo‘lgan voqea-hodisalar, o‘z ichki kechinmalari haqida ma’lumot beradi. Monologik nutq tinglovchilarni suhbatga faol aralashuvga undamaydi; ulardan aytilganlarga javob talab qilmaydi.



Sintaktik jihatdan monologik nutq murakkab tuzilgan bo‘lib, keng qamrovlidir.

Monologik nutq o‘z xususiyatlariga qarab, bir necha ko‘rinishda bo‘lishi mumkin: **ichki monolog** va **tashqi monolog**. Tashqi monologning **dramatik monolog**, **lirik monolog**, **xabar monologi** kabi turlari bor.

Ichki monolog badiiy adabiyotda qo‘llanuvchi uslubiy usullardan biridir. Bu usul yuz bergan aniq voqealarni ularning ta‘sirida qahramon ichki kechinmalarida paydo bo‘lgan fikrlar sifatida bayon etish imkonini beradi. Ichki monolog so‘zlovchining nutqidir. Misol sifatida (A.Oripov. «Jannatga yo‘l») asarini olish mumkin.

Tashqi monolog so‘zlovchining tashqi nutqidir. Unda til imkoniyatlari haqiqatga aylanadi.

So‘zlovchining nutq mazmunini yetkazishga ko‘maklashuvchi turli xil harakatlari yordamida bayon etiladigan monolog dramatik monolog deyiladi. Dramatik monologda so‘zlayotgan shaxsning qo‘li, gavdasi, qoshi, boshi kabi a‘zolari zarurat tug‘ilganda harakat qiladi. Turli tarzdagi ma‘noli harakatlar fikrning tinglovchi tomonidan yaxshi tushunib olinishiga ko‘maklashadi.

So‘zlovchining ichki his-tuyg‘ularini, ruhiy kechinmalarini ifodalovchi tashqi monologik nutq lirik monolog deyiladi. Lirik monologda shaxsning orzu-umidlari, tashqi dunyodan olgan taassurotlari, kelajak rejalari aks ettiriladi.



6-mashq. Monologik matni o‘qing. So‘zlovchining ichki his-tuyg‘ularini, ruhiy kechinmalariga e‘tibor bering. Siz uchun vaqt nima?

Vaqt, sen men uchun kimsan: do‘st yoki dushman?

Vaqt, men juda ko‘p sen haqingda o‘ylayman. Sen haqingda qancha chuqur o‘ylasam, sen meni hayotimdagi eng noyob ne‘mat ekanliginga qayta va qayta amin bo‘laman. Vaqt senda o‘lchov birligi bor, seni biz daqiqa, soat, kun, yil yoki asr sifatida bilamiz. Vaqt bazida seni tez o‘tkazish uchun turli o‘yinlarni o‘ynayman.

Lekin nimagadir qandaydir bilim o‘rganish uchun seni topa olmayman. Chunki qandaydir kerakli ishim chiqib qoladi.

Men seni telefon orqali yaqinlarim bilan suhbatlashish uchun bemalol ishlata olaman. Lekin yaqinlarim bilan ko‘rishib ularni nasihatlarini eshitish uchun sen kamlik qilasan. Ular uchun seni topa olmayman. Vaqt sen tufayli men turli kino qahramonlari hayotini o‘z o‘rnimga qo‘yib ko‘rib, u filmlarni tomosha qilaman. Lekin hayotimiz rivoji uchun borini bergan buyuk insonlarning filmini ko‘rishga kelsak, sen yana qayergadir g‘oyib bo‘lasan. Sen hech qachon menga yoqtirgan musiqamni eshitish uchun halaqit bermaysan. Lekin biror bir foydali kitobni qo‘lga olishim bilan muhimroq ishim esimga to‘shib qoladi...

Dialog



Dialog nutq shakllaridan biri bo‘lib, unda har bir fikr to‘g‘ridan-to‘g‘ri suhbatdoshga qaratilgan bo‘ladi. Dialogik nutqning sintaktik qurilishi monologik nutqqa qaraganda sodda tuziladi.

Dialogik fikrlarning qisqaliligi bilan boshqa fikrlardan ajralib turadi. Unda suhbatni davom ettirish uchun eng zarur narsalargina ifodalanadi, voqealar keng izohlanmaydi. Shu jihatdan ham dialog monologga o‘xshamaydi. Dialog so‘roq, buyruq va darak gaplardan tashkil topadi.



7-mashq. Parchani o‘qing. So‘roq va undov gaplarning o‘qilishiga ahamiyat bering.

«Navoiy va Guli» sahnasi (Navoiy she‘r yozish bilan mashg‘ul)

Navoiy – E nasimiy subh, ahvolim diloromimga ayt!

Zulfi sunbul, yuzi gul, sarvi gulandonimga ayt!

Kom talx-u, boda zahr-u, ashk gulgun bo‘lg‘onin

Guli – La‘li rangin labzi shirin sho‘x xud komimga ayt

Navoiy – Ko‘zimning nuri kel, toza gulim kel!

Ko‘ngil bog‘ida sayroq bulbulim kel!

Guli – Ko‘rib gulzor ichida sizni yolg‘iz,

So‘roqsiz, indamay men – behayo qiz

Kechirgaysiz, kelishga jur‘at etdim

Navoiy – Ko‘ngil armoni kel! Maqsadga yetdim.

Nechuk bezovtasan? Barvaqt turibsan?

Malak yanglig‘ o‘zing tanho yuribsan?

Guli – Sahar chog‘i turib shirin g‘azaldin

Eshitmak odatim bo‘lgan azaldin.

Navoiy – Ko‘ngil ilhomchisi sensan, azizim

Bularning barchasi senga atalg‘on...

Polilog

Ikkidan ortiq ishtirokchilarning nutqidan tuzilgan suhbat polilogdir. Polilog hamma til xususiyatlari jihatidan dialogning o‘zidir. Faqat unda suhbatdoshlarning soni ko‘proq bo‘ladi. So‘zlovchi o‘rtaga tashlagan muammoga birdan ortiq ishtirokchi o‘z fikrlarini bildirishi mumkin.



8-mashq. Uyga vazifa. Rasm asosida polilogik matn yarating. Bunda nimalarga e‘tibor berish kerakligini tushuntiring.



Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar.

1. Nutq texnikasini izohlang.

2. Diksiya deganda nimani tushunasiz?
3. Nutqni hosil qilishda nafas olish va nafas chiqarishning o‘rni haqida gapiring.
4. Tez va keraksiz shoshilib gapirganda, qanday nuqsonlar yuzaga keladi?
5. Ovozning sifati haqida so‘zlang.
6. O‘zingiz ovozingizning sifati haqida o‘ylab ko‘rganmisiz? Ovozingizning sifati o‘zingizga ma’qulmi?

211-224- §. Matn va uning turlari. Matn va iqtibos. Matn tuzish. Matn ustida ishlash.



Topshiriq 1-topshiriq. Matnni o‘qing. Siz o‘z onangizni qanday ta’riflaysiz?

ONA

Ona! Bu hayot kabi abadiy va aziz so‘z. Bu so‘zda olam-olam ma’no bor. Ona borki, odam bor; ona borki, Vatan bor. Zero Ona kabi muqaddas va tabarruk, aziz va mo‘tabar, beg‘araz va beminnat inson bu yorug‘ olamda topilmaydi. Ona uchun o‘z



farzandlarini tarbiyalashdan, voyaga yetkazishdan buyuk baxt bo‘lmasa kerak. Shuning uchun ham ona farzandi uchun har qanday qiyinchiliklarga bardosh beradi, chidaydi, farzand uchun chekilgan bu nihoyasi yo‘q kulfat, mashaqqatlardan xafa bo‘lish o‘rniga, aksincha, o‘zini baxtiyor his etadi. Hadisi sharifda aytilishicha:

«Musoviya ibn Xayida aytadilarki, Rasulullohdan: «Ey Rasululloh, men yaxshiligimni kimga qilsam bo‘ladi?» – deb so‘radim. «Onangga»,– dedilar. Men shu savolni uch marta qaytarsam ham, Rasululloh: «Onangga», – deyaverdilar. To‘rt marta so‘raganimda «Otangga va yaqin bo‘lgan qarindoshlaringga»,– dedilar.

Darhaqiqat, go‘dakni yuragi ostida to‘qqiz oy ko‘targan, dunyoga keltirgan, tarbiyalab inson darajasiga ko‘targan – bu Ona!

Bejiz aytilmagan, «Onaning bir qo‘li beshikni, bir qo‘li dunyoni tebratadi» deb. Ona qo‘li nafaqat dunyoni, bunyodkorlikni, hayotni tebratadi.¹⁸⁵



Topshiriq

2-topshiriq. Quyidagi matnlarni ham o‘qing. Maktabda olgan bilimingizga tayanib uchala matn qaysi xususiyatlari bilan bir-biridan farqlanayotganini ayting.

...Biz bular bilan tanishishni shu yerda qoldirib, ayvonning chap tarafidagi daricha orqaliq uyga kiramiz, ham uyning to‘riga soling‘an atlas ko‘rpa, par yostiq quchog‘ida sovuqdan erinibmi va yo boshqa bir sabab bilanmi uyg‘oq yotqan bir qizni ko‘ramiz. Uning zulfi par yostiqning turlik tomonig‘a tartibsiz suratda to‘zg‘ib, quyuq jinggila kiprik ostidag‘i timqora ko‘zlari bir nuqtag‘a tikilgan-da, nimadir bir narsani ko‘rgan kabi... qop-qora kamon, o‘tib ketkan nafis, qiyig‘ qoshlari chimirilgan-da, nimadir bir narsadan cho‘chigan kabi...to‘lg‘an oydek g‘uborsiz oq yuzi biroz qizilliqg‘a aylanganda, kimdandir uyalg‘an kabi...

(«O‘tkan kunlar» A.Qodiriy)

Bolalikdagi she‘riy mashqlarimning birida, shabboda, to‘xta bir pas, deb yozgan ekanman. Devoriy gazeta muharriri, o‘zbek adabiy tilida bir pas degan so‘z yo‘q, bir nafas deyish kerak, deb o‘zi qizil qalam bilan to‘g‘rilab qo‘ygan... Lug‘atlarga qaradim. Pos – tunning sakkizdan biri, deb sharhlanibdi. Demak, taxminan bir soatga teng tungi muddat – pos, bir soatlik tungi soqchi – posbon, ruscha chasovoy ma’nosidagi atama bo‘lib chiqdi. Ajabki, o‘z so‘zimiz bo‘lgan pos jahon kezib, yana o‘zimizga post shaklida, qo‘riqlanadigan joy, soqchining o‘rni hamda lavozim ma’nolarini olib qaytibdi. Demak, o‘zbekning birpasi bir soat bo‘lar ekan. Gapimni birpasda tugataman, degan so‘zning ma’nosini o‘zingiz tushunavering.

(E.Vohidov)



3-topshiriq. Maktabda olgan bilimingizga asoslanib savollarga javob bering.

1. Matn deb nimaga aytiladi.
2. Tasviriy matn qanday maqsadlarda tuziladi va qayerlarda qo‘llaniladi?
3. Muhokama mazmuniga ega bo‘lgan matnlarning asosiy belgilari nimalardan iborat?
4. Hikoya matnining o‘ziga xos xususiyati, boshqa matn turlaridan qanday farqi bor ?

Nazariy ma’lumot. Iqtibos (arab. – ziyo olmoq), sitata – biror asardan so‘zma-so‘z olingan parcha. Iqtibos bayon qilinayotgan fikrni ishonchli fikr bilan quvvatlash, muayyan fikrni tanqid qilish uchun hamda muhim **faktik** material – misol sifatida qo‘llaniladi. Iqtibos, asosan, ilmiy (ko‘pincha gumanitar) va rasmiy nutqda ishlatiladi hamda qo‘shtirnoq bilan belgilanadi yoki alohida harf bilan yoziladi; shuningdek, manbaga havola qilinadi. Bunday ko‘chirmalar foydalanuvchining fikri bilan qiyoslanganda uning mohiyatini to‘g‘ri tushunish imkonini beradi. Masalan, badiiy adabiyotning, so‘zning g‘oyaviy-estetik ta’sir kuchi, ahamiyatini quroldan ham kuchliroq ekanligi to‘g‘risidagi fikrni mustahkamlash maqsadida P. Tursunning «Adabiyot zambarakdan zo‘r» yoki A. Qahhorning «Adabiyot atomdan kuchli» degan so‘zlarini yoki bo‘lmasa, «tig‘ yarasi bitar, ammo til yarasi bitmas» maqolini iqtibos sifatida qo‘llash mumkin. Iqtibosdan ko‘p hollarda epigraf va shior o‘rnida ham foydalaniladi. Agar muallif fikriga zarar yetmasa, iqtibosda orfografiya va punktatsiyani o‘zlashtirish, so‘z (so‘zlar)ni tushirib qoldirish mumkin (bunda ko‘p nuqta bilan belgi qo‘yiladi)¹⁸⁶.



4-topshiriq. Quyida nemis shoiri Gyote qalamiga mansub hikmatlarni o‘qing. O‘zingizga yoqqan hikmatlardan saralab, ular mazmuniga mos matn tuzing va unda saralagan hikmatlaringizni iqtibos sifatida qo‘llang.

¹O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi. “O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti. T.2000-2006 468-bet.

1. Modomiki, donolarcha javob berishlarini xohlar ekansan – donolarcha savol ber.
2. Haqiqatni doimo takrorlab turish zarur, chunki bizga adashishni ham doimo eslatib turishadi.
3. Agar osmondagi kamalak uzoqroq turib qolsa, unga qaramay qo‘yishadi.
4. Kimki hayot va erkinlik uchun har kuni kurashsa, faqat ugina hayot va erkinlikka munosib.
5. Inson o‘z kuchidan foydalanmaguncha, nimaga qodirligini bilmaydi.
6. Agar biz o‘zimizni o‘zganing o‘rniga qo‘yib ko‘rsak, boshqalarga nisbatan rashk va nafratimiz yo‘qolgan bo‘lur edi; agar biz boshqalarni o‘zimizning o‘rnimizga qo‘yib ko‘rsak, bizdagi manmanlik va g‘urur pasaygan bo‘lur edi.
7. Eng kulgili istak – barchaga yoqish istagi¹⁸⁷.



Topshiriq

5-topshiriq. Qodiriyning «Mehrobdan chayon» romanidan keltirilgan quyidagi parchani o‘qing. Unda qo‘llangan iqtibosni izohlang. Iqtibosning qo‘llanish o‘rni, imlosi hamda matn mazmuniga mosligini tushuntiring.



Solih maxdumning o‘sha so‘zi bilan Abdurahmon ishka oling‘an edi . Uch oydan beri Anvar qoshida – o‘z huzurida mirzoliq qilib kelar va ikkinchi oydan besh tilloliq mohonaga ham yozilg‘an edi. Bir oylar chamasi Anvarga sadoqat bilan, uning qanoti ostig‘a kirgandek ishladi. Bu orada Shahodat mufti va Kalonshoh mirzo kabilar bilan sirdosh bo‘lmasa ham tanishdi, yaqinlashdi. Boshda Shahodat muftilar uni yotsinishib uning yonida har turlik g‘iybatlarni qilishdan cho‘chidilar. Chunki mulla Abdurahmonning Anvar kishisi bo‘lishi taxmin qiling‘an edi. Ikkinchi oydan mohonaga yozilishi ham ularning o‘z andishalarida yanglishmag‘anliqlarini ko‘rsatdi. Biroq Abdurahmonning ba‘zi harakatlari, masalan mirzo Anvarning arabcha, forsiycha lafzlardan xoli, sodda tahririni nusxalarga ko‘chirar ekan – «attaomu bilo milhi» (tuzsiz osh), deb kulib

²Yohann Wolfgang Gyote .Zakovat durdonalari (olmon tilidan M.Akbarov tarjimasini). – T.: «Yangi asr avlodi», 2013 –148 b.

qo'yishi muftilarni o'ylatib qo'yar, bu ta'nani chin ko'ngildan chiqqanig'a shubhalanishni-da, shubhalanmasni-da, bilmas edilar. Shunday fursatlarda «alamzada» muftilar ham birar latifa so'zlashka tutunar, aksar, latifa mazmunini bir tarafka burib yuritar edilar. Ba'zan Shahodat mufti ishdan charchag'an kabi oh tortib, o'zicha «yamutul-asadu fil g'abobi ju'an va lahm-tayri yutrahul kilob»¹⁸⁸, desa, ikkinchi yoqdan Kalonshoh mirzo shu maqolning davomini so'zlab «va xinziru yanomu fil-firosh va ulul-uquli yanomu alat-turob»¹⁸⁹, der edi. Mulla Abdurahmon ularning kinoyasi mazmuniga tushunibmi yoki tushunmasdanmi – har holda bir iljayib qo'yar edi.



Topshiriq

6-topshiriq. Mashhur hind eposi «Kalila va Dimna»dan keltirilgan matnlarga mos maqol yoki hikmatli so'zlardan iqtibos qo'yib, ularni o'zaro moslashtiring.

Matn	Iqtibos
<p>Hasad shunday yomon xususiyatki, uning kasridan odam o'ziga ham yaxshilikni ravo ko'ra olmay qoladi. Shohlar saroyiga yaqin odamlarning ishi ig'vo, hasad, adovat, chaqimchilik va bir-birini yomonlashdan iboratdir. Kecha-kunduz ular bir-birlarining payiga tushib, bir-birlarini g'iybat qiladi. Kim iste'dodli bo'lsa, uning haqida shuncha ko'p mish-mishlar to'qiydilar...</p>	
<p>Xursandchilik barcha uchun eshigi ochiq bo'lgan odamlarga nasib bo'ladi. Yaqin do'stlar, qavm-qarindoshlar uning marhamati va yordami bilan yaxshi umr kechirib uni duo qilgaylar, muhtojlar uning eshigidan noumid va quruq qaytmagaylar, yaxshi va sodiq do'stlar hamisha uning boshidan arimagaylar... Saxiy odam qiyinchilikka tushsa, lutf-karamli, olijanob odamlar unga yordamga keladilar. Botqoqlikka</p>	

¹⁸⁸ To'ng'uz huzur qilib to'shakda uxlaydir, oqillar tuproqda yotadirlar (mual.)

¹⁸⁹ Arslon changalzorda ochliqdan jon beradir, ammo itni qush go'shti bilan boqadirlar (mual.)

botgan filni faqat filgina chiqara oladi. Aqlli odam hamisha hunar o'rganib yaxshi nom qoldirishga intiladi. U xavf ostida qolsa ham, hatto boshi tahlika ostida qolsa ham qo'rqmay yaxshilik qiladi. Chunki u bu bilan o'tkinchi dunyo o'rniga abadiylikni, ozga ko'pni xarid qilgan bo'ladi... Boshqalarga yordam qilmagan boy odam davlatmand hisoblanmaydi. Umr bo'yi yomon ishlar bilan masho'ul bo'lib xalqni ranjitadigan odamning nomi insoniylik daftariga yozilmaydi.

Sen ovchining yo'lidan chiqib o'zingni yarador ko'rsatasan. Qarg'a go'yo seni tirnab o'ldirmoqchi bo'lganday, boshingga qo'nib oladi. Ovchi seni ko'rishi bilan tutib olish niyatiga tushadi va toshbaqani yerga qo'yadi. U senga yaqinlashgan sari sen cho'loqlanib, yiqilib-turib undan uzoqlashaverasan. Lekin shoshilib juda tez qochma, aks holda, ovchi sendan umidini uzib, orqasiga qaytishi mumkin. Agar sen bir soatcha uning boshini aylantirsang, men bu muddatda toshbaqani ovchi to'rvasidan ozod qilaman.



Topshiriq

7-topshiriq. Rasm asosida tasviriy matn tuzing.

Eslatma: Matn tuzishda quyidagilarga rioya qiling.

- sarlavha tanlashga;
- matnning ichki tuzilishiga (kirish, asosiy bayon qismi, xulosa);
- abzaslarga.



Yozuvchi keksa afg'on kishilari sanalarni eslab qolishda juda sustligini aytarkan, bobosi«bu kun» uchun shaharda zilzila bo'lgan kunni tanlagani aytib hazil qiladi. Bobosi qaysi kun uchun tanlov qilmoqda ?



1- mashq. Uyga vazifa «Qog‘oz» mavzusida beshta uslubga moslab, 10ta gapdan iborat 5ta matn tuzing.

225-228-§. Matn turlari: matnning hajmiga va maqsadiga ko‘ra turlari. Insho haqida ma‘lumot. Esse – ijodiy matn



Topshiriq

1-topshiriq. Berilgan parcha matnning qaysi turiga kiradi? Javobingizni asoslang.

Bahromov qaramasa ham biladi: sayhonning narigi chetida tikanak chetan bilan ihota qilingan salqin mevazor hovli bor, hovlining egasi doim oq yaktak, oq ishton kiyadigan namozxon odam. Besh vaqt namozini kanda qilmay mana shu hovli etagida yashardi. Qo‘shnisining bu taqvodorni orqavorotdan kalaka qilishlari yoqmasdi Bahromovga. Oti Hoji buva, o‘zi saksonga borgan bo‘lsa ham, kasalxonaning yovg‘on oshini bismillosiz tushiradi.

Nazariy ma‘lumot. Ma‘lum voqelik haqida tasavvur (ma‘lumot) beradigan bir yoki bir necha sintaktik birliklardan tashkil topgan nutqiy butunlik **matn** deyiladi.

Matn og‘zaki yoki yozma nutqqa xos bo‘lishidan qat‘iy nazar, ikki xil ko‘rinishda bo‘ladi: dialogik va monologik. Dialogik matn ikki va undan ortiq shaxsning o‘zaro fikr-axborot almashinuvidan iborat bo‘lib, ikki kishi o‘rtasidagi savol-javob, xabar-e‘tiroz kabi mazmunlarni ifodalaydi.

Dialogik matn so‘zlashuv uslubi va badiiy uslubga xosdir.



1-mashq. Matn bilan tanishing. Ajratilgan ko‘rsatilgan so‘zlar uslubiyatini izohlang «Hammaning kelini **abitta** o‘tirib kashta tiksa, meniki kitobga termiladi! Olima-da! » Qudasi Qurbon kampirning ma‘rakada katta-kichikka eshittirib va atayin unga tegizib shang‘illashi Sobira xolaga og‘ir botdi. U ma‘rakadan so‘ng boshda tuguni bilan qudasinikiga o‘tdi.

– Quda, – dedi. – Mana siz kelin-kevat ko‘rgan **kayvoni** xotinsiz. Mangina shu yosh, nodon qizimni sizga topshirganmanki, bilmaganini o‘rgatar, o‘zi bovlab olar deb. Lekin, haligi, ma‘rakadagi gapingiz **teshib ketdi-da** meni, quda! Shunday dedi-yu, ovozi titrab, ko‘ziga yosh keldi. Qurbon kampir kesatig‘i qudasiga alam qilganini sezdi-da, ichidan yayrab ketdi. «O‘l-a, achitibdi-ku gapim», – deb xayolidan o‘tkazdi va yumshoq ohangda:

– Ha, endi, **og‘izning darvozasi** yo‘q, bir chiqib ketgandir-da, bunga xafa bo‘lmang, – dedi.

– To‘g‘ri, Ma‘sumaxon yaxshi, mehnatkash, qobil juvon. Kelinim bor, desa arzigulik. Odobi ham joyida. Ammo... shu, bo‘sh qoldimi, o‘quvradi-o‘quvradi... Yuraklarim siqilib ketadi, shuginaga qarab! Hoy, deyman, kelin, siz o‘zingiz bir **kolxozchi** bo‘lsangiz, o‘qib, nima, **shahar olib berarmidingiz** eringizga! Undan ko‘ra kashta tiking, ko‘rpa-yostiqlik qoplang. Bekorchidan xudo bezor, deb mundaq nasihat qilsam, bezrayib turaveradi. Miq etmay uyiga kirib yana kitobga termiladi. Ana, innakeyin menikiyam alanga oladi-da, quda! (A.Ibodinov)

Nazariy ma‘lumot. Tavsifiy (monologik) matn so‘zlovchi yoki yozuvchi tomonidan bayon etilgan voqea-hodisa, narsa yoki shaxs tasviri, tavsifi yoxud xabar, ma‘lumot bayonidir. Maqola, insho ham tavsifiy matnning bir turi sanaladi.

Ma‘lum voqea-hodisalarga, narsa va shaxslarga oid fikr-mulohaza bildirish, ularni badiiy-tasviriy vositalar yoki dalillar bilan ta‘riflash, isbotlash, asoslash tavsifiy matnga xos xususiyatlardandir.

Tavsifiy matn ilmiy, publisistik, rasmiy-idoraviy, shuningdek, badiiy uslubga xosdir.



1-mashq. Matn bilan tanishing. Tavsifiy matnga xos xususiyatlarini izohlang. Matnga sarlavha qo‘ying.

Ermon buva bahor paytlari ola sigirini yetaklab kelib qoladi. Qo‘lida

hasa, sigirining butun shoxiga tuguncha ilib qo'yilgan. O'tloqqa yetganidan keyin sigirning shoxidagi tugunchani oladi-da, o'zini qo'yib yuboradi. Belidagi qiyiqchasini tol soyasiga tashlab «bismillohu rahmonur rahim» deb maysa ustiga yonboshlaydi. Ola sigir shundoqqina uning yonida poyezddek pishillab o'tlashga tushadi. Ora-chora «shu ishim ma'qulmi», degandek egasiga qarab-qarab qo'yadi. Shunaqa yuvosh sigirki, bolalar tagiga kirib emsa ham «hoy, nima qilyapsan?» deb qayrilib qaramaydi. Dasturxonda zog'ora nonmi, arpa nonmi bo'lgan kuni hammamizga bayram. Ko'pincha unisiyam bo'lmaydi, bunisiyam. Biroq tutmayiz, albatta, bo'ladi. Tutmayizni yeb olsangiz, darrov qorningiz to'yadi. Shunaqa shirin, shunaqa mazali!

Nazariy ma'lumot. Matn ikkiga bo'linadi: ma'lumotnoma matni va ijodiy-tavsifiy matn. **Ma'lumotnoma** matnida voqea-hodisa yoki holat haqida oddiy axborot beriladi. Bunday matn obrazlilik va bo'yoqdorlikdan, badiiy-tasviriy vositalardan xoli bo'ladi. Ma'lumotnoma matnida so'zlovchi axborotni o'z nuqtayi nazarisiz, xolis bayon qiladi. Rasmiy matnlar ma'lumotnoma matniga misol bo'ladi.

Ijodiy-tavsifiy matnda dalillar so'zlovchi yoki yozuvchining shaxsiy munosabati, nuqtayi nazari asosida ifodalanadi; badiiy-tasviriy vositalar qo'llanishi mumkin. Ilmiy, publitsistik va badiiy matnlar, shuningdek, insho ham ijodiy-tavsifiy matnning ko'rinishlari.



2-mashq. O'zingiz o'qiyotgan litsey haqida avval ma'lumotnoma matni, so'ng ijodiy-tavsifiy matn tuzing.



3-mashq. Quyidagi gaplarni tartibga keltirib, insho mavzusi va rejasini hosil qiling. Rejada uning qismlari to'liq aks etsin.

Biz inshoda yoritilayotgan mavzuni bir necha qismlarga ajratishimiz, ba'zan esa ularni batafsilroq yoritish uchun bu bo'laklarning ham ichki qismlarini aniqlab olishimiz zarur bo'ladi. Natijada, murakkab reja tuzishga to'g'ri keladi. Albatta, oddiy rejada yozilgan inshoda ham kirish, asosiy qism, xulosa bilinib turadi. Lekin murakkab rejada u yaqqol ko'rinadi. Murakkab rejani tuzish oddiy rejaga nisbatan qiyinroq, lekin bu qiyinlik insho yozishni yengillashtiradi.

Bilib oling! Oddiy reja insho mavzusini bir bosqichda qismlarga ajratish bo'lsa, murakkab reja ajratilgan qismlarni yana ichki qismlarga bo'lish demakdir.



4-mashq. «Abdulla Qahhor – mohir hikoyanavis» mavzusi uchun oddiy va murakkab reja tuzing.

Inshoga epigraf tanlash

Nazariy ma'lumot. Inshoning mazmuniga mos keluvchi mashhur hikmatli so'z, maqol, ibora yoki badiiy parcha **epigraf** deyiladi. Epigraf, odatda, rejadan keyin, insho matnidan oldin, sahifaning o'ng chekkasida yoziladi. Epigraf bo'lgan matndan so'ng (so'roq yoki undov gap bo'lmasa) nuqta qo'yiladi, muallif nomi qavs ichida beriladi. Inshoda epigraf bo'lishini qat'iy talab deb tushunmaslik kerak, u tamoman ixtiyoriy. Lekin mavzu va ichki mazmunga hamohang keluvchi epigraf tanlash inshoning badiiyligiga xizmat qiladi, insho muallifining mahoratini ko'rsatadi.



5-mashq. «Men tahsil olayotgan litseyim» mavzusida reja tuzib, matn yarating.



6-mashq. Quyidagi mavzulardan biriga oddiy va murakkab reja tuzing hamda epigraf tanlang .

1. Alisher Navoiy – buyuk mutafakkir. 2. Muhammad Yusuf she'rlarida samimiylilik va haqqoniylikning tarannum etilishi. 3. Abdulla Qahhor – so'z zargari. 4. Abdulla Qodiriyning «O'tkan kunlar» romanida milliy qadriyatlar talqini.

Savol va topshiriqlar:

1. Ma'lumotnoma matni va ijodiy tavsifiy matnlarning o'xshash jihatlari nimada?
2. Ma'lumotnoma matni va ijodiy tavsifiy matnlarning farqli jihatlari nimada?
3. Insho matnining asosiy xususiyatlarini bayon qiling.
4. Darsliklardagi yozuvchilarning hayoti va ijodi haqidagi ma'lumotlar qaysi matn turiga mansub?
5. Insho qanday rejalarda yoziladi?
6. Epigraf nima? Inshoga epigraf qanday tanlanadi?

7. Barcha insholarda epigraf bo‘lishi shartmi?

8. Epigraf inshoning qaysi qismida joylashadi, unda qanday tinish belgilari qo‘yiladi?



XVIII asrda Saksoniyada bu odamlarni arkanistlar deb atashgan. «Arcanus» - lotinchada «sir» degan ma’noni beradi. Rostdan ham, ular shug‘ullanadigan soha sirlari Saksoniya qiroligini Avgust buyrug‘iga asosan hammadan yashirilgan. Diqqat savol: Ular nima bilan shug‘ullanishgan?



7-mashq. Uyga vazifa. «Men tanlagan oliygoh» mavzusida insho yozing. Sodda va murakkab reja tuzing. Mavzuni ochib beruvchi epigraf tanlang.

229-232-§. Tinish belgilari va ulardan to‘g‘ri foydalanish. Nuqta va uning qo‘llanishi



Topshiriq

1-topshiriq. Quyidagi savollarga javob bering.

1.

Tinich belgilarining ishlatilishi yozma nutq uchun ahamiyatlimi, og‘zaki nutq uchun ahamiyatlimi? 2. Tinich belgilari to‘g‘ri ishlatilmasa, bayon qilinayotgan nutqqa ta’sir qiladimi? 3. Tinich belgilari va ohangning bir-biriga bog‘liq tomoni bormi? Javoblaringizni 5-8-9 – sinflarda egallagan bilimlaringiz asosida izohlab bering.



Topshiriq

2-topshiriq. Quyidagi rasm asosida «Tabiat qo‘ynida» mavzusida kichik matn yarating. Unda tinich belgilarini to‘g‘ri ishlatib hamda izohlab bering.





Topshiriq

3-topshiriq. Tinish belgilari nechta? Ularni sanab bering. Siz umumta'lim maktablarining ona tili darsida qanday tinish belgilarini ishlatishni o'rgangansiz? Ularni misollar asosida tushuntirib bering.

Nazariy ma'lumot: Tinish belgilarini o'rganuvchi bo'lim punktuatsiyadir. Ona tilida 10 tinish belgisi ishlatiladi: vergul (,), nuqta (.), undov (!), so'roq (?), ko'p nuqta (...), qo'shtirnoq («»), ikki nuqta (:), nuqtali vergul (;), tire (-), va qavs() mavjud.

Siz uchun qiziq!

1. Nuqtaning yozuv belgisi sifatida ishlatilishi qadimgi arab manbalariga borib taqaladi.

U o'zbek tilida tinish belgisi sifatida XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab ishlatila boshlangan.

2. Vergul tinish belgisi sifatida G'arbiy Yevropada XV asrdan boshlab ishlatila boshlangan. O'zbekcha matnlarda XX asr boshlaridan boshlab uchraydi.

3. So'roq belgisining kelib chiqishini lotincha «question» – so'roq so'ziga olib borib taqaydilar. So'roq ma'nosida mazkur so'zning birinchi harfi «Q» ishlatila boshlagan, keyinchalik uning shakli hozirgi holatga (?) kelib qolgan, o'zbekcha matnlarda 1885-yildan boshlab uchraydi. 1900-yildan so'ng muntazam ishlatila boshlangan.

4. Undov belgisi o'zbek tiliga rus tilidan o'tgan. Mutaxassislarning fikricha, u lotincha «lo» – undov so'zidan kelib chiqqan bo'lib, unga nuqta (.) ning qo'shilishidan hosil bo'lgan.

5. Qavs o'zbek yozuvida XIX asrning oxirgi choragidan boshlab ishlatila boshlangan. Dastlab «Turkiston viloyatining gazetisi» da 1873-yilda ishlatilgan.

6. Ko‘p nuqta XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab o‘zbekcha matnlarda ishlatila boshlangan. 1876-yildan e‘tiboran «Turkiston viloyatining gazetida» muntazam qo‘llangan.

7. Tireni amaliyotga rus yozuvchisi N.M. Karamzin (XVIII asr) kiritgan. U o‘zbek yozuvida XIX asrning 70-yillaridan boshlab ishlatila boshlangan.

8. Qo‘shtirnoqni amaliyotga rus olimi professor A.A.Barsov kiritgan. O‘zbek yozuvida u kiritish belgisi sifatida XIX asrning 80-yillaridan boshlab uchraydi.

9. Ikki nuqta o‘zbek yozuvida XIX asrning oxiri va XX asrning boshlaridan e‘tiboran ishlatila boshlangan.

10. Nuqtali vergul o‘zbek yozuvida 1885-yildan boshlab uchraydi¹⁹⁰.



Topshiriq

4-topshiriq. Quyidagi gaplarda nuqtaning ishlatilishini izohlang.

1. Ilm ibodatdan afzal. (Hadis)
2. O‘ynab gapirsang ham, o‘ylab gapir. (Maqol)
3. Qani edi shu vaqt akang kelib qolsa.
4. Sayl. Hammayoq odamlarga to‘lib, g‘alag‘ovur, o‘yin-kulgi boshlanib ketdi. (Mirmuhsin)¹⁹¹

Nazariy ma‘lumot: O‘zbek tilida nuqta yana quyidagi o‘rinlarda ishlatiladi:

1. Ismi, otasining ismi (ba‘zan familiya ham) qisqartirilganda, ularning birinchi harfidan so‘ng. M. Behbudiy, A. Fitrat, A. Cho‘lpon kabi ijodkorlarning nomi hamisha barhayotdir.

2. Nashriyot ishlarida, lug‘at va ma‘lumotnomalarda shartli ravishda qisqartirilgan ayrim so‘zlarning birinchi harfi yoki bo‘g‘inidan so‘ng. va sh.k. (va shu kabilar); s.t. (so‘zlashuv tilida); G‘. G‘. (G‘afur G‘ulom); Nav. (Navoiy); Toshk. (Toshkent); «O‘qituvchi» nashr.; 1995-y.

3. Qo‘shma gapning birinchi qismidan so‘ng kuchli to‘xtam bo‘lsa, mantiqan biri ikkinchisiga bog‘lanmagan qo‘shma gaplar orasida ham nuqta ishlatiladi. Bunday hollarda ikkinchi gap ammo, lekin, biroq, chunki, shuning uchun

1. Jamoa. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. 1,2,3 – kitoblar. –T.: “Ilm ziyo”, 2015.

¹⁹¹ Ona tili: o‘rta maktablarning 8-sinfi uchun darslik/M.Qodirov va boshq.–T.: Cho‘lpon nomidagi NMIU, 2019

bog'lovchilari bilan boshlanishi mumkin. Bobodehqon yerga baraka urug'ini ekish bilan band. Chunki dalalarda ish qizg'in.

4. Ba'zi bir hollarda yil, oy, kunni ifodalovchi raqamlardan so'ng ham nuqta qo'yilishi kuzatiladi: 21.03.2010.

5. Butunning qismlarini sanash uchun qo'llanilgan arab raqamlaridan so'ng ham nuqta ishlatilishi mumkin. Tovushlar quyidagi turlarga bo'linadi: 1. Unli tovushlar. 2. Undosh tovushlar¹⁹².



Topshiriq 4-topshiriq. Quyidagi savollarga javob bering. Ushbu topshiriq tezkor savol-javob usulida o'tkaziladi.

1. N.M. Karamzin, A.A.Barsov, nomlari qaysi tinish belgilari bilan bog'liq?
2. 1885-yildan qaysi tinish belgilari ishlatila boshlangan?
3. Qaysi tinish belgilarining ishlatilishi arab manbalariga borob taqaladi?
4. XIX asrning oxiri va XX asrning boshlaridan e'tiboran ishlatila boshlangan tinish belgisi qaysi?
5. 1876-yildan e'tiboran «Turkiston viloyatining gazetisi» da muntazam qo'llangan tinish belgisi qaysi?
6. G'arbiy Yevropada XV asrdan boshlab ishlatila boshlangan tinish belgisini ayting.
7. O'zbekcha matnlarda XX asr boshlaridan boshlab uchraydigan tinish belgisining nomi?
8. O'zbek yozuvida XIX asrning 70-yillaridan boshlab ishlatila boshlangan tinish belgisi?



Topshiriq 5-topshiriq. Quyidagi gaplarda nuqtaning ishlatilish sababini izohlang.

1. Komil farzand bugunning sarhisobini qiladi va ertangi kun bajaradigan ishlarni rejalashtiradi¹⁹³.
2. Bo'ying teng bilan yurma, aqling teng bilan yur¹⁹⁴.
3. Hech bir yo'qotishdan qayg'urish kerak emas, faqat niyatni yo'qotishdan qayg'urish kerak.

¹⁹² Jamoa. Hozirgi o'zbek adabiy tili. 1,2,3 – kitoblar. –T.: “Ilm ziyo”, 2015.

¹⁹³ Farzandnoma. O.Mahmudov. –T.: “O'qituvchi”2018.

¹⁹⁴ O'zbek xalq maqollari.–T.: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1989.

Chunki biror xayrli ish niyatsiz durust bo‘lmaydi. (at-Termiziy)¹⁹⁵ 4. Amu-Buxoro kanali. Qaqragan ming-ming gektar yerlarga hayot suvi olib kelgan qudratli inshoot¹⁹⁶. 5. Undosh tovushlar ovoz va shovqinning ishtirokiga ko‘ra quyidagi turlarga bo‘linadi: 1. Jarangli undosh tovushlar. 2. Jarangsiz undosh tovushlar.



1-mashq.Uyga vazifa. Quyidagi rasm asosida gazeta uchun maqola yozing, unda tinish belgilarining ishlatilishiga e‘tiborli bo‘ling.

233-234-§. Vergul va uning qo‘llanishi



Topshiriq

1-topshiriq. 8-sinf darsligidan olingan quyidagi gaplarda vergulning ishlatilishiga izoh bering.

1. Faylasufning odati, axloqi ham o‘z kasbiga loyiq, xuddi tug‘madek bo‘lishi kerak. 2. Ularni, qo‘l to‘pi sportchilarini, boshqa ishlarga jalb qilmaslikka qaror qilindi. 3. Xayriyat, vaqtida yetib keldik. 4. Dunyoda hech bir xalq to‘g‘ri kelolmas, mening bilishimcha, sening elingga. 5. Kitob, sen bo‘lmasang, balki kun yorishmasdi.



Topshiriq

2-topshiriq. 9-sinf darsligidan olingan quyidagi gaplardagi tinish belgilarining ishlatilishini izohlang.

1.Kechasi yana qor yoqqan, biroq havo unchalik sovuq emas edi. (Said Ahmad)
2. Goh osmonni tutib ashula yangraydi, goh allaqayerdan garmon tovushi eshitiladi. (Oybek) 3. To‘g‘ri so‘z qilichdan o‘tkir, shuning uchun hamisha rost so‘zlashga odatlan. 4. Ruboiyni ichida o‘qidi, yuzini tabassum qopladi. (Oybek) 5. Yana uvlar dahshat shamoli, Ko‘kni qora bulut quchadi. (A.Oripov) 6. «Intilganga tole yor» , – deydi dono xalqimiz

¹⁹⁵ Farzandnoma. O.Mahmudov. –T.: “O‘qituvchi”2018.

¹⁹⁶ Ona tili: o‘rta maktablarning 8-sinfi uchun darslik/M.Qodirov va boshq.–T.: Cho‘lpon nomidagi NMIU, 2019

Nazariy ma'lumot:

O'zbek tilida vergul quyidagi o'rinlarda ishlatiladi:

- uyushiq bo'laklar orasida;
- undalmalar vergul bilan ajratiladi;
- kirish so'z va kirish birikmalarda;
- tasdiq, ta'kid, inkor va shu kabi ma'nolarni bildiruvchi ha, yo'q, rahmat, xo'sh, qani, xayr, ofarin, salom kabi so'z-gaplardan keyin kelgan bo'laklarni ulardan ajratish uchun;
- ajratilgan bo'laklar orasida;
- bog'lovchisiz qo'shma gaplarni tashkil qilgan sodda gaplar orasiga;
- a) bog'lovchisiz qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplar bir paytda ro'y bergan voqea-hodisalarni ifodalasa;
- b) bog'lovchisiz qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplar ketma-ket sodir bo'lgan voqea-hodisalarni ifodalasa;
- d) bog'lovchisiz qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplar biror voqea-hodisa, narsa-buyum yoki shaxsning tavsifini bildirsin.
- bog'langan va ergashgan qo'shma gaplar tarkibidagi sodda gaplar orasiga;
- ko'chirma gap darak, buyruq gap bo'lsa, undan so'ng.



Topshiriq

3-topshiriq. Quyidagi gaplardagi vergulning ishlatilish sabablarini izohlang.

1. Yolg'onchidan shon qolmas, nomidan nishon qolmas. (Maqol)
2. O'g'ilginam, totmagil baxil nonidan, Uzoq bo'l baxilning dasturxonidan. (Farididdin Attor)
3. G'aflat uyqusidagi kishi shijoatkor yoshlik damlarini, vaqti va zehni bo'lmag'ur ko'ngilxushlik ishlariga sarflaydi. (O.Mahmudov)
4. Umuman, bu toifaga mansub kishilar oddiy hayotda qanday umr kechirishadi?
5. Vatanga mehr qo'yishning darajasi bo'lmaydi, ya'ni biroz kam yoki biroz ortiq sevilmaydi. Chunki

Vatan yagona, Vatan bittadir. 6. O'g'lim, hozir sen bilan uyga, bobongning huzuriga, uning tabarruk nasihatlarini tinglash uchun boramiz. Bu ishing yaxshi emas, - dedi Sharifboy.



Topshiriq 4-topshiriq. «Liderlar» kanalidan olingan ushbu matnni o'qing va o'zingizga tegishli xulosa chiqaring. Matndagi vergulning ishlatilish sabablarini izohlang.

Burgutlar

Burgutlar juda uzoq, 70-80 yilgacha yashaydi. Ammo bu yoshga yetish uchun 40 yoshida judayam qiyin shartni bo'yniga olishiga to'g'ri keladi. Ya'ni bunday: 40 yoshda burgutning tirnoqlari qattiqlashib, egiluvchanligini (elastiklik) yo'qotgani sababli, o'ljasini tutolmaydigan bo'lib qoladi. Ov qilolmaydi. Tumshug'i o'sib, ko'ksiga qarab qayriladi. Qanotlari qariydi, og'irlashadi. Patlari qalinlashib, uchish mashaqqatga aylanadi. Bu holatda burgut ikki yo'ldan birini tanlashga majbur: yo o'lim yoki yangidan hayot boshlash uchun azobli va juda og'ir o'tadigan yuz ellik kunlik muddat.



Burgut ikkinchi yo'lni tanlasa, tog' tepasidan, baland qoyadan uya vazifasini o'taydigan munosib joy topadi. Keyin tumshug'ini qoya devoriga qattiq-qattiq ura boshlaydi. Nihoyat tumshug'i uzilib tushadi. Bir muddat kutgandan so'ng, o'sib chiqqan yangi tumshug'i bilan tirnoqlarini uzib tashlaydi. To yangi tirnoqlar o'sib chiqquncha, og'ir va qalin patlarini yuladi. Azob va matonat bilan o'tgan besh oy burgutga yana yigirma yil, balki undan ham uzoqroq hayot kechirishiga yo'l ochadi. Besh oydan keyin burgut mashhur yangidan tug'ilish parvozi uchun qanot qoqadi!..

...Ba'zan insonlarga ham burgutlardek yo'l tutish zarur bo'ladi. Ya'ni shaxs sifatida bizni orqaga tortadigan, maqsadlarimiz yo'lini to'sadigan qora xotiralar, odatlar; jamiyat sifatida rivojlanishga faqat xalaqit beradigan urflar, an'ana nomini olgan yangilish tushunchalardan voz kechishga to'g'ri keladi. Oson bo'lmaydi, lekin

bir narsa dilga umid beradi – bu qiyinchiliklar yana-da baland, yana-da shavqli, zafarli parvozlarga yo‘l ochadi!

(Nigora Umarova)



Topshiriq

5-topshiriq. Quyidagi hikmatni o‘qib chiqing va hayotda unga amal qilishni o‘rganing. Zarur o‘rinlarga vergullarni qo‘yib chiqing, so‘ngra izohlang.

Baraka nimada?

Bir kishi boy qo‘lida besh dirham pul evaziga ijarachi bo‘lib ishlashi topgan puli hech nimaga yetmayotganidan Imom Shofi‘iyga shikoyat qildi. Hazrat boyning oldiga borib ish haqini besh dirhamdan to‘rt dirhamga tushirishni so‘ra deb tavsiya berdilar. Boyagi kishi hayron bo‘lsa ham buyruqqa itoat etdi. Biroq ozgina vaqt o‘tganidan keyin yana qaytib keldi holati yaxshi tomonga o‘zgarmaganini aytdi. Imom Shofi‘iy bu safar to‘rt dirhamni uch dirhamga kamaytirish zarur dedi. Bechora kambag‘al qanchalik g‘alati tuyulmasin maslahatga amal qildi. Oradan hech qancha o‘tmay haligi kishi xursand holda Shofi‘iyning oldiga keldi. Tavsiyalari uchun imomga minnatdorchilik bildirib uch dirham hamma ehtiyojlariga yetayotganini aytdi va bu ishning sirini so‘radi. Hazrat avvalda besh dirham evaziga qilayotgan ishi aslida uch dirhamlik ekanini qolgan ikki dirham uning haqqi emasligini aytdi. Birovning haqqi bo‘lgan o‘sha ikki dirham halol mehnat bilan topilgan uch dirhamga aralashib uning ham barakasini yo‘qotayotganini tushuntirdi.

(«**Hikmatlar xazinasini**» kanalidan)

1- mashq. Uyga vazifa. Yuqorida berilgan nazariy ma’lumotning har biriga misollar yozing, tinish belgilarning ishlatilishini asoslab bering.





Topshiriq **1-topshiriq.** Gaplarda tire nima uchun ishlatilganligini izohlang?

Baxillikning otasi – kibr, onasi – hasad. Do‘stlari – yolg‘onchili, nodonlik, johillik, yalqovlik¹⁹⁷



Topshiriq

2-topshiriq. Ushbu matndagi tirening ishlatilish sabablarini izohlang.

Dedim: – Otani nima ado qiladi?

Dedi: – Uch narsa: bolasining bevaqt o‘limi, noqobil farzand va keksaygan chog‘ida ahli ayoli hamda zurriyotlaridan mehr-oqibat ko‘rmaslik.

Dedim: – Nima ko‘ngilni yuksaltiradi?

Dedi: – Uch narsa: farzandi tufayli el-ulus oldida hurmatining yanada oshishi; nabirasida farzandiga bergan tarbiyaning namoyon bo‘lishi hamda zurriyotlarining quvonchiga sheriklik¹⁹⁸...



Topshiriq **3-topshiriq.** Berilgan gapdagi tirening ishlatilish sabablarini izohlang.

Bu ishing yaxshi emas, – dedi Sharifboy. – Bolalarni avval o‘qitib, keyin «prava» berish kerak, oshna!¹⁹⁹



Topshiriq **4-topshiriq.** Quyidagi gaplarning bir-biridan farqini ayting.

Kimki mehnatning zo‘rini qidirsas, ana shu odamning sarasidir.

Kimki mehnatning zo‘rini qidiribdi – odamning sarasi ana shu²⁰⁰.

^{197,301,302} Farzandnoma. O.Mahmudov. –T.: “O‘qituvchi”2018.

Nazariy ma'lumot: O'zbek tilida tire quyidagi o'rinlarda ishlatiladi:

Dialoglardagi har bir gapning boshida, bog'lamasiz qo'llangan ot kesim bilan ega orasida, uyushiq bo'laklardan keyin kelgan umumlashtiruvchi so'zdan oldin, muallif gapi bilan ko'chirma gap orasida, ma'lumot mazmunidagi asosiy gapdan so'ng tartib bilan sanalgan har bir gap boshida, bog'lovchisiz qo'shma gaplarda ikkinchi gapning kesimi tushirilsa, ayrim so'z yoki gaplar izohlansa, ularning o'rtasida, bog'lovchisiz qo'shma gaplar tarkibidagi sodda gaplar orasida, kirishlar va ajratilgan bo'laklarda, tenglik, taqqoslash va hokazo ma'nolarni bildiruvchi so'zlar orasida, nashr, kitobot ishlarida²⁰¹.



Topshiriq

5-topshiriq. Berilgan gaplarning barchasida tire ega va ot kesim orasida qo'yilgan. Siz bilimingizga tayanib uning ishlatilish sabablarini izohlang.

1. Tiriklikning sir-u asrori – ilm.
2. Bu – o'sha bolaning ishi.
3. Birinchi bo'lish – ham og'ir, ham sharaflı, ham mas'uliyatli.
4. Qalb – bu quvonch-u dard to'la ummon.
5. Maqsadim – eng yaxshi mutaxassis bo'lish.
6. Vatan gadosi – kafan gadosi.
7. Ikki o'n besh – bir o'ttiz.

Nazariy ma'lumot: Ajratilgan bo'lakli murakkab sodda gaplarda tire quyidagi o'rinlarda ishlatiladi:

– **Ajratilgan bo'lak gapning oxirida kelsa, undan oldin**²⁰². Masalan, Kechqurun osh suzsak, bir nasiba kam, Qo'msayman birovni – allakimimni. (G.G'')

– **Ajratilgan bo'lak uyushiq bo'lak shaklida bo'lib gapning o'rtasida kelsa, uning ikki tomoniga qo'yiladi.** Masalan, Sakkiz, to'qqiz yoshida butun-butun asarlarni – ilmiy, falsafiy, she'riy – zavqqa berilib mutolaa qilar edi. (O)

–**Ajratilgan bo'la uyushiq bo'lak shaklida bo'lib gapning oxirida kelsa, undan oldin:** sakrab tushdi shunda tuyadan, Karvonboshi – berahm, nodon...(E.R.)

²⁰⁰ Abdurahmonov G', Rustamov H. Ona tili: 10-sinf uchun darslik.–T.: "O'qituvchi", 2003.

²⁰¹ Jamoa. Hozirgi o'zbek adabiy tili. 1,2,3 – kitoblar. –T.: "Ilm ziyo", 2015

²⁰² Abdurahmonov G', Rustamov H. Ona tili: 10-sinf uchun darslik.–T.: "O'qituvchi", 2003.

– Ajratilgan bo‘lak birikma shaklida bo‘lib gapning oxirida kelsa. Masalan, So‘zi e‘tiborli, ahdi vafoli, ajoyib bir xalqsan – topilmas tengi. (G‘.G‘)



Topshiriq 6-topshiriq. Tirening qo‘llanish sabablarini izohlang.

1. Said Jalolxon tovush chiqarmay uning yoniga o‘tirdi – u ko‘rmadi. 2. Ariqlar chiqardik – yovlar quritdi. 3. Davlat tinch – sent inch. 4. Doston aytdim – kitob bo‘ldi. 5. Sabrlining boshiga olma bitar, sabrsizning boshiga – g‘avg‘o²⁰³.



Uyga vazifa. «Internet yoki kitob» mavzusida quyidagi rasm asosida esse yarating, unda vergul va tirening ishlatilishiga alohida e‘tibor qarating.



Topshiriq 1-

Berilgan matndagi



topshiriq.

ikki nuqtaning



237-238-§. Ikki nuqta va uning qo‘llanishi

qo‘llanish sabablarini tushuntiring.

Sayyoh so‘radi : – Dunyodagi eng go‘zal narsa nima?

Qo‘nalg‘a dedi: – Qalb go‘zlalligini kashf etish. Chunki u har qanday shubha, gumon, razolatdan xoli bo‘lgan haqiqatdir, ya’ni betakror go‘zallikdir.²⁰⁴



Topshiriq 2-topshiriq. Quyidagi gaplarda zarur o‘rinlarga ikki nuqta qo‘ying va izohlang.

1. Bu ikki xislat saxovat va himmat kishidan gina va hasadni quvadi, xulq-atvorida xushfe‘llikni paydo qiladi, unga beg‘arazlikni hamroh etib, hiylakor

²⁰³ O‘zbek xalq maqollari.–T.; Adabiyot va san‘at nashriyoti, 1989.

²⁰⁴ Farzandnoma. O.Mahmudov. –T.: “O‘qituvchi”2018.

dushmanni yiroqlashtiradi²⁰⁵. 2. Yoz oxirida kechalari salqin, kunduzlari issiq bo‘ladi tun paytida shabada tog‘dan salqain va rohatbaxsh havo keltiradi²⁰⁶.

Nazariy ma’lumot: Yozma nutqda ikki nuqta quyidagi o‘rinlarda ishlatiladi:

- Shaklan tugallangan, lekin mazmunan keyingisi birinchisining uzviy davomi sanalgan bog‘lovchisiz qo‘shma gaplardan so‘ng. Ya’ni bog‘lovchisiz qo‘shma gap tarkibidagi keying sodda gap oldingi sodda gapning mazminini izohlab kelsa, oldingi sodda gapdan so‘ng;
- Ko‘chirma gapdan oldin kelgan muallif gapidan so‘ng.
- Uyushiq bo‘laklardan oldin kelgan umumlashtiruvchi so‘zdan keyin.
- Reja, mavzu, qaror qilindi kabi so‘zlardan so‘ng.
- Uslubiy ravonlikni, muxtasarlikni ta’minlash maqsadida turli xil rasmiy ma’lumotlarda, nashr ishlarida ayrim so‘zlardan keyin.
- Sport musobaqalarida raqiblar o‘rtasidagi hisobni ifodalash uchun olingan ochkolar yoki kiritilgan gollarning nisbatini belgilash uchun .



Topshiriq

3-topshiriq. Quyida berilgan gaplardagi ikki nuqtaning ishlatilishi nazariy ma’lumotda berilgan qaysi bandga mos. Uni daftaringizga yozing va izohlang.

1. Sizning qilayotgan ishingiz yomg‘irga o‘xshaydi: har bir tomchisi don undiradi.
2. Mo‘ysafiddan yana so‘rashdi: –Insondan nima qoladi? 3. Dono Qobilga quyidagilarni nasihat qildi: so‘z malhami, odamzod mehr-u muhabbati, hayotiy tasodiflar. 4. Tayanch so‘z va iboralar: shartlilik, jonlilik, inversiya, ellipsis, diplomatik munosabatlar... 5. I.A.Karimovning «O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari» asarini o‘qib chiqib muhokama qildik.

²⁰⁵ Farzandnoma. O.Mahmudov. –T.: “O‘qituvchi”2018.

²⁰⁶ Abdurahmonov G‘., Rustamov H. Ona tili: 10-sinf uchun darslik.–T.: “O‘qituvchi”, 2003



4-topshiriq. Quyidagi gaplarning zarur o‘rinlariga ikki nuqta qo‘ying va izohlang.

1. Oltmishga kirib bildim umrim bekorga o‘tmabdi²⁰⁷. 2. Shuni biling biz sizni also ranjitmaymiz. 3. Abu rayhon beruniy shunday yozadi Inson hayvondan aql bilan farq qiladi. 4. Ko‘p mevalar yong‘oq, olma, olcha va do‘lana tog‘dan keladi. 5. Dam olishga hamma narsani tayyorlab qo‘ydik sochiq, shaxmat-shashka, koptok, hatto, igna-ipgacha. 6. «Ma‘rifat» ro‘znomasining manzili 700085, Toshkent. Matbuotchilar ko‘chasi, 32.



5-topshiriq. Quyidagi rasm asosida matn yarating, unda nuqta, vergul, tire va ikki nuqtaning ishlatilishiga e‘tibor qarating. Matningizga sarlavha qo‘yishni unutmang.



Uyga vazifa. O‘qigan badiiy asarlaringiz, gazeta va jurnallardan ikki nuqtaning ishlatilish o‘rinlariga misollar yozing va uni izohlang.

²⁰⁷ Ona tili va adabiyot. 2019 – yil. Test topshiriqlari to‘plami/ davlat test markazi. -Toshkent: Davr Press, 2019.



1-topshiriq. Matnni o'qing. So'roq belgilarning qo'yilish sabablarini izohlang. Ohangiga e'tibor bering.

– Vey, bu hunarni qaydan o'rgangansan, palakat? Juda zo'r ekansan-ku.

Tolibjon undan, to'rvangda nima bor, deb so'raganda u ohaktosh bilan tomatdan bo'shagan banka, keyin picha kirsovun bor deb javob berdi.

– Iya, bularni nima qilasan?

Bola juda bilag'onlik bilan zo'r ish qilmoqchiligini bildiradigan harakat qildi.

– Buloq tepasidagi katta qoratoshga otimizni nimada yozamiz? Ohakni bankaga solib, tepasiga sovun yaproqlar solamiz, keyin suv quysak vaqirlab qaynab ketadi. Qatiqqa o'xshab oppoq atala bo'ladi, o'sha bilan toshga hammamizning otimizni yozaman.

(Said Ahmad)



So'roq belgisi va qo'llanish holatlari

So'roq belgisining kelib chiqishini lotincha «**questio**» – so'roq so'ziga olib borib taqaydilar. So'roq ma'nosida mazkur so'zning birinchi harfi «Q» ishlatila boshlagan, keyinchalik uning shakli hozirgi holatga (?) kelib qolgan, o'zbekcha matnlarda 1885-yildan boshlab uchraydi. 1900-yildan so'ng muntazam ishlatila boshlangan .

Hozirgi o'zbek adabiy tilida so'roq belgisining qo'llanishi quyidagicha:

1. So'roq mazmunidagi gaplar qanday vositalar yordamida shakllangan bo'lishidan (so'roq olmoshlari, so'roq-taajjub yuklamalari, so'roq intonatsiyasi va sh.k.) qat'i nazar, ularning har qanday ko'rinishi oxiriga so'roq belgisi qo'yiladi: Umringda necha marta asal yegansan?(A.Q.)
2. So'roq mazmuni ifodalangan sodda gaplarning ham, qo'shma gaplarning ham oxiriga so'roq belgisi qo'yiladi: Esingizdami, bir marta ikkalamiz yalpiz tergan edik? (O'.Umarbekov). U qanday qo'llarkim, uzalar, hidlalar, yanchalar? (She'rdan)

Ammo gapda kuchli his-hayajon mavjud bo'lganda, so'roq belgisidan keyin undov belgisi ham qo'yiladi: Qachon jilovlab qo'yiladi bu ig'vogar, g'alamislar-a?! Qachon bartaraf bo'ladi bu anonimchilar-a?! (T.Murod)

3. Ritorik so'roq gaplar oxiriga, asosan, so'roq belgisi qo'yiladi: Biron orzusi bo'lmagan, biron narsaga intilmagan odamning mushukdan nima farqi bor? (A.Qahhor).

4. Kim? nima? qanday? qanaqa? qaysi? kabi so'roq olmoshlaridan so'ng.



1-mashq. Rasm asosida «Kutubxonada» mavzusida matn tuzing. So'roq belgisining qo'llanilishini izohlang.



Undov belgisi va qo'llanish holatlari

Undov belgisi o'zbek tiliga rus tilidan o'tgan. Mutaxassislarning fikricha, u lotincha «**do**» – undov so'zidan kelib chiqqan bo'lib, unga nuqta (.) ning qo'shilishidan hosil bo'lgan.

Undov belgisi gap oxirida qo'llanuvchi tinish belgilariga kiradi. Undov belgisi, o'z tuzilishiga ko'ra ikki elementli tinish belgisidir. Undov belgisi badiiy asarlarda

(ayniqsa, poeziyada, lirik asarlarda) ko‘p qo‘llanadi: yozma nutqdagi turli tuyg‘ular, holatlar, har xil emotsionalliklarni ifodalashda undov belgisining roli katta.

Masalan: Qanday go‘zal, bu olam!

Hozirgi o‘zbek tilida undov belgisi takroriy, oddiy va murakkab qo‘sha (birgalikda) qo‘llanish xususiyatiga ega: undov belgisi bir o‘rinda uch martagacha takroriy qo‘sha qo‘llana oladi. Masalan: **Seni unutilmas yuragim aslo,**

Ey, O‘rta Osiyo, O‘rta Osiyo!!!

Undov belgisining qo‘llanish holatlari:

1. Undov gaplar oxiriga undov belgisi qo‘yiladi: «Birodarlar, mashina deganlari temir! Joni yo‘q! Joni yo‘q temir odamga el bo‘lmaydi! »

2. Tarkibida his-hayajonni kuchaytiradigan **qanday, qanchalik, qanaqa, naqadar, muncha, bunchalik** kabi so‘zlar mavjud bo‘lgan gaplar oxiriga undov belgisi qo‘yiladi: Mana, farg‘onacha kurash. Buyam o‘zimizniki! Demak, ikkita kurashimiz bor ekan! Qanday yaxshi! Boylik, boylik!

3. His-hayajon kuchli bo‘lgan ritorik so‘roq gaplar oxiriga ba‘zan undov belgisi qo‘yiladi: Ona o‘z bolasiga yomonlikni ravo ko‘radimi! (A.Qahhor). Qiladigan kasbingiz tappi yopish bo‘lsa, nafaqangizni oshirib bo‘ladimi! (T.Murod)

4. Buyruq, talab, undash emotsional shaklda buyruq maylidagi fe‘l yoki boshqa vositalar orqali ifodalangan buyruq gaplar oxiriga undov belgisi qo‘yiladi:

Shukur qiling! Sevining! Mundoq bir kuling! Kulimsirang! Iljaying! (Cho‘lpon)

5. His-hayajon intonatsiyasi bilan talaffuz qilingan nominativ gaplar oxiriga undov belgisi qo‘yiladi: Shunday go‘zalga musht ko‘tarish! (O.Yoqubov) Ammo bu og‘riq, bu xo‘rliklarga chidamoq! (E.A‘zam).

6. Undovlar alohida gap vazifasida kelganda, undan keyin undov belgisi qo‘yiladi: Oh! U yoqda xo‘rladilar, bu yoqda kaltakladilar. (R.Haydarova) Hoy! Ovqatlaringdan darak bormi? (O‘.Umarbekov) Obbo! Yana kutarkanmiz-da! (O‘.Umarbekov) Kisht! Kisht-ye, qirilibgina ketgur!.. (Sh.Boshbekov). Hay-hay! Qarang, ana qarang! - deya ko‘zlarini katta-katta ochdi Mamat bobo. (T.Murod)


7. Salomlashish-xayrlashish, tabrik, minnatdorlik, tashakkur, uzrxohlik, ma'qullash, rag'batlantirish kabi muomala odatlarini bildiradigan gaplarda ham kopincha emotsionallik yorqin ifodalanadi va ularning oxiriga undov belgisi qo'yiladi: Men ketdim! Xayr! (O'.Hoshimov) Xayriyat! (Bu kimsasiz orolda bittagina insofli tirik odam bor ekan!) (T.Malik) Ofarin, ofarin! - deya, boshini sarak-sarak qildi Mamat bobo. (T.Murod) Ha, Momoqizning oldiga, ha! - dedi. (T.Murod)

8. Gapda emotsionallik darajasining behad ortiq ekanligini ko'rsatish uchun ba'zan gap oxiriga birdan ortiq (uchtagacha) undov belgisi qo'yilishi mumkin: Ha- a- a!!! Sen hali meni uyingdan haydayapsanmi?! Meni-ya?! (T.Murod)

9. Undov gaplar sarlavha vazifasida qo'llanganda ham ularning oxiriga undov belgisi qo'yiladi: Qutlug' bo'lsin! (A.Qodiriy, «O'tkan kunlar» boblaridan biri). Xayr endi, Ra'no! (A.Qodiriy, «Mehrobdan chayon» boblaridan biri). Og'zingga qarab gapir! (Abdulla Qodiriy maqolasi nomi). Bozor surishtirmaydir! (Abdulla Qodiriy maqolasi nomi)



2-mashq. Rasm asosida «Bog'imda bahor!» mavzusida matn tuzing. Undov belgisining qo'llanilishini izohlang.



KO'P NUQTA

Ko'p nuqta quyidagi o'rinlarda qo'yiladi:

1. Fikrning tugallanmaganligi, so'zlovchining yana nimanidir aytmoqchi ekanligini ko'rsatish uchun (fikrning davom ettirilmasligi odatda so'zlovchining hayajonlanishi, o'z fikrini to'liq ifodalashga botina olmasligi yoki gapning biror sabab bilan bo'linishi tufayli ro'y beradi): «Bilmayman, degan edingiz. Yana shuni aytdingizki...» Shu payt adyutant kirib, polkovnikka bir qog'oz uzatdi (A.Q.)

2. Baʼzan koʻp narsa soʻzlovchining oʻylashi, mulohaza qilishini koʻrsatadi: Qoʻziyev (miyigʻida kulib).

3. Biror soʻz yoki gapning tushirilganini koʻrsatish uchun : ...Yudaxin familiyali bir rus kishi... rus boʻlishiga qaramay, hamma usta – mardikorlar bilan... oʻzbek tilida soʻrashib chiqdi. Asli: Yodimda, shiypon tagiga gʻisht terilayotganda, Yudaxin familiyali bir rus kishi dadamni soʻrab keldi va rus boʻlishiga qaramay, hamma usta – mardikorlar bilan « horma, bor boʻl» qilib, oʻzbek tilida soʻrashib chiqdi. (H. Qodiriy. «Otam haqida»)



Topshiriq 1-topshiriq. Berilgan misollarda koʻp nuqtaning qoʻllanish sabalarini izohlang.

1.– Manavi dub eshiklaringizni yelkamda tashib kelganman. Tushundingizmi?

2....Bolaligimni eslasam, ilq yoz kechalari koʻz oldimga keladi. (Oʻ) 3. Hay-hay, ukam, shundoq baobroʻ odamsizni koʻrgani kelsa-yu, siz xursand boʻlish oʻrniga... (A.A).4.–Xurshida bonu?... Siz ... Sizmu? 5. Poyezdga bilet olib qoʻygan boʻlsak, poezd uch soatdan keyin ketsa... (A.Q). 6. ...Bolam...Muzaffarim yigit boʻpqopti. Moʻylovi sabza uribdi. Ovozi doʻrillab qolibdi... (Oʻ.Hoshimov).

KOʻP NUQTA, UNDOV VA SOʻROQ BELGILARINING BIRIKKAN HOLDA KELISHI

Murakkab mazmun ifodalangan gaplarda undov belgisi bilan soʻroq belgisi, undov belgisi bilan koʻp nuqta va soʻroq belgisi bilan koʻp nuqta koʻpincha birikkan holda keladi.

1. Undov va soʻroq belgisi birikkan holda kelishi (!?) aslida soʻroq mazmunidagi gap boʻlib, soʻroq mazmuniga qaraganda his-hayajon kuchli gaplardan soʻng qoʻyiladi: Qani bu yerda insof, bu yerda adolat degan narsa!? (H. H.)

2. So‘roq va undov belgisi birikkan holda (!) kuchli his-hayajon, taajjub bilan aytilgan so‘roq gaplardan so‘ng qo‘yiladi: Jamiki kambag‘al xalq qo‘lni-qo‘iga berib, yaktan bo‘lib tursa, kimning haddi bor mardikor olishga?!(O.)

3. Undov belgisi va ko‘p nuqta birikkan holda(!...) mazmunan tugallanmagan hamda kuchli his-hayajon ifodalangan o‘rinlarda qo‘llanadi: Uyatni bilasizmi!...

4. So‘roq belgisi va ko‘p nuqta birikkan holda (?...) mazmunan tugallanmagan so‘roq gaplardan so‘ng ishlatiladi: Ayb kimda?... Ayb nimada? Yoki yer yomon mi?... (U)



NUQTALI VERGUL

Nuqtali vergul quyidagi o‘rinlarda qo‘llanadi:

1. O‘z ichida verguli bo‘lgan yoyiq uyushiq bo‘laklar orasida:

Mehnat, ijod, odam sharafi;

Dil yorug‘i, hayot quvonchi.

2. O‘z ichida verguli bo‘lgan, mazmunan ma’lum darajada mustaqillikka ega sodda gaplar orasida hamda har xil turdagi gaplarni o‘z ichiga olgan qo‘shma gaplar orasida: Zunnunxoja, Siddiqjonning tarafini oigan bo‘lib, kampirga qarab kovush otdi; Siddiqjonga nimadir demoqchi bo‘lib og‘iz ochgan qizini bir tarsaki urdi; so‘ngra Siddiqjondan o‘pkalab, mayin tovush bilan gap boshladi. (A.Q.)



3- mashq. // belgisi o‘miga kerakli tinish belgisini, nuqtalar o‘rniga kerakli harflarni qo‘yib ko‘chiring. Nima sababdan tire yoki ikki nuqta qo‘yilishini izohlang.

1. Biz bir bog‘ning devo...larini pana qilib oldik // ko‘rmay qoldilar. (O.) 2. Men yigirma yildan ortiq Alisherga qarshi harakat qildim // Ne ishlar qilganim sizga ma’lum // Alisher// yuragi toza odam . (O.) 3. It huradi// karvon o‘tadi. (Y.) 4. Omadimiz ke...gan ekanmi, yo qur... tit...shni sog‘inib qolgan ekanmizmi// biram bo‘li... berdi, qani endi terib t...mom qilsak. (A. Q.)




4- mashq. Tinish belgilarining qo‘yilish sababini izohlab bering. Har bir fan olimpiadasi g‘oliblaridan qanday ruhlanishingiz, o‘zingizning tuman, viloyat, shahringizdagi fan olimpiadalari g‘oliblari haqida nimalarni bilishingizni aytib bering.

Fanimiz fidoyisi



1999-yil, 11-aprelda tug‘ilgan, NDPI akademik litseyning 2018- yil bitiruvchi Dildora Yarashova Anvar qizi 2018- yilda IV bosqich fan olimpiadasidan Ona tili va adabiyot fanidan g‘olib bo‘lgan. Ustozi Hamidova Feruza Ergashboyevdan bergan ta‘limi uchun juda minnatdor. Ustozi va



ota- onasiga shunday qizni tarbiyalagani uchun rahmat. Biz Dildoraning ona tili va adabiyotimizning fidoyisi bo‘lishidan umidvormiz.

(Muallifdan)



5- mashq. Tegishli tinish belgisini (vergul, tire, ikki nuqta) qo‘yib ko‘chiring.

1. Bir soat o‘tar-o‘tmas hovli supurildi so‘rda xontaxta va dasturxon tuzaldi hovli yuziga suvlar sepildi hovuz bo‘yi xontaxta ustiga chiroqlar o‘rnatildi (O.M)
2. Yoshmiz xunuk bedavo emasmiz tentak emasmiz albatta baxtni qolga kiritamiz. (T.)
3. Ahmadjon yotgan yerida birpas ashulaga qo‘shildi-yu keyin bo‘lmadi adirga chiqib ketdi. (A. Q.)
4. Birlashgan yovni qaytarar. (Maqol)
5. Ko‘rdingmi burgutning bolasiga o‘xshaydigan yovqur zabardast yigit. (K)

QAVS



1. Ifodalanayotgan fikrga yoki uning biror bo‘lagiga qo‘shimcha izoh beruvchi so‘z yoki iboralar qavsga olinadi: Viktor (Lizaning ukasi) ishchi yoshlar maktabini, kichkina Liza bilan Karomat (bunisi Salomat xolaning qizi) ikkinchi smenada o‘qishadi. (Asq. M.)

2. Qavsdan oldingi tinish belgilari (vergul, tire, ikki nuqta, nuqtali vergul) qavsdan keyinga ko‘chiriladi: Erkaklarning biri – markaziy gazetaning muxbiri, ikkinchisi – injener (Mavlonbek uni Fyodor Makarovich der edi. U qiz esa Moskvada institutni bitirib, hozir shu injenerning qo‘lida tajriba ko‘rib yurgan ekan). (A.Q.)

3. Kirish gaplar yoki remarkalar qavsga olinadi:

Maryamxonim (yigiab): Majburiyat keltirdi meni! (H. H.)

4. Misol yoki ko‘chirmaning manbayini ko‘rsatadi: Oh, Hirot, Hirot!(O.)

«Turkona uslub» (Navoiy) turkiy tillarga xos uslubdir. Otam «Mirzo» va «G‘ulom» taxalluslari bilan talay she‘rlar yozgan. (G‘.G.)

5. Izoh ma‘nosidagi so‘z yoki iboraga oid tinish belgilar qavsning ichiga olinadi:

Bu yerlarda u, kuychi, xayolchan yurdi,

(Bolalikdan chanqoqdi bilimga, kuyga!)

Fikrida ne-ne go‘zal rejalar qurdi. (O.)

QO‘SHTIRNOQ



Qo‘shirnoq quyidagi o‘rinlarda qo‘yiladi:

1. Ko‘chirma gaplarni ajratib ko‘rsatish uchun: «O‘quvchilar, – dedi o‘qituvchi, – ertaga muzeyga boramiz».

2. Ayrim so‘z va so‘z birikmalari ham qo‘shirnoqqa olinishi mumkin. Qo‘shirnoqqa olingan bu xil so‘zlar ko‘chma ma‘noda yoki kinoya ma‘nosida qo‘llanishi, shartli nom yoki taxallus bo‘lishi mumkin: Metallurglar to‘pni yana «dushman» darvozasiga qarab haydab ketdilar. (Asq. M.)

Eslatma. Agar qo‘shirnoqqa olinishi zarur bo‘lgan so‘z turlovchi qo‘shimchaga ega bo‘lsa, bu qo‘shimchalar qo‘shirnoqdan keyin qo‘yiladi: ... erining «kirdikori»dan xabardor bo‘lganday o‘smoqchiladi Shakarxon. (H. N.)



6- mashq. Tinish belgilarini qo‘yib ko‘chiring. Nima sababdan qo‘shimoq yoki qavsning qo‘llanishini izohlab bering.

1. Men nima qila olaman doktorning o‘zi yaxshi biladi dedi Solijon Manzuraning oldida janjal bilan ovora bo‘lib qolganiga o‘ng‘aysizlanib. (Asq. M.)
 2. G‘abitxon ham kitobxon edi. Abay uning kitoblari orasidan o‘zini qiziqtiradigan ko‘p asl narsalarni topdi. Bular Firdavsiy, Nizomiy, Fuzuliy, Navoiy, Bobur asaridan Jamshid Saidbattol yozgan kitoblar edi. (M. A.)
 3. Shodmon aka kulib Umid xo‘jaligining a‘zolarini ko‘rsatib mana shu yigitlar menga hech tinchlik berishmay qo‘ydi dedi. (Sh.)
 4. Uning mehribonchiligidan ta‘sirlanib titroq tovush bilan qulluq rais dedi. (ti. G\)
- www.ziyouz.com kutubxonasi



7- mashq. Kerakli tinish belgilarini qo‘yib ko‘chiring. Nima sababdan u yoki bu tinish belgisi qo‘yilishini izohlang.

1. Sobir jangda mehnatda qotgan dag‘allashgan barmoqlaridan handalak sharbatini shir-shir oqizib xursand qichqirdi: O jonim Farg‘ona oq oltinim bog‘im (O.)
2. Nur qo‘ynida erkin suzdim oh qanday huzur (H. P.)
3. Uning o‘n besh yoshlar chamasida bir o‘g‘li bor edi u bizga juda o‘rganib qolganidan har kuni bir bahona bilan kelib turar edi.
4. Qiz barvaqt turar kun bo‘yi mutolaa qilari edi imtihonlarning deyarli hammasini a‘lo darajada topshirib bo‘ldi.



8- mashq. Berilgan matnni o‘qing. Shaxmat haqida nimalarini bilasiz? Qaysi shaxmat chempionlarining turnirlarini kuzatgansiz? Navoiylik Barchinoyning yutuqlari sizga qanday ta‘sir qildi. Fikrlaringiz bilan o‘rtoqlashing.

Mo‘jiza mehnatda



Insoniyat o‘z tarixi davomida ko‘plab mo‘jizalarga duch kelib yashaydi. Aniqroq qilib aytganda, ular o‘z onglari mahsuliga



mo'jizadek qarashga o'rganishgan. Har bir kashfiyot kashshofning yillar davomida zarrama-zarra yig'gan ilmining, mashaqqatli mehnatining aksidir.

Ham go'zallig-u nafosat, ham aql sohibasi Barchinoy Shokirjonova endigina 7- sinfda o'qiyotganligiga qaramasdan, allaqachon yurtimiz faxriga aylanib ulgurgan. U 2007-yilning 25-aprelida Navoiy viloyatida tavallud topgan. Farzandning ilk yutug'i bu - ota-onaning unga, uning orzulariga ishonishi, oiladagi to'g'ri tarbiya, ilmga bo'lgan qiziqish, maqsadni aniq belgilash. Barchinoyning birinchi ustozlari-onajonisi Hulkar opaning mehnatlari bugun o'z natijasini ko'rsatmoqda. Barchinoy ham o'z erishayotgan yutuqlari, intilishlari haqida so'rganlarga, barchasiga asosiy sababchilar: ota-onasi hamda ustozlarining ishonchi va ko'magi ekanligini bot-bot ta'kidlaydi.

Hali maktabga bormasdan oq shaxmat o'ynashni boshlagan qahramonimiz 10 yoshidayoq Osiyo chempionatida o'zining birinchi – katta g'alabasini qo'lga kiritgan edi. Hozirgi kunda Barchinoy O'zbekiston terma jamoasi a'zosi, 8 karra O'zbekiston chempionidir .Shu bilan birga, 2017-yili Toshkentda bo'lib o'tgan Osiyo chempionatida sovrindor bo'ldi. 2018-yil ham Barchinoyga omadli keldi: Rossiya Federatsiyasining Sochi shahrida bo'lib o'tgan Jahon chempionatida faxrli 2-o'rinni qo'lga kiritdi. 2019-yilda esa maktab o'quvchilari o'rtasidagi Osiyo chempionatida 20 dan ortiq davlatdan kelgan yuzlab ishtirokchilar orasida 3-o'rinni egalladi. Hozirgi kunda shaxmatchimiz Batumi shahrida bo'lib o'tadigan Jahon chempionatiga tayyorgarlik ko'rmoqda.

Hayotda har bir bola o'z iqtidori bilan tug'ilishi hech shubhasiz. Faqatgina buni o'z vaqtida anglab olish va to'g'ri yo'naltirish kerak, xolos. Qanday qilib degan savolga esa, shunchaki, ishonch, harakat va ilm deb javob bermoq joiz, menimcha.

(Xamidova F)



1- topshiriq. Matndagi tinish belgilarining qo'llanish sababini izohlang.



8- mashq. Tinish belgilarini qo‘yib ko‘chiring. Har bir tinish belgisining qo‘yilish sababini aytib bering.

ONA TILI

Paxtakor xalqimizning dilidek jo ‘shqin
Bahordek ilhombaxsh ona tilimsan
O ‘zbekcha she’r o‘qir Lermontov Pushkin
Tuganmas xazina bitmas bilimsan
Navoiy g‘azalin har bir satrida
Nafosat go‘zallik shu tilga xosdir
Shunchalar qudrat bor so‘zning atrida
Har bir so‘z durdona yoki olmosdir...

ASOSIY ATAMALAR LUG‘ATI

Aniqlovchi – hokim bo‘lakdan anglashilgan predmetning belgisini yoki uning kimga qarashli ekanini bildiruvchi bo‘lak.

Buyruq gap – buyurish, da’vat qilish mazmunini bildiruvchi gap.

Darak gap – xabar, darak mazmunini bildiruvchi gap.

Dialog – ikki kishi o‘rtasidagi suhbat.

Ega – kesimga bog‘lanib, kim? nima? qayer? so‘roqlariga javob bo‘luvchi bosh bo‘lak.

Esse –erkin kompozitsiyali, uncha katta bo‘lmagan nasriy asar.

Gap – ohang va fikr tugalligiga ega bo‘lib, kesimlik shakllari orqali ifodalanuvchi so‘z yoki so‘zlar qo‘shilmasi.

Hol – kesimga bog‘lanib, uning belgisini bildiruvchi bo‘lak.

Ibora – ma’nosi bir so‘zga teng keladigan ko‘chma ma’nodagi so‘zlar qo‘shilmasi.

Istak gap – istak, xohish mazmunini bildiruvchi gap.

Kesim – gapning mazmuniy markazi.

Kiritma – so‘zlovchining o‘zi bayon etayotgan fikrga bo‘lgan turli munosabati

Ko‘chirma gap – o‘zgalarning aynan keltirilgan gapi.

Monolog — badiiy asar komponentlaridan biri bo‘lib, asarda ishtirok etuvchi shaxslarning o‘z-o‘ziga, o‘zgalarga qaratilgan nutqi.

Morfologiya – so‘z turkumlari va ularning xususiyatlarini o‘rganuvchi tilshunoslik bo‘limi.

Mustaqil so‘zlar – atash ma’nosiga ega bo‘lgan, so‘roqqa javob bo‘ladigan, sintaktik vazifa bajaradigan so‘zlar.

Punktuatsiya – tinish belgilari haqidagi tilshunoslik bo‘limi.

Sintaksis – so‘zlarning bog‘lanishi, gap va uning turlarini o‘rganuvchi tilshunoslik bo‘limi.

So‘roq gap – so‘roq ma’nosini bildirgan gap.

So‘z birikmasi – ikki va undan ortiq so‘zlardan birining ikkinchisiga tobelanishi natijasida hosil bo‘lgan so‘zlar qo‘shilmasi.

Takroriy so‘z – bir asosning takrorlanishidan hosil bo‘lgan so‘zlar qo‘shilmasi.

Tasviriy ifoda – narsani aniq atamay, tasvirlash uchun qo‘llangan so‘zlar qo‘shilmasi.

Tezis – (yun. thesis — qoida, isbot) — 1) keng ma’noda — baxeda yoki biror nazariyani bayon qilishda aytilgan har qanday fikr; tor ma’noda — asosiy fikr, prinsp; 2) mantiqda isbot qilishni talab etuvchi fikr, mulohaza.

To‘ldiruvchi – hokim bo‘lakka kelishik qo‘shimchalari yoki ko‘makchilar orqali bog‘langan bo‘lak. Undalma – so‘zlovchining nutqi qaratilgan shaxs yoki narsani bildiruvchi bo‘lak.

Undov gap – buyurish, yalinish, do‘q-po‘pisa mazmunini bildirgan gap.

Uyushiq bo‘lak – gapda bir xil so‘roqqa javob bo‘lib, bir xil vazifa bajarib keluvchi bo‘laklar.

Yordamchi so‘zlar – atash ma’nosini anglatmaydigan, so‘roqqa javob bo‘lmaydigan va sintaktik vazifa bajarmaydigan so‘zlar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Rahmatullayev Sh. O'zbek tili omonimlarining izohli lug'ati. –T.: “O'qituvchi”. 1984. 216 b. 152-b
2. Mengliyev B. , Xoliyorov O' . , Abdurahmonova N. O'zbek tilidan universal qo'llanma. 6-nashr. –T.: Akademya nashri”.2018.
3. Odam.uz sayti
4. A.Qodiriy "Mehrobdan chayon".- T.: "Sharq" 2004.
5. 239 Bolalar uchun ensiklopediya. Dunyo mo'jizalari. Toshkent: "Davr nashriyoti" 2013
6. 241 O'zbek tilining imlo lug'ati. –T.: “O'qituvchi”. 2013.
7. Ad.:Rashid-Din, Sbornik letopisey, t.1, kniga 2, [Perevod s pers. yaz. O. I. Smirnovoy], M.—L.,1952; Bartold V. V., Sochineniya, t.1, M.,
8. Mirzo Ulug'bek, To'rt ulus tarixi, T., 1994.
9. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi (2000- 2005)
- 10.Mulohazalashamiz telegram kanali
- 11.<https://azon.uz/content/views/non-ichidagi-tilla-haqida-rivoyat>
- 12.Hojiyev A. O'zbek tili sinonimlarining qisqacha lug'ati. –T.: “O'qituvchi”.1963.
- 13.<https://saviya.uz/>
- 14.[https://uz.wikipedia.org/wiki/ Ochiq ensiklopediya](https://uz.wikipedia.org/wiki/Ochiq_ensiklopediya)
- 15.O'zbek tilining izohli lug'ati. 5 jildli. A.Madvaliyev tahriri ostida. –T.: “O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi”. 2005-2008. Izohli lug`at II tom
- 16.<https://n.ziyouz.com/>
17. www.ziyouz.com kutubxonasi
- 18.G'ani Abdurahmonov, Hasanali Rustamov Ona tili. 1997 y
- 19.264 Ma'rufov A. Paronimlar lug'ati. –T.: “O'qituvchi”. 1974.
- 20.O'zbek tilining izohli lug'ati. 5 jildli. A.Madvaliyev tahriri ostida. –T.: “O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi”. 2005-2008.

21. O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi”. 2005-2008.
22. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. A. NURMONOV, N. MAHMUDOV, A. SOBIROV, Sh. YUSUPOVA. T.2013
23. Xurshid Davron. Shahidlar shohi yoxud Najmiddin Kubro tushlari. Ma’rifiy qissa <https://kh-davron.uz/>
24. Ona tili va adabiyot. 2019-yil. Test topshiriqlari to‘plami.–Toshkent.: Davr Press,2019.
25. “Farzand tarbiyasi” kanalidan.
26. “Falsafiy asarlar” kanalidan.
27. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Sh. Shoabdurahmonov va boshq. Toshkent.: “O‘qituvchi”, 1980-y.
28. Ma’rufov A. Paronimlar lug’ati. –T.: “O‘qituvchi”. 1974.
29. Mirtojiev. Hozirgi o‘zbek tili. Toshkent. “O‘qituvchi”, 1992-yil.

MUNDARIJA

1-2-§.. Sintaksis. So‘zlarning grammatik bog‘lanishi. Teng va tobe bog‘lanish.....	5
3-6-§. Tobe bog‘lanishning tuzilishi. Tobe bo‘lakning hokim bo‘lakka kelishik yoki ko‘makchilar yordamida bog‘lanishi.....	10
7-10-§. Tobe bog‘lanishda qaratqich kelishigi va egalik qo‘shimchalarining qo‘llanishi. Nutqda qaratqich va tushum kelishiklaridan o‘rinli foydalanish.....	13
11-14§. Tobe bo‘lakning hokim bo‘lakka bog‘lanish yo‘llari.....	17
15-16-§. Otli va fe‘lli so‘z birikmalari, ularning fodalanihi.....	22
17-20-§. So‘z birikmasining qo‘shma so‘z va gapdan farqi.....	25
21-22-§. Matndan so‘z birikmalarini ajratish va tahlil qilish. Matnli testlar bilan ishlash.....	30
23-26-§ Gap bo‘laklari. Kesimning ifodalanishi va uning turlari.....	35
27-28-§. Ega va uning ifodalanishi.....	40
29-30-§. Ega va kesimning shaxs va sonda moslashuvi. Ega bilan kesim orasida tirening ishlatilishi.....	45
31-32-§. Hol, uning turlari va ifodalanishi.....	48
33-34-§. To‘ldiruvchi, uning turlari va ifodalanishi.....	55
35-36-§. Aniqlovchi, uning turlari va ifodalanishi.....	59
37-38§. Gap bo‘laklarining kengaygan birikmalar va iboralar bilan ifodalanishi.....	63
39-40§. Gap bo‘laklarining tartibi: odatiy tartib va o‘zgargan tartib.....	67
41-42-§. To‘liq va to‘liqsiz gaplar.....	72
43-48-§. Uyushiq bo‘lakli gaplar uslubiyati. Uyushiq bo‘laklarning shakllari va ularda bog‘lovchi vositalarning qo‘llanishi.....	75
49-69-§. Bosh va ikkinchi darajali bo‘laklarning uyushib kelishi. Uyushiq bo‘lakli gaplarda umumlashtiruvchi so‘zlar va tinish belgilarining qo‘llanishi.....	79
70-88-§. Ajratilgan bo‘lakli gaplar uslubiyati. Ajratilgan bo‘lakli gaplarda tinish	85

belgilarining qo‘llanishi. Ajratilgan va uyushiq bo‘laklarning bir biridan farqi.	
Matndan ajratilgan bo‘lakli gaplarni aniqlash.....	
89-110-§..Undalma. Undalmada so‘zlovchi sub’yektiv munosabatining aks etishi...	89
111-126-§. Kiritmalar uslubiyati. Sodda kiritmalar.....	94
127-128-§.Kiritmalar uslubiyati. Murakkab kiritmalar.....	97
129-130-§.Undalma va kiritmalarda tinish belgilarining qo‘llanilishi.....	100
131-132-§. Gapning ifoda maqsadiga ko‘ra turlari. Darak gaplar va ularning uslubiy xususiyatlari.....	104
133-134-§.So‘roq gaplarning uslubiy xususiyatlari	109
135-136-§. Buyruq va istak gaplarning uslubiy xususiyatlari	112
137-138-§. Gaplarning his-hayajon ishtirokiga ko‘ra turlari.....	117
139-140- §. Gap va uning belgilari. Gapning tuzilishiga ko‘ra turlari. Sodda gaplar..	120
141-142-§. Eganing ishtirokiga ko‘ra sodda gaplarning turlari. Egasi ma’lum va egasi umumlashgan gaplar.....	123
143-144-§. Egasi noma’lum gaplar.....	127
145-146-§. Atov gaplar va so‘z-gaplar.....	130
147-148-§.Sodda yig‘iq va sodda yoyiq gaplar. Murakkablashgan sodda gaplar....	133
149-150-§. Sodda gapni sintaktik tahlil qilish. Tahlil tartibi.....	135
151-152-§.Qo‘shma gaplar. Qo‘shma gap qismlarini bog‘lovchi vositalar.....	138
153-154-§. Qo‘shma gap turlari. Bog‘langan qo‘shma gaplar uslubiyati.....	143
155-156-§.Ergashgan qo‘shma gaplar va ularning uslubiyati	145
157-158-§. Ergashgan qo‘shma gaplar va sodda gaplar orasidagi ma’nodoshlik.....	148
159-§. Bog‘lovchisiz qo‘shma gaplar va ularda tinish belgilarining ishlatilishi.	
Vergul va nuqtali vergulning ishlatilishi.....	151
160-§. Bog‘lovchisiz qo‘shma gaplarda ikki nuqta va tirening ishlatilishi.....	154
161-162 – §. Qo‘shma gaplar orasidagi sinonimiya.....	157
163-166 – §.Murakkab qo‘shma gaplar.	159

167 –168- §.. Qo‘shma gaplar bo‘yicha tahlil. Test topshiriqlari ustida sihlash.	163
169-170 – §.. Badiiy uslubga xos matnni o‘qish, undan gaplarning tuzilishiga ko‘ra turlarini aniqlash.....	167
171-172- §. Rasmiy uslubga xos matnni o‘qish, undan gaplarning tuzilishiga ko‘ra turlarini aniqlash.....	174
173–174- §. Sodda va qo‘shma gaplar bo‘yicha savol va topshiriqlar ustida ishlash..	179
175-178 – §. Ko‘chirma gaplarni o‘zlashtirma gaplarga aylantirish uslubiyati	183
179-180 – §.. Matn ustida ishlash. Matndan ko‘chirma gaplarni aniqlab ularni o‘zlashtirma gaplarga aylantirish.....	186
181-188-§. Nutq odobi. Nutqiy muloqot va nutq madaniyati. Madaniy nutq haqida tushuncha. Ifodali o‘qish.....	190
189-194-§.. Nutqning to‘g‘riligi, aniqligi, mantiqiyliigi.....	196
195-200-§. Nutqning jo‘yaliligi, sofligi, boyligi, ifodaliligi	204
201-210-§. Nutq texnikasi – nutqiy madaniyatning muhim belgisi. Urg‘u, talaffuz texnikasi. Monologik matn tuzish.....	217
211-224- §.. Matn va uning turlari. Matn va iqtibos. Matn tuzish. Matn ustida ishlash.....	227
225-228-§. Matn turlari: matnning hajmiga va maqsadiga ko‘ra turlari. Insho haqida ma’lumot. Esse – ijodiy matn.	233
229-232-§. Tinish belgilari va ulardan to‘g‘ri foydalanish. Nuqta va uning qo‘llanishi.....	237
233-234-§. Vergul va uning qo‘llanishi.....	241
235-236-§. Tire va uning qo‘llanishi	244
237-238-§. Ikki nuqta va uning qo‘llanishi	247
239-250-§. So‘roq va undov belgilari. Ularning qo‘llanilishi	249
ASOSIY ATAMALAR LUG‘ATI.....	260

ONA TILI

N.S.Sulaymonova, T.X. Xoljo‘rayev, O.S. Usmanova, S.Y. Gazibekova,
M.Yu. Karimova, S.R. Botirova, F.H. Namozova

Muharrir: Sulaymonova Nafisa

Texnik muharrir: Saparova Guljanat

Kompyuterda sahifalovchi: Alixonov Ismoil

Toshkent – 2023